FALSAFA VA E'TIQOD:
O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI
V-JILD

PHILOSOPHY AND FAITH:
PAST, PRESENT AND FUTURE

International Scientific and Practical Conference
PROCEEDINGS
Volume - 5

ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА:
ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Международная научно-практическая конференция
МАТЕРИАЛЫ
Том - 5

23-24-aprel, 2025

"FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI

Tashkiliy qo'mita raisi:

G'.I. Muxamedov	Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.
S.B. Qorayev	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.
D.B. Axmadjanov	O'quv ishlari bo'yicha prorektor.
O.A. Ortiqov	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.
S.X. Gayupova	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.
R.A. Ikramov	Gumanitar fanlar fakulteti dekani.
L.K. Axatov	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri.

Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:

Madalimov T.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Jo'rayev H.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Koshanova N.M.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Tashmetov T.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Karshiyev Sh.S.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Neshitov P.Yu.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Xaytmetov R.K.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Muhammadiyev L.G.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Nafasov A.K.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Eronov S.Q.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Saidusmanov B.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Usmanov A.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Sunnatov T.R.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Tuganova L.Dj.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Toshtemirov R.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Ilmurodova f.Sh.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Yo'ldoshev U.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Abdullayeva D.N.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Sa'dullayeva M.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Xolmo'minov G.B.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Miraxmedova Sh.N.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Yakubov X.M.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Imomova U.I.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Tadjibayeva R.O.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Umarova Sh.B.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Yursinboyev J.M.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Nurmanov Sh.J.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Abdullayev T.S.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Maxkamov D.Sh.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Ilyosov Sh.B.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Burliyev U.K.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli professor-o‘qituvchilar, muhtaram mehmonlar, aziz tadqiqotchilar va yosh izlanuvchilar!

Sizlarni Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi tashabbusi bilan tashkil etilgan **“Falsafa va e’tiqod: o‘tmish, bugun va kelajak”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyamizda ishtirok etayotganingiz bilan qutlayman!!!

Falsafa — insoniyat tafakkuri va madaniyati taraqqiyotida chuqur ildiz otgan, insonning olam, jamiyat va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini tushunishga intiladigan yuksak ilmdir. U o‘tmishda ham, bugun ham, kelajakda ham jamiyat taraqqiyotining ma’naviy va aqliy tayanchi sifatida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va tezkor global o‘zgarishlar davrida falsafa insonning ma’naviy qadriyatlarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlashda, yosh avlodda yetuk dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi konferensiyamizda turli ilmiy maktab va qarashlar, tarixiy falsafiy meros, Sharq va G‘arb falsafasining o‘zaro ta’siri, shuningdek, milliy falsafiy tafakkurning zamonaviy jarayonlardagi o‘rni muhokama etiladi. Ushbu fikrlar almashinuvi nafaqat ilmiy salohiyatni oshiradi, balki yangi izlanishlarga ham ilhom bag‘ishlaydi.

Ushbu konferensiyada qatnashib, o‘z bilim va fikrlarini baham ko‘rayotgan barcha muhtaram ishtirokchilarga minnatdorlik izhor etaman. Faol ishtirokingiz uchun rahmat aytaman va tadbirimiz barchamiz uchun samarali, mazmunli va ilmiy jihatdan foydali bo‘lishini tilab qolaman.

Shu o‘rinda, konferensiya tashkilotchilariga, ilmiy ishlarni tashkil qilishda mehnat qilgan barcha o‘qituvchilar va talabalarimizga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning sa’y-harakatlaringiz bizga yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Barchaga muvaffaqiyat tilayman va bugungi konferensiyaning samarali o‘tishiga ishonch bildiraman!

Rahmat!

Hurmat bilan, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori*
G‘.I. Muxamedov

RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM SHAROITIDA “RAQAMLI KONTENT YARATISH” AMALIYOTI

Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich, TDPU, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu tezisda qqamlashtirilgan ta’lim sharoitida o‘quv amaliyoti va uning axamiyati va “Raqamli kontent yaratish” amaliyotini tashkil etishning maqsad va vazifalari va unga o‘yiladigan talablar yoritilgan.

Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida o‘quv amaliyoti- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtiruvchi ta’minot sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida bilish, dunyoqarashni kengaytirish qobiliyati va iste’dodini taraqqiy ettirish an’anaga aylangan. Bu an’anani avlodlarga yetkazish barkamol oliy ma’lumotli mutaxassis o‘qituvchiga bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini oshirish va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘quv amaliyoti muhim rol o‘ynaydi. O‘quv amaliyoti o‘quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa pedagogika soxasidagi tahsil olayotgan talabalarning pedagogik tayyorgarlik faoliyatini shakllantirishida, kasbiy tajribasini orttirishda o‘ziga xos xos o‘rinni egallaydi. Bu borada Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligini 2021 yil 16 iyuldagi 311- sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston uzluksiz ta’limining davlat ta’lim standartlari, Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti” ning 1-ilovasida qo‘yidagilar aks ettirilgan:

Ta’lim oluvchilar kasbiy ko‘nikmalarni mukammal egallashi uchun o‘quv rejalar va muayyan fanlarning o‘quv dasturlarida o‘quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart. Amaliyotlar bakalavriat ta’lim jarayonining majburiy qismi bo‘lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o‘tkaziladi:

o‘quv-tanishuv amaliyoti - iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma’lumot to‘plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot - kasb ta’limi yo‘nalishlari uchun qo‘llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Biz tatqiq etayotgan amaliyot - oliy ta’limning bakalavriat bosqichi ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo‘yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish va amaliy masalalarni yechishga o‘rgatish maqsadida o‘tkaziladi. Bu amaliyot DTSdagi ishlab chiqarish amaliyotga mos keluvchi amaliyot hisoblanadi. Shu maqsadda bo‘lajak

o‘qituvchilar egallashi va amaliyotda foydalanishi uchun kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi malaka talablari va o‘quv rejalariga kiritilgan 3 kurslardagi ishlab chiqarish amaliyotini raqamlashtirilgan ta’lim sharoitiga moslashtirish maqsadga muvofiq. Chunki xar bir ta’lim muassasi raqamli texnologiyalarga tranformatsiya qilinayotgan bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatida raqamli kontentlar yaratish va ulardan foydalangan xolda yosh avlodga zamonaviy raqamli texnologiya vositalari asosida ta’lim tarbiya berishni yo‘lga qo‘yish lozim. Bu esa barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun tashkil etiladigan 2 haftalik ishlab chiqarish amaliyotida raqamli kontentlar yaratishni o‘rganish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu amaliyotni shartli ravishda “Raqamli kontent yaratish amaliyoti” deb ataladi va u Web-texnologiyalarga asoslangan holda tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Ta’lim tizimida raqamli kontent - bu raqamli qurilmalar (kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar)da foydalanish uchun maxsus kanallar orqali elektron tarzda tarqatiladigan o‘rgatuvchi, nazorat qiluvchi, mashq qildiruvchi axborot texnologiyalariga asoslangan materiallar to‘plami. Zamonaviy raqamli kontentning asosiy turlari matnli, o‘yinli, video va audioli didaktik materiallardir.

Raqamli kontent yaratish murakkab jarayoni hisoblanib, kontent turlarini yaratish uchun mo‘ljallangan dasturlardir. Bunday dasturlarga didaktik materiallar yaratuvchi turli amaliy dasturlar, ovoz va video yozish dasturlari va boshqa dasturlar majmuasini kiritish mumkin.

Raqamli kontent yaratish amaliyotining maqsad va vazifalari.

Raqamli kontent yaratish amaliyoti bo‘lajak o‘qituvchilarning umummetodologik, kasbiy, ixtisoslik fanlari: pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi va axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash fanlari bo‘yicha olingan nazariy bilimlarini kasbiy faoliyatda qo‘llay olish bo‘yicha dastlabki ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Raqamli kontent yaratish amaliyotining maqsadi quyidagilardan iborat:

- bo‘lajak o‘qituvchilarda avvalgi bosqichlarda egallagan nazariy bilimlarini kasbiy faoliyatga qo‘llash bo‘yicha dastlabki tasavvurlarini, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida amal qilayotgan meyoriy hujjatlar, davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ommaviy axborot vositalarida uzatilayotgan o‘quv didaktik audio, videodarslarni kuzatish va tahlil qilish, darslik bo‘yicha mavzularga oid elektron ta’lim resurslarini yaratish ko‘nikma va malakalarini egallash.

Amaliyotni o‘tkazishdan maqsad – raqamli kontent yaratish bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarga dastlabki kasbiy ko‘nikma va malakalarini, tasavvurlarini integrativ qo‘llash orqali shakllantirishdan iborat.

Raqamli kontent yaratish amaliyotni o‘tkazishning vazifasi – talabalarda kasbiy faoliyatida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘z mutaxassislik fanlariga oid elektron ta’lim

resurslarini yaratish ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Raqamli kontent yaratishda talabalar bilimiga qo‘yiladigan talablar:

o‘z mutaxasisligi bo‘yicha maktab, akademik litsey va professional ta’limda o‘qitiladigan fanlarining mazmunini, ilmiy metodik asoslarini puxta egallagan bo‘lishi; pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi va axborot texnologiyalari fanlari bo‘yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi; darslarini loyihalash bo‘yicha dastlabki tasavvurlarga ega bo‘lishi; tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash, o‘tkazish va ularning samaradorligini aniqlashni bilishi zarur.

Raqamli kontent yaratish amaliyoti oldingi bosqichlarda egallangan umummetodolok, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan bevosita aloqadorlikda bo‘lib, kelajakda malakaviy amaliyotni tashkil etishda va kabiy faoliyatida raqamli kontentlar yaratish va undan foydalanish bo‘yicha pedagogik mahoratini, kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishda, kurs va malakaviy bitiruv ishlarini yuqori saviyada bajarishiga yaqindan yordam beradi.

Amaliyotning hajmi. Taklif etilayotgan raqamli kontent yaratish amaliyoti o‘tkazish davri 2-4 xaftani tashkil etib, 60-120 soatni tashkil etishi va 3 kursning 6 semestrida tashkil etish maqsadga muvofiq. Amaliyotni o‘tkazishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish va ulardan unumli foydalanishga o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Xususan, hamkorlikda o‘qitish, muammoli o‘qitish kabi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish imkoniyatlari bilan tanishtirish zarur.

Raqamli kontent yaratish amaliyotini tashkil etish. Raqamli kontent yaratish amaliyoti axborot texnologiyalari soxasi mutaxassislari tomonidan tashkil qilinib, o‘quv rejasida ko‘rsatilgan muddatda amalga oshiriladi. Raqamli kontent yaratish amaliyoti Web-texnologiyalarga asoslangan holda raqamli kontent yaratishga mo‘ljallangan kompyuter xonalarida tashkil etiladi. Unda amaliyot rahbari tomonidan raqamli kontent yaratish bo‘yicha dasturiy maxsulotlar o‘rgatiladi va o‘z mutaxasisligi bo‘yicha mavzulashtirilgan raqamli kontent yaratishga e’tibor qaratiladi. Raqamli kontent yaratish amaliyoti bo‘yicha beriladigan topshiriqlarni har bir talaba yakka tartib beriladi.

Raqamli kontent yaratish amaliyotini informatsion-uslubiy ta’minoti.

Raqamli kontent yaratish amaliyotini tashkil qilishda Web-texnologiyalar, zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (videokonferensiya, mediata’lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalaridan foydalanish zarur. Amaliyot davomida talabalar o‘z kasbiy yo‘nalishiga mos umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida amal qilayotgan meyoriy hujjatlar(davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari, darsliklari) asosida topshiriqlar (raqamli kontent yaratish) bajarishni ko‘zda tutadi.

Raqamli kontent yaratish amaliyotida o‘rganiladigan va topshiriqlarni bajarish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minoti:

iSpring, va MyTestX, Hot Potatoes, AutoPlayMedia, Camtasia Studio, Google Disk va boshqa darsturlar

Raqamli kontent yaratish amaliyoti mazmuni (talabalarning xarakat rejasi):

1. Raqamli kontent yaratish dasturlari bilan tanishish va ularda ishlash ko‘nikmasini hosil qilish
2. Mavjud bo‘lgan raqamli kontentlar bilan tanishish va taxlil qilish.
3. O‘z mutaxassisligi bo‘yicha mavzularni tanlash va mavzu bo‘yicha raqamli kontent yaratish loyihasini ishlab chiqish
4. Individual topshiriqlar asosida mutaxassislik faniga oid elektron ta’lim resurslarini yaratish

Taklif etilayotgan dasturlar yordamida fan mavzulariga oid raqamli kontentlar (testlar, glossariy, mediakataloglar, videomateriallar yaratish) yaratish.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida” 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori,
2. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” 2021-yil 16-iyuldagi 311-son buyrug‘i

Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг қизиқишлари, лаёқатига мос касбга йўналтиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш механизмлари

Мамадалиев Абдикамал Абдираҳимович

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ўқувчиларни касбга йўналтириш бўлими бошлиғи

Тел.: +998903338646

Электрон почта манзили: abdukamol2031@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада бугунги кунда умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларнинг қизиқишларини аниқлаш, уларни касбга йўналтириш борасида олиб борилаётган ишлар, эришлган натижалар, мавжуд муаммолар ва амалга оширилиши лозим бўлган вазифалар ёритилган. Тадқиқот жараёнида ўқувчиларни қизиқишларини аниқлаш ва касбга йўналтириш бўйича Германия, Буюк Британия, Россия давлатлари тажрибалари ўрганилган. Ўрганиш ва таҳлил натижалари асосида Ўзбекистон учун мос бўлган янги электрон тизим – “Индивидуал ташхислаш тизими”ни яратиш таклиф этилган. Тизим орқали ўқувчиларнинг қизиқишларини

аниқлаш, уларни касбга йўналтириш бўйича тизимли мониторинг олиб бориш кўрсатилган. Мазкур платформани ишга туширишда эришиладиган натижалар баён этилган.

Калит сўзлар: умумий ўрта таълим мактаби, касб-ҳунарга йўналтириш, платформа, ташхислаш, меҳнат бозори.

Аннотация. В данной статье в современных общеобразовательных школах освещается работа, проводимая по определению интересов учащихся, ориентирование их на профессию, достигнутые результаты, существующие проблемы и задачи, которые необходимо выполнить. В ходе исследования был изучен опыт Великобритании и России в определении интересов студентов и направлении их в профессию. По результатам изучения и анализа было предложено создать новую электронную систему, подходящую для Узбекистана – «Система индивидуальной диагностики». Через систему обозначен систематический контроль за определением интересов студентов и направлением их в профессию. Также полностью указаны результаты, которых можно достичь при запуске данной платформы.

Ключевые слова: общеобразовательная школа, профориентация, платформа, диагностика, рынок труда.

Annotation. In this article, today's general secondary education schools highlight the work carried out to determine the interests of students, guide them to the profession, the achieved results, the existing problems and the tasks to be performed. In the course of the research, the experiences of Great Britain and Russia were studied in determining students' interests and directing them to the profession. Based on the results of study and analysis, it was proposed to create a new electronic system suitable for Uzbekistan - "Individual diagnosis system". Systematic monitoring of determining students' interests and directing them to the profession is indicated through the system. The results that can be achieved when launching this platform are also fully specified.

Keywords: general secondary school, career guidance, platform, diagnosis, labor market.

Ўзбекистонда ёшлар 7 ёшдан 18 ёшгача бўлган даврда умумий ўрта таълим муассасаларида таълим ва тария олади. Бу даврда ёшлар шахс бўлиб шаклланади. Олам ва одам тушунчаларининг моҳиятини англайди. Ҳаёт учун зарур билимларга ва кўникмаларга эга бўлади. Келажакда қайси соҳа вакили бўлиш, қайси касбларни эгаллаш зарурлигини англаб етади. Ўқувчиларга соҳалар ва касблар тўғрисида билимлар бериш, уларнинг қизиқишлари, лаёқатини ўрганиб, уларга мос касблар хақида ахборот бериш бугунги кунда умумий ўрта таълим тизими олдида турган энг мухим вазифалардан биридир.

Юртимизда 10 160 та умумий ўрта таълим мактабларида 6,3 миллион нафардан ортиқ ўқувчилар таълим-тарбия олмоқда. Уларнинг 2,6 миллиондан ортиғи бошланғич синфларда, 3,7 миллиони 5-11-синфларда ўқийди.

Бугунги кунда замоанвий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда ўқувчиларларининг қизиқишларини аниқлаш орқали уларга индивидуал ёндашув асосида касбга йўналтириш бўйича замонавий онлайн платформа яратиш зарурияти вужудга келмоқда. Тадқиқот жараёнида айнан шундай платформа (kasb.maktab.uz) ишга туширилди. Платформа орқали ўқувчиларнинг темпераменти, интелектуал, эмоционал ривожланиши, истедоди, қизиқишлари ўрганилиб, уларга мос бўлган касбларни тавсия этиш, мазкур касблар тўғрисида маълумотлар бериш, замонавий касбларни ўргатиш бўйича онлайн ўқув курсларини ташкил этиш назарда тутилган.

Бугунги кунда дунё аҳолисининг қарийб 20 фоизини ёшлар ташкил қилади. Ўзбекистонда бу кўрсаткич 60 фоиздан ортиқроқ. Юртимизда аҳоли сони кундан кунга кўпайиб бормоқда. 2024 йилда аҳолимиз 37 млн.га (2024 йил 1 апрель холатига 36,963,262 нафар) етди. Доимий аҳоли сонинг 31.1 фоизини меҳнатга лаёқатли ёшдан кичиклар, 58,0 фоизини меҳнатга лаёқатли ёшдагилар, 10,9 фоизини меҳнатга лаёқатли ёшдан катталар ташкил этмоқда. Бирлашган миллатлар ташкилотининг 2022 йилда ўтказган тадқиқот натижаларига кўра Ўзбекистон таълим индекси бўйича дунёнинг 189 та мамлакатлари орасида 80-ўринни эгалламоқда. Қўшни далатлар орасида Тожикистон (101-ўрин), Афғонистон (177-ўрин) давлатларидан юқори ўринга эга бўлсада, Туркманистон (77-ўрин), Қирғизистон (76-ўрин), Қозоғистон (36-ўрин) давлатларидан ортда эканлигини кўрсатмоқда.

Тадқиқот натижасида яратилган **Ўқувчиларнинг қизиқиш ва қобилиятларини аниқлаш, уларнинг келажакда муносиб касб эгаси бўлишларига кўмаклашишга қаратилган электрон “Индивидуал ташхислаш тизими” (kasb.maktab.uz) ягона платформаси** бўйича нуфузли, илғор давлатларнинг тажрибалари ўрганилиб, улар томонидан амалга оширилган ишлари таҳлил қилинган. Ўрганиш ва таҳлил натижасига кўра янги тизим орқали ўқувчиларнинг қизиқишларини аниқлаш, уларни касбга йўналтириш, келгусида ҳаётга тайёрлашнинг янги инновацион ечимларини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилди.

Тадқиқот натижасида яратилаётган тизимда қуйидагилар устувор йўналишлар сифатида қабул қилинди:

- ўқувчиларнинг касб-ҳунарга бўлган қизиқиш ва қобилиятларини аниқлаш;
- умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларини касб-ҳунарга йўналтириш;
- мактаб битирувчиларига келажак касбини танлашда кўмаклашиш;

- битирувчи синф ўқувчилари учун давлатимизда ва бутун жаҳонда актуал касблар тўғрисидаги маълумотлар базасини яратиш;
- ўқувчиларнинг интелектуал ривожланиши ва эмоционал ҳолатини мониторинг қилиш;
- ўқувчиларнинг ижтимоий фаоллиги (жиноятга мойиллик даражаси, суицид ҳавфи, зўравонлик ва тазйиқ)ни аниқлаш;
- ўқитувчи ва ўқувчларга тезкор онлайн психологик ёрдам кўрсатиш;
- касб-ҳунарга йўналтирувчи ягона электрон платформани мавжуд платформалар билан интеграция қилиш, статистик маълумотлар ойнасини яратиш ҳамда доимий мониторинг қилиш;
- ўқувчи шахснинг келажакда етук мутахассис бўлиб етишиши ҳамда ундаги тегишли ижтимоий ва касбий сифатларнинг шаклланишига замин яратиш.

Платформадан фойдаланиш жараёнида умумий ўрта таълим мактаблари, фарзанд тарбияси учун бевосита масъул бўлган ота-оналар ҳамда билвосита масъул бўлган кенг жамоатчилик билан ҳамкорликда қуйидаги вазифаларни амалга ошириш зарурияти вужудга келади:

- Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларини психологик ҳамда IQ-тестлар ўтказиш орқали касбга йўналтириш;
- Битирувчи синф ўқувчиларини давлатимизда ва бутун жаҳонда актуал касблар (“Касблар Атласи”) тўғрисидаги маълумотлар билан таништириш;
- Республика бўйлаб умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларининг касбга йўналтиришга оид маълумотларини тизимлаштириш ва мониторинг қилиш;
- Касбий қизиқиш ва қобилиятларига кўра, мос тўгарак ёки онлайн таълим манбаларига йўналтириш орқали етук шахсларни тарбиялаш.

Ўқувчиларни касбга йўналтириш ишларини ташкил этишда 4 та асосий компонентларга алоҳида эътибор қаратиш зарур.

1. Ўқувчиларга замонавий касблар ҳақида тушунчалар бериш.
2. Ўқувчилар қизиқишлари, қобилияти ва касбга мойиллигини аниқлаш бўйича тест.
3. Меҳнат бозори ҳақида маълумот бериш.
4. Касбга йўналтириш бўйича амалий тадбирлар (экскурсия, соҳа мутахассислари билан учрашувлар ва бошқалар).

Шу ўринда мазкур тадқиқот олиб бориш жараёнида бир нечта жаҳоннинг илғор давлатлари тажрибалари ўрганиб чиқилди. Ривожланган давлатларда мактаб ўқувчиларини касбга йўналтириш, бепул касбга йўналтирувчи платформалар ва сайтларини ишлаб чиқиш долзарб вазифалар этиб белгиланган.

Жумладан, таълимнинг бошқарув шаклларига кўра Ўзбекистонга яқин бўлган Россия Федерациясининг тажрибаси шуни кўрсатадики, мактаб ўқувчиларини иш билан таъминлаш уларни ўз қизиқишлари даражасида касбга йўналтириш ҳамда ҳозирда мавжуд бўлган ва эҳтиёжи баланд касблар

тўғрисида маълумот бериш учун бепул касбга йўналтирувчи платформалар ва сайтлар мавжуд бўлиб, унда мактаб ўқувчилари бевосита корхона ва компания эгалари, иш берувчилар билан мулоқот қилиб, улар тарафидан тақдим этилган савол ва кейсларга онлайн тарзда жавоб бериб ўз билим ва касбга лаёқатлилигини текшириши мумкин.

Германияда ўқувчиларни касбга ўргатиш бўйича жаҳонда еткачи давлатлардан ҳисобланади. Аҳолисининг деярили ярми камида битта касб-ҳунар эгаси ҳисобланади.

Германия мактабларида касбга йўналтириш ўқувчиларни турли касблар ва меҳнат турлари билан таништириш, уларнинг мойиллиги ва қобилиятига мувофиқ бўлажак мутахассисликни танлашда ёрдам беришга асосланган. Касбга йўналтириш ўқувчилар орасида тест синовлари, сўровлар ўтказиш, корхоналарга экскурсиялар ташкил этиш, турли касб вакиллари билан суҳбатлар ва ота-оналар билан биргаликдаги тадбирлар ўтказиш орқали амалга оширилади.

Касбга йўналтиришда ўқувчилар орасида “Иш дафтари” ни юритиш амалиёти жорий этилган бўлиб, унда ўқувчи оиласи, шахсий қизиқишлари, орзулари, касбий қизиқишлари ҳақида умумий маълумотларни ёзиб боради. Ўқувчининг академик кўрсаткичлари, унинг тест натижалари ва “Иш дафтари”даги маълумотлар касбга йўналтириш бўйича маслаҳатлар олишда асос бўлиб хизмат қилади.

Буюк Британияда “Gatsby” номли васийлик фонди 6 та ривожланган давлатларнинг (Нидерландия, Германия, Гонгонг, Финляндия, Канада ва Ирландия) касбга йўналтирувчи лойиҳаларини ва амалга ошираётган ташаббусларини ўрганиб британияликлар учун асосий бўлган ва самарали натижа кўрсатувчи асосий тамойилларини ишлаб чиққан. Унга кўра Буюк Британия ўқувчилари учун ягона бўлган касбга йўналтирувчи дастур ишлаб чиқилган бўлиб, дастур ўз ичига ҳозирги кундаги актуал касблар ҳақида маълумотлар, психологик тестлар, иш берувчи ва олий ўқув юртлари раҳбарлари билан учрашувлар, иш берувчи билан мулоқот ва реал режимда ўз танлаган касби бўйича вазифаларни бажариб ўзига тўғри келган касбни танлаш имкониятини яратади.

Буюк Британия меҳнат ресурсларидан оқилона фойдаланиш бўйича кўп йиллик тажриба тўплаган. Таълим муассасаларида ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириш бўйича асосий ишлар профессионал маслаҳатчилар томонидан амалга оширилди.

Айнан, биз таклиф этаётган тизим ҳам мазкур давлатлар тажрибасини ўрганган ҳолда, Германияда ташкил этилган “Иш дафтари”нинг аналоги сифатида электрон шаклда яратилган.

Янги авлод болаларининг гаджетлар билан ҳамнафас ўсишини инобатга олиб ҳамда ўқувчиларнинг қизиқиш ва қобилиятларини аниқлаш, уларнинг келажакда муносиб касб эгаси бўлишларига кўмаклашишга қаратилган ягона электрон платформасининг янада ривожлантириш мақсадида унинг мобил иловасини яратиш кўзда тутилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, тадқиқот натижасида платформани яратиш орқали мактаб ўқувчиларини вақтини самарали ўтказиш, ўқувчиларга қўшимча билим ва кўникмаларга эга бўлишларига кўмаклашиш, билими ва салоҳиятидан келиб чиққан ҳолда касбга йўналтириш, умумтаълим мактаб ўқувчилари орасида жиноят ва безорликни бартараф этиш ҳамда мактаб битирувчиларини замонавий касбларга йўналтиришга эришилади. Жумладан:

- битирувчилар мазкур платформа ёрдамида барча соҳа касблари бўйича тўлиқ маълумотга эга бўладилар;
- ўқувчиларнинг дунё қараши, шунингдек, касбга бўлган билим ва кўнимкмалари ортади, уларнинг касб танлашдаги салоҳиятлари ошади;
- ўқувчиларни махсус тестлар ёрдамида уларнинг қизиқиш ва қобилиятлари, руҳий ва оиладаги ҳолатини аниқлашга эришилади;
- замонавий касблар йўналишида ўқув курслар базаси шакллантирилади;
- ўқувчилар тўғрисида маълумотларни синф кесимида мониторинги амалга оширилади;
- ўқувчининг барча фанлар бўйича натижалари акс эттириш мақсадида умумтаълим мактаблари ўқувчиларини билимини баҳолаш (kundalik.com) ҳамда мактабларни бошқаришнинг (erp.maktab.uz) электрон тизимлари билан интеграция қилиш таъминланади.

Тадқиқотнинг муҳим самарадорлиги бу мамлакатдаги умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг касбий қизиқиш ва қобилиятларини аниқлаш билан боғлиқ тадбирларни ягона платформада бирлаштириб, натижаларни мониторинг қилиш ва уларга асосан таълим тизимини янада ривожлантириш учун қарорлар қабул қилишда кўмаклашишдир.

Тадқиқотнинг ижтимоий кўрсатгичи ўқувчи-ёшларни қизиқишларига кўра йўналтириб, эрта молиявий мустақиликка эришишлари орқали уларнинг ўзларига бўлган ишончлари, мавқеи ва тажрибасини ўсишидир. Порталда турли форум ва мусобақалар ўтказиш орқали ўқувчилар орасида соғлом рақобатни ривожлантириш ва мотивациялаш. Бундан ташқари, жамиятимиздаги жиноятчилар ва ахлоқсиз шахсларни камайтириш мақсадида ёшларни бандлигини оширишга эришилади.

Энг асосийси, битирувчиларни келажак касбини аниқлашда ёрдам бериш орқали мамлакатдаги ишсизлик ва камбағаллик кўрсатгичларини камайтириш. Ёшларимизнинг яшаб турган ҳудудидан қатъий назар масофадан туриб ишлаб, яхши даромад топишлари учун имкон яратилади. Натижада меҳнат бозорида

рақобат янада кучайиб, кадрлар ривожланиши орқали мамлакат ривожига хисса қўшилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни, ЎРҚ-637-сон, 2020 й., https://lex.uz/docs/5013007
2. А.Усмонов, “Ўқувчиларни касб-ҳунарга мақсадли йўналтириш истиқболда меҳнат бозоридаги муаммоларни бартараф этишнинг муҳим омили”
3. Б.Саидов, А.Раджиев ва бошқалар: “Касбга йўналтириш: муаммо ва ечимлар”, А.Авлоний номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш илмий-тадқиқот институти, услубий қўланма.
4. Профориентационная работа зарубежный опыт”/Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти – 2022 й. 11-бет.
5. https://gtmarket.ru/ratings/education-index
6. www.profguide.io
7. www.gatsby.org.uk
8.

INNOVATSIYON MUHITNI RIVOJLANTIRISHDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA RAQAMILI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI.

Maxanova Aliya Muratovna
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti tyutori
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA. Bugungi kunda innovatsion ta’lim muhitini rivojlantirishda bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchisining boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda raqamli texnologiyalarini o‘rganish muhim bo‘lmoqda. Maqolada boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda raqamli texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo’llari va o’ziga xos bo’lgan jihatlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bo'lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi, boshqaruv faoliyati, raqamli texnologiya, texnik va texnologik bilimlar,masofaviy ta’lim.

АННОТАЦИЯ. Сегодня в развитии инновационной образовательной среды важное значение приобретает изучение цифровых технологий в подготовке будущего учителя начальных классов к управленческой деятельности. В статье представлен анализ основных путей и специфических

аспектов использования цифровых технологий при подготовке к управленческой деятельности.

Ключевые слова: будущий учитель начальных классов, управленческая деятельность, цифровые технологии, технические и технологические знания.переводчик, дистанционное обучение.

ANNOTATSIYA. Today, in the development of an innovative educational environment, it is becoming important to study digital technologies in preparation for the management activities of the future elementary school teacher. The article presents an analysis of the main ways of using digital technologies in the preparation of management activities and aspects that are specific.

Keywords: future elementary school teacher, management activities, digital technology, technical and technological knowledge, distance learning

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta`kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni ta’lim sohasida joriy etish ham muhim bo’lmoqda. Xususan, tizimda yagona elektron platformani yaratish orqali ma'lumotlarni kiritish, to'plash, shakllantirish, tahlil qilishning zamonaviy uslubi yo'lga qo'yilmoqda. Hozirda ta’lim sifatini ko’tarishda ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Raqamli texnologiyani o’zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo’jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo’lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko’rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi.

Biz zamonaviy universitetda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uchta jihatlariga e’tibor qaratishim muhimdir:

- ✓ raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish;
- ✓ raqamli texnologiyalarni shaxs va ta’lim muassasasining ta’lim boshqaruvida qo‘llash
- ✓ professional maqsadlar uchun raqamli o‘qitish

Innovatsion ta’lim muhitini rivojlantirishda bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda raqamli texnologiyalari bilishi va amaliyotda qo’llay olishi zarurdir. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmasligi muhimdir.

Innovatsion ta’lim muhitini rivojlantirishda bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda raqamli texnologiyalarga oid bir qancha yondashuvlar mavjud bo’lib ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Tariximizga nazar tashlasak, Abu Rayhon Beruniy bobomiz boshqaruv bo'yicha o'zining «Hindiston» asarida ushbu g'oyani ilgari suradi: «Tabiati jihatidan boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, boshliq bo'lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o'zidan keyingilarga qoldirib, ularning o'z ota-bobolariga qarshi bo'lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida turg'un tog'lar singari mahkam bo'lib, u buyruqqa ko'p vaqtlar va uzoq zamonlar o'tsada, keyingilar ham bo'ysunadilar» Allomamizning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan hokim o'z fikri va qarashlarida qat'iy bo'lishi, o'z ishlarini amalga oshirishda donishmandlar tomonidan bildirilgan ilg'or mulohazalarga bo'ysunishi lozim. dagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan.

"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmonida ham raqamli ta'limni rivojlantirishda oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'lim mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish choralarini ko'rishni, raqamli ko'nikmalarga bo'lgan talablarni hisobga olgan holda ta'lim tizimining professional standartlarini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash vazifalari belgilangan.

Masofaviy ta'lim texnologiyasi 1969 yilda Angliya premer-ministri G.Vilson tashabbusiga ko'ra shakllantirilgan deb hisoblanadi. Ammo masofadan o'qitish ancha oldinroq, ya'ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan. 1858 yildan boshlab London universitetida barcha barcha xohlovchilarga ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalardagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan. 1938 yildan buyon Sirtqi ta'lim bo'yicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab, Masofaviy ta'lim bo'yicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta'lim tashkilotlari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda..

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshqaruvchi sifatida darsliklarni o'qish hamda uni tahlil qilishi muhimdir,

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshqaruvchilik kompetentli - gining takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalar bilishi va amaliyotda qo'llash olishi maqsadlidir.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarda ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo`llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb hisoblasak bo'ladi.

Innovatsion ta’lim muhitini rivojlantirishda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ta`limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak? Savolimizga quyidagicha javob beramiz.

1.Talabalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini o'zlashtirishga shart -sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berishimiz lozim.

2.O'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish zarur.

3.Yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani ta`lim muassasalarida qo'llay olish muhimdir.

*4.Z*amonaviy texnologiyalari va ta`lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta`minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish.

*5.I*nterfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma`ruza va seminar, mustaqil ta’lim hamda pedagogik amaliyot jarayonlarida internet bilan bog'liq holda interfaol, mul`timediali taqdimotlarni ishlab chiqish videokonferentsaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish uchun talabalarga kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

*6.B*ulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta`lim modellarini qo'llash, talabalar uchun loyihalar, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim.

Shunday ekan, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari ya’ni talabalar raqamli ta’limda quyidagi bilimlarga ega bo’ladi:

- ✓ xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega;
- ✓ internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ✓ ta’lim tizimini yangi bosqichga ko`taradi;
- ✓ vaqt va mablag` sarfini keskin kamaytiradi;
- ✓ “raqamli dunyo”da yo`qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo`lishgi kabilardir.

Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta`lim sifatini tushirmaganholda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ta’lim resurslarini yaratishga xizmat qiladi.

Bular elektron o‘quv qo‘llanmalari, interaktiv to‘plamlar, lug‘atlar va ma’lumotnomalar shaklida o‘qituvchiga darsni qiziqarli olib borish va o‘quvchi va talabalarga materialni muvaffaqiyatli o‘rganishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni

2. N. D. Mirzahmedova Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo’llanilishi ilmiy maqolasi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022 may .-539-bet

3.Muslimov N.A, .Usmonboeva M, .Mirsolieva M “Innovasion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha O‘QUV-USLUBIY MAJMUA T-2016. 208- bet

4.Тураева, Д. Р. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТИЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ. In Приоритетные направления развития спорта, туризма, образования инауки (pp. 555-560).

5.Тураева, Д. Р. (2018). СТИЛИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СИСТЕМЕ «ПЕДАГОГ-УЧАЩИЙСЯ»-КАК ПРЕДМЕТ ИССЛЕДОВАНИЯ. In Международная научно-техническая конференция молодых ученых БГТУ им. ВГ Шухова (pp. 5628-5634).

AKADEMIK VA RAQAMLI SAVODXONLIKNI INTEGRATSIYALASH ORQALI TALABALARNING O‘QUV-TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Murtazayeva Umida Isakulovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali katta o‘qituvchisi

E-mail: **murtazayeva1982@yandex.ru**

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik va raqamli savodxonlikning integratsiyalashishining talabalarning o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Integratsiyalangan ta’lim yondashuvlari talabalarga nafaqat zarur akademik bilimlarni egallashga, balki zamonaviy raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini ham beradi. Maqolada ta’lim muassasalari tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlab, talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini oshirishga qaratilgan yondoshuvlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘z va iboralar: akademik savodxonlik, raqamli savodxonlik, o‘quv-tadqiqot kompetensiyalar, integratsiyalangan ta’lim, innovatsion fikrlash, mustaqil tadqiqot.

Zamonaviy ta’lim tizimi talabalardan nafaqat o‘quv jarayonida chuqur bilim olishni, balki o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishni ham talab qiladi. Bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun esa akademik va raqamli savodxonlikni integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada akademik va raqamli savodxonlikni uyg‘unlashtirish orqali talabalarning o‘quv-tadqiqot qobiliyatlarini qanday rivojlantirish mumkinligi haqida so‘z yuritiladi.

Ta’lim va savodxonlik bo‘yicha munozaralarning keng to‘lqini va ushbu sohadagi ko‘plab xalqaro fanlararo tadqiqotlar yangi ming yillikning boshida dunyoda XXI asr mutaxassislarining savodxonligi to‘g‘risida tubdan yangi tushuncha paydo bo‘lishiga olib keldi [1]. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, “yangi savodxonlik” ikki jihatga bo‘linadi: akademik savodxonlik va raqamli savodxonlik. Akademik savodxonlik [2] deganda, birinchi navbatda, ramziy, matnli til faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ko‘nikmalar tushuniladi, bu nafaqat turli xil ma’lumotlarni tanqidiy baholash, tahlil qilish va to‘g‘ri talqin qilish, balki yangi bilimlarni ishlab chiqarish, o‘z fikrlarini ilgari surish, asoslash va mantiqiy tartibga solish imkonini beradi. Raqamli savodxonlik deganda turli multimedia vositalari orqali aloqa bilan bog‘liq kompleks ko‘nikmalar tushuniladi [3].

Akademik savodxonlik talabalarning o‘quv - tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy o‘rin tutadi. Bu ko‘nikmalar o‘z ichiga axborotni tanqidiy tahlil qilish, ilmiy ishlar yozish, manbalarni to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanish, shuningdek, akademik bahslarda ishtirok etishni oladi. Akademik savodxonlik talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilishga yordam beradi, bu esa ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Raqamli savodxonlik ham o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Axborotni izlash, baholash va qayta ishlash, shuningdek, raqamli vositalardan foydalanib tadqiqot natijalarini taqdim etish qobiliyati bugungi kunda juda zarur. Raqamli texnologiyalar talabalarga zamonaviy tadqiqot metodlarini qo‘llash imkoniyatini beradi, bu esa ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini yanada rivojlantiradi.

Akademik va raqamli savodxonlikni integratsiyalash o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda bir necha jihatlari mavjud:

1. Tanqidiy fikrlashni kuchaytirish. Akademik va raqamli savodxonlikning integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Hozirgi zamonda internetda katta miqdordagi axborot mavjud bo‘lib, uning har doim ham ishonchli va ilmiy qiymati yuqori emas. Talabalarga axborotni tahlil qilish, uning haqiqiyligini aniqlash, manbalarni tekshirish va ularning ilmiy asoslanganligini

baholash muhimdir. Bu jarayonda raqamli savodxonlik ko‘nikmalari, masalan, ishonchli manbalarni topish, ularni tekshirish va turli xil ma’lumotlarni taqqoslash qobiliyatlari o‘quvchilarga yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat tadqiqotlarda, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

2. Samarali axborot boshqaruvi. Raqamli vositalar talabalarga axborotni samarali izlash, to‘plash va tashkil qilish imkonini beradi. Bu jarayon ularning tadqiqot ishlarini yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi. Talabalar turli xil axborot manbalaridan foydalanib, tegishli ma’lumotlarni saralash va joylashtirish usullarini o‘rganadilar. Masalan, referatlar yozishda va ilmiy maqolalar tayyorlashda axborotni tizimlashtirish va sarlash ko‘nikmalari katta ahamiyatga ega. Buning natijasida talabalar o‘z bilimlarini yangilab, yangi ma’lumotlarni tez va samarali o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Ilmiy tadqiqotlar uchun raqamli vositalardan foydalanish. Talabalar raqamli texnologiyalardan foydalanib tadqiqot ishlarini olib borishni o‘rganadilar, bu esa ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko‘pincha raqamli vositalardan foydalanishni talab qiladi. Masalan, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, turli grafik va diagrammalarni tuzish, tadqiqot natijalarini vizualizatsiya qilish uchun maxsus dasturlardan foydalanish talab etiladi. Shuningdek, talabalar ilmiy ma’lumotlar bazalaridan foydalanib, zamonaviy tadqiqotlar va maqolalar bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu ularga tadqiqot jarayonini samarali tashkil qilish va yangi bilimlarni yaratish imkoniyatini beradi.

4. Raqamli kommunikatsiya va hamkorlik. Onlayn platformalar orqali talabalar tadqiqot natijalarini taqdim etish, muhokama qilish va hamkorlikda ishlash imkoniga ega bo‘ladilar. Raqamli kommunikatsiya vositalari talabalarga nafaqat o‘z ishlarini taqdim etish, balki boshqa tadqiqotchilar bilan aloqada bo‘lish va hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Masalan, onlayn konferensiyalar, vebinarlar, forumlar va ishchi guruhlar orqali ular o‘z fikrlarini boshqalar bilan baham ko‘rib, yangi g‘oyalar va yondashuvlarni o‘rganadilar. Bu esa ularning ilmiy faoliyatini yanada rivojlantirish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari talabalarning ijtimoiy va professional malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Akademik va raqamli savodxonlikni integratsiyalash bo‘yicha bir necha muvaffaqiyatli misollar mavjud:

- Onlayn kurslar va platformalar: Coursera, edX va boshqa platformalar akademik bilimlarni amaliy raqamli ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirgan kurslarni taklif qiladi. Bu talabalarga o‘z o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda yordam beradi.

- Raqamli tadqiqot loyihalari: Universitetlarda talabalar fan mavzulariga bag‘ishlangan raqamli loyihalar yaratish orqali o‘z tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

- Axborot savodxonligi kurslari: Axborot savodxonligi bo‘yicha kurslar axborotni izlash, baholash va foydalanishni o‘rganishni o‘z ichiga oladi, bu esa talabalarning tadqiqot qobiliyatlarini oshiradi.

Akademik va raqamli savodxonlikning birgalikdagi qo‘llanilishi talabalarning o‘quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim qadamdir. Bu integratsiya talabalarga nafaqat zarur akademik bilimlarni egallashga, balki zamonaviy raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini ham beradi.

Akademik savodxonlik talabalarga ilmiy adabiyotlarni o‘qish, ularni tahlil qilish, tadqiqot ishlarini yozish va ilmiy fikrlarni to‘g‘ri ifodalash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik ularga turli xil raqamli vositalardan foydalanish, internetda axborot qidirish, ma’lumotlarni boshqarish va vizualizatsiya qilish, shuningdek, raqamli platforma orqali hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Hozirgi zamonda ta’lim muassasalari bu jarayonning ahamiyatini to‘la tushunib, o‘z talabalarining har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan integratsiyalangan ta’lim yondashuvlarini rivojlantirish va joriy etishni davom ettirmoqda. Masalan, onlayn va offlayn ta’limning birgalikda qo‘llanilishi, axborot texnologiyalari va internet resurslaridan foydalanish, talabalarga tadqiqot ishlarini mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyatini yaratish bu sohada muhim ahamiyatga ega. Integratsiyalangan ta’lim yondashuvlari talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishga, mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini oshirishga va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga tayyorlashga qaratilgan. Bu jarayonda ta’lim muassasalari zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlab, talabalarga yuqori malakali va raqamli savodxon mutaxassis bo‘lib yetishishga yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Короткина И.Б. Академическая грамотность и система оценки в парадигме образования // Ценности и смыслы. 2017. № 5(51). С. 20–31.

2. Buckingham D. Defining digital literacy // Digital Kompetanse. 2006. No. 1(4). P. 263–276.

3. Goodfellow R. Literacy, literacies and the digital in higher education // Teaching in Higher Education, 2011. Vol. 16. No. 1. P. 131–144.

ENSURING MODERN INFORMATION SECURITY AND PREVENTING INFORMATION RISKS IN OUTSOURCING SERVICES.

Sulaymonov Nazar Normurod o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
Irisbekova Mavluda Narinbayevna
i.f.d professor , Toshkent davlat transport universiteti

ma’lumotlarni saqlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurligi haqidagi farazni tasdiqlaydi. Masofaviy ta’lim va kadrlar tayyorlashda zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация: современный мир ориентирован на цифровизацию экономики, том числе и в области спортивной индустрии. В исследовании подтверждается гипотеза о необходимости применения информационных технологий в художественной гимнастике: в образовательных процессах, в сохранении информации об истории и развития этого вида спорта, в судейских технологиях. Анализируются возможности применения современных мультимедийных средств в дистанционном обучении и тренировках.

Abstract: the modern world is focused on digitalization of the economy, including in the field of the sports industry. The study confirms the hypothesis about the need to use information technology in rhythmic gymnastics: in educational processes, in preserving information about the history and development of this sport, in refereeing technologies. The possibilities of using modern multimedia tools in distance learning and training are analyzed.

Kalit so‘zlar: badiiy gimnastika, axborot texnologiyalari, multimedia, masofaviy ta’lim, kompyuter texnologiyalari, raqamlashtirish.

Ключевые слова: художественная гимнастика, информационные технологии, мультимедиа, дистанционное обучение, компьютерные технологии, цифровизация.

Key words: rhythmic gymnastics, information technology, multimedia, distance learning, computer technology, digitalization.

Kirish. Zamonaviy dunyo axborot texnologiyalarini keng joriy etish va intensiv foydalanish sharoitida yashamoqda. Ular ta’lim, fan, madaniyat, iqtisodiyotning deyarli barcha jabhalarida mavjud va yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ham.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ularning xilma-xil ishlatilishini belgilaydigan bir qator xususiyatlarga ega. Ular orasida:

- belgilangan dasturlar yoki algoritmlar bo‘yicha ma’lumotlarni qayta ishlash;
- deyarli cheksiz miqdordagi ma’lumotlarni ma’lumotlar bazalari ko‘rinishida to‘plash, tizimlashtirish va saqlash qobiliyati;
- sport yo‘nalishida mavjud yutuqlarni tahlil qilish, gimnastika tarixi va bu boradagi yutuqlar haqida ma’lumotlar majmuasini shakllantirish.
- dunyoning istalgan nuqtasida axborot ma’lumotlarini uzatish imkoniyati;
- keng ko‘lamli aloqa jarayonini ta’minlash sifatida interaktivlik va boshqalar.

Aytish joizki, zamonaviy dunyo globallashuv va iqtisodiyotni raqamlashtirish kabi davr talablariga moslashmoqda. Hozirgi sharoitida esa, o‘z navbatida, axborot texnologiyalaridan majburiy foydalanilmasdan turib, mazkur jarayonlarni amalga oshirish mumkin emas.

Sport zamonaviy dunyoning ajralmas va muhim qismi sifatida, tabiiyki, bu o‘zgarishlardan chetda qolmaydi. Keling, ushbu sohada badiiy gimnastika misolida axborot texnologiyalaridan qanday foydalanilishini ko‘rib chiqaylik.

Axborot texnologiyalarining xususiyatlaridan biri ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish, katta hajmdagi ma’lumotlarni turli xil elektron tashuvchilarda saqlashda, masalan, badiiy gimnastika tarixi, yutuqlari, mazkur sport turnining intizomi vaqt o‘tishi bilan qanday yaxshilanligi va yanada murakkablashganligi haqida ma’lumotlar bazalarini yaratishga imkon beradi [2]. Shuningdek, ma’lumotni saqlash va ishlatishning ushbu usuli sizga gimnastikachi portfelini to‘plash, multimedia mahsulotini yaratish sportchilarning imkoniyatlari va istiqbollarini baholash imkonini beradi.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning eng keng tarqalgan usuli bu sportchilar chiqishi uchun musiqiy hamrohlikni tayyorlashdir. Maxsus dasturlardan foydalanilib, ular quyidagilarga imkon beradi: musiqa asarini kerakli muddatga qisqartirish, ehtimol kesish yoki ish qismlarini almashtirish.

Shuni ta’kidlash kerakki, qachonki sportchilar chiqishlarga musiqa tayyorlashda

quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin: barcha mutaxassislar internetdan yuklab olish yoki musiqani qayta ishlash qobiliyatiga ega emas, shuning uchun siz professionallar yordamiga murojaat qilishingiz kerak.

Axborot texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyati multimediya – “matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, fotosuratlar va boshqalarni birlashtirgan zamonaviy apparat va dasturiy ta’minotdan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta’minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o‘zaro ta’siri bir raqamli tasvirda videolar” ularni zamonaviy ta’lim jarayonlarining zaruriy qismiga aylantiradi.

Buning sababi, didaktikaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan vizualizatsiyani multimedia yordamida samarali amalga oshirish mumkin va bu badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida juda muhimdir.

Axborot texnologiyalari imkoniyatlarini rivojlantirish barobarida badiiy gimnastikani o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish takomillashtirilmoqda.

O‘quv topshiriqlari, diktantlarni optimallashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijobiy rol o‘ynadi. Albatta, bu birinchi navbatda ta’lim sohasiga tegishli [1]. Smartfon yoki videokameralar yordamida ishlashingizni videoga yozib oling, yosh gimnastikachi uni elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Telegramda)da xabar orqali o‘qituvchiga yuborishi mumkin. U, o‘z navbatida, sportchining mahoratini baholashi va sharhlar berishi mumkin. Bunday holda, axborot texnologiyalari kommunikativ funktsiyani ta’minlaydi hamda o‘qituvchi va talaba aloqasini qo‘llab-quvvatlaydi. Zoom platformasidan foydalanish sizga

o‘quv jarayonini ko‘proq ijtimoiylashtirish imkonini beradi. Zoom konferentsiya

chatida jarayon ishtirokchilari nafaqat o‘qituvchi bilan, balki bir-birlari bilan ham muloqot qilishlarim faoliyatini baholash va solishtirish mumkin. Ushbu rejimda

murabbiy nafaqat videokliplar yoki vizual materiallar ko‘rinishda namoyish qilishi mumkin balki slayd-prezentatsiyalar, o‘quvchilarning e’tiborini ba’zi muhim narsalarga jalb qilish mumkin.

Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha mutaxassislar ixtisoslashtirilgan ijtimoiy tarmoqlarni joriy etishni taklif qilishadi. Ijtimoiy tarmoq - bu ijtimoiy obyektlar (odamlar yoki tashkilotlar) va ular orasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar) bo‘lgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilma.

Umumiy jismoniy tarbiya va sportni, xususan, badiiy gimnastikani rivojlantirish va ommalashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish - katta istiqbolga ega. Badiiy gimnastika butun dunyoda rivojlanayotgan, salohiyatli va ko‘plab muxlislarga ega bo‘lgan eng ommabop sport turlaridan biridir. Binobarin, u nafaqat mamlakatimizdagi, balki global miqyosida madaniyat, iqtisod va ta’lim yo‘nalishlariga amal qilishi kerak. Axborot texnologiyalarini esa badiiy gimnastika sohasiga joriy etish ushbu sport turini yanada rivojlantirishning dolzarbligi va kalitidir.

Bu yo‘lda bir qator muammolar mavjud. Shunday qilib, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, mamlakatimizdagi barcha sport maktablari va oliygohlarning zamonaviy axborot uskunalari to‘liq ta’minlangan bo‘lsa, ammo hamma talabalar ham kompyuterga, internet tarmog‘i kirish imkoniyatiga ega emas [1].

Bu muammo nafaqat jismoniy tarbiya va badiiy gimnastika sohasida dolzarbligicha qolmoqda, balki buni imkon qadar tezroq hal qilish lozim hisoblanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, badiiy gimnastika darslarida axborot texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish zarurligiga qaramay, ular o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratish uchun “ta’lim jarayoniga malakali va asosli ravishda kiritilishi” [3] zarur. - jarayonning barcha ishtirokchilari, ham o‘qituvchi, ham talaba uchun ta’lim va har tomonlama shaxsiy rivojlanishga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Buning uchun esa barcha o‘zgarishlar va yangiliklarni hisobga olgan holda yangi ta’lim imkoniyatlari va yangi ta’lim standartlari shakllantirilishi kerak [1].

Xulosa. Tadqiqotimizda biz badiiy gimnastika sohasida ba’zi foydalanish holatlari bo‘lgan axborot texnologiyalari va raqamlashtirishni joriy etish ko‘rib chiqdik. Biz ularni amalga oshirish va ishlatish bilan bog‘liq bir qator muammolarni ko‘rsatdik va ularni hal qilish yo‘llarini taqdim etishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Костенко Е.Г. Феномен индивидуального познавательного стиля в совре-менном образовании / Е.Г. Костенко // Человек. Культура. Образование. – 2011. – №2. – С. 187–189.

2. Костенко Е.Г., Амбарцумян Н.А., Толстых О.С. Обработка результатов моделирования творческих способностей девочек средствами гимнастики / Е.Г. Костенко, Н.А. Амбарцумян, О.С. Толстых // Актуальные вопросы педагогики и психологии. – Чебоксары. – 2021. – С. 96–105.

3. Мануковская Л.Б. Информационно-образовательная среда в учебном процессе по физической культуре педагогического вуза / Л.Б. Мануковская, Л.Н. Акулова // Инновационные технологии в спорте и физическом воспитании подрастающего поколения: материалы VII межрег. науч.-практ. конф. с между-народ. участием; ПИФКиС МГПУ. – М., 2017. – С.29–30.

SUN’IY INTELLEKT, VR VA AR TEXNOLOGIYALAR

Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi, Turabekova Dilorom Baxtiyarovna

GulDU, Biotexnologiya yo‘nalishi 2- kurs talabasi. GulDU, Oziq-ovqat texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt tizimlarining tarixi, insoniyat faoliyatida tutgan o‘rni, sun’iy intellektning texnologiyasi va sun’iy intellekt tizimlarini hayotga tatbiq qilish, kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (VR) ning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (VR), sun’iy intellekt, texnologiya, zamon, virtualizm.

Abstract: This article covers the history of artificial intelligence systems, their role in human activities, the technology of artificial intelligence and the implementation of artificial intelligence systems, the importance of augmented reality (AR), virtual reality (VR).

Key words: augmented reality (AR), virtual reality (VR), artificial intelligence, technology, time, virtualism.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Sun’iy intellekt- informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi.

Tarixga nazar solsak, Alan Turing sun’iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo‘lgan. Sun’iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. Shu yilning yozida Dartmouth kollejida o‘tgan anjumanda John McCarthy „sun’iy intellekt“ atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi sifatida kirgan. Sun’iy intellekt bo‘yicha tadqiqotlar XX asr o‘rtalaridan beri qo‘llanilib kelinsa-da, unga nisbatan ommaviy qiziqish 2012-yilda ortgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha gurkirab rivojlanib, ko‘plab shirkatlar,

universitetlar va laboratoriyalar sun’iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan. Hozirgi kunga kelib sun’iy intellekt keng ko‘lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Har qancha e’tiroz va tanqidlarga qaramay sun’iy intellekt rivojlanishdan, odamlarga yordam berishdan to‘xtamayapti. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo‘q. Hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Misol tariqasida shuni ham aytib o‘tish mumkinki, 3D multifilmlarni ishlash uchun oldin bir necha oylab vaqt ketgan bo‘lsa, hozir esa sun’iy intellekt yordamida anchagina jarayon tezlashdi. Animatsiyada ham sun’iy intellekt juda rivojlanib bormoqda. 2024 yil sun’iy intellekt sohasida animatsiya va jonlashtirish yili bo‘lmoqda deb o‘ylayman. Bundan tashqari, sun’iy intellekt jurnalistlarning doimiy ko‘makchisiga aylanib ulgurgan. Masalan, Associated Pressda “ishlayotgan” robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. Sun’iy intellektning qo‘llanilishi ushbu nashrda har chorakda beriladigan yangiliklarni 300 tadan 4400 taga oshishi kuzatildi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ham sun’iy intellektning afzalliklarini tan oladi: ular ob-havo sharoiti, zararkunandalar, tuproq namligi va boshqa muhim ko‘rsatkichlar haqidagi ma’lumotlarni hisobga olgan holda, fermerlarga ishni yanada samarali rejalashtirishga imkon berishiga ishonadilar.

Bir narsani ijobiy tomoni bo’lganidek salbiy tomoni ham bor. Deylik, oddiy pichoqdan oshxona anjomi sifatida foydalanish mumkin, qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Sun’iy intellekt ham nima maqsadda, kimning qo‘lida ishlatilishiga qarab foydali yoki zararli bo‘lishi mumkin. Masalan, 2023-yil boshlarida ko‘pgina feyk suratlar tarqaldi, bu orqali feyk xabarlar ham chiqdi. Bir tomondan bular yaxshi keys bo‘ldi, chunki faktni tekshirish lozimligi o‘rtaga chiqdi. Yana bir tomoni sun’iy intellektdan foydalanish ommalashib odamlar ish o‘rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligi tashvishlanarli holatdir.

Yangi mahsulot yoki xizmatni ishga tushirish har doim ham xavf tug‘diradi. Ushbu xavfning aksariyati iste’molchilarga o‘z hayotlarida yangi mahsulot yoki xizmatdan qanday foydalanishini tasavvur qilish qiyin bo‘lishidan kelib chiqadi. Bu yerda AR (kengaytirilgan haqiqat) va VR (virtual haqiqat) texnologiyalari yordamga keladi.Ushbu texnologiyalar iste’molchining haqiqiy hayotida mahsulot yoki xizmatni taqdim etish qobiliyatini ta’minlaydi va ularga sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan uni “sinab ko‘rish” imkonini beradi. VR va AR texnologiyalari nafaqat mahsulot va xizmatlarni virtualizatsiya qiladi, balki shaxsiylashtirish imkoniyatlarini ham beradi. Bunda foydalanuvchilar mahsulot yoki xizmat sozlamalarini o‘zlarining shaxsiy xohishlariga ko‘ra qanday ko‘rinishi ko‘rishlari mumkin. Misol uchun Nike shaxsiylashtirilgan krossovkalar yaratish uchun AR dan foydalanadi. Nikeda xaridorlar ranglar, materillar va boshqa dizayn detallarini tanlab, o‘zlarining noyob krossovkalarini yaratishlari mumkin. Bundan tashqari, AR

va VR foydalanuvchilarni o‘qitish va mahsulot xusiyatlarini namoyish qilish uchun ishlatilshi mumkin. Bu ayniqsa, ularda foydalanish uchun aniq tushunishni talab qiladigan murakkab mahsulotlar yoki xizmatlar uchun foydalidir. AR real dunyoning ustma-ust o‘rnatilgan virtual olamiga e’tibor qaratadi va VR ga qaraganda texnologik jihatdan amalga oshirish ancha qiyin bo‘lgan ” haqiqat va haqiqat “ ni amalga oshiradi. Displey texnologiyasini hal qilishdan tashqari (golografik proektsiya, shaffof displey va boshqalar), AR idrok etish texnologiyasiga ham e’tibor qaratishimiz kerak. Chunki, ARni idrok qilish nafaqat inson tomonidan kiritilgan ma’lumotlarni, balki atrofdagi muhitni idrok etishdir. Faqatgina AR atrofdagi haqiqiy dunyoni idrok etganda, virtual dunyo tasvirini qayerda haqiqiy dunyoga joylashtirish kerakligini bilishi mumkin. VR ham, AR ham foydalanuvchilarning o‘zaro ta’sirini ta’kidlaydi va ularni sensorlardan ajratib bo‘lmaydi. Sensor VR va AR ning xususiyati bo‘lib, VR immersiv holat yaratishni istaydi, AR virtual dunyo bilan real dunyo o‘rtasida uzluksiz aloqani amalga oshirishni istaydi, ikkalasi ham yuqori talablarni o’z ichiga oladi. Jumladan, ta’lim sohasida VR ni qo‘llash, o‘quvchilarning bilim olish uslubini o‘zgartiradi. Sinf xonalarida VR dan foydalanish o‘quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan tizim yoki texnologiya bo‘lib, olingan ma’lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Umuman olganda sun’iy intellekt format ham, funksiya ham emas, balki bu jarayon bo‘lib, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish kabilarni o‘z ichiga oladi. Hisob-kitoblarga ko’ra, hali boshlang‘ich bosqichida bo‘lgan AR va VR 100 yilga kelib butun dunyo bo‘ylab 2027 million foydalanuvchidan oshadi. Ushbu tendentsiyani amalga oshirishda, o‘z foydalanuvchilari uchun immersiv tajriba yaratish uchun AR va VR ilovalarini ishlab chiqish xizmatlarini qabul qiladigan tashkilotlar bugun va yaqin kelajakda ustun bo‘lishi aniq. Yaqin kelajakda siyosatshunoslarning sun’iy intellekt texnologiyalariga qiziqishi sezilarli darajada oshishiga guvoh bo‘lamiz-deyishga barcha asoslar bor. Demak, sun’iy intellekt - bu kelajak fanidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldashev, U.A., Xudoyberdiev, M.Z., Axmedov, T.B O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Academic research in educational sciences.2021. 1262-1268.

2. Karimov, U. U., Karimova, G. Y. The importance of innovative technologies in achieving educational effectiveness. Tabiiy fanlar jurnali.2021.

3. Toshtemirov D.Y. Saidov J.D., Mamatqulov S.X. Zamonaviy elektron ta’lim resurslarini yaratish texnologiyasi.2019. 67-71 c.

4. D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment. Journal of Critical Reviews.2020.399-400 p.

MASOFAVIY TA’LIMDA DISKRET TUZILMALAR FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS MUAMMOLARI

Abdullayeva Nazokat Isayevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali dotsenti (PhD) (nazokatabdullayeva799@gmail.com) (97)-9127087

Adilov Damir Suratovich, Borisov Daler Borisovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filialida “Kompyuter injiniring” yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Maqolada masofaviy ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalarga “Diskret tuzilmalar” fanidan mustaqil ta’limini tashkil qilishning o‘ziga xos muammolari tahlil qilinadi. Masofaviy ta’limni samarali tashkil etish uchun talabalardan kutiladigan harakatlar haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Masofaviy ta’lim, diskret tuzilmalar, ta’lim platformalari, baholash va nazorat qilish.*

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor qaratilib, buni amalga oshirishda normativ-huquqiy va moddiy-texnik bazasi yangilandi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash” [1] yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning ustuvor vazifasi etib belgilangan. Bu vazifalardan bo‘lajak kadrlar tayyorlash jarayonini raqamli ta’lim tizimida tashkil etish, masofaviy ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalarni “Diskret tuzilmalar” fanidan mustaqil ta’limini tashkil qilishning zamonaviy tizimini ishlab chiqish va undan foydalanish orqali ta’lim sifatini muayyan darajada oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy ta’limda diskret tuzilmalar fanini o‘qitishda yuzaga keladigan muammolar ko‘p jihatdan masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari va texnologik cheklovlar bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni hal etish uchun o‘qituvchilar va talabalar yangi yondashuvlarni o‘rganishlari va amaliyotga tatbiq etishlari kerak.

Masofaviy ta’limda diskret tuzilmalar fanini o‘qitishning o‘ziga xos muammolari[2]:

Texnologik cheklovlar: Masofaviy ta’limda asosiy muammolardan biri internet aloqasi va texnologik resurslarga bog‘liq. Har bir talaba yuqori tezlikdagi internetga ega bo‘lmasligi mumkin, bu esa o‘quv materiallarini yuklash va ularga kirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, texnik nosozliklar, dasturiy ta’minotdagi kamchiliklar va texnologiyaga oid boshqa muammolar ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Talabalar o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining yetishmasligi: Masofaviy ta’limda talabalar ko‘pincha mustaqil ravishda o‘qishlari kerak bo‘ladi. Bu esa talabalarning o‘z vaqtini samarali boshqarish, o‘quv rejalarini tuzish va ularga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini talab qiladi. Ko‘p talabalar bu ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirmaganliklari sababli, ularning o‘qish samaradorligi past bo‘lishi mumkin;

Samarali kommunikatsiya yetishmasligi: Masofaviy ta’limda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikatsiya cheklangan bo‘lishi mumkin. Jonli darslarda yuzma-yuz aloqalar orqali tushunmovchiliklarni tezda bartaraf etish mumkin bo‘lsa, masofaviy ta’limda bu jarayon murakkablashadi. Talabalar savollarini berish va javob olish uchun ko‘proq vaqt sarflaydilar, bu esa ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin.

O‘quv materiallarining mosligi: Diskret tuzilmalar kabi matematik fanlarni o‘qitishda ko‘plab grafik, diagramma va matematik formulalar ishlatiladi. Masofaviy ta’lim platformalari ba’zan bunday kontentni samarali yetkazib bera olmaydi. Bundan tashqari, o‘quv materiallarining interaktivligi past bo‘lishi mumkin, bu esa talabalarning mavzuni to‘liq tushunishiga to‘sqinlik qiladi.

Baholash va nazorat qilish muammolari: Masofaviy ta’limda talabalarning bilimlarini baholash va nazorat qilish ham qiyinchiliklar tug‘diradi. Onlayn test va imtihonlarda talabalar ko‘pincha boshqa manbalardan foydalanishlari mumkin, bu esa baholash natijalarining haqqoniyligini pasaytiradi. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun talabalarni doimiy ravishda kuzatib borish va ularga individual yondashuvni ta’minlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Motivatsiya va intizom yetishmasligi: Masofaviy ta’limda talabalar ko‘pincha yakkama-yakka ishlashadi, bu esa ularning motivatsiyasi va intizomini pasaytirishi mumkin. Jonli darslarda o‘qituvchining bevosita nazorati va qo‘llab-quvvatlovi talabalarni yanada faol ishtirok etishga undaydi. Masofaviy ta’limda bu omillar yo‘qligi sababli, talabalar o‘z maqsadlariga erishishda qiynalishi mumkin[2].

Masofaviy ta’limda diskret tuzilmalar fanini o‘qitishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash, o‘quv materiallarini optimallashtirish va talabalarni motivatsiyalash uchun yangi usullarni topishlari kerak. Masofaviy ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar ham o‘z o‘qish rejalarini

yaxshilash va samarali o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari zarur[5]. Masofaviy ta’lim uchun mo‘ljallangan platformalar va vositalar zamonaviy ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu platformalar va vositalar talabalarga o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish imkoniyatini beradi, shu bilan birga o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini boshqarish va nazorat qilishni osonlashtiradi. Masofaviy ta'limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ushbu platformalar va vositalarni to‘g‘ri tanlash va samarali qo‘llashga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi **“**2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida**”gi** PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2. Abdullayeva N.I. Kompyuter injiniringi yo‘nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda “Diskret tuzilmalar” kursini o‘qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish // pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) diss. –Chirchiq.-2023. 173b.

3. Abdullaeva, N. I. (2023). The Teaching of the Course “Discrete Structures” in the Direction of Computer Engineering Using Innovative Technologies. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 4(1), 173-179. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/V5ASF

DIGITAL CURRENCY AND ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN

Abdullayeva M.S.

Chirchik State Pedagogical University

Abstract. Money is one of the greatest inventions of mankind. There are many definitions of money that characterize the essence of money, which basically leads to the fact that money is a universal equivalent, with its help determined measure of value - the price of other goods. The development of information technology has led to the fact that in the digital economy, countries gradually began to introduce digital currencies into circulation. In this article briefly discusses the essence and models of digital money, as well as the implementation of digital currency in Uzbekistan.

Keywords. Money, cash, non-cash money, economic agents, money supply, central bank digital currency (CBDC), models of digital currencies.

The development of market relations has led to the emergence of such an economic category as money. Barter in kind prevailed in the early stages of human development, that is, one product was exchanged for another without money. Money is not a static category, it develops, changing its form as it improves. Under the influence of technological progress, the form and types of money are changing, and money, in turn, gives impetus to the development of technical progress. The

development of market production led to the creation of a universal equivalent - money. Exchange equivalents, which are money, expanded their scope, stabilized and, in the modern sense, turned into real money.

It is known that money is a specific product that plays the role of a universal equivalent, through which you can buy and sell all goods.[1] In the process of evolution of money, we can note that their form is diverse and constantly changing. There are both ordinary coins and paper banknotes in circulation, as well as modern digital money. Today, there are more than 157 currencies in circulation in 193 countries of the world. According to the prestigious information portal Finfocus, there are 80.9 trillion dollars in circulation. of which $5 trillion is cash i.e. coins and banknotes, the rest - non-cash money. Among the most popular among them are 5 national currencies (US dollar, British pound sterling, Japanese yen, Swiss franc and Australian dollar) and 1 euro, the monetary unit of the European Union.

During its history, money has undergone a significant evolution. The functions of money were once performed by various objects, but for most of history, cash was either metal or paper. At the same time, both non-cash money and assets close to them in the form of bank account entries, bills of exchange, and so on developed. Between certain types of money there were different exchange rates and exchange rules. In particular, for a long period the value of paper and non-cash money was tied to the value of metal, silver or gold, banknotes of some banks could be accepted with different discounts of other banks. Currently, all money is fiat, that is, their value is not tied to metal, they are not exchanged for metal, but their value is secured by debt obligations of the state and other economic agents. In this system, only central banks have the right to issue cash. Meanwhile, the share of cash in circulation is quite small and decreases over time.

The main money supply is non-cash money, which at the current level of technology development is electronic (in the past, the corresponding account entries were also paper).

Within the framework of the two-tier financial system generally accepted today, the electronic money of the central bank is available only to banks - these are their correspondent accounts and deposits with the Central Bank. With the help of correspondent accounts, settlements between financial institutions are carried out. This ensures the unity of the value of money and the ability for the Central Bank to regulate the monetary system and conduct the monetary policy of the state, and through it to manage price and financial stability. The Central Bank, through its deposit and lending system, manages the interest rates at which banks lend central bank money to each other in the interbank market. These rates are the basis for the entire system of interest rates in the economy, and by influencing them, central banks manage price stability. At the same time, the volumes and instruments with which transactions are carried out are chosen in such a way as to stop the risks associated with the liquidity problem for individual banks or (in the event of a crisis of confidence) for the system as a whole.

Bank customers who are legal entities and individuals are considered economic agents of financial relations. Which have non-cash in circulation along with cash. Non-cash funds are the obligations of other banks, this money is on the settlement and deposit accounts of the bank.

The unity of the monetary system creates a condition for the unimpeded exchange of money that is on the client's account, which is the obligations of commercial banks, for cash, which is the obligations of the central bank.

Once again, we note that in the modern monetary system, money has a debt nature. Correspondent accounts of banks in the central bank are the obligations of the central bank to other banks, which are secured by balance sheet assets such as government bonds and loans, gold and foreign exchange reserves, loans to commercial banks, etc.). Central banks increase the money supply by buying assets or lending to banks, and reduce the money supply by selling assets, reducing the supply of credit, and attracting deposits from banks. Deposits and current accounts of companies and individuals in the banking system are secured by the assets of the banking system, that is, loans to individuals and legal entities, securities, and so on.

The money supply, both cash and non-cash money, plays an important role in the banking system and in the economy, but their ratio is changing. Over the past two decades, the amount of cash in circulation in developed countries (in % of GDP) has changed in a positive direction, along with an increase in the volume of bank card transactions. According to various experts, the volume of electronic currencies and securities around the world can change and reach $1.28 quadrillion (or $1280 trillion), that is, we can say with confidence that almost all the money in the world today is non-cash. Thus, in developed countries, the amount of cash is no more than 10%, that is, about 90% of all money in developed countries is electronic. If you look at the statistics, then at the beginning of 2022 in Uzbekistan, the share of cash in circulation in the total money supply accounts for 20%. This indicator decreased by 3% compared to the previous year. The share of cash compared to GDP for the same period as a percentage decreased from 4.1 to 3.9 points.

The development of information technology has also affected the cash flow. The digitization of the entire economic system has led to the emergence of digital money.

The central banks of different countries, keeping up with the times, began to experimentally introduce virtual national money into circulation. This money was called the digital currencies of central banks, abbreviated as CBDC. They can be used, on the one hand, as an alternative to existing payment systems and, on the other hand, as an aid to means of payment. The cost of digital currencies depends on factors such as the exchange rate of the national currency, the state of the economy in the country, inflation and others. The option of connecting digital currency to precious metals with a floating exchange rate, such as cryptocurrencies, is not excluded.

The countries of Europe, Asia and America, in which ¾ of the world economy is concentrated, are showing great interest in introducing a new national digital

currency in their countries. Last year, many of the world's central banks began to launch their pilot projects and began the transition to a new stage of digital currency research, which continues to this day. The Bank for International Payments announced that currently 14% of global regulators are testing in practice the possibilities and prospects for the introduction of digital currencies of central banks in the banking system, thereby analyzing the positive and negative aspects of this process.

On a global scale, the development of a digital currency is not a novelty, therefore this process is at the stage of fundamental formation, although the appearance of the first projects for the introduction of a central bank digital currency falls on 2014. One of the first countries that tested the issue of the digital currency of the central bank and tested the operation of digital money on its banking system is a state located in South America - this is Ecuador.[2]

The experience of the international banking system has shown that, in developing countries, an important goal of issuing a digital currency is to reach a new level of financial reach of economic entities, as well as to improve the quality of service provided by payment services that suffer due to an underdeveloped banking sector and insufficiently efficient operation of existing payment structures. . The main motivation of the banking sector of developed countries is the expedient strengthening of monetary sovereignty due to the increase in non-cash payments when the money of commercial and specialized banks, as well as private digital structures, is used to improve financial stability. However, in any case, the implementation of the digital currency of the central bank will lead to the strengthening of the role of the regulator of central banks in the national economy.

In world practice, there are various models of digital currencies, regulator banks mainly distinguish between retail and wholesale digital currencies.

The first model is used by both consumers and manufacturers. The end consumer can use this digital currency in exchange for cash, which makes this currency even more attractive. Payments can be made at any point of sale, in a restaurant or in a bank.

The second model, wholesale, is intended only for a limited number of participants, i.e. access to this model is not provided to everyone, but only to banks and financial market entities. This model is an alternative method of cash settlements between banks in the banking system. Wholesale digital currencies are considered in fact an analogy to correspondent accounts and bank deposits of the central bank.

Uzbekistan is also working on the introduction of a national digital currency. The digital currency of the Central Bank of Uzbekistan soum is a new form of currency that is an alternative to traditional money in circulation. It is a legal tender that is introduced digitally and put into circulation on a specially designed and tested electronic platform. This process is directly related to the digital transformation of the entire banking sector of Uzbekistan. The head of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, Mamarizo Nurmuratov, said in his speech: "The

transformation of the banking sector of Uzbekistan is an integral part of the process of forming a digital economy."

In 2020, the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy was adopted in Uzbekistan, within the framework of this strategy, the necessary measures are being taken to develop digital financial technologies and services. The population of the republic should be provided remotely with state and financial services, and it is also planned to improve the quality of service services. At the moment, there are three digital banks and 34 non-bank payment institutions in the country, 10 of them are included in the register of operators of electronic money structures.[3]

According to statistics from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, last year 53% of deposits, 40% of microcredits issued, 48% of housing and communal services and other payments, and 15% of foreign currency exchange operations for soum were carried out remotely.

The main goal in improving and implementing the national digital currency of the central bank is to improve the financial condition of the country, thereby ensuring the stable development of the economy. To do this, the central bank needs to pursue a rational and efficient monetary policy. Any innovations have risks that subsequently negatively affect the final result. To minimize the risks, as well as the impact of digital money on financial intermediaries, central banks should create conditions for commercial banks so that they do not “go overboard” in the financial arena. As a result, the introduction of digital currency will positively affect the economic processes of the country, including the efficient operation of the entire banking system and ensuring the economic well-being of economic entities.

According to the Regulator, today in the republic there are quite a lot of payment systems for cashless payments, a wide infrastructure of the electronic money system and bank terminals has been created.

The Central Bank is not yet in a hurry to introduce a national digital currency in Uzbekistan. There are reasons for this, firstly, we must all study and analyze the experience of foreign countries, thereby determining the main advantages and disadvantages of this practice. Secondly, determine your priorities and develop methods for introducing digital money, taking into account the experience of working with electronic currency structures operating in Uzbekistan.

Digital currencies are still complex and not very well studied products. The regulator should carefully study the impact of digital currencies on economic policy, financial and economic stability, and payment systems of the digital economy. In this case, it is necessary to pay special attention to cybersecurity and financial literacy of citizens.

REFERENCES:

1. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ona tili va o’qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo’llari. *Konferensiya, 1*(1), 379-382.

2. Qarshiboyeva, X. K. (2021). Yozma savodxonlikni oshirishda boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. *Konferensiya*, *1*(1), 286-289.
3. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, *1*(3), 72-77.
4. Qarshiboyeva, X. K., & Muminov, Z. S. (2023). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, *1*(3), 269-274.
5. Karimovna, K. K. (2023). Taking the Education System to a New Level with the TALIS International Assessment Program and Action Strategy. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *4*(4), 245-249.

TA'LIMDA RAQAMLASHTIRISH: MAVJUD IMKONIYATLARI VA KAMCHILIKLAR

Ahmadjonova Umida Tojimurodovna
Jizzax politexnika institut, katta o'qituvchi
umidaaxmadjonova@bk.ru

Annotatsiya Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'rganishning ahamiyati, hozirgi kunda olib borilayotgan ishlar va imkoniyatlar tahlil qilingan. **Kalit so'zlar:** ta'lim, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, elektron portal, axborot tizimi,.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda oshgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda muxim axamyatga ega. Ta'lim dasturlari oldin va hozirgacha ham an'anaviy usulda ya'ni ma'ruzalar, kitoblar, qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklda olib borilgan. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Hozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Ta'lim tizimining hozirgi noan'anaviy ta'lim texnologiyalari va ularning roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samarali o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir talaba uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.[1]

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar,

smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Oliy ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va raqamli ta’lim tizimlarini rivojlantirish oliy ta’lim muassasalari talabalarining o’quv jarayonini tashkil etish, ta’limga yondashuvlarni sifatli qayta ko’rib chiqish, shuningdek, ta’lim tizimini jadallashtirish to’g’risida yangi ilmiy va pedagogik g’oyalarni shakllantirishga olib keladi. Ta’limni raqamlashtirish elektron axborot ta’lim sohasini yaratish va ishlatish, maxsus virtual texnologiyalarni qo’llash, turli ta’lim platformalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilish imkoniyatlari bilan xarakterlanadi. Umuman olganda, oliy ta’limni raqamlashtirish barcha faoliyat sohalarini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida qurishni anglatadi[2]

Shu sababli Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar sohasini rivojlantirish borasida ko‘zga ko‘rinarli ishlar qilindi. Bularning natijasida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari oshmoqda. Mazkur natijalarga erishishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va sohaga yo‘naltirilgan turli xil dasturlar ijrosini ta’minlash muhim rol o‘ynaydi.

2020 yil 5 oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6097-sonli Farmonida turli sohalar bilan bir qatorda, ta’lim yo‘nalishini raqamlashtirishga oid qator vazifalar belgilangan edi. Ushbu hujjat bilan ta’lim dargohlarini yuqori tezlikdagi Internet bilan ta’minlash, o‘quvchilarning baholarini shaffof tarzda qayd etib borish maqsadida elektron kundalik tizimini joriy etish va boshqalar shular jumlasidan[3]. Farmonining ta’lim sohasini raqamlashtirishga oid bandlari ijrosini ta’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining amalga oshirayotgan ishlari holati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi.

2022-2023 o‘quv yilida kompyuter sinf xonalari, interaktiv doska va komplekt robototexnika jihozlari maktablarga yetkazib berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalari vazirligi ko‘magida umumta’lim maktablariga Internet tarmog‘i infratuzilmasi olib kelingan va “Education” tarif rejasidagi internetdan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, umumta’lim maktabi va “Barkamol avlod” bolalar maktabining kompyuter sinf xonalari va o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari xonasi ichki lokal tarmoq hamda o‘qituvchilar xonasi “Wi-Fi” qurilmalari bilan ta’minlangan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida 20 dan ortiq axborot tizimlari ishlab chiqilib, tizimga joriy etilmoqda. Jumladan: - “Maktab ta’lim jarayonini Yagona elektron tizimi - “erp.maktab.uz” dasturiy majmuasi ishlab chiqilib 14 ta manfaatdor vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazalariga integratsiya qilingan

hamda ma’lumotlar ombori yaratilgan. Shuningdek, sinf parametrlari asosida shakllantirilgan sinf jamlanmasi moliyalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining UzAsbo dasturiy majmuasi bilan integratsiya amalga oshirilgan.

O‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash va monitoring olib borish hamda o‘qituvchilar faoliyatiga oid statistika va hisobotlarni yuritish maqsadida “Elektron kundalik” avtomatlashtirilgan axborot tizimini respublika bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etilgan.

Fanlar kesimida o‘qituvchilarning mavjud vakant o‘rinlariga munosib nomzodlar bilan to‘ldirishning shaffof mexanizmini yaratish maqsadida “O‘qituvchilarning milliy kadrlar zaxirasi” maxsus elektron portali (https://ntr.avloniy.uz/) yaratilgan va boshqalar.

Sh o’rinda yutuqlar bilan birga, ayrim kamchiliklarga to‘xtalib o‘tadigan bo’lsak, barcha ta’lim tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 100 foiz optik tolali Internet liniyalari bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, ta’lim tashkilotlari tomonidan ushbu liniyalar imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti. Respublikaning chekka hududlaridagi ta’lim muassasalarida ma’nan eskirgan kompyuterlar saqlanib qolinmoqda. Maktablardagi barcha kompyuter xonalari UPS qurilmasi bilan ta’minlanmagan. O‘quv yilining o‘rtasida kompyuteri yaroqsiz holga kelgan maktablarda keyingi yil xarajatlar smetasiga kiritilgunga qadar kompyuterlarni ta’mirlash zarurati mavjudligicha qolmoqda. Elektron tizimlarda integratsiyalash jarayonlarida maktabda ta’lim olayotgan doimiy yashash bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tmagan oilalarning farzandlari ta’lim olishi muammolarga uchramoqda. Qolaversa, tizimdagi umumta’lim maktablarida internetdan foydalanishni monitoring qilish hamda mazkur xizmatlar uchun davlat bydjeti mablag‘larini maqsadli sarflanishini nazorat qilib borish imkoniyati mavjud emas.

Ta’lim yo‘nalishini raqamlashtirish orqali uning samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsakta’limni raqamlashtirish birinchi navbatda, talabalar va o’qituvchilar o’rtasida onlayn ko’rinishdagi muloqot integratsiyasini rivojlantirsa, ikkkinchi tomondan, talabalarning o’z ustida ilg’or o’quv texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlash ko’nikmalarini shaklantiradi. Bu esa hozirgi rivojlanish jarayonida raqamlashtirishning yangi tendensiyalarini ta’lim jarayoniga qo’llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O’zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to’g’risida”gi PF 6079 sonli farmoni. https://lex.uz/docs/-5030957

2. N.V.Nosirov Raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida qo‘llanilishi. (2024). Innovations in Science and Technologies, 1(3), 175-179. https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/301

3. Anarbayeva , F., & Abdullayeva, M. (2023). Oliy ta'limni raqamlashtirishning imkoniyatlari va ahamiyati. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 490–496. Retrieved from https://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/view/104

ARTIFICIAL INTELLIGENCE VR AND AR TECHNOLOGIES

Nasriddinova Shaxzoda Maxmudjonovna
Moliya lyceum second year student of the Faculty of Economics
nasriddinovasahzoda@gmail.com

Artificial Intelligence (AI), Virtual Reality (VR), and Augmented Reality (AR) are transforming various industries, including education, healthcare, entertainment, and manufacturing. These technologies offer innovative solutions and unprecedented capabilities, but they also present challenges that need to be addressed. This essay explores the current state, potential, and challenges of AI, VR, and AR technologies.

Key words: Artificial Intelligence(AI), Virtual Reality(VR), Augmented Reality (AR).

1. Artificial Intelligence(AI)

Applications and potential

AI is revolutionizing numerous fields by automating tasks, enhancing decision-making processes, and enabling the development of intelligent systems. In healthcare, AI aids in diagnostics, personalized medicine, and predictive analytics. In education, AI-driven tools provide personalized learning experiences, automate administrative tasks, and enhance student engagement through adaptive learning systems.

Challenges

AI development faces several challenges, including ethical concerns, data privacy issues, and the need for large datasets to train models. The potential for job displacement due to automation and the risk of biased algorithms also pose significant concerns.

Solutions

Addressing these challenges requires developing ethical guidelines for AI use, ensuring data privacy through robust security measures, and fostering transparency in AI algorithms. Additionally, workforce retraining programs can help mitigate job displacement impacts.

2. Virtual reality(VR)

Applications and potential

VR creates immersive environments that can simulate real-world or imagined experiences. In education, VR enhances learning by providing interactive simulations and virtual field trips. In healthcare, VR is used for pain management, surgical training, and rehabilitation. In entertainment, VR offers new forms of storytelling and gaming experiences.

Challenges

VR technology faces challenges such as high development costs, the need for powerful hardware, and potential health issues like motion sickness and eye strain. Accessibility and user adoption are also barriers to widespread use.

Solutions

To overcome these challenges, the industry needs to invest in affordable VR hardware and software development. Ensuring VR experiences are user-friendly and providing guidelines to mitigate health risks can enhance user adoption. Collaboration between VR developers and educators or healthcare professionals can create more relevant and effective applications.

3. Augmented Reality(AR)

Applications and potential

AR overlays digital information onto the real world, enhancing the user's perception of their environment. In education, AR provides interactive learning materials and visualizations that enhance comprehension. In retail, AR enables virtual try-ons and interactive product displays. In industry, AR assists with maintenance, repair, and assembly processes by overlaying instructions and information directly onto physical objects.

Challenges

AR faces challenges such as limited field of view, high development costs, and the need for advanced hardware. User acceptance and the potential for information overload are also concerns.

Solutions

Improving AR hardware to be more lightweight and cost-effective can facilitate broader adoption. Developers should focus on creating intuitive and user-friendly AR applications. Educating users about the benefits and proper use of AR can also enhance acceptance.

AI, VR, and AR technologies hold immense potential to transform various sectors by providing innovative solutions and enhancing user experiences. However, addressing the associated challenges is crucial for maximizing their benefits. Through ethical AI practices, investment in VR and AR hardware and software, and education about these technologies, society can harness their full potential.

List of Used Literature

1. Russell, S. J., & Norvig, P. (2016). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
2. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
3. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). Siri, Siri, in My Hand: Who's the Fairest in the Land? On the Interpretations, Illustrations, and Implications of Artificial Intelligence. Business Horizons, 62(1), 15-25.
4. Sherman, W. R., & Craig, A. B. (2018). Understanding Virtual Reality: Interface, Application, and Design. Morgan Kaufmann.
5. Burdea, G., & Coiffet, P. (2003). Virtual Reality Technology. John Wiley & Sons.
6. Azuma, R. T. (1997). A Survey of Augmented Reality. Presence: Teleoperators and Virtual Environments, 6(4), 355-385.

OPTIK EMISSION SPEKTROMETRIK (ISP-OES) USULIDAGI TAHLIL AFZALLIKLARI

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna,
Jizzax politexnika instituti, Kimyo kafedrasi o'qituvchisi
yorqinoyaxmadjonova@bk.ru

Annotatsiya. Og'ir metallarni juda past darajasidagi konsentratsiyalariga qadar yuqori aniqlik bilan aniqlash analitik metodologiyaning eng muhim ahamiyati hisoblanadi. Maqolada suvdagi og'ir metallarni aniqlash Avio™ (Avio200) optik emissiya spektrometri (ICP-OES) usulini afzalliklari keltilgan.

Kalit so'zlar. optik emissiya spektrometri (ICP-OES), Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi (AAKT), og'ir metallar, gidrologiya, gidrokimyo,

Dolzarbligi. Sayyoradagi texnogen o'zgarishlar shunchalik tez sodir bo'ladiki, ularni geologik falokatlar bilan taqqoslash mumkin. Insonning sayyoradagi hayotining salbiy oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan barcha harakatlariga qaramay, inson hayot muhitini u yoki bu darajada o'zgartirgan va o'zgartirishda davom etmoqda.

Dunyo bo’yicha, globol iqlim o‘zgarishi sharoitida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT) suv sathini ko‘tarilishi va pasayishi ekstremal vaziyatlarini tahlil qilish, suv resurslarining ko‘p yillik gidrologiyasi va gidrokimyoviy o‘zgarishi dinamikasini o‘rganish, aniqlash va baholash zarur hisoblanadi[1,2].

Taqdqiqot metodologiyasi. Og’ir metallarni juda past darajasidagi konsentratsiyalariga qadar yuqori aniqlik bilan aniqlash analitik metodologiyaning eng muhim ahamiyati hisoblanadi[3]. Suvdagi og’ir metallarni aniqlash uchun voltammetriya, ICP-OES, va UV-ko’rinadigan spektrofotometriya qo’llaniladi. Bog’langan plazma optik emissiya spektrometri (ICP-OES) eng ko’p ishlatiladigan usullardan biridir. Bunday usullarda biri, Avio™ (Avio200) tizimi hatto eng murakkab tahlilni ham qila oladi.

AAKT dan olib kelingan suv namunasi tarkibidagi og’ir metallar tahlili Avio200 (ISP-OES) optik emission spektrometrik usulida aniqlandi. AAKT dan olib kelingan suv namunasi tarkibidagi og’ir metallar tahlili Avio200 (ISP-OES) optik emission spektrometrik usulida aniqlandi[4].

Natijalar va muhokama. Namunalar bahor va kuz oylarida olingan bo’lib, qishki-bahorgi yog’ingarchilikdan so’ng, hamda yozgi bug’lanishdan keyingi suv tarkibi tahlil qilindi.


ICP-OES usulidan foydalanib quyidagi 17 ta element tahlil qilindi. O’rganilayotgan hududlardagi ushbu og’ir metallarning ruhsat etilgan me’yor (REM) darajalari umumlashtiriladi, muhokama qilinadi. Olib kelingan suv namunalari tog’ridan to’g’ri filtrlanib tahlilga qo’yildi. Natijada qo’rg’oshin (Pb), kadmiy (Cd), surma (Sb) qalay(Sn), mis(Cu), simob(Hg), nikel(Ni), kumush(Ag)aniqlanmadi.

Har bir namuna olish joyidan suv namunalari oldindan tozalangan plastik konteynerlarga olingan. Namuna olingan hududlarining bahor-kuz mavsumidagi suv tarkibini ICP-OES usuli bo’yicha tahlili 1 jadvalda keltiriltirilgan.

	Aniqlangan metallar	Bahor(aprel-may)	Kuz(sentyab-oktyabr)	REM
1	Cr(мг/л)	0.002	0.0004	0,001
2	Co(мг/л)	0.002	0.001	0,001
3	Zn(мг/л)	0.003	0.002	0,01
4	V(мг/л)	0.008	0.015	0,001
5	Mo(мг/л)	0.020	0.027	0,25
6	Mn (мг/л)	0.0004	0.001	0,04
7	Fe(мг/л)	0.039	0.018	0,5
8	Ba(мг/л)	S4	0.006	0,7
9	Sn(мг/л)	0	0	0,00001
10	Pb(мг/л)	0	0	0,01
11	Cd(мг/л)	0	0	0,001

12	Sb(мг/л)	0	0	0,01
13	Ni(мг/л)	0	0	0,01
14	Cu(мг/л)	0	0	0,001
15	Al(мг/л)	0,048	0,354	0,04
16	Hg(мг/л)	0	0	0,0001
17	Ag(мг/л)	0	0	0,05

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kuz oyida olingan namunalar tahlilida xrom, kobalt, rux(sink) miqdorini kamayganini kuzatdik. Lekin vanadiy miqdorini ortganini ko‘rishimiz mumkin.



Yuqorida tahlillar asosida aniqlangan og’ir metallarni REMdan ortib ketmasligini nazorat qilib borish, AAKT suv beruvchi manbalardagi suv hajmini va sifatini baholash, suv miqdorini prognoz qilish hamda suv ta’minoti barqarorligiga erishish, AAKT atrofida ekologik vaziyatni yaxshilash va saqlash, biologik resurslarni rivojlantirish imkonini beradi, hamda oziq-ovqat xafvsizligini ta’minlashda baliqchilik sanoatini rivojlantirishga yo’naltirilgan amaliy ishlarni rivojlantiradi.

Chunki, ekologik xavfsizlik jamiyatimiz buguni va kelajagining eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Aydar-Arnasoy ko'llari tizimi misolida ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari muhokama qilishimiz orqali qurg‘oqchil iqlimimizdagi sug‘oriladigan va antropogen ko‘llarni o‘rganish, ko‘z o‘ngimizda ro‘y berayotgan Orol dengizining halokatli taqdiri davrida ekologik xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

AAKT dan olib kelingan suv namunasi tarkibidagi og’ir metallar tahlili Guliston Davlat Universitetining ekspremental biologiya laboratoriyasining “Kimyoviy tahlil” bo’limida Avio200 (ISP-OES) optik emission spektrometrik usulida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyatovna, Y. Z., Tojimurodovna, A. Y., & Tojimurodovna, A. U. (2021). Aydar-Arnasoy ko’llar tizimining gidrologik tavsifi va ekologik holati. Science and Education, 2(7), 160-169

2. Akhmadjonova, U. T., Akhmadjonova, Y. T., & Yakhshieva, Z. Z. (2021). Technogenic Transformations of the Aidar-Arnasay Lake System and their Geological Consequences. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2912-2916.

3. Ахмаджанова, Yo. T., & Яхшиева, З. З. (2021). Анализ воды Айдар Арнасайского озера на содержание тяжелых металлов. Журнал естественных наук, 1(4).

4. Ахмаджонова Ё. Т. Айдар-Арнасой кўллар тизимининг экологик ҳолати ва оғир металлар билан ифлосланишини (ИСП-ОЭС) оптик эмиссион спектрометрик усулида ўрганиш //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 318-326.

TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Axmedov Bekjan Askarovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti


Annotatsiya: Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirish sharoitida ta'lim jarayoni sub'ektlari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish uchun yangi imkoniyatlar ochadigan yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi va tarmoqlarning imkoniyatlari yurtimizda ta'limni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari bilan tasdiqlangan.

Kalit so’zlar: axborot kommuniatsiya texnologiyalari, sun’iy intellect, axborot xavfsizligi.

2021-yildan O’zbekistonda ta'limini modernizatsiya qilish kontsepsiyasi, umumta'lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida, umumta'lim maktablarining bir qismini ixtisoslashtirilgan ta'limga o‘tkazishni belgilaydi. Prezidentning “Fizika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (2021-yil 19-mart, PQ-5032-son) qabul qilindi. Farmon bilan 2021–2023-yillarda fizika fanidan ta’lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar samaradorligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Fizika sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, tizimini rivojlantirish Kompleks dasturning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. 2021-2022-yillarda respublika hududlarida bosqichma-bosqich 28 ta fizikani chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktablar tashkil etiladi va ularga tegishli oliy ta’lim muassasalarining kafedralari biriktiriladi. Shuningdek, 2021-2023-yillarda 175 ta maktabda fizika fanini chuqurlashtirgan sinflar tashkil etiladi[3].

Axborot texnologiyasi – Ob’ekt, jarayon yoki hodisaning holati haqida yangi sifat axboroti olish uchun ma’lumotlar yig‘ish, ishlov berish va uzatishning vosita va uslublarining jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir. Telekommunikatsiya-kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma’lumotlarni masofadan uzatishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi turli xil axborotdan samarali foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo‘ladi. bu jamiyatda ko‘pchilik ishlovchilar axborot, uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, ishlov berish va amalga oshirish bilan band bo‘ladilar. Axborot jamiyatida kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaalaridan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotga ishlov berishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta’minlashga imkon beradi. Bu jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butut turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o‘zgaradi. Jami faoliyat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol etishga yo‘naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborot jamiyatida tafakkur, bilimlar ishlab chiqariladi va iste’mol etiladiki, bu holatlar aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Ushbu jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. O‘quv materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha hozirda Respublikamizda ma’lum bir ishlar qilinmoqda. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan bo‘lib, o‘quv materiallari ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yaratilmoqda.



Taqdimot materiallarini tayyorlash bosqichlari

Yuqoridagi chizmadan ko‘rinib turibdiki, taqdimot materiallarini tayyorlashning birinchi bosqichi tayyorlanadigan material bo‘yicha g‘oyaning shakllanishidir. Ya’ni

material kimlar uchun mo‘ljallangan va qanday ko‘rinishda bo‘lishi to‘g‘risida yaratuvchida bir necha g‘oyalar shakllanadi. Ikkinchi bosqichda material bo‘yicha kerakli ma’lumot yig‘iladi. Ushbu ma’lumotlar mavzuga taaluqli va aniq maqsadga qaratilgan bo‘lishi lozim. Aks holda keraksiz va foydasiz ma’lumotlar yig‘ilishiga hamda vaqtning behuda sarflanishiga olib keladi. Uchinchi bosqich reja tuzish bosqichi hisoblanib, unda materiallar saralanib olinadi va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish rejalashtiriladi. To‘rtinchi bosqichda saralab olingan materiallar ichidan slaydga beriladigan matn tanlab olinadi. Slaydlardagi matnlar juda ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Matnlar qisqartirilgan ko‘rinishda tanlab olinadi. Bir slayddagi matnlar 7-8 qatordan oshmasligi lozim. Ta’lim beruvchi dars jarayonida qisqartirilgan matnlarni og‘zaki to‘ldirgan holda tushuntirib beradi. Dizayn tanlash bosqichida matnning shrifti, matnga qo‘shimcha rasm, chizma, grafika va ranglar tanlab olinadi. Shundan so‘ng, ya’ni oltinchi bosqichda barcha tanlab olingan materiallarga animatsiya qo‘yiladi. Animatsiyada matn va tasvirlarni harakatlantirish, unga ovoz berish imkoniyatlari mavjud. Animatsiyadan foydalanish materialni yanada jonliroq va qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim oluvchiga berilgan materialning uzoq vaqt hotirasida saqlanib qolishiga va ularning motivatsiyasining oshishiga yordam beradi.

Bugungi kunda pedagogik adabiyotlar va amaliyotda “loyihalash” atamasi ko‘p qo‘llanilmoqda.

U muayyan darslar, alohida mavzular, yaxlit o‘quv fanlari, o‘quv mashg‘ulotlari yoki fanlar komplekslarini ishlab chiqish bilan bog‘lanadi va texnologiyalashgan pedagogik ob’ektlar, jumladan, pedagogik jarayonlarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi.

Loyihalashtirilgan pedagogik jarayonlar asosida shaxsning kasbiy sifatlarini shakllantirish qonuniyatlariga asoslangan ijobiy natijaga bosqichma-bosqich olib keladigan g‘oyalar yotadi.

Bugungi kunda muammoli o‘qitish, aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish, ta’lim berishning kompyuter texnologiyasi, modul ta’lim texnologiyasi, kabilar keng qo‘llanilmoqda va ular pedagogik jarayonni loyihalashga asos bo‘ladi.

Zamonamiz shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda texnika va texnologiyalar ma’naviy jihatdan tez eskirib qolyapti.

Ishlab chiqarish bilan qiyoslash asosida aytish mumkinki, pedagogning kasbiy faoliyati davomida ta’lim-tarbiya texnologiyalari 2-3 larga almashib ulgurmoqda.

Masalan: xususiy kompyuter yaqin-yaqingacha ta’limning eng noyob vositalaridan biri bo‘lib, hamma o‘qituvchilar ham u bilan muomala qila olmasdi. Bugun esa ta’limda kompyuter texnologiyasi keng tarqalgan. Bu ishni o‘quvchilarga mos usulda va o‘quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda pedagogik loyihalash pedagog va o‘quvchilarning samarali faoliyatini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Puxta, savodli loyihalashtirilgan pedagogik jarayonlar, texnologiyalar va boshqa ob’ektlar vositasida pedagog o‘quvchi shaxsini va o‘z-o‘zini rivojlantirishga erishadi, turli salbiy omillar ta’sirini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. E.O. Koshchanov va. *Fizikadan laboratoriya ishlarini imitasion kompyuter modeli yordamida bajarish.* “Uzluksiz ta’lim”. Ilmiy-uslubiy jurnal,№4 T.:2003. : 61-65 b.
2. Egamberganov, I. Sh. (2022). FORMATION OF RESEARCH COMPETENCIES IN STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(11), 508-513.
3. Dusmuratov, M. B., Tillaboyev, A. M. (2021). Yorug‘lik oqimi tushunchasini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish. Academic research in educational sciences, 2(12), 483-491.
4. Абдуллаев, Ш. У., Джумаева, Г. С. (2022). Ҳарбий олий таълим муассасаларида проектли таълимнинг хусусиятлари. Экономика и социум, 9(100), 832-834. Aminbaev, B. M., Narmanova, N. E., Tadjibaev, I. U., Durdiev, L.A. (2022). Some recommendations to increase the interest of general secondary school students in astronomy. Pedagogy & Psychology. Theory and practice International scientific journal, 3(41), 15-18.

METHODS OF TEACHING ENGLISH USING DIGITAL TECHNOLOGIES

Azimova Sayyora Khusanboyevna
Fergana State University
Senior teacher (PhD)
macmillan1926@mail.ru

Annotation. This article explores various methods of teaching English utilizing digital technologies. It examines how these technologies enhance language learning, improve engagement, and provide innovative teaching strategies. The study also reviews key contributions and methodologies in digital language education, providing practical examples and examining the impact of these technologies on both learners and educators.

Keywords – digital technologies, English teaching, language learning, educational technology, e-learning, digital tools

Introduction. The advent of digital technologies has revolutionized many aspects of our lives, including education. In the realm of language learning, digital tools offer new opportunities for enhancing the teaching and learning experience. This article investigates the methods of teaching English through digital technologies, focusing on how these methods improve learning outcomes, increase student engagement, and offer innovative instructional strategies.

Methods. A comprehensive review of existing literature on digital technologies in English teaching. This involves analyzing academic articles, books, and case studies to identify current trends and effective practices. Example: Reviewing studies on the use of mobile applications for vocabulary building, such as Duolingo and Memorize.

Conducting interviews and surveys with educators and students to gather insights into their experiences and perceptions of using digital tools in English language learning.

Surveying teachers about their use of interactive whiteboards and digital storytelling tools in the classroom.

Detailed case studies of specific schools or educational programs that have successfully integrated digital technologies into their English teaching curriculum.

Analyzing the implementation of a blended learning program at a high school where students use online platforms for grammar and writing practice.

Designing and conducting experiments to compare the effectiveness of traditional teaching methods versus digital technology-enhanced methods.

Comparing test scores of students who use a language learning app for practice versus those who use traditional workbooks.

Literature Review. Key Theoretical Foundations. Digital Language Learning Theories. Research by Jones and Plass highlights the cognitive benefits of multimedia in language learning, emphasizing how visuals and interactive elements can aid in comprehension and retention [2].

Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK)

The TPACK framework, developed by Mishra and Koehler, underscores the importance of integrating technology with pedagogy and content knowledge to create effective educational experiences [4].

Practical Applications. Mobile-Assisted Language Learning (MALL).

Kukulska-Hulme and Shield discuss how mobile devices facilitate ubiquitous language learning, allowing students to practice anytime and anywhere [3].

Gee explores how game-based learning can make language acquisition more engaging and effective through interactive and motivational elements [1].

Stockwell compares the effectiveness of mobile learning versus traditional classroom methods, finding significant benefits in terms of student engagement and flexibility [5].

Conclusion. The integration of digital technologies in teaching English offers significant benefits, including enhanced engagement, flexible learning opportunities, and improved learning outcomes. Through various methods such as

mobile-assisted learning, gamification, and multimedia tools, educators can create more dynamic and effective language learning experiences. Future research should continue to explore innovative technologies and their impact on language education, ensuring that digital tools are used to their fullest potential to benefit both learners and teachers.

REFERENCES

1. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Palgrave Macmillan. (p. 67)
2. Jones, L. C., & Plass, J. L. (2002). Supporting Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in French with Multimedia Annotations. The Modern Language Journal, 86(4), 546-561. (p. 153)
3. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An Overview of Mobile Assisted Language Learning: From Content Delivery to Supported Collaboration and Interaction. ReCALL, 20(3), 271-289. (p. 280)
4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054. (p. 1025)
5. Stockwell, G. (2010). Using Mobile Phones for Vocabulary Activities: Examining the Effect of the Platform. Language Learning & Technology, 14(2), 95-110. (p. 96)

UMUMTA`LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING FAOLIYATIDAGI ZAMONAVIY KOMPETENTSIYALARI

Bekturdiev Qadirbay Bekbusinovich
A.Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada maktab direktorlarida zamonaviy rahbarlik kompetentsiyalari shaklantirishning ayrim aspektlari haqida ma’lumot beriladi.

Таянч сўзлар: ta’lim sifati, baholash, vosita, kompetensiya, boshqaruv, innovatsiya, kommunikativ, menejmanet.

АННОТАЦИЯ. В данной статье представлена информация о некоторых аспектах формирования современных лидерских компетенций у директоров школ.

Ключевые слова: качество образования, оценка, инструмент, компетентность, менеджмент, инновации, коммуникативность, менеджмент.

ANNOTATION. This article provides information about some aspects of the formation of modern leadership competencies in school principals.

Key words: quality of education, assessment, tool, competence, management, innovation, communicative, management.

Mamlakatimizda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar hozirgi ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Respublika ta’limining yangi tizimini shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalari va ko‘rsatmalari, pedagogik nazariya va amaliyotdagi sezilarli o‘zgarishlar maktab rahbarlari oldiga yangi maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Maktablarda o‘zgaruvchanlik tamoyili tasdiqlangan bo‘lib, u pedagogik jamoaga optimal variantlar bo‘yicha pedagogik jarayonni tanlash va loyihalash, yangilash va modernizatsiya qilish uchun g‘oyalar va texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Ta’lim muassasasi direktori zamonaviy boshqaruv g‘oyalari xilma-xilligini yo‘lga qo‘yishi, ilm-fan yutuqlari va ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganishi va muvaffaqiyatli qo‘llashi, transformatsion faoliyatni tashkil qilishi zarur. Shu munosabat bilan, ta’lim jarayonlarini boshqarish masalalari yanada keskinroq qo‘yiladi, chunki maktab amaliyoti maktab direktorlarining kasbiy faoliyatga tayyor emasligini va ularning ko‘pchiligida zarur boshqaruv malakasining yo‘qligini ko‘rsatadi.

Ta'limni boshqarishning davlat-jamoat modeli, davlat va mahalliy jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Bu model, ta'lim sohasida samarali strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirishda turli manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlaydi. Ushbu modelning asosiy xususiyatlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:

Keng ishtirok: Davlat-jamoat modelida davlat idoralari, o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar, mahalliy bizneslar va jamoat tashkilotlari kabi turli guruhlar jalb qilinadi. Bu keng ishtirok, ta'lim siyosatini ishlab chiqishda turli nuqtai nazarlarni inobatga olish imkonini beradi.

Resurslarni umumlashtirish: Bu model, resurslarni optimallashtirish va ta'lim muassasalariga qo'shimcha mablag' va resurslarni jalb qilish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, mahalliy bizneslar maktablarga moliyaviy yordam yoki texnologik asbob-uskunalar taqdim etishi mumkin.

Mahalliy Ehtiyojlarni inobatga olish: Ta'lim siyosatini mahalliy darajada ishlab chiqish, maktablarning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqroq tushunish va ularni qondirishga imkon beradi. Bu, o'quv dasturlarini mahalliy madaniyat va iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan qilishni o'z ichiga oladi.

Oshkoralik: Davlat-jamoat modeli, ta'lim muassasalarining faoliyatida oshkoralik va hisobdorlikni ta'minlashga yordam beradi. Ota-onalar va mahalliy jamoat a'zolari maktabning faoliyati haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lib, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Moslashuvchanlik va Innovatsion yondashuvlar: Turli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish, yangi g'oyalarni va yechimlarni joriy etishda moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bu, o'quvchilarning turli talablari va o'zgaruvchan dunyo sharoitida ularni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Ta'limni boshqarishning davlat-jamoat modeli, ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi va turli manfaatdor tomonlarning ishtiroki orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bu model muvaffaqiyati ko'p

jihatdan ishtirokchilarning samarali hamkorligi va mablag'larining yetarli bo'lishiga bog'liq.

Maktab direktorlarining zamonaviy rahbarlik kompetentsiyalarini rivojlantirish talim texnologiyalari mavzusi bugungi zamonaviy dunyoda maktab rahbarlarining muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Talim texnologiyalari, rivojlantirilgan yangi texnologiyalar va vositalarning o'z ichiga olgan ilmiy metodlar va texnikalar jumlasini ifodalaydi.Maktab direktorlari uchun talim texnologiyalari juda muhimdir, chunki ularning rivojlanishini ta'minlash, o'quvchilarni rivojlantirish va o'rganish jarayonini yaxshilash, ma'naviy-ma'rifaviy tarbiyani mustahkamlash uchun yangi usullarni amalga oshirish imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiyalar arqon va samarali o'qitishni ta'minlash, ma'naviy-ma'rifaviy tarbiyaning sifatini oshirish, o'quvchilarga eng so'nggi texnologiyalardan foydalanishga ruxsat berish va rahbarlik mahoratini oshirishga yordam beradi.

Maktab direktorlarining zamonaviy rahbarlik kompetentsiyalari

1-jadval

т/р	Компетentsiya	Kompetentsiya ta’rifi
1.	Pedagogik bilimlar va ilm-fanlar bilan doimiy ravishda tanishib borish	Maktab direktorlari o'zlarining pedagogik bilimlar va yangiliklarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yangiliklar va yangi texnologiyalarga doimiy ravishda e'tibor qaratishlari kerak.
2.	Ma'lumotlar tahlil va maqsadlarni belgilash	Direktorlar ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish, maqsadlarni belgilash va strategik yo'nalishlarni aniqlash uchun yuqori kompetentsiyaga ega bo'lishi kerak
3.	Innovatsiyalar va yangiliklarga e'tibor berish	Zamonaviy rahbarlar, innovatsiyalar va yangiliklarga e'tibor berish orqali maktabning rivojlanishini ta'minlash uchun kuchli strategiyalar qurishadi. Teknologiyalardan foydalanish, yangi o'qitish usullarini joriy etish va o'quv jarayonlarini yanada yaxshilash bu rahbarlikning bir qismidir.
4.	O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga e'tibor berish.	Zamonaviy rahbarlar, o'quvchilarning akademik rivojlanishidan tashqari, ularning shaxsiy rivojlanishiga ham e'tibor qaratadi. Maktab direktori o'quvchilarga mentoring qilish, ularning o'zlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar

		yaratish va ularning isyonlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.
5.	Ishbilarmonlik va tadbirkorlik	Maktab direktorlari ish faoliyati va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi loyihalarni boshlash va ularni amalga oshirish uchun qabiliyatga ega bo'lishi lozim.
6.	Jamoaviy kompetentsiya	Maktab direktorlari boshqa o'qituvchilar bilan, ota-onalar bilan, talabalar bilan va jamoat a'zolari bilan masalalar yechishda hamkorlik qilishni bilishi kerak.
7.	Kommunikativ kompetentsiya	Maktab direktorlari o‘quvchilar , o‘qituvchilar va ota-onalar bilan effektiv tarzda aloqalar o‘rnatish va o‘rtacha maqsadlarga yo‘naltirish uchun yaxshi kommunikatsiya qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.
8.	Menejment va tadbirkorlik mahorati.	Maktab administratsiyasini rivojlantirish, resurslarni samarador foydalanish va tadbirkorlikni oshirishga yordam berish uchun menejment va tadbirkorlik mahorati kerak.
9.	O'quv jarayonini monitoring qilish va baholash	Maktab direktorlari o'quv jarayonini kuzatish, baholash va takomillashtirish uchun qulay usullarni qo'llab-quvvatlashi kerak.

Bu kompetentsiyalar maktab direktorlarining zamonaviy va samarador rahbarlikni ta'minlashda muhimdir. Bu rahbarlik tuzilmasining faollik va o'quv jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. "The Principal: Three Keys to Maximizing Impact" by Michael Fullan

2. "What Great Principals Do Differently: Eighteen Things That Matter Most" by Todd Whitaker

3. "The School Leadership Playbook: A Field Guide for Dramatic Improvement" by Jean Desravines, Pedro Noguera, and Annette Anderson

4. "The New Principal's Fieldbook: Strategies for Success" by Pamela Robbins and Harvey B. Alvy

5. "The Principal 50: Critical Leadership Questions for Inspiring Schoolwide Excellence" by Baruti K. Kafele

O’ZBEKISTON TA’LIM ISLOHOTLARI TARIXIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TRANSFORMATSION DAVRI VA ISTIQBOLLARI

Boboqulova Xurshida Erkinovna
SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti

Annotasiya: Yangi O‘zbekistonning jamiyat tarixini asosiy bo’g’ini bo’lgan siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy – madaniy sohalarni, shu jumladan, uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohalarini tubdan isloh qilish jarayoniga alohida e’tibor qaratamiz. Bu soha yildan yilga yangi innovatsion texnologiyalar asosida transformatsion davrni boshdan kechirmoqda va uning istiqbollari kelgusida samaralidir.

Kalit so’zlar: Yangi O’zbekiston, ta’lim islohoti, ta’lim to’g’risida qonun, raqamli va innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlar tarixi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Har bir jamiyatning ta’lim tarixi islohatlarining asosiy bo’g’ini hisoblanib, madaniyatning ko‘rsatkichi va taraqqiyotning asosidir. Xususan, yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan ta’lim tarixida amalga oshirilgan islohotlarning maqsadi – barkamol shaxs va malakaviy mutaxassisni tarbiyalash hamda tayyorlashga qaratilgan.

O’zbekiston Respulikasining tarixida ta’lim islohotlar tarixi davriy xususiyatga ega bo’lib, bu quydagi yillarni o’z ichiga oladi:

1. 1992 yil 2 iyul O’zbekiston Respulikasining 636 – XII sonli qonuni 7 bo’lim, 44 moddadan iborat;

2. 1997 yil 29 avgust O’zbekiston Respulikasining 464 – I sonli qonuni 5 bo’lim, 34 moddadan iborat;

3. 2020 yil 9 sentyabr O’zbekiston Respulikasining 637 sonli qonuni 11 bob, 75 moddadan iborat.

Ushbu islohotlar jamiyatni yalpi yangilash, ijtimoiy hayotni tubdan isloh qilish butunlay yangi tafakkurdagi transfarmasion tarixini shakllantirish kabi uzoq muddatli, izchil davom etadigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy hodisadir.

O‘zbekistonda tarixida ta’lim islohotlari amalga oshirishning izchil mexanizmini yaratilishi buyuk kelajakka qaratilgan yalpi yangilanishlar konsepsiyasi vaqt o‘tgani sayin shakllantirib, rivojlantirib borilmoqda.

Bugungi kunda malakali mutaxassislarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi ta’lim tizimiga ilg‘or g‘oyalarni tadbiq etish va shu sohada uning mazmunini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat sanaladi. Ushbu jarayon ta’lim tizimini boshqarish, uni demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslanishiga ta’minlash hisobiga xizmat qilayotgani yanada ahamiyatlidir. Tarixiy jarayonning keng istiqbolli islohoti bo’lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6079-son qarori qabul qilindi.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Shuningdek bu ilg‘or texnologiyalarini keng o‘zlashtirilishi, jobiy o‘zgarishlar ahamiyat kasb etib, chet el investitsiyalari ko‘lamlarining kengayishiga, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesning rivojlanishiga yo’l ochmoqda. Bu faoliyatlar uzluksiz ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, o‘quvchi – yoshlarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta’limgacha tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o‘quv – uslubiy majmualarining yaratilishi, o‘quv – tarbiya jarayoning didaktik jihatdan ta’minlanishi ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirishga poydevor bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti tarixining hozirgi bosqichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, oliy ta’lim muassasalariga ham kirib borishi kengaymoqda. Shuningdek, bunday tarixiy taraqqiyot yo‘lini o‘z vaqtida tanlagan davlatlar muvaffaqiyatga erishishi aniq va asoslidir. Aksincha, eski usulda ishlayotgan davlatlar esa taraqqiyotdan ortda qolayotganligi kuzatilmoqda. Bu tendentsiya oliy ta’lim muassasalari uchun tarixiy transfarmasion jarayon bo’lib, bular har xil usullarda amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'limning ajralmas qismi hisoblanib, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejasida bir qator zamonaviy apparat va texnik vositalardan, shuningdek, dasturiy ta'minotdan hamda kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional ma'lumotlarni saqlash, taqdim etish, qayta ishlash va uni uzatish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradigan axborot texnologiyalari bilan bog‘liq fanlar mavjud. Shuningdek, AKT o‘qitish vositalariga aylanib bormoqda va shuning uchun zamonaviy o‘quv jarayonini elektron pochta, multimedia ilovalarini yaratish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minotsiz (prezentatsiyalar, video va audio materiallar va boshqalar) tasavvur qilish qiyin.

Ta’limda raqamli va innovatsion texnologiyalarning o'rni va istiqbollari bugungi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitish usullarini yaxshilash va o'quvchilarning bilim olish

jarayonini samarali qilish uchun keng qo‘llanilmoqda. Quyida ushbu texnologiyalarning o‘rni va istiqbollari haqida ba'zi ma'lumotlar keltiriladi.

1. Raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni raqamli o‘quv materiallari va resurslar asosida kuzatamiz:

-Elektron kitoblar va darsliklar: An’anaviy qog‘oz kitoblarga nisbatan elektron kitoblar ko‘proq interaktivlikni ta’minlaydi. Bunda multimedia elementlari (video, audio, animatsiyalar) ham qo‘llaniladi.

-Onlayn kurslar va mooc platformalari: Coursera, edX kabi platformalar orqali o‘quvchilar butun dunyo bo‘ylab taniqli universitetlardan kurslar olishlari mumkin.

-Interaktiv ta’lim, virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR): Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni virtual laboratoriyalar yoki tarixiy joylarga sayohatga olib chiqish orqali amaliy bilim olish imkoniyatini kengaytiradi.

-Interaktiv doskalar: Smart doskalar o‘qituvchilarga darsni jonli va qiziqarli tarzda o‘tishga imkon beradi.

-Yakuniy baholash va kuzatuv, test va baholash tizimlari: Raqamli test tizimlari tez va aniq baholash imkonini beradi. Bunda o‘quvchilarning bilim darajasi va bo‘shliqlari aniqlanadi.

-Learning Management Systems (LMS): Moodle, Canvas kabi tizimlar o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqa o‘rnatish, topshiriqlarni kuzatish va baholash imkoniyatini beradi.

2. Innovatsion texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni

-Sun’iy intellekt (AI), Personalizatsiya: AI yordamida har bir o‘quvchiga moslashgan o‘quv dasturlari yaratish mumkin. Bu o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga ko‘ra darslarni optimallashtirish imkonini beradi.

-Chatbotlar va virtual yordamchilar: AI asosida ishlab chiqilgan chatbotlar va virtual yordamchilar o‘quvchilarga kechayu kunduz yordam berishi mumkin.

-Blockchain texnologiyasi, diplom va sertifikatlarni saqlash: Blockchain texnologiyasi yordamida diplom va sertifikatlar xavfsiz tarzda saqlanadi va qalbakilashtirishga qarshi himoyalanadi.

-O‘quv jarayonini kuzatish: Bu texnologiya orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari va progressi aniq kuzatiladi.

3. Ta’limda Raqamli va Innovatsion Texnologiyalarning Istiqbollari

-Kengaytirilgan interaktivlik, kelajakda VR va AR texnologiyalarining rivojlanishi bilan o‘quvchilarga yanada boy va jonli ta’lim tajribasi taqdim etilishi kutilmoqda.

-Yuqori darajada individualizatsiyalashgan ta’lim, sun’iy intellektning rivojlanishi orqali ta’lim jarayoni takomillashuvi kabi transformasion tarixiy jarayonlardir.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdullayeva M. Ta'lim tarixi: o'quv qo'llanma / (va boshqalar). - Toshkent: “Muharir” nashriyoti, 2013, 120 b.

2. IZBASAROV A.F., ABDURAYIMOV S.S. va NIGMATOV Z.Z.3. OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI PEDAGOGIKANING O'RNI VA AHAMIYATI. Ta'limda raqamli va innovatsion texnologiyalarning o'rni va istiqbollari / ilmiy - amaliy konferensi to'plami. University of Management and Future Technologies, 2023 yil 14 dekabr.
3. https://lex.uz/docs.

BULUTLI TEXNOLOGIYALAR: ULARNING XUSUSIYATLARI, IMKONIYATLAR VA KAMCHILIKLAR

Muxitdinov X.T - O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

Globallashuv jarayonlarining oxirgi qisqa davrida asosiy harakatlantiruvchi mexanizmlaridan biri bo'lgan axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida davr talabiga mos keluvchi yangi yo'nalishdagi texnologiyalar yaratilmoqda. Bu texnologiyalar kompyuter tarmoqlari klassik modellaridan yetarlicha katta farq qilishi bilan birga, ayrim paytlarda aynan o'xshash tamoyillar asosida ish yuritadi. Bulutli hisoblash g'oyasi o'tgan asrning 60 yillarida paydo bo'lsada aloqa kanallarining shiddat bilan rivojlanib borishi va foydalanuvchilar talabining uzluksiz o'sib borishi natijasida 2007 yildan boshlab ommaviylashib, rivojlanish bosqichiga o'tdi.

Bulutli texnologiya (ingl. cloud computing) odatda, foydalanuvchiga kompyuter resurslari va quvvatini internet-xizmat ko'rinishida taqdimetadi. Shunday yo'l bilan foydalanuvchiga "sof" ko'rinishdagi hisoblash resurslari taqdim etiladi va foydalanuvchi o'zining masalalariga qanday kompyuter ishlov berayotganligi, qanday turdagi operatsion tizim (OT) boshqaruvida amalga oshiralayotganligi kabi savollarga javob ololmasligi mumkin va aslida, bu savollarga javob izlashning zarurati bo'lmaydi.

Ish yuritilishida o'xshashlik va umumiylikni topib bulutli texnologiyani "meynfrem"lar (mainframe) bilan taqqoslash mumkin. Ammo "bulut"ning "meynfrem"dan tamoyil jihatdan ajralib turuvchi farqlari mavjud, xususan, "bulut" hisoblash quvvatlarining nazariy jihatdan cheklanmaganligidir.

Dastlab paydo bo'lgan ma'lumotlarga ishlov berish texnologiyalari orasida grid-hisoblash (1990 yillarda) bir muncha keng tarqalish munosabatiga ega bo'ldi.

Dastlabki davrda bu yo'nalish texnik vosita protsessorining bo'sh turgan resurslaridan unumli foydalanish va hisoblash quvvatlarini ixtiyoriy ravishda ijaraga berish tizimini rivojlantirish imkoniyati sifatida qaraladi. Gridhisoblash bilan bulutli hisoblash arxitekturasi hamda qo'llanilayotgan tamoyillariga ko'ra o'zaro ko'pgina o'xshash jihatlarga ega. Shu bilan bir vaqtda, uzoqdagi hisoblash resurslaridan foydalanish uchun yetarlicha egiluvchan platformaga ega bo'lganligi bois bulutli hisoblash modeli eng istiqbolli texnologiya deb tan olindi.

Hozirgi kunda yirik bulut hisoblashlar ma'lumotlarga ishlov berish

markazlariga (MIBM) joylashgan minglab serverlardan tashkil topadi. Ular bir vaqtning o‘zida millionlab foydalanuvchini minglab ilova resurli bilan ta’minlab beradi. Bulutli texnologiyalar xususiy ERP, CRM tizimi yoki qo‘shimcha qurilmalar sotib olish va sozlashni talab etuvchi turli serverlarni saqlab turish o‘ta qimmatga tushib ketadigan korxonalar uchun qulay vosita hisoblanadi.

Xususiy foydalanuvchilar o‘rtasida o‘zining qulayligiga ko‘ra Google kompaniyasi tomonidan taqdim etilayotgan “Dokumentы”, “Kalendar” kabi xizmatlarga o‘xshash ko‘plab bulut xizmatlari keng tarqalish xususiyatiga ega bo‘ldi.

Bulutli texnologiyalardan foydalanish uzluksiz muvaffaqiyatga erishib borayotganligining sababi oddiy: ularni qo‘llash turli-tuman imkoniyatlarga ega hamda infra tuzilish, xizmat ko‘rsatish va xodimlarga sarflanadigan xarajatlarni tejaydi.

Masofadagi ma’lumotlar markazida ma’lumotlarga ishlov berish va axborotlarni saqlashga imkon beruvchi texnik ta’minot yetarli darajada soddalashtirilishi mumkin. Bunday muammolarning deyarli barchasi xizmatlar provayderi zimmasiga to‘liq yuklatiladi. Bunday yondashuv korxona

kompyuterlarida turli operatsion tizim (OT) (Windows, Linux, MacOS va boshqalar) o‘rnatilgan bo‘lsa ham ularni standartlashtirishga imkon beradi.

Kompaniya ma’lumotlariga kirishni ofisdan tashqarida yurgan, ammoInternetga ulanish imkoniga ega bo‘lgan xodim va mijozlar uchun birdek ta’minlashni osonlashtirib beradi.

Foydalanish uchun ko‘plab qulayliklariga qaramay, bir qator kamchiliklarga ham ega. Jumladan, foydalanuvchining xizmatlarni yetkazib beruvchi tashkilotga to‘liq bog‘lanib qolishi. Haqiqatan ham, bulutli xizmatni yaratilish tamoyiliga ko‘ra korxona faoliyati xizmatlar provayderi va Internet provayderning qanday ish olib borishiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Zamonaviy bulut texnologiyalari nafaqat tayyor tarmoq va server qurilmalari, balki, sekin-asta ichki quriladigan tizimlar (embedded cloud) bozoriga ham jadal kirib bormoqda. Turli tuman qurilmalarni global tarmoqqa ulash va boshqarish g‘oyasi “buyumlar interneti” (Inter-net of Things – IoT) deb yuritiladi. Microsoft Windows embedded bosh menenjeri Kevin Dallas fikriga ko‘ra, buyumlar interneti g‘oyasi ko‘p yillardan buyon mavjud, ammo bunday tarmoqni amalga oshirilmaganligiga sabab birgina bo‘g‘inning – bulutli texnologiyaning yaratilmaganligi edi.

Tarqatish modellari bo‘yicha bulutli hisoblash texnologiyalari ususiy, ommaviy va gibrid texnologiyalarga ajratiladi.

Xususiy bulut (private cloud) – korxonaning ichki bulut infratuzilishi va xizmatidir. Bunday bulut korporativ tarmoq doirasida joylashadi. Tashkilot xususiy bulutni mustaqil boshqarishi yoki bu masalani tashqi pudratchiga topshirishi mumkin. Infratuzilish buyurtmachi binosida yoki tashqi operatorda, yoki qisman buyurtmachi va qisman operator binosida joylashtirilishi mumkin.

Ommaviy bulut (public cloud) - bunday infratuzilmadagi bulutli hisoblash xizmatlaridan keng omma foydalanishi mumkin, yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etiladi va korporativ tarmoqdan tashqarida joylashtiriladi. Bunday bulut foydalanuvchilari bulutdagi ma'lumotlarni boshqarish yoki unga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, barchamac'uliyat bulut egasiga yuklatiladi. Mijoz foydalanayotgan resurslar uchun haq to‘laydi.

Foydalanuvchilarga boshqa yechimlarda mumkin bo‘lmagan katta ko‘lamli kengayuvchanlik imkoniyatiga ega biznes-tizim yoki veb-sayt (tarqalish) usullari qulay-oson va mumkin qadar qoniqarli narxlarda taklif etiladi. Bunday taqdim etuvchilarga Amazon YEC2i Amazon Simple Storage Service (S3), Google Apps/Docs, Salesforce.com, Microsoft Office Web onlayn-xizmatlarini misol sifatida keltirish mumkin.

SaaS bulut texnologiyalari O‘zbekistonda endigina joriy etib borilmoqda bu birinchi navbatda, xususan regionlarda, Internet tarmog‘iga ulanishning past sifati bilan bog‘liq. Biroq kelgusi yillarda SaaS xizmatlari eng ko‘p talab qilinadigan xizmatga aylanadi, chunki so‘nggi yillarda bulutli yechimlar jahon bozori jadal sur'atlarda o‘sib bormoqda va butun dunyo bo‘ylab o‘sish sur'atlari bozor o‘zgarishi aynan SaaS yo‘nalishida kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018 yil 9 sentabrdagi PQ-3827-sonli Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 18 maydagi, PQ-4321-sonli Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4321-sonli qarori, 2019 yil 18 may.
4. Гулямов С.С. Современные информационно-коммуникационные технологии в маркетинге информационных продуктов и услуг. Т. Фан ва технология, 1997
5. Дон Топскотт. Технология блокчейн: то, что движет финансовой революцией сегодня. М.2018

Kreativ ko'nikmalar va bo'lajak pedagoglarda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish

Qaynarova Iqbol Valiyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Erkaboyeva Durdona Alijon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'limda.kreativ pedagoglarga ruh bag'ishlovchi muhitni yaratish,Bo'lajak pedagoglarning kreativlikda ravonlik va erkinlikka erishish usullari hamda keng fikr yurita olish, vaziyat va muammoga turli yechim topish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, ravonlik, yaratuvchanlik ,moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, kreativ fikrlash.

Аннотация: В данной статье описывается создание среды, вдохновляющей творческих педагогов в образовании, методы достижения будущими педагогами беглости и свободы в творчестве, умения широко мыслить, находить разные решения ситуаций и проблем.

Ключевые слова: креативность, креативность, беглость речи, креативность, адаптивность, оригинальность, творческое мышление.

Abstract: This article describes the creation of an environment that inspires creative pedagogues in education, the methods of future pedagogues to achieve fluency and freedom in creativity, and the ability to think broadly, to find different solutions to situations and problems.

Key words: creativity, creativity, fluency, creativity, adaptability, originality, creative thinking.

Atrofga nazar solsangiz inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual olam, internet vas hu kabilar. Bularning barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Mana shunday ijodiy tafakkurni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonidan boshlanadi

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi: – fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olish; – o‘ziga xoslik (originallik); – qiziquvchanlik; – farazlar yaratish qobiliyati; – xayol qila olish (fantaziya). Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib

chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Kreativ ko'nikmalar:

1.Ravonlik.Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.Kreativ ravonlikning asosiy maqsadi bo'lajak pedagoglarda bir emas, balki bir nechta g'oyalarni o'rtaga tashlash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.Bo'lajak pedagoglarda ravonlik ko'nikmasini shakllantirish uchun aqliy hujum strategiyasidan foydalanadilar. Bu mashq oǵzaki yoki yozma (g'oyalarni qoǵozga yozib ,keyingi talabaga qo'shimcha ǵoyalar kiritish uchun uzatishi lozim)tarzda bajarish mumkin.Bo'lajak pedagoglar g'oyalarni o'rtaga tashlab ularni tahlil qiladilar va baholaudilar so'ng bu yana bir bor qaytariladi .Bu mashqda yaxshi natijalarga erishsalar, ulardagi kreativlik ko'nikmasi erkin va ravon fikrlash ko'nikmasi bilan chambarchas boǵliq bo'ladi

2.Moslashuvchanlik.Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.Moslashuvchan bo'lish uchun bo'lajak pedagoglar ma'lumotning faqat yuzaki qismini emas, balki uning chuqur mohiyatini anglab yetishlari lozim.Moslashuvchanlik ko'nikmasini shakillantirishda bo'lajak pedagoglar amaliyot bilan ta'minlansa va ularga yo'l yuriq ko'rsatilsa,kelgusida turli g'oyalarni topishda bu kuchli ustun bolib xuzmat qiladi.

3.Oziga xoslik.Boshqalarga o'xshamagan ,ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.O'ziga xoslik noodatiyg'oyalar o'ylab topish ko'nikmasidir o'quvchilar o'zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko'nikmalarini shakllantirib,so'ng noodatiy ,orginal g'oyalarni kashf etish ko'nikmasini hosil qiladi.

4.Yaratuvchanlik.G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.Yaratuvchanlik tushunchasi boshqa bir g'oyani rivojlantirish va uni kengaytirishga asoslanadi, ya'ni berilgan vazifalar anashu g'oya asosida bajariladi.Bir g'oyani kengaytirish uchun bo'lajak pedagoglar mavzu,muammo yoki vazifa mazmunini chuqur anglab yetishlari va talab etilgan darajada bilimga ega bo'lishlari lozim.

Ijodkorlik-bu inson taraqqiyoti ,innovatsiyalar,muammolarni hal qilish va shaxsiy o'sishning manbayi.Bu o'quvchilarni chegaradan tashqarida fikrlashga,bilimning aniqlanmagan hududlarini o'rganishga va chuqur qiziqish tuyǵusini rivojlantirishga undaydi.Ta'lim nafaqat ma'lumotni izlash, balki o'quvchilarda ijod uchqunlarini yoqishdir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yo'llari

Kreativ fikrlash- bu innovatsion (yangi ,navator,orginal ,nositandart,noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy ,natijaviy ,tejamli,optimal va hokazo...)yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash,tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan ǵoyalarni ishlab chiqish,baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu.mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vostalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'qituvchi bo'lajak pedagoglardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va nonverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab quvvatlashi zarur.O'qtuvchining bo'lajak pedagoglar berayotgan kreativ g'oyalarga nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ernazarova G.O. Kasbiy yo'naltirish ishlari (kasb-hunar kollejlari misolida) uslubiy qo'llanma.-Navoiy ,2017y,-132b.

2.Torrance E.R. Ijodkorlik va futurizimni o'gatish :ta'limni qayta jihozlash 1998.100-jild.

3.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat .- T.:Nizomiy nomidagi TDPU ,2005.

TEXNOLOGIYA FANIDAN KIYIMLARNI LOYIHALASH VA MODELLASH KOMPETENTINI RIVOJLANISHDA DASTURIY TA'MINOTNING DIDAKTIK IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.

Umarova Fatima Abdurahimovna – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Texnologik ta’limi metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotation: Ushbu maqola texnologiya fanida kiyimni loyihalash va modellashtirishda kompetentsiyani rivojlantirish uchun dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyatini o'rganadi. Zamonaviy texnologiyalar talabalar va mutaxassislarga virtual muhitda maxsus vositalardan foydalangan holda moda dizayni ko'nikmalarini samarali o'rganish va mashq qilish imkonini beradi. Dastur kiyimning virtual prototiplarini yaratish, dizaynlarni tahlil qilish, turli variantlarni sinab ko'rish va tezda o'zgartirishlar kiritish imkoniyatini beradi. Bu kiyimni loyihalash va modellashtirish jarayonini yanada samarali o‘rganish, hamkasblar bilan tajriba va fikr almashish imkonini beradi.

Key words: Didaktik imkoniyatlar, dasturiy ta'minot, kompetentsiya, kiyim dizayni, kiyimni modellashtirish, texnologiya fani, virtual prototiplar, kiyim dizayni, trening, kollektiv ijodkorlik.

Texnologiya fanida kiyimni loyihalash va modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish mavzusining dolzarbligi zamonaviy o'quv va kasbiy kontekstda shubhasizdir. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va maxsus dasturiy mahsulotlarning paydo bo'lishi bilan moda dizayni sohasida o'qitish va amaliyot yanada qulay, samarali va interaktiv bo'ldi.

Talabalar va mutaxassislar virtual muhitda kiyim dizaynlarini qayta yaratishi va tahlil qilishlari, shakllar va materiallar bilan tajriba o‘tkazishlari, jismoniy materiallarga ehtiyoj sezmasdan o‘z malakalarini oshirishlari mumkin. Bu nafaqat vaqt va resurslarni tejash, balki kiyim dizayni va uslubining asoslarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Didaktik imkoniyatlarga ega dasturiy ta'minotdan foydalanish orqali talabalar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari, vizualizatsiya va tahlil qilish ko'nikmalarini oshirishlari, loyihalarda jamoalarda ishlashlari mumkin. Bu moda va to'qimachilik sohasidagi mutaxassislar uchun zamonaviy talablarga javob beradi, bu erda raqamli vositalarni o'zlashtirish professional kompetentsiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Shunday qilib, texnologiya fanida kiyimni loyihalash va modellashtirishni o'rgatishda dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishning dolzarbligi ta'lim va mutaxassislar tayyorlashda innovatsiyalarning muhimligini ta'kidlaydi, ijodiy salohiyatni rivojlantirish va bu boradagi kasbiy saviyani oshirishga yordam beradi. maydon.

Texnologiya fanida kiyimni loyihalash va modellashtirish bo'yicha kompetentsiyani rivojlantirish uchun dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanganda quyidagi muammolar paydo bo'lishi mumkin:

1. Foydalanuvchilarni o'qitishning etishmasligi: Ba'zi talabalar yoki mutaxassislar yangi dasturiy ta'minotni o'rganish yoki u bilan ishlash tajribasi yo'qligi sababli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu sizning kiyim dizayni va uslubingizni rivojlantirish uchun dasturiy ta'minotni o'rganish va undan foydalanishni qiyinlashtirishi mumkin.

2. Texnik muammolar: Uskunangizda dasturiy ta'minotning mosligi bilan bog'liq muammolar, shuningdek, dasturda xatolik yoki ishdan chiqish bo'lishi mumkin. Bu ma'lumotlarning yo'qolishiga va o'rganish va ma'lumotlarni qayta ishlashda kechikishlarga olib kelishi mumkin.

3. Shaxsiylashtirilgan o'rganishning etishmasligi: Ba'zi dasturlar foydalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun etarlicha moslashuvchan bo'lmasligi mumkin. Treningni moslashtira olmaslik yoki shaxsiylashtira olmaslik materialni samarali o'zlashtirishni qiyinlashtirishi mumkin.

4. Dasturiy ta'minotga kirishning cheklanganligi: Talabalar har doim ham ixtisoslashgan dasturlarga ularning narxi yoki cheklanganligi sababli kirish imkoniga ega emaslar. Bu moda dizayni ko'nikmalarini o'rganish va rivojlantirish uchun notekis o'yin maydonini yaratishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish foydalanuvchilarni o'qitish, texnik yordam, shaxsiy trening va dasturiy ta'minotni barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiq qilishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Texnologiya fanida kiyim-kechaklarni loyihalash va modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish uchun quyidagi yechim usullarini qo'llash mumkin:

1. O'quv video darsliklar: maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda kiyimni loyihalash va modellashtirish jarayonini ko'rsatadigan video darsliklar shaklida ta'lim mazmunini yaratish. Bu talabalarga ishning har bir bosqichini aniq ko'rish va kerakli ko'nikmalarni egallash imkonini beradi.

2. Interfaol onlayn kurslar: interaktiv kurslarni ishlab chiqish, unda talabalar nafaqat nazariy materialni o'rganishlari, balki uni darhol amaliyotda qo'llashlari, kiyim dizayn dasturlari bilan ishlashlari mumkin.

3. Virtual laboratoriyalar: talabalar kiyim dizayni va vizualizatsiya dasturlari yordamida turli dizayn va naqshlar bilan tajriba o'tkazishlari mumkin bo'lgan virtual laboratoriyalar yarating.

4. Case Study: Talabalar dasturiy ta'minotdan foydalangan holda haqiqiy dunyo kiyim dizayn muammolari va loyihalarini hal qiladigan amaliy tadqiqot o'tkazish. Bu ularga olgan bilimlarini amalda qo‘llash va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Mahorat darslari va mahorat darslari: tajribali mutaxassislar dasturiy ta'minotdan foydalangan holda kiyim-kechak dizayni va modellashtirish sohasida o'z tajribalari va ilg'or tajribalari bilan o'rtoqlashadigan mahorat darslari va mahorat darslarini tashkil etish.

Bu metodlar o‘quvchilarda kiyim-kechak dizayni va modellashtirish sohasida o‘z ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga, shuningdek, fan va texnikani o‘qitishda dasturiy ta’minotning didaktik imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalanishga yordam beradi.

Texnologiya fanida kiyim-kechak dizayni va modellashtirish bo'yicha kompetentsiyani rivojlantirish uchun dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishda turli xil o'qitish usullari asosiy hisoblanadi. O'quv videodarslarini yaratish talabalarga dasturiy ta'minot bilan ishlash jarayonini aniq ko'rish imkonini beradi. Interfaol onlayn kurslar talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi. Virtual laboratoriyalar dizayn va modellashtirish echimlari bilan tajriba o'tkazish imkonini beradi. Keys tadqiqotlarini o'tkazish talabalarga moda dizaynidagi haqiqiy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Mahorat darslari va mahorat darslari talabalarga tajribali mutaxassislardan saboq olish va o‘z mahoratini oshirish imkonini beradi. Bu usullarning barchasi birgalikda texnologiya fanida kiyim-kechak dizayni va modellashtirish sohasini o'qitish uchun dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Zamonaviy dunyoda dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish texnologiya fanida kiyimni loyihalash va modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Dastur talabalar va mutaxassislarga moda dizayni ko'nikmalarini o'rganish, mashq qilish va yaxshilashga yordam beradigan noyob vositalar va funksionallikni ta'minlaydi.

Dasturiy ta'minot tufayli foydalanuvchilar kiyimning virtual prototiplarini yaratish, dizayn tahlilini o'tkazish, detallar va uslublarni o'zgartirish, modellarning estetik va funktsional xususiyatlarini baholash imkoniyatiga ega. Bu kiyimni loyihalash va modellashtirish jarayonini samarali o'rganish, turli xil variantlar bilan tajriba qilish va tezda tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Dastur shuningdek, moda tendentsiyalari bilan o'zaro aloqada bo'lish, yuqori sifatli dizaynlarni yaratish uchun maxsus vositalardan foydalanish va boshqa ishtirokchilar bilan loyihalarda hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Bu kollektiv ijodkorlikni rivojlantirish, tajriba va g‘oyalar almashish, shuningdek, o‘quv jarayonini takomillashtirish va bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.

Shunday qilib, texnika fanida kiyim-kechaklarni loyihalash va modellashtirish kompetensiyasini shakllantirishda dasturiy ta’minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini boyitibgina qolmay, balki ushbu soha mutaxassislarini tayyorlashning kasbiy darajasi va sifatini oshirishga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, dasturiy ta'minotning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish o'quv jarayonini sezilarli darajada boyitadi, kollektiv ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi va moda dizayni sohasidagi mutaxassislarning kasbiy darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Масалова В.А. Разработка методов проектирования одежды с использованием современных средств компьютерной графики. Дисс. к.т.н. - М., 1996.

2. Маслова Е.Г. Разработка методов интенсификации процесса автоматизированного проектирования конструкций одежды. Дисс. к.т.н. - М., 2007.
3. Масалова В.А. Основы AutoCAD: методическое пособие к выполнению лабораторных, курсовых и дипломных работ. / В.А. Маслова, Е.Г. Маслова. - М.: ИИЦ МГУДТ, 2004. - 47 с.
4. Umarova F. KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI //Toshkent davlat pedagogika universiteti. – 2023.
5. F.A.Umarova Use of modern information and communication technologies in the training of designers Journal of Central Asian Social Studies 1 (01), 34-44
6. Фотима Абдурахимовна Умарова / Талабаларга кийимларни лойиҳалаш ва моделлаштиришни ўргатишда ахборот-коммуникация технология воситаларидан фойдаланиш орқали таълим самарадорлигига эришиш / Современное образование (Узбекистан) 2021
7. Umarova Fotima Abdurahimovna / The Importance of Learning CAD / CAM FOR STUDENT FASHION DESIGNERS IN UNIVERSITIES. / ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ №22, 2022/1
8. ХА Умаров, ЗА Умарова / "Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы". Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 2018
9. Khusan Abdurakhimovich Umarov / Formation of students'professional readiness on the basis of innovative ways of cooperation in the conditions of uzbekistan (by the example of future teachers) / Journal of Central Asian Social Studies / 2020/8/10
10. FA Umarova / Methodology of Training Students in Design and Modeling of Clothes Using Information Communication Technologies / REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS 6, 2
11. NA Muslimov, ZA Umarova / The role of media resources in the process of self-education / International Journal Papier Public Review 2021
12. Zakhro Umarova, Umarov Abdurakhim Vakhitovich / Step towards the Development and New Prospects of Uzbek Higher Education / Journal La Edusci 2020/12/31

TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA “KIYIM TURLARI ASOSIDA YANGI MODELLAR YARATISH” MAVZUSINI O’QITISH METODIKASI

Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevna - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
www.hojikarimovagulasal.mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida texnologik ta’lim dars jarayonlarini tashkil etishda dars jarayonida ta’lim texnologiyalaridan

foydalanish, vaziyatli yondashuv, ta’lim va tarbiya jarayonlari samaradorligini aniq vaziyatlarga ko‘ra aniqlashi-o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishi jarayoni kuzatilgan.

Kalit so‘zlar. Texnologik ta’lim,tashkil etish, usul, texnologik jarayon, ijod konstruksiya,model, pedagogik texnologiya,, ijodiy masala, mehnat madaniyati, interfaol metod.

Ta`lim muassasalari oldida turgan vazifalarning ijobiy hal etilishi mashg`ulot (ta`lim jarayoni) mazmuni, ta`lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog`liq bo`ladi. Ta`lim shakli, metodlari hamda vositalari ma`naviy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni hosil qilishda xizmat qiladi.

Ta`lim shakli o`qituvchi va o`quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma`lum rejimda tashkil etiladigan failoyatning tashqi ifodasi. Qadim zamonlardayoq jamiyatning yetuk kishilari o`qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar. Hozirgi vaqtda Respublika ta`lim muassasalarida o`qitishning bir necha shakllaridan unumli foydalanilmoqda. Ulardan eng ko`p qo`llaniladigan ta`lim shakli an`anaviy ta`lim bo`lib, u o`zida XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida yashab ijod etgan chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan asoslangan sinf-dars tizimi mohiyatini jamlaydi:

o`quvchilar yoshi va tayyorgarlik darajalariga ko`ra sifatlar tarzida

guruhlanadilar va umumiy ishni bajaradilar;

o`quv predmetining mazmuni bir qator bo`lim va mavzularga, bo`lim va mavzular bir qator baravar va izchil joylashtirilgan qismlarga ajratilib, ular birinketin jadval bo`yicha o`qitiladi;

bu tizim asosini tashkil etuvchi sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo`lgan muayyan o`quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta`lim jarayoni tashkil etadi.

Dars-o`quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli hisoblanib, o`qituvchining rahbarligida muayyan o`quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta`lim mashg`ulotini anglatadi. Darslarni tashkil etishga quyidagi didaktik talablar qo`yiladi:

darsning maqsadi va vazifalarning aniqligi hamda pedagogik jihatdan to`g`riligi;

dars maqsadlarining birligi va uzviyligi;

dars mashg`ulotlari turli shakllarda: jamoa va yakka tartibdagi hakllarini muqobillashtirib olib borilishi;

o`quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etish;

darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;

darslarda o`quvchi erkinligini ta`minlashga erishish;

darsda o`quvchilarni o`qitish va tarbiyalsh uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.

Ta`lim tizimida xususan Texnologiya darslarida eng ko`p qo`llaniladigan dars tiplari:

1. Yangi bilim beruvchi va bilimlarni dastlabki mustahkamlovchi dars;

2. Bilimlarni umumlashtiruvchi-takrorlash darsi;

3. Ko`nikma va malakalarni shakllantiruvchi mustahkamlovchi dars;

4. Bilimlarni tekshirish-nazorat darsi;

5. Aralashgan dars;

6. Ekskursiya darsi;

7. O`quv ustaxonalari va maktab tajriba yer maydonida olib boriladigan amaliy mashg`ulotlar.

Texnologiya darslarida eng ko`p qo`llaniladigan mashg`ulotlar amaliytajriba mashg`ulotlari bo`lib, ular xususiyatlariga ko`ra 3 turga bo`linadi:

1. Maktab o`quv ustaxonasida olib boriladigan mashg`ulotlar-yog`och va materiallarni qo`lda ishlash, ishlashda qo`llaniladigan asbob-uskunalar bilan ishlay olishni o`rgatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, ko`nikma va maqsadlarni hosil qilish;

2. Maktab tajriba-yer maydonida olib boriladigan mashg`ulotlar-o`simlik, daraxt va hayvonlar hayot, ularning yashash tarzi va rivojlanishlarini chuqur o`rganish, turli mazmunda tajribalar o`tkazish orqali amaliy mehnat qilish ko`nikma va malakalarni hosil qilish;

3.Maxsus jihozlangan xonalarda olib boriladigan mashg`ulotlar-turli asbob-uskuna hamda kimyoviy moddalar yordamida atrofimizda ro`y berayotgan hodisalar mohiyatini o`rganish, o`zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda ko`nikma va malakalarga aylantirish bilan tavsiflanadi.

O`qitish metodlari-o`qitish vazifalarini hal etishga qaratilgan o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyatining usullari. Metodning vazifasi bilimlarni shunchaki ma`lum qilishdan iborat bo`lmay, balki o`quvchida bilishga ehtiyoj tug`diradigan u yoki bu masalani hal etishga qiziqish vujudga keltirishdan iborat.

O`qitish metodini vositalardan farq qilish kerak. Vosita faoliyat bilan mustahkam bog`langan bo`lib, faoliyatdan tashqarida bo`la olmaydi. O`qitish vositalari sifatida darsliklar, kitoblar, qo`llanmalar, texnika vositalari, lug`atlar, ko`rgazmali qurollardan foydalanish mumkin.

O`qitish metodlari asosan quyidagi talablarga javob beradi:

1. O`qitish metodlari albatta barkamol shaxs tarbiyasi maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilmog`i, ta`lim mazmunining to`la-to`kis o`zlashtirilishiga imkon berishi lozim;

2. O`quvchilarning ongli va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishi va ularda qat'iy ishonch, e`tiqod hamda ilmiy dunyoqarash tarkib toptirishi kerak;

3. O`quvchilarning fan asoslarini ongli, puxta va mustahkam o`zlashtirishlariga, o`zlashtirilgan ilmiy bilimlarini turmushda, amaliyotda qo`llay olishlari uchun tegishli ko`nikma va malakalar bilan qurollanishlariga yordam berishi lozim;

4. O`quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan, o`qitilayotgan ilmiy bilimlarni o`quvchilar tomonidan muvaffaqiyatli o`zlashtirilishlariga imkon beradigan bo`lmog`i lozim;

5. O`quv fanlarining o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan bo`lib, shu xususiyatlarga muvofiq va xilma-xil bo`lishi lozim;

6. Butun sinf faolligini oshirishga qaratilishi lozim.

Ta`lim metodlaridan amaliy ishlar metodlari texnologiya fanini o`qitishda asosiy metod turlaridan biri hisoblanib, ular darslarning to`g`ri tashkil etilishi va o`qitilishiga qaratilgan amaliy ishlarning o`qituvchi rahbarligida o`quvchilar tomonidan bajarilishiga asoslanadi. Ular ko`p turdagi mashqlar, mustaqil ishlar va amaliy ishlarni o`z ichiga oladi. Mashq qildirish metodi asosan o`zlashtirilgan ilmiy bilimlarni musthkamlash va uni amalda qo`llay olish, tegishli ko`nikma va malakalarga ega bo`lishni ta`minlashga qaratilgan. Odatda mashq qildirish deganda ilmiy bilim va ma`lum bir ish-harakatni o`zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida, rejali suratda tashkil etilgan takrorlashni tushuniladi. Mashqlar xarakteri va metodikasi o`quv fanining, konkret materialning, o`rganilayotgan masalaning mazmuni va o`quvchilar xusuiyatlariga bog`liq. Ammo didaktika mashqlar o`tkazishning bir qancha umumiy qoidalarini ta`riflaydi:

1. Mashqlarni bajarish maqsadlari va tartibini o`quvchilar ongiga yetkazish;

2. Mashqlarning xilam-xil bo`lishi;

3. Mashqlarning qiyinlik darajasini sekin-asta oshib borishi;

4. Mashq qildirishda o`quv fanining xususiyatlari hisobga olinishi, fanning o`ziga xos mashqlar va texnikaga oid topshiriqlar vositasida olib borilishi;

5. Mashqlar o`tkazishning izchilligini ta`minlash;

6. O`quvchilar mashq uchun beriladigan topshiriqlar, ilgari o`zlashtirilgan qoida va qonunlarni o`z ichiga olgan bo`lishi;

7. Agar topshirilgan mashq bir necha operatsiyalarni o`z ichiga oladigan bo`lsa, bunday hollarda mashqning rejasini tuzish va shu asosda ishlashga odatlantirish lozim.

Texnologiya darslarida qo`llaniladigan amaliy mashg`ulotlar metodi o`quvchilarga umumiy politexnika ta`limi berish va mehnat malakalari bilan qurollantirishda asosiy metod bo`lib xizmat qiladi. Odatda amaliy mashg`ulotlar quyidagi umumiy qurilishda olib boriladi:

-o`qituvchi tomonidan mashg`ulotning mazmuni, ish shakli haqida ma`lumot berish;

-dastlabki ish namunalarini ko`rsatish;

-o`quvchilarning tajriba ishlari;

-mashg`ulot topshiriqlarini bajarishga kirishish;

-o`qituvchining umumiy kuzatishi va nazorati;

-mashg`ulotni yakunlash.

Texnologiya darslarida ham o`tilajak mashg`ulotlarning xarakteriga qarab yuqorida ko`rsatib o`tilgan metodlarning hammasidan unumli foydalanish mumkin. Biroq texnologiya darsining o`ziga xos xusisiyatlarga ega bo`lishi alohida ta`lim metodlariga amal qilishni taqazo qiladi. Texnologiya ta`limining bosh vazifasi o`quvchilarni mehnat ko`nikmasi va malakalari bilan qurollantirishdan iborat. Shunga ko`ra, ko`pincha va asosan texnologiya ta`limi metodi bajariladigan ish yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish hamda mashq qildirish usuli bilan olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. httrs://lex.uz/doss/4545884

2.Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.464 bet.

3.G.T.Hojikarimova **“**Kiyimlarni konstruksiyalash va modellashtirishning asosiy metodlari” Pedagogika,Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. № 1- 2023 yil. ISSN 2010 - 5320. http://www.tdpu.uz pedagogika@inbox.uz

4.G.T.Hojikarimova “Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini maxsus kompetensiya komponentlarini shakllantirish metodikasi” МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, Илимий-методикалық журнал. № 5 - 2022 жыл. ISSN 2181-7138. http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz/

5.G.T.Hojikarimova “Integrativ yondashuv asosida bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni” МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, Илимий-методикалық журнал. № 6/1 - 2022 жыл. ISSN 2181-7138. http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz/

6.G.T.Hojikarimova “O‘quvchilarda kreativ qobilyatlarni shakllantirish bosqichlari.

// Eurasian journal of law, finance and applied sciences|UIF = 8.3 | SJIF = 5.961 www.in-academy.uz

7.G.T.Hojikarimova “Bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarini tayyorlashda integrative yondashuvning didaktik imkoniyatlari” |Economy and Innovation. ISSN-2545-0573
http://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/poland/article/view/1730

8.G.T.Hojikarimova “ Социально-педагогические основы формирования креативности учащихся”. // Международный научный журнал **«Вестник науки»** (ежемесячный научный журнал), // № 6 (15) Том 5 июнъ 2019 й. Стр 150-154 стр

INGLIZ VA O’ZBEK O’QITUVCHILARI MULOQOT XULQIDA QO’LLANILADIGAN MUROJAAT SHAKLLARINING TA’LIM JARAYONIDA TUTGAN O’RNI

Kakharova Shohsanam Nabijon qizi
Farg’ona davlat universiteti, o’qituvchi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot O'zbekiston va Angliyadagi o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan murojaat shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, madaniy kontekstlarning ta’lim jarayonida muloqot uslublariga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: murojaat shakllari, muloqot xulqi, madaniy me'yorlar, ta'lim muhiti, madaniyatlararo muloqot, rasmiy nutq, norasmiy nutq, o'qituvchi-talaba munosabatlari.

Аннотация. В этом исследовании изучаются особенности форм обращения, используемых преподавателями в Узбекистане и Англии, подчеркивая, как культурные контексты влияют на стили общения в образовательных средах.

Ключевые слова: формы обращения, коммуникативное поведение, культурные нормы, образовательные среды, межкультурная коммуникация. формальность, не формальность, взаимодействие учителя и ученика

Annotation. This study investigates the distinctive features of address forms used by educators in Uzbekistan and England, highlighting how cultural contexts influence communication styles within educational settings.

Key words: address forms, communicative behavior**,** cultural norms, educational settings, cross-cultural communication, formality, informality, teacher-student interaction**.**

Murojaat shakllari jamiyatdagi madaniy me'yorlar, ijtimoiy ierarxiyalar va hurmat darajalarini aks ettiruvchi va mustahkamlovchi muloqot xulqining asosiy komponentidir. Ta’lim jarayonida, o'qituvchilarning talabalariga va talabalarning o'qituvchilariga qanday murojaat qilishi sinf atmosferasiga, o'qituvchi-talaba munosabatlari dinamikasiga va nihoyat, o'rganish natijalariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'qituvchilar tomonidan ishlatiladigan murojaat shakllarini o'rganish ta'lim amaliyotlarini shakllantiruvchi kengroq madaniy va ijtimoiy qadriyatlar haqida tushuncha beradi.

O'zbekistonda madaniy qadriyatlar hurmat va ijtimoiy ierarxiyaga asoslangan, bu esa muloqot jarayonida, jumladan, rasmiy murojaat shakllaridan foydalanishda aniq namoyon bo’ladi. Ushbu shakllar faqat lingvistik tanlovlar emas, balki sinfda ijtimoiy tartib va hurmatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar tomonidan talabalarga murojaat qilishda ishlatiladigan unvonlar va sharaflar, shuningdek, rasmiy olmoshlar o'zbek jamiyatining kollektiv va ierarxik tabiatini aks ettiradi.

Masalan:

“– ***Abror Azamovich***! Hozir ko’kalamzorlashtirishdan ham oldin hal qilishimiz kerak bo’lgan muammo – odamlarni turarjoy bilan ta’minlash”. (Pirimqul Qodirov, Olmos kamar)

Aksincha, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda, ayniqsa, Buyuk Britaniyada, madaniy kontekst individualizm va egalitarizm (tenglikka asoslanish) ga moyil. Ushbu madaniy muhit o'qituvchilarga birinchi ismlar yoki do'stona laqablar kabi ko'proq norasmiy murojaat shakllarini qabul qilishga ta'sir qiladi, bu esa tenglik va kirishuvchanlikni targ'ib qiladi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad esa talabalarning ishtirokini va muloqotini rag'batlantiradigan qulay va ochiq sinf muhitini yaratishga qaratilgan.

Muloqotdagi murojaat shakllari madaniy me'yorlar va ijtimoiy tuzilmalarning aksidir. Ta’lim jarayonida, o'qituvchilarning talabalariga va aksincha, talabalar o'qituvchilarga qanday murojaat qilishi sinf atmosferasiga va o'rganish natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin (Hofstede, 1980). Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz o'qituvchilari tomonidan ishlatiladigan murojaat shakllarining o'ziga xosliklarini o'rganib, bu muloqot xulq-atvorini shakllantiruvchi madaniy asoslarni yoritishni maqsad qilgan.

O’zbek va ingliz o'qituvchilarining murojaat shakllarida sezilarli farqlar bo'lib, ularni quyida tahlil qilib o'tamiz. O'zbek o'qituvchilari asosan rasmiy murojaat shakllaridan foydalanib, hurmat va ierarxiyani ta'kidlaydilar. Bunga qarama-qarshi ravishda, ingliz o'qituvchilari ko'proq norasmiy murojaat shakllarini ishlatib, tenglik va kirishuvchanlikni targ'ib qiladilar (British Council, 2021).

Rasmiy murojaat shakllari: O'zbekistonda o'qituvchilar odatda talabalarining ism yoki familiyasini murojaat shakli sifatida qo'llaydilar. Bu rasmiylik madaniy me'yorlarga asoslanib, avtoritet va katta yoshdagilarga hurmatni ustuvor deb biladi (Scollon & Scollon, 2001).

Norasmiy murojaat shakllari: boshqa tomondan, ingliz o'qituvchilari talabalariga ismlari bilan yoki do'stona laqablar ya’ni ismlarning qisqartirilgan shakli bilan murojaat qilishadi. Ushbu amaliyot madaniy tenglikka intilish va qulay sinf muhitini yaratishni maqsad qilgan (Brown & Levinson, 1987).

Masalan:

"***My friends***, I assume you are all here for the Social Psychology class. I have been teaching this course for twenty years, and this is the first time I can say there is a risk in taking it, because I have a fatal illness. I may not live to finish the semester” (Mitch Albom, Tuesday with Morrie).

Kontekstual O'zgarishlar: o'zbek va ingliz o'qituvchilari murojaat shakllarini kontekstga qarab moslashtiradilar. Masalan, o'zbek o'qituvchilari kamroq rasmiy muhitda ko'proq norasmiy shakllardan foydalanishlari mumkin, ingliz o'qituvchilari esa ko'proq rasmiylik talab qilinadigan vaziyatlarda ko'proq rasmiy murojaat shakllarini qabul qilishi mumkin (Hofstede, 1980).

Madaniy qadriyatlar ta’lim jarayonida murojaat shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda rasmiy murojaat shakllari ijtimoiy ierarxiyalar va avtoritetga hurmatni mustahkamlaydi, bu esa madaniyatning asosiy qismidir (Cultural Atlas, 2020). Aksincha, ingliz o'qituvchilari tomonidan ishlatiladigan norasmiy murojaat shakllari G'arb madaniyatining individualizm va tenglik qadriyatlariga mos keladi (British Council, 2021). Ushbu farqlar madaniyatlararo ta'limiy almashinuvlar va hamkorliklar uchun amaliy ahamiyatga ega. Murojaat shakllarining madaniy kontekstini tushunish muloqotni yaxshilash va ko'p madaniyatli ta'limiy muhitlarda o'zaro hurmatni oshirishga yordam beradi (Scollon & Scollon, 2001).

O'zbek ta'lim muhitida “hurmatli”, “qadrli” kabi so’zlardan o’quvchilar ismi, familiyasi oldidan foydalanish avtoritet va ijtimoiy ierarxiyaga chuqur hurmatni anglatadi. Bu rasmiylik o'zbek jamiyatining kollektiv va ierarxik tabiatini aks ettiradi, bu yerda hurmat va tartibni saqlash juda muhimdir. Rasmiy murojaat shakllaridan foydalanish o'qituvchining avtoritetini mustahkamlab, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida aniq chegaralarni belgilashga xizmat qiladi. Bu ierarxik yondashuv intizomli o'quv muhitiga hissa qo'shishi mumkin, bu o'zbek madaniyatida yuqori baholanadi.

Biroq, rasmiylik hurmatni saqlashi mumkin bo'lsa-da, bu o'qituvchilar va talabalar o'rtasida masofani keltirib chiqarishi, ochiq muloqot va talabalar ishtirokini cheklashi mumkin. Rasmiy munosabatdan qo'rqqan talabalar sinfda faol ishtirok etish yoki o'z fikrlarini bildirishdan tiyilishlari mumkin, bu esa ularning o'rganish tajribasi va akademik natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bunga qarama-qarshi ravishda, ingliz ta'lim muhitida G'arb madaniyatlarining individualistik va teng huquqlilik qadriyatlari yaqqol aks etadi. Angliyadagi o'qituvchilar odatda norasmiy murojaat shakllaridan foydalanib, jumladan, birinchi ismlar va laqablar orqali tenglik va kirishuvchanlikni targ'ib qiladilar. Bu amaliyot individualizm va qulay, inklyuziv sinf atmosferasini yaratishga qaratilgan madaniy e'tiborni aks ettiradi. Norasmiy murojaat shakllari o'qituvchi-talaba munosabatlarini yaxshilashi, talabalarni muhokamalarda faolroq ishtirok etishga, savollar berishga va o'z g'oyalarini erkin ifoda etishga undashi mumkin.

Norasmiy yondashuv, ochiqlikni targ'ib qilsa-da, dars jarayonida o’zaro hurmatni saqlashda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Angliyadagi murojaat shakllarining egalitar tabiati talabalarning o'zlarini qadrli his qilishlarini ta'minlaydigan hamkorlikdagi o'quv muhitini qo'llab-quvvatlaydi va ularni o'quv jarayoniga ko'proq hissa qo'shishga undaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o’zbek ta’lim muhitida rasmiylik ustunlik qiladi. Ingliz ta’lim muhitida esa ko’proq norasmiylikdan keng foydalaniladi. Bu jarayon har ikki muhitning madaniyati va qadryatlariga asoslanib, muvozanatlashtirilgan holda dars jarayonining samaradorligini oshirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.

2. Cultural Atlas. (2020). Uzbek Cultural Norms and Practices. Retrieved from [Cultural Atlas website].

3. Hofstede, G. (1980). Culture's Consequences: International Differences in Work-Related Values. SAGE Publications.

4. Scollon, R., & Scollon, S. W. (2001). Intercultural Communication: A Discourse Approach. Wiley-Blackwell.

5. Tannen, D. (1993). Framing in Discourse. Oxford University Press.

6. British Council. (2021). Teaching in the UK: An Overview. Retrieved from [British Council website].

7. S. N. Kaxarova–Farg ‘ona davlat universiteti ingliz tili o ‘qituvchisi SHAXSLARARO MULOQOT XULQINING MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARI ASARLARIDAGI TASNIFI. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 416.

8. Kaxarov, Q., & Mustafoyeva, S. M. S. (2023). O ‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA SEN/SIZ MUROJAAT SHAKLLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (3), 105-105.

TIMSOLLLARNI TANIB OLISHDA BELGILARNI TANLASHNING FILTIRLASH USULLARI


Rashidov X.SH, Xandamov Y.X, Inomxo'jayev A.A.
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instistut
azamatjon1223@gmail.com

Mashinaviy o'qitishda belgilarni tanlash usullarining maqsadi o'rganilayotgan hodisalarning optimallashtirilgan modellarini yaratishga imkon beradigan eng yaxshi belgilar to'plamini topishdir.

Belgilarni tanlash - bu faqat tegishli ma'lumotlardan foydalanish va ma'lumotlardagi shovqinlardan xalos bo'lish orqali modelingizga kirish o'zgaruvchisini kamaytirish usuli hisoblanadi. Mashinaviy o'qitishda belgilarni tanlash usullarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Nazorat ostidagi modellar: Nazorat ostidagi belgilarni tanlash belgilarni tanlash uchun oldindan tayinlangan nishon sinfidan foydalanadigan usulni anglatadi. Modelning samaradorligini oshirishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchilarni aniqlash uchun bunday usullar maqsadli o'zgaruvchilardan foydalanadilar.

2. Nazoratsiz modellar: Nazoratsiz belgilarni tanlash belgini tanlash uchun oldindan tayinlangan nishon sinfiga muhtoj bo'lmagan usulni anglatadi. Biz ularni nishonlanmagan ma'lumotlar uchun ishlatamiz.



1-rasm. Belgilarni tanlash usullari.

Filtrlash usuli : Bu usulda belgilar ularning oldindan tayinlangan qiymati bilan qanday **bog'liqligiga** qarab o'chiriladi. Belgilar oldindan tayinlangan qiymatlari bilan ijobiy yoki salbiy bog'liqligini tekshirish uchun korrelyatsiyadan foydalanamiz va shunga mos ravishda belgilarni tanlaymiz. Yuqori o'lchamli ma'lumotlar bilan ishlashda filtrlash usullarini qo'llash hisoblash jihatidan qulaydir. Quyidagi usullar filtrlash usullariga kiradi: Chi-kvadrat testi , Korrelyatiya, Fisher bali va boshqalar.

Ushbu usullarni amalga oshirishda tasniflash modellarini yaratish uchun Donlar ma’lumotlar to‘plamidan foydalanilgan. Ma’lumotlar to‘plami 7 ta belgilar va 1 ta oldindan tayinlangan qiymatni o'z ichiga oladi (1-jadvalda ko'rsatilganidek). Belgilar hammasi sonli va 3 ta sinflardan iborat.

Maydon	Perimetr	Kompaktlik	Ildiz_uzunligi	Ildiz_kengligi	Assimmetriya_koef	Ildiz_ichi_uzunligi	Turi
15.26	14.84	0.871	5.763	3.312	2.221	5.22	1
14.88	14.57	0.8811	5.554	3.333	1.018	4.956	1
14.29	14.09	0.905	5.291	3.337	2.699	4.825	1
13.84	13.94	0.8955	5.324	3.379	2.259	4.805	1
18.89	16.23	0.9008	6.227	3.769	3.639	5.966	2
20.03	16.9	0.8811	6.493	3.857	3.063	6.32	2
20.24	16.91	0.8897	6.315	3.962	5.901	6.188	2
13.32	13.94	0.8613	5.541	3.073	7.035	5.44	3
13.34	13.95	0.862	5.389	3.074	5.995	5.307	3
12.22	13.32	0.8652	5.224	2.967	5.469	5.221	3
11.82	13.4	0.8274	5.314	2.777	4.471	5.178	3


Chi-kvadrat testi

Chi-kvadrat **testi** - bu aniqlik darajasini pasaytirmasdan ko‘plab belgilarni yo‘q qiladigan nazorat ostidagi belgilarni tanlash usulidir. Bunda har bir belgi va oldindan tayinlangan nishon o'rtasida Chi-kvadratni hisoblanadi va eng yaxshi Chi-kvadrat ballari bilan kerakli sonli belgilar tanlanadi. Ma'lumotlar to'plamidagi turli xil belgilar va maqsadli o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni sinashda chi-kvadratni to'g'ri qo'llash uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak: o'zgaruvchilar kategorik bo'lishi, mustaqil ravishda tanlanishi va qiymatlar kutilgan chastotaga ega bo'lishi kerak. Ikki o'zgaruvchining ma'lumotlarini hisobga olgan holda, biz kuzatilgan O soni va kutilgan E sonini olishimiz mumkin. Chi-kvadrat kutilgan E soni va kuzatilgan O sonining bir-biridan qanday chetlanishini o'lchaydi.

$$\chi_c^2 = \sum \frac{(O_i - E_i)^2}{E_i} \qquad (2)$$

Bu yerda c −erkinlik darajasi, O- kuzatilgan qiymatlar, E- kutilgan qiymatlar [2].

Ushbu usulni ham ***Donlar ma’lumotlar to‘plami***ga qo‘llasak quyidagi natijani olamiz: ['Maydon', 'Perimetr', 'Assimmetriya_koef']



2-rasm. Donlar ma'lumotlar to'plami uchun Chi-kvadrat testi usulida belgilarni tanlash.

Korrelyatsiya usuli


Korrelyatsiya -bu belgilarni tanlashning evristik qidiruv usuli hisoblanadi. Aytaylik, evristik qidiruvning joriy bosqichida w-1ta belgilar $f_1, f_2, \dots, f_{w-1}$ W ta belgilar to‘plamidan nomzod sifatida tanlangan va $u = |W| - w - 1$ belgilar hali tanlanmagan. Keyingi f_w belgini tanlash uchun belgi to‘plamlari $FS_i = \{f_1, f_2, \dots, f_{w-1}, f_w\}, i = 1..u$ ob’ektlarning qismto‘plamlari shunday yaratiladiki, har-bir FS_i qismto‘plam uchun f_w belgi hali tanlanmagan u ta ob’ektlardabn biri bo‘ladi. Matematik funksiya odatda eng yaxshi belgilar to'plamini tanlashda evristik qidiruvni boshqaradigan sifat o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladi * FS. Xoll (1999,2000) tomonidan tavsiya etilgan korrelyatsiyaga asoslangan belgilarni tanlash (KABT) usuli sifatida belgilangan sifat o'lchovidan foydalanadi.

$$Sifat_{KABT} = \frac{w\overline{corr}_{KB}}{\sqrt{w + w(w-1)\overline{corr}_{BB}}} \quad (3)$$

Bu yerda $\overline{corr}_{KB}$ −har bir belgi va sinf o'zgaruvchisi o'rtasidagi o'rtacha korrelyatsiya, $\overline{corr}_{BB}$ − FS qism to'plamidagi belgilar o'rtasidagi o'rtacha korrelyatsiya va w - FS qism to'plamidagi belgilar soni. (3) tenglamaning o'ng tomonidagi hisoblagich belgilar kichik to'plamining tegishlilik darajasini o'lchaydi, maxraj esa belgilar kichik to'plamining ortiqchalik darajasini o'lchaydi. Korrelyatsiya koeffisientlari $\overline{corr}_{KB}$ va $\overline{corr}_{BB}$ miqdoriy belgilar uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsienti yoki sifat belgilari uchun simmetrik noaniqlik koeffitsienti yordamida hisoblanadi. X va Y ikkita miqdoriy belgilar uchun korrelyatsiya Pearson korrelyatsiya koeffitsienti yordamida o'lchanadi, u quyidagicha aniqlanadi:

$$r_{XY} = \frac{\sum(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{(n-1)S_x S_y} \quad (4)$$

Bu yerda $\bar{x}$ va $\bar{y}$ mos ravishda X va Y uchun o‘rtacha qiymatlari, S_X va S_Y – X va Y uchun namunaviy standart chetlanishlar, n - korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash uchun ishlatiladigan na’munaning o'lchami [3]. Korrelyatsiya orqali bir o'zgaruvchi boshqasidan korrelyatsiya ko‘rsatkichi orqali taxmin qilinishi mumkin. Belgilarni tanlash uchun korrelyatsiyadan foydalanish g‘oyasi shundaki, yaxshi belgilar oldindan tayinlangan nishon bilan yuqori darajada korrelyatsiya qiladi. Ushbu usulni Pearson korrelyatsiyasi misolida ***Donlar ma’lumotlar to‘plami***ga qo‘llasak quyidagi natijani olamiz:



3-rasm. Donlar ma’lumotlar to’plami uchun Pearson korrelyatsiyasi.

Bu usulda belgilarni tanlash chegarasi sifatida o‘zgarmas qiymatni, masalan, 0,5 ni olish mumkin. Ya’ni korrelyatsiya ko‘rsatgichi 0,5 dan eng katta bo‘lgan belgilarni kamayish tartibida tanlanadi [4].

Foydalanilagn adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pereira, R. B., Carvalho, A. P. D., Zadrozny, B., & Merschmann, L. H. D. C. (2015). Information gain feature selection for multi-label classification.

2. BÜYÜKKEÇECİ, M., & OKUR, M. C. (2022). A Comprehensive Review of Feature Selection and Feature Selection Stability in Machine Learning. *Gazi University Journal of Science*, *36*(4), 1506-1520.

3. Chen, P., Li, F., & Wu, C. (2021). Research on intrusion detection method based on Pearson correlation coefficient feature selection algorithm. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 1757, No. 1, p. 012054). IOP Publishing.

4. Pudjihartono, N., Fadason, T., Kempa-Liehr, A. W., & O'Sullivan, J. M. (2022). A review of feature selection methods for machine learning-based disease risk prediction. *Frontiers in Bioinformatics*, *2*, 927312.

FIZIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL KOGNITIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Alisher Mambetnazarov - 2-kurs fiziologiya magistri Qaraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy talabalar uchun o‘qitishning kognitiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari ko‘rsatilgan. Kognitiv ta’lim texnologiyalariga ta’rif berilgan. Elektron ta’lim resurslari va uning asosiy hossalari tahlil qilingan. Texnologiya fanlarini o‘qitishda interfaol usullarni qo’llash imkoniyatlari ko’rsatilgan. Fiziologiya fanini seminar darslariga interfaol ta’lim texnologiyalari tadbiq qilingan. Interfaol ta’limning asosiy yutuqlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Ka’lit so‘zlar: resurs, fiziologiya, kognitiv, elektron ta’lim, texnologiya, seminar. Interfaol.

Bugungi kunda usluksis ta‘limning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim bosqichiga e’tibor har qachongidan ortib bormoqda. Respublikamiz ta‘lim-tarbiya tizimining boshlang‘ich poydevori bo‘lgan maktabgacha ta‘limni sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini ta‘minlash borasida keng qamrovli islohotlar, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intelektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori[1] qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori [2] da mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta‘lim sohasida davlat siyosatini to‘liq amalga oshirishga to‘qinlik qilayotgan sabablar ko‘rsatilgan.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda talaba yoshlarni o‘qitishda pedagoglar oldida turadigan asosir bir savol bu-zamonaviy talabani qanday o‘qitish kerak? Ko‘rinishdan bu ko‘p yillik savolga o‘shab ketadi? Biroq o‘qitishning maqsadlari, mazmuni va usullari doimo o‘zgarib turadigan jamiyat ehitiyujlariga javub berishi kerak O‘quv jarayuniga zamonaviy yundashuv rivojlanish va faoliyat dinamikasining o‘ziga xos xususiyatlari turli xil ta‘lim texnologiyalarining alohida xususiyatlari va ijtimoiy foydali bilimlarni ishlab chiqishda shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan belgilanadigan o‘quv jarayoniga yangilikni joriy etishiga yaratilishi kerak. Rivojlanga mamlakatlarda o‘qitishning yangi sharoitda o‘qitishning yangi texnologiyalarini-kognitiv texnologiyalarni, ya‘ni talabalarga real dunyoni samarali tushunishga, talabalarni axborot bilan to‘yingan muhitda hayotga muvaffiqiyatli

moslashtirishga va ularning intellektual rivojlanishiga imkon beradigan usullar, uslublarini yaratishi kerak.

Kognitiv texnologiyalar, metodlar, algoritimlar va dasturlar tizimi sifatida talabalarning amaliy muammolarini hal qilishda kognitiv qobiliyatlarini modellashtirish va oshirish imkonini oshiradi. Masalan, ma‘lumotlar va bilimlar massivlarida naqshlarni aniqlash va identifikatsiyalash, murakkab tizimlarni loyihalash, ma‘umotlarning yetarli emasligi sharoitida qarorlar qabul qilish. Kognitiv texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyati ularning talabalarning intelektual qobiliyati uning tasavvurini rivojlantirishga qaratilganligi bilan bog‘liq. Shunday qilib tabiiyki biz o‘zimizni ta‘lim texnologiyalari ya‘ni fikrlash qobiliyatini shakllantiradigan fundamental kognitiv qobiliyatlar bilan bog‘liq texnologiyalar soxasida topamiz. Natijada biz tavsiflovchi protseduralar bilan bir qatorda amalga oshirish imkoniyatiga ham ega bo‘lamiz, bunda tushunish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Fiziologiya fanidan seminar darslarni tashkil qilish va o‘tkazish misolida interfaol kognitiv ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishni ko‘rib chiqamiz. Hozirda oily o‘quv yurtlarida o‘quv soatlari davomiyligi 1,5 soatni tashkil qiladi. Bunda talabalar diqqatini qanday saqlash kerak? Multimedia proyektori va turli guruhlarning o‘zaro ta‘sir qilish usullarini bilish yordamga keladi. Dars mavzusini samarali idrok etish uchun birinchi navbatda hissiy muhitni yaratish kerak. Ushbu maqsadlar uchun kichik ma‘ruza yoki videofilmni ko‘rish va muhokama qilish kabi interfaol shakllardan foydalaniladi.

Videofilmlarni ko‘rish va muhokama qilish- mashg‘ulotlarda badiiy va hujjatli videofilmlardan, ulardagi fragmentlardan foydalanishdir. Tegishli mazmundagi videofilmlardan darsning istalgan bosqichida uning mazmuni va maqsadiga muvofiq ishlatilinadi. Videofilmni namoyish etishdan oldin talabalarga bir nechta (3-5 tacha) asosiy savollar beriladi. Bu esa keying muhokama uchun asos bo‘ladi. Siz videofilmlarni oldindan tanlangan kadrlarda to‘xtatib muhokama qilishingiz mumkin. Oxir oqibat talabalar bilan birgalikda natijalarni umumlashtirish va chiqarilgan xulosalarni aytish juda muhimdir. Kichik ma‘ruza nazariy materiallarni taqdim etishning samarali shakllaridan biridir. Aslini olganda matn va grafik materiallardan iborat sifatli taqdimot bo‘lib, uning namoyishini o‘qituvchi berilgan mavzular bo‘yicha suhbat bilan birga olib boradi.

Kichik ma‘ruzalar va videofilmlar bir xil dars moduliga talluqli bo,lib, bir-birini almashtirishi va bir-birini to‘ldirishi yoki mustaqil bo‘lishi seminarning turli mavzularini qamrab olishi mumkin. Nazariy materialni mustahkamlash uchun amaliy topshiriqlar bajariladi. Mashqlarni bajarishda kichik guruhlarda ishlash, ijodiy topshiriolar va keys metodi kabi usullardan foydalaniladi. Kichik guruhlarda ishlash eng ommabop usullardan biridir, chunki u barcha talabalarga (shu jumladan

yatchanlarga) darsda faol qatnashishni, hamkorlik va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini beradi.

Xulosa qilib aytganda, fiziologiya fanni o‘qitishda kognitiv ta‘lim texnologiyalardan foydalanish talabalarni tafakkurini rivojlantiradi undan tashqari ta‘lim oldida turgan qiyinchiliklariga qaramay interaktiv ta‘lim professional ta‘limning barcha sohalarini qamrab olmoqda, chunki u ta‘lim jarayonining sermahsulligini, emotsional to‘yinganligini, shaxsiy rivojlanganligini orttiradi, bunda ta‘lim sifati ham oshadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mahliyo, D. (2023). MEDIA DISCOURSE: MEDIA TRANSLATION AND NECESSITY OF STUDYING IT. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 211-214 .

2. Doniyorova, G. S. (2023). SOME THOUGHTS ABOUT PROFITABLE PLANTS OF UZBEKISTAN: ON THE EXAMPLE OF KAVRAK «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ».

3.Mahliyo, D. (2023). THEORETICAL ORIENTATIONS TO L2 METHODS & APPROACHES. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(7), 66-69.

4. Mahliyo, D. (2023). MORPHEMES: TYPES AND USAGE. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 530-533 .

5. Mahliyo, D. (2022). THE DIFFERENCES BETWEEN ESP AND ESL FOR STUDYING LANGUAGES, IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 139-142 .

6. Omanov, P. (2021). DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN ENGLISH TEACHING THROUGH AUTHENTIC VIDEO MATERIALS. Academic research in educational sciences, 2(9), 1085-1100.

7. Mambetnazarov, A. (2021). АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕВОЧЕК ПОД ВЛИЯНИЕМ АНТРОПОГЕННЫХ НАГРУЗОК КАРАКАЛПАКСТАНА. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, *2*(2-3), 180-181.

8. Mambetnazarov, A. (2021). THE FEATURES OF FUNCTIONAL INDICATORS OF ADOLESCENTS IN THE ENVIRONMENTAL CONDITIONS OF THE ARAL SEA REGION. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, *2*(2-3), 203-2024.

9. Мамбетназаров, А.А. Зверобой-лекарственное растение. In *Естественные и медицинские науки. Студенческий научный форум* (pp. 4-8).

FANLARNI O’QITISH JARAYONIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

G’oziyev Quyosh Azamatovich
Namangan davlat universiteti
Amaliy matemtika va RT kafedrasi o’qituvchisi
E-mail: hilol200218@gmail.com
Telefon raqami:+998 93 705 1714

Annotasiya. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta’limning an’anaviy tizimini o‘zgartirishga olib keldi. Ta'lim jarayonida Internet resurslaridan foydalanish uzoq vaqtdan beri turli darajadagi va profildagi ta'lim muassasalari uchun odatiy holga aylangan. Masofaviy ta'limning rivojlanishiga yangi ta'lim platformalari va xizmatlarining doimiy rivojlanishi yordam beradi. Maqolada Google Classroom xizmati imkoniyatlaridan foydalanib o'quv jarayonida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish masalasi o’rganilgan.

Kalit so'zlar: o'quv jarayonini tashkil etish, Google Classroom, ta'lim platformasi, Internet-resurs, ta’lim sifati va samaradorligi.

Аннотация. Стремительное развитие цифровых технологий обусловило трансформацию традиционной системы получения высшего образования. Использование Интернет-ресурсов в учебном процессе уже давно стало нормой для образовательных учреждений разного уровня и профиля. Развитию дистанционного обучения способствует постоянная разработка новых образовательных платформ и сервисов. В статье рассматривается вопрос повышения качества и эффективности обучения в образовательном процессе с использованием возможностей сервиса Google Classroom.

Ключевые слова: организация учебного процесса, Google Classroom, образовательная платформа, Интернет-ресурс, эффективность обучения

Abstract. The rapid development of digital technologies led to the transformation of the traditional system of higher education. The use of Internet resources in the educational process has long become the norm for educational institutions of different levels and profiles. The constant design of new educational platforms and services promotes the development of distance learning. Overview of the functionality and features of the service Google Classroom in the improvement of efficiency of educational process.

Keywords: organization of the educational process, Google Classroom, educational platform, Internet resource, learning efficiency

Bugungi kunda o’quv jarayonini zamonaviy o’qitish texnologiyalaridan foydalanmasdan tashkil etish mumkin emas. Ta’lim va tarbiyaning eng dolzarb vazifasi XXI asrdagi insonning aqliy qobiliyatlari va insoniy fazilatlarini shakllatirish orqali aniqlanadigan talabalarining kompetentligini oshirishdan iborat: mas’uliyat, boshqalarning fikr-mulohazalariga nisbatan bag’rikenglik, muloqot

qobiliyati, o'zo'zini rivojlantirish qobiliyati, fikrlashni rivojlantirish, turli xil shakllarda va turli xil yo'llar bilan ma'lumotlarni topish, tahlil qilish, boshqarish, integratsiya, baholash va yaratish qobiliyati, jamoada ishlash qobiliyati, muammolarni yechish va hal qilish qobiliyati [2]. Ko'rsatilgan muammoni hal qilish uchun o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalashgan axborot texnlogiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta'lim muassasalari o'quv jarayonini kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotning eng so'nggi yangiliklari bilan ta'minlash muammosiga duch kelmoqdalar, bu tegishli axborot xizmatini ta'minlash uchun katta moddiy xarajatlarni talab qiladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoniga "bulutli hisoblash"ni joriy etish ta'limni kompyuterlashtirish muammolarini hal etishga ko'mak beradi. Hozirgi kunda ommabop bo'lgan "bulutli hisoblash" atamasi IT sohasida 2008 yildan beri qo'llanilib keladi. Bularga talabalar va o'qituvchilar uchun bepul veb-xosting xizmatlari kiradi.

O'quv jarayonida bu texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish talabalarning IT texnologiyalaridan mukammal foydalana oladigan kadrlar sifatida yetishib chiqishida eng yaxshi vosita hisoblanadi. Web-xizmatlarga jamoaviy aloqalarni qo'llab-quvvatlovchi tarmoq dasturi sifatida qaraladi. Ulardan o'quv jarayonida va talabalarni ta'lim jarayoniga tayyorlashda samarali foydalanish mumkin.

Google Classroom – o'quv jarayonini tashkil qilishdagi bulutli ilovadir. Ilova o'qituvchi va talabalar hamkorligiga asoslangan ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyatini beradi. Google Classroom o'quv jarayonini tashkil qilishning quyidagi keng imkoniyatlarini taqdim etadi:

- Google Classroom xizmatida avtorizatsiyadan o'tish va o'z o'quv kursini yaratish;
- fanlar bo'yicha turli kurslarni qo'shish;
- talabalarni kursga taklif qilish;
- sinfda topshiriqlar yaratish, baholash va baholangan topshiriqlarni talabalarga qaytarish.

Google Classroom bilan ham individual, ham jamoaviy turli ta'lim faoliyatini tashkil qilish mumkin. Google Classroom platformasidan foydalanish ta'lim mazmunini yangilashga, pedagogik usullarni kengaytirishga, tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasini joriy etishga, shuningdek, masofaviy o'qitishni tashkil etishga yordam beradi.

Google texnologiyasining mohiyati talabalarni nafaqat ta'lim tarkibini iste'molchilari sifatida, balki uning faol ijodkorlari sifatida o'quvchining pedagogic jarayonning markazida bo'lishiga yordam beradi. Google korporatsiyasi Internetga ulangan har qanday brauzerdan kirish mumkin bo'lgan ko'plab dasturlar va xizmatlarni ishlab chiqaradi va taqdim etadi[1].

Ta'lim sohasida eng ko'p ishlatiladiganlar quyidagi Google xizmatlari mavjud:

- Google Calendar − onlayn kalendar,

- Google Docs − onlayn matn muharriri,
- Gmail − bepul elektron pochta,
- Google Maps − onlayn xaritalar to'plami,
- Google Sites − vikitexnologiyalarni qo'llovchi bepul xosting,
- Google Translate − onlayn tarjimon ilova,
- YouTube − videoxosting.

Mazkur Google ilovalari talabalar va o'qituvchilarga samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Foydalanuvchilarning nuqtai nazari bo'yicha ta'limda Google xizmatlaridan foydalanishning asosiy afzalliklari:

- Texnik ta'minotga minimal talablar (birgina talab − Internet tarmog'iga ulanish);
- Google texnologiyasi maxsus dasturlarni sotib olish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlarini talab qilmaydi;
- Google barcha operatsion tizimlar va mijoz dasturlarini qo'llab quvvatlaydi;
- Googlening barcha ilovalari bepul;

Google Classroom ilovasi − o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi fan doirasidagi o'zaro muloqot vositasi hisoblanadi. Google Classroom orqali o'qituvchilar yangi kurs yaratish, kursga nazariy va amaliy mashg'ulot materiallarini joylashtirish, mavzu yuzasida test hamda topshiriqlarni joylashtirish, shuningdek ularni qabul qilish va baholash, talabalarga topshiriqlarni yuborishi va ularga izoh berishi, shuningdek, talabalarning fikr-mulohazalarini qabul qilishi kabi imkoniyatlari mavjud.

Google Classroom − LMS sifatida ishlatiladigan ilovalardan biri sanaladi. Google xizmatidan foydalanish va sozlash juda oson. Barcha ma'lumotlar Google xizmatlarida saqlanadi: videodarslar YouTubeda, elektron darsliklar Google Diskda, kurs ishtirokchilari Google dokumentda o'zlarining yozma ishlarini bajaradilar. Google Classroom foydalanuvchiga haqiqatan ham qog'ozsiz ishlarga o'tishga, talabalar jamoasini yaxshilashga va talabalar uchun turli xil ko'rsatmalar berishga, vaqtni tejashga, qog'ozni tejashga va sinfning inverter modelini yaratishga imkon beradi[4].

Google Classroom − o'qituvchi yoki talabalar o'quv jarayonidan tashqarida bo'lganlarida foydali vosita bo'lib, ular dars berishda davom etishlari va o'tkazib yuborilgan darslarni davom ettirishlari mumkin.

Google Classroom ilovasi quyidagi afzalliklarga ega:

- **Oson sozlamalar**: O'qituvchilar kurslar tashkil qilishi, talabalar va boshqa o'qituvchilarni kurslarga taklif qilishi mumkin. Kurs davomida topshiriqlar, e'lonlar va savollarni joylashtirish juda qulay.
- **Qulaylik:** Talabalar topshiriqlarni lentada, kalendarda yoki "Topshriqlar ro'yxat"da ko'rishlari mumkin. Barcha materiallar avtomatik ravishda Google Drivedagi papkalarga joylashadi.
- **Samarali aloqa**: Google Classda o'qituvchilar topshiriqlarni yuklashi, e'lonlar yuborishi va muhokamaga qo'yishi mumkin. Shu o'rinda, ishtirokchilar


ham o’zaro ma’lumot almashishi, kurs lentasida izohlar qo’yishi va elektron pochta orqali muloqot qilishi mumkin. Taqdim etilgan ishlar haqida ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanib boriladi, bu o’qituvchilarga topshiriqlarni tezda tekshirish, baholarni belgilash va sharhlar qo’shish imkonini beradi.

- **Ommapob servislar bilan integratsiya**: Google Classroom Google Docs, Calendar, Gmail, Drive va Formalar bilan ishlash mumkin.
- **Ochiqlik va xavfsizlik**: Classroom bepul xizmatdir. Unda reklama mavjud emas va talabalar uchun materiallar va ma’lumotlar marketing maqsadlarida ishlatilmaydi.

Respublikamizning barcha oliy o’quv yurtlarida ta’limni boshqarish uchun Hemis o’quv platformasi tadbiq etiladi. Bu platformani ishlashi va uni boshqarish uchun katta xarajat talab etiladi. Unga joylashtiriladigan resurslarni hajmi ortib ketmasligi uchun cheklovlar qo’yilgan.


Shuning uchun ta’lim sifatini oshirish va o’qitiladigan fanlarni talabalar tomonidan mukammal o’zlashtirishlari uchun har bir fandan mustaqil ravishda bulutli texnologiya ilovalaridan foydalanib o’quv kontentlarini yaratish kerak.

Biz matematika yo’nalishi talabalari uchun “Dasturlash asoslari” fanidan Google Classroom ilovasida o’quv content(1-rasm) yaratdik.



1-rasm. O’quv content bosh sahifasi

O’quv kontentda kontentni boshqaradigan administrator, o’qituvchi, talabalar va talabalarni ota yoki onalarini foydalanuvchi sifatida biriktirish mumkin. O’quv resursi (2-rasm) sifatida mavzu matni, taqdimot, videodars, amaliy mashg’ulot materiallari va baholash uchun test savollari joylashtirish mumkin.



2-rasm. O’quv resurslari

Google Classroom keng imkoniyatli platforma bo’lishiga qaramay, u bir qator kamchiliklardan xoli emas:

- Google Classroomda talaba (o’quvchi)lar bilan vebinarlar tashkil qilish imkoniyati mavjud emas. O’qituvchi o’quvchilar bilan olnayn uchrashuvlar o’tkazishga imkon beradigan YouTube yoki Google Hangouts xususiyatlaridan foydalanishi mumkin;
- Google Classroom xizmatining ochiq versiyasida elektron jurnal mavjud emas. Ushbu imkoniyat Google Classroomning korporativ foydalanuvchilari uchun mavjud;
- Shaxsiy akkauntlari bo’lgan kurs mualliflari uchun cheklovlar mavjud: kursda qatnashuvchilap soni 250 tadan oshmaslagi va bir kunda 100 tagacha ishtirokchi qo’shilishi mumkin.

Yuqorida e’tirof etilgan kamchiliklarga qaramay, Google Classroomning o’ziga xos afzalliklari ham mavjudki, bu onlayn platformadan o’rta ta’lim maktablarida, qolaversa, oliy ta’lim muassasalarida ham to’laqonli foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To’rayeva G.H. Google classroom platformasida ishlash bo’yicha metodik tavsiyalar// Uslubiy qo’llanma, Buxoro, 2020

2. Баранова Н. Google Classroom: Как с нуля создавать онлай курсы (версия 2020) //

3. Google classroom как способ организации дистанционного обучения // Материалы к вебинару «Организация дистанционного обучения на Google Classroom». – 23 марта, 2020 г..

4. Инструкция по работе в Google Классе // Материалы вебинара «Google Classroom – простой способ организовать дистанционное обучение». – 11 апреля, 2020 г..

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA RAQAMLI KONTENT YARATISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

G‘aniyeva O S. TDPU.Matematika va ta’limda axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi.
Mazbutova F Sh –TDPU. Xorijiy–tillar fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi jamiyatda raqamli texnologiyalar va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash, eng muhimi bugungi kunda ta’lim oluvchilar kasbiy fanlari bo‘yicha raqamli texnologiyalar va turli dasturiy ta'minotlardan foydalana olishining ilmiy salohiyatda o‘rni haqida fikr yuritilgan. Bo‘lajak xorijiy tillar pedagoglari uchun muhim bo‘lgan pedagogik dasturiy vositalarni o‘rganish va ularni qo‘llab raqamli kontent yaratish bo‘yicha tavsiyalar maqolamizda o‘z aksini topgan. Ta'limda axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, raqamli texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyoj va ta'limdagi asosiy raqamlashtirish muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: axborot, ta'lim, texnologiya, raqamli texnologiyalar, raqamli kontent, kompyuter, xorijiy tillar, metodologiya, o‘quv materillari, dastur.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatida va bundan tashqari boshqa sohalarda ham joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цифровые технологии в современном обществе и их применение в профессиональной деятельности, а главное, роль студентов в их профессиональных науках в научном потенциале использования цифровых технологий и различного программного обеспечения. В нашей статье отражены рекомендации по изучению педагогических программных средств, важных для будущих педагогов иностранного языка, и созданию с их помощью цифрового контента. В образовании обсуждается значение информационных технологий в профессиональной деятельности, необходимость цифровых технологий и главное цифровизация в образовании.

Ключевые слова: информация, образование, технологии, цифровые технологии, цифровой контент, компьютер, иностранные языки, методика, учебные материалы, программа.

Abstract: This article discusses digital technologies in modern society and their use in professional activities, and most importantly, the role of students in their professional sciences in the scientific potential of using digital technologies and various software. Our article reflects recommendations for studying pedagogical software tools that are important for future foreign language teachers and creating digital content with their help. In education, the importance of information

technology in professional activities, the need for digital technologies and, most importantly, digitalization in education are discussed.

Key words: information, education, technology, digital technologies, digital content, computer, foreign language, methodology, educational material, program.

Tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm–fan, texnika shiddat bilan o‘sib borayotgan bir vaqtda. Ta’lim sohadagi o‘zgarishlar ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion texnologiyalardan foylanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Chet tilini o‘rganish va o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishn eng samarali usullardan hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy – kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to‘g‘ri, unumli foydalanish, ular orqali o‘quvchida fanlarga bo‘lgan qiziqishlarni ortirish, o‘qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilayotgan bir vaqtda, bunday islohotlar zamirida rivojlanayotgan ta'limning oldiga ham muhim vazifalarni yuklash tabiiy albatda. Bu borada pedagog olim M.M.Xolmuxammedov o‘zining "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish" mavzusidagi maqolasida: "Tizim o‘z oldiga hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo‘sha oladigan o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash, yoshlarni malakali mehnat orqali o‘z hayot farovonligini ta'minlashga o‘rgatish, o‘z mehnat faoliyatiga innovatsion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intelektual, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi vazifalarni qo‘yadi",-deb yozadi[1].

Pedagog olim M.M.Xolmuxammedov tomonidan ilgari surilgan yuqoridagi vazifalarga tayangan xolda, ta'lim tizimining asosiy maqsadlarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalari mazmunan boyib borishi, ijtimoiy vazifalarining takomillashib borishi tabiiy holatdir. Ana shunday ijtimoiy vazifalardan biri, ta'limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ulardan foydalanish bo‘yicha o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishning barcha komponentlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish, bugungi axborot asrida tizimining bosh maqsadini tashkil etmog‘i zarur. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlari va davlatimiz rahbarining farmon va qarorlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan: "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari

asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor- o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish;

pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o‘qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish",[2] kabi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

Chet tilini o‘qitish jarayoniga turli pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Misol uchun: Dars jarayonida infografika, jadvallardan foydalanib, talabalar ma'lum grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so‘zlarni joylashtirib chiqishi mumkin.

Chet tilini o‘rganishga ehtiyoj yuqori bo‘lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion raqamlashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo‘lishiga olib keladi.

Xorijiy tillar yo‘nalishi talabalarida axborot texnologiyalari va kasbiy fanlar integratsiyasi asosida raqamli kontentdan foydalanish innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to‘g‘ri va unumli foydalanilganidadir.

Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos. ravishda o‘quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to‘rt aspectga (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspect (o‘qish,

yozish, tinglab tushunish va gapirish)da qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari yordamida jarayonni amalga oshirish, bu jarayonni pedagogik loyihalash uchun pedagogik dasturiy vositalar Bandicam, Adobe Flash, Canva, Camtasia Studio, AutoPlayMedia yordamida amalga oshirish samaradorlikni oshiradi. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga faol kirib borayotganligining bosh omili bu darslarning sifatini ijobiy tomonga o‘zgartirishdagi samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etayotganligidir. Bunday sifat darajasini yanada yuksaltirishda o‘qitishning turli vositalari va raqamli texnologiyalarni qo‘llashning yangi strategik loyihalarini ishlab chiqish hamda sohaga joriy etishning normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi [3]", deya ta'kidlaganlari mamlakatimizda faqat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burilish yasash, balki raqamli texnologiyalarni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham joriy etish nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizmida raqamli texnologiyalardan foydalanish, o‘qitishning samaradorligi ta’minlash, dars jarayonlariga oid video rolik, dars ishlanmalari, taqdimotlar, ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, o‘qituvchi pedagoglarning multimedia mahsulotlari, kompyuter texnikasi va ularni dars jarayonida qo‘llash malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Har bir takomillashib borayotgan texnologiyalar biz talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik, talabaning ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi.

Ingliz – tilini, nafaqat chet-tillarini o‘rganishda jarayonida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida, dars jarayonlarining samaradorligini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, nutqni ravonlashtirish, tez va to‘g‘ri javob berish ko‘nikmasi shakllanadi. Kelgusida biz bo‘lajak pedagoglar raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini yanada mukammalroq o‘rganishimiz va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.M.M.Xolmuxammedov. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6108-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, Xalq so‘zi 2020 yil 25 yanvar.

4.Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida tezis. Toshkent- 2012 yil

5. Отабоева, M. P. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / MM. P. Отабоева.

SHARQ MUTAFFAKIRLARINING KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLARI

Qaynarova Iqbol Valiyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi
Murodova Gulnora Ergash qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Bu maqolaning asosiy maqsadi hozirgi kundagi pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda sharq mutaffakirlarining alohida o’rniga qaratilgan. Ya’ni shuni ta’kidlash joizki har bir narsani o’raganishdan oldin uning tarixini bilish lozim, shunday ekan pedagog bo’lishni maqsad qilgan har bir shaxs albatta buyuk allomalarimizning tajribalari bilan tanishib chiqishi kerak bo’ladi.

Kalit so’zlar: Vatan, xalq, iymon, ta’lim-tarbiya, insoniylik, islohot.

O’tmishda allomalarimiz Vatan istiqboli, xalq farovonligi, farzandlar kelajagi va ilm fan taraqqiyoti uchun o’zlarining munosib hissalarini qo’shganlar. Ta’lim-tarbiya insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ham ochib berilgan. Islom olamining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim” da ham komillikning beshta tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi deb aytib o’tilgan.

1.Mehnatim muhabbatim

2.Ma’rifatim sarmoyam

3.Dinim aqlim

4.Ilmim qurolim

5.Sabru-qanoat libosim

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Shu bois, faylasuf, tarixchi, pedagog, matematik olimlar bu davr madaniy- ma’rifiy merosi haqida qator ilmiy tadqiqod ishlari olib borganlar.

Pedagog- olimlarning Sharq mutaffakirlari ijodida ta’lim-tarbiya, shaxs ma’naviy kamoloti masalalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqodlarning pedagogika fani rivojida muhim o’rni bor. Lekin ular allomalar merosida olg’a surilgan ta’lim-tarbiya masalalarini yoritishda milliylik tamoyilidan kelib chiqqan holda yondashmadilar. Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko’tarish markazi “Ma’mun akademiyasi” (IX asr Bag’dod, “Baytul hikma”) tashkil

etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining maxsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi.Farobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim -tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim. Farobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini,ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobilyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobilyatiga egaligi bu kuch uni tabiyatiga boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ldi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, axloqiy mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga oid fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug'laydi, uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idrok so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi,hunarga egaligidadir. U aytadiki o'quv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa insonning qadri ortadi.

Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,

Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'ladi,

Zakovatli uqadi, bilimli biladi,

Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.

Yusuf Xos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi. O'g'il bo'lalarning bir necha san'at turlarini va hunarlarni tugal o'rganmog'i lozimligini ta'kidlaydi.

Yana bir buyuk allomamiz Abu Rayhon Beruniyning o'qituvchi faoliyatiga bergan izohidan anglash lozimki, Beruniy yoshlarni o'qitish uchun o'qituvchi tanlash ota-onaning birinchi va asosiy vazifasi biri ekanligini aytib o'tadi. Buning uchun o'qituvchi xushmuomala, rostgo'y, o'z fanini va o'qitish qoidalarini yaxshi biladigan, pokiza yurish-turishda namuna bo'lishini talab etadi. Agar,- deydi Beruniy,- tarbiyachining o'zi o'rnak bo'lmasa, aytgan gapiga o'zi rioya etmasa, uning talabi va tarbiyasi samarasizdir. Shu o'rinda yangi davr pedagogikasinig asoschilaridan bir bo'lgan Abdulla Avloniyning fikrlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u o'qituvchi faoliyatiga to'xtalib bolaning fikriy taraqqiyotini oilaga emas, maktabga, o'qituvchilar zimmasiga yuklaydi. "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, o'qituvchilarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g'ayratli, bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya o'qituvchilarning yordamiga muhtojdirki, fikrning quvvati -ziynati, kengligi o'qituvchining tarbiyasiga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari Abdulla Avloniy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta'rif berib shunday deydi;tarbiyachining shaxsiy fazilatlari,

axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo’lsa, ijodiy izlanish o’qish va o’qitishning yangi shakl, uslub hamda sifatlaridan ekanligidan uqtiradi.

Xulosa o’rnida aytish lozimki, ta’lim olishning ustunlik tomonlari juda ko’p, masalan, har bir shaxs ta’lim oladi hoh u o’qituvchi bo’lsin, hoh boshqa kasb egasi bo’lsa hamki, har qanday holatda ham bu uning ta’lim olish uchun zarur hisoblanadi. Insonning hayvonot ahlidan farqi ham shu albatta. Inson hayotda o’qituvchilik kasbini tanlamasligi mumkin lekin har qanday kasbda ham birinchi navbatda bilim talab etiladi. Inson hayotda o’z o’rnini topmoqchi ekan albatta bilim egallashi kerak. Zamonaviy o’qituvchi, zamon bilan hamnafas bo’lishni oldiga maqsad qilgan har bir shaxs avvalo o’tmishni chuqur anglamog’i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Islom Karimov “O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li”. Toshkent. “O’zbekiston”,1994-yil

2. Saydalieva Dilfuza Zairjanovna “Pedagogik faoliyat Sharq va G’arb mutaffakirlarining nuqtai-nazarida” www.oriens.uz May 2023.

3. Nabi Pardaboyevich Jumaboyev “Sharq mutaffakirlarining ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy va axloqiy qarashlari”@gmail.com

4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. Toshkent “Hilol-nashr”2013-yil

ZAMONAVIY ISHLAB CHIQARISH TARMOQLARIDA CAD/CAM/CAE TIZIMLARINING O‘RNI

ISMOILOV RO‘ZIBEK RAJABOVICH

BMTI, “TJBAKT” kafedrasi o‘qituvchi - stajyor
rozibekismioilov51@gmail.com , +998914147809
SADULLAYEV AZIZBEK NASILLO O‘G‘LI
BMTI, “TJBAKT” kafedrasi o‘qituvchi – stajyor
azizbeksadullayev98@gmail.com, +99893-969-66-40

Annotatsiya: Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida suniy intelekt, CAD/CAM/CAE tizimlari, VR va AR texnologiyalarini qo‘llash orqali mahsulot sifatini oshirib, uning tan narxini kamaytirishga erishilmoqda. Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik tayyorlashda kompyuter yordamida loyihalash tizimlari CAD/CAM/CAE texnologiyalari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: CAD/CAM/CAE, axborot–kommunikatsiya, kinematik hisoblash, avtomatik loyihalash tizimi (ALT), kompleks avtomatlashtirish, 2D loyiha.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ishlab chiqarish sohasida murakkab,yuqori texnologiyali korxonalarni axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har qanday ishlab chiqarish sohasida axborot texnologiyalari orqali loyihalash, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini oshirish vositalaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, tovar ishlab chiqarish jarayonida unga qisqa muddat, tovarlarni bozorga chiqarish, tovarlarning arzonligi, yuqori sifati kabi asosiy talablar qo‘yiladi.Bunday talablarga javob beradigan texnologik tizimni tashkil qilish uchun, ishlab chiqarishni loyihalash va texnologik tayyorlash jarayonida kompyuter yordamida loyihalash tizimlari CAD/CAM/CAE texnologiyalari qo‘llaniladi.

Zamonaviy korxonalar agar eng yaxshi sifatli, tannarxi arzonroq bo‘lgan, yangi mahsulotni qisqa vaqt oralig‘ida tayyorlab chiqarishmasa, ular butun dunyo raqobatiga bardosh bera olmaydilar. Shu sababli ular loyihalash va ishlab chiqarish masalalarini avtomatlashtirish va bir-biriga bog‘lashda grafik interfeysning ulkan imkoniyatlaridan foydalanishga intilishmoqda. Bunda yangilikni va mahsulotni ishlab chiqarish vaqti qisqaradi, tannarxi arzonlashadi. Bu talablarni CAD/CAE/CAM texnologiyalarini keng miqiyosda qo‘llamasdan turib amalga oshirishning iloji yoq. Mashinasozlik sohasida - avtomatik loyihalash tizimi (ALT) tushunchasi odatda, CAD/CAE/CAM tizimlariga nisbatan qo‘llanilib, unda kompyuter yordamida loyihalash, ishlab - chiqarish va muhandislik ma’lumotlarini boshqarish masalalarini amalga oshiruvchi dasturlar to‘plamiga nisbatan qh‘llaniladi.


Jarayonga zamonaviy qurilmalarni tadbiq etish orqali jarayonni yanada tezkor va ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatini oshirishga erishishimiz mumkin.Qurilmani jarayonga tadbiq qilishdan avval uning modeli yaratilib shu modeli asosida kompyuterda turli sinovlardan o‘tkaziladi.Bugungi kunda bunday vazifalarni CAD/CAM/CAE tizimi orqali amalga oshiriladi.

Kompyuter modellari sistemaning tabiatini o‘ziga xos turli xil kombinatsion matematik modellarga asoslangan yaqinlashuvlar yordamida tasvirlab beradi.Kompyuterda modellashtirish yordamida tajriba qilmasdan avval ma’lum bir tizimlar uchun eng qulay modelni tuzib chiqish va sinab olish tajriba uchun ketadigan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Modellar yordamida tajriba uchun sarflanadigan xarajatlarni tejash o‘z navbatida katta iqtisodiy samaradorlikka ham olib keladi.


CAD, CAE, CAM tizimlari mahsulotni loyihalash, ishlab chiqishni kompleks avtomatlashtirish uchun ishlatiladi.Aslida, turli maqsadlar uchun ishlab chiqilgan

yagona asosda ishlatiladigan uchta tizim birlashtirilgan.Ular quyidagicha tavsiflanadi:


CAD tizimlari ishlab chiqarishning asosi ikki o‘lchovli (2D) va uch o‘lchovli (3D) dizayndir. Ko‘pincha 2D loyiha hujjatlari va chizmalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan.



CAE tizimlari va dasturlari Avtomatlashtirilgan konstruksiyalash (computer-aided engineering – CAE) – bu CAD geometriyasini tahlil qilish, modellash va mahsulot konstruksiyasini takomillashtirish uchun uning xususiyatlarini o‘rganish uchun kompyuter tizimidan foydalanishdir. CAE vositalari tahlilning har xil variantlarini bajarishi mumkin. Masalan, kinematik hisoblash dasturlarini harakat trayektoriyalarini va mexanizmlardagi zvenolar tezliklarini aniqlashga qodir.



CAM tizimlari va dasturlari Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish (CAM) – bu korxonaning ishlab chiqarish resurslari bilan bevosita yoki bilvosita interfeys orqali ishlab chiqarish operatsiyalarini rejalash, boshqarish asoslangan texnologiyadir. Sonli-raqamli dasturaviy boshqarish (numerical control – NT) – ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga bo‘lgan eng yetuk yondoshuvlardan biridir. Sonli-raqamli boshqaruv – bu stanokni boshqarish uchun dasturlashtirilgan komandalardan foydalanishdir: stanok jilvirlash, kesish, frezerlash, shtamplash, parmalash va boshqa usullar bilan xomakini tayyor detalga aylantiradi. Hozirgi paytda kompyuterlar CAD ma’lumotlar bazasidagi buyumlarning geometrik parametrlari va operator taqdim etayotgan qo‘shimcha ma’lumotlar asosida sonli-raqamli dasturiy boshqariluvchi stanoklar uchun katta dasturlarni generatsiya qilishga qodir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miltiadis A. Boboulos “CAD/CAM & Rapid Prototyping Aplication Evaluation”, 1st edition. 2010 y.

2. CAD, CAE, CAM СИСТЕМА И ЕЕ ВОЗМОЖНОСТИ Р.М. Мамбетов, Р.А.Танжарова,Алмалыкский филиал Ташкентского государственного технического университета Р.Р.Умирзаков. Национальный институт искусства и дизайна Камолиддина Беҳзода, EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 7 | Issue: 12 | December 2022

3. В.Л. Зубенко канд. техн. наук, доцент, кафедра «Автоматизированные станочные комплексы», ФГБОУ ВПО «Самарский государственный технический университет» , И.В. Емельянова канд. техн. наук, доцент, кафедра «Инженерная графика», ФГБОУ ВПО «Самарский государственный технический университет» Н.В. Емельянов ст. преподаватель, кафедра «Инженерная графика», ФГБОУ ВПО «Самарский государственный технический университет» МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ CAD/CAM/CAE – СИСТЕМ В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ.

4. Ismoilov R.R, Qobilov H.X, Ibragimov U.M. Sabzavotlarni saralash jarayonida transportyor lentaning sabzavot og‘irligiga bardoshliligini Solidworks cad/cam/cae tizimi simuliyatsiyasi orqali tekshirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4), April, 2023 8 bet,33 %.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING TINGLASH VA TAHLIL QILISH KO’NIKMALARINI 4K MODELI ASOSIDA NAZARIY BILIMLARINI AMALIYOTGA YO'NALTIRISH

Abidova Kamola Nigmatulla qizi *- Nordik Xalqaro universiteti magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tinglash va tahlil qilish ko‘nikmalarini amaliy yo‘naltirish, 4K modelidan tushunchalar olish masalalari ko‘rib chiqiladi. Biz o'qituvchilar o'z o'quvchilariga nafaqat nazariy tushunchalarni tushunishlarini, balki ushbu muhim vakolatlarni qo'llash va tahlil

qilishda faol ishtirok etishlarini ta'minlash uchun qo'llashi mumkin bo'lgan strategiya va usullarni o'rganamiz.

Kalit soz'lar: 4K model, ta'lim muhiti, amaliyot, nazariya, boshlang'ich sinf, qo'llash, taxlil

Tez rivojlanayotgan ta'lim muhitida tanqidiy tinglash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular XXI-asr ta'lim muhitining murakkabliklarini yo'lga qo'yayotganlarida, ma'lumotni tushunish, talqin qilish va tanqidiy baholash qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Biroq, muammo bu ko'nikmalarni nazariy tushunish va ularni amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni samarali bartaraf etishdadir.

Bilim, tushunish, qo'llash va tahlilni o'z ichiga olgan 4K modeli boshlang'ich sinf o'quvchilarini nazariyadan amaliyotga o'tishda yo'naltirish uchun mustahkam asosni taklif etadi. Ushbu modelning har bir bosqichini tizimli ravishda hal qilish orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilariga nafaqat zarur nazariy asoslarni egallashlari, balki ularni aniq, haqiqiy dunyo ko'nikmalariga aylantirishlari mumkin[1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglash va tahlil qilish ko'nikmalariga oid nazariy bilimlarini 4K modeli asosida amaliyotga yo'naltirish bo'yicha tavsiya etilgan sxema:

Asosiy qism:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tinglash va tahlil qilish ko'nikmalarining ahamiyati
- 4K modelining umumiy ko'rinishi (Bilim, tushunish, qo'llash va tahlil qilish)

Bilim:

- nazariy asoslarni yaratish
- samarali tinglashning asosiy tushunchalari va tamoyillari bilan tanishtirish
- talabalarga faol tinglashning ahamiyatini tushunishga yordam berish

Tushunish:

- talabalarning nazariy bilimlarni egallashini ta'minlash
- tinglash qobiliyatlarini tushunishlarini ko'rsatadigan mashg'ulotlarga jalb qilish
- o'quvchilarni tushunchalarni o'z so'zlari bilan tushuntirishga undash

Ilova:

- nazariyadan amaliyotga o'tish
- Talabalarga tinglash ko'nikmalarini real dunyo stsenariylarida qo'llash imkoniyatini berish
- Interfaol mashqlar va simulyatsiyalarni loyihalash

Tahlil:

- Amaliy qo'llash samaradorligini baholash
- Talabalarni o'zlarining tinglash va tahlil natijalarini tahlil qilishga yo'naltirish
- tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

Strategiya va texnikalar:

- Boshlang'ich sinflarda 4K modelini joriy etish
- turli xil o'qitish usullari va o'quv resurslarini o'z ichiga olish

- hamkorlikda o'rganish va tengdoshga fikr-mulohazalarni rag'batlantirish

Natijalarni baholash:

- 4K-ga asoslangan yondashuvning talabalarning tinglash va tahlil qilish qobiliyatlariga ta'sirini o'lchash

- Talabalarning muvaffaqiyatini baholash uchun miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil qilish

- yanada takomillashtirish va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash

Natija:

- 4K-ga asoslangan yondashuvning asosiy nuqtalarini sarhisob qilish

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nazariya va amaliyotni integratsiyalashning afzalliklarini ko‘rsatish

- doimiy malaka oshirish va umrbod ta'limni rag'batlantirish

Ushbu 4K-ga asoslangan yondashuvga rioya qilish orqali boshlang'ich maktab o'qituvchilari o'z o'quvchilariga tinglash va tahlil qilish ko'nikmalariga oid nazariy bilimlarini amaliy qo'llashga o'tkazishda samarali yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin, natijada ularning umumiy akademik samaradorligini va kelajakdagi qiyinchiliklarga tayyorligini oshiradi[2].

Biz ko‘rib chiqqanimizdek, 4K modeliga asoslangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tinglash va tahlil qilish ko‘nikmalarini amaliy yo‘naltirish hayotiy va ko‘p qirrali ishdir. Talabalarni Bilim, Tushunish, Qo‘llash va Tahlil bosqichlarida tizimli ravishda yo‘naltirish orqali o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish va natijada ularni XXI asr ta’lim manzarasida muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy ko‘nikmalar bilan jihozlash imkoniyatini berishlari mumkin.

Maqsadli o‘qitish usullari, interfaol mashqlar va hamkorlikdagi o‘quv muhitini tatbiq etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nazariy bilimlarni passiv o‘zlashtirishdan tinglash va tahliliy qobiliyatlarini amaliy qo‘llash va tahlil qilishda faol ishtirok etishga samarali o‘tishlari mumkin. Ushbu yaxlit yondashuv nafaqat akademik samaradorlikni oshiradi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va umrbod ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[3].

Boshlang‘ich ta’lim kelajagiga nazar tashlar ekanmiz, 4K modelini o‘quv rejasi va o‘qitish amaliyotiga integratsiyalashuvi o‘quvchilarni raqamli asrning murakkabliklarida harakat qilishga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Nazariy bilimlarning amaliy yo‘nalishini birinchi o‘ringa qo‘yish orqali biz oldinda turgan muammolar va imkoniyatlarni yengishga tayyor, qiziquvchan, moslashuvchan va tahliliy o‘quvchilar avlodini tarbiyalashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekchonova Sh.B. PISA-2022 xalqaro baholash dasturi - ta’lim sifatini oshirishda ma’lumotlarni yig‘ish va taqdim etish standartlari. A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot Instituti «Xalqaro baholash dasturlari va ta’lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2022-yil, 11-mart) I-qism-T. 247-251 б

2. Бекчонова Ш.Б. Цифровой интеллект и цифровое воспитание. Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика: сборник материалов XVI международной науч.-практ. конференции, посвящ. памяти основателей Костанайского филиала «ЧелГУ» Т.Ж. Атжанова и А.М. Роднова, 12 апреля 2022 г. 619-621 с

3. Табачук Н.П., Мельникова В.В., Поличка А.Е. Система развития информационной компетенции студентов вуза с помощью цифровых образовательных карт по информатике // Современные проблемы науки и образования. – 2021. – № 1

YANGI KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT ASOSI

Sobirova Asilabonu Aziz qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili uchinchi fakulteti 2201-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy qadriyatlar, adolatli fuqarolik jamiyati, huquqiy-demokratik davlat barpo etish, inson huquqlari, sha'ni, erkinligi oliy qadriyat oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag'ishlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan eng yangi o'zgarishlar va ularning hozirgi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, referendum, davlat, jamiyat, inson huquqlari.

Konstitutsiya bu – har bir mustaqil davlatning asosiy poydevori hisoblanadi. Shu bilan birga Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosidir. Mamlakatimizning o'tmishida ham qonunlar ezgulikka va taraqqiyotga, tinchlik va fidokorlikka bag'ishlangan. Buning yorqin misoli sifatida "Temur tuzuklari" nomi bilan mashhur bo'lgan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga kuchli ta'sir ko'rsata olgan asarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 1992-yil 8-dekabr sanasida qabul qilingan bo'lib, bu qonunga ikki marta yuzga yaqin qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. 1992-yil qabul qilingan Konstitutsiya 6 bo'lim, 28 bob, 128 moddadan iborat edi. Barchamizga ma'lumki, 2023-yil 30-aprel sanasida referendum o'tkazilgani munosabati bilan Konstitutsiyamizga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritildi. 2023-yil 1-mayda u yangi tahrirdan chiqdi. U 6 bo'lim, 27 bob, 155 moddadan iborat. 30-aprelda bo'lib o'tgan referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun 1-maydan kuchga kirdi. Bunga asos referendum natijasiga ko'ra, 11 moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi edi. Yangilanish jarayonida undagi moddalar 128 dan 155 ga, normalar esa 275 dan 434 ga oshdi. Masalan, 1-moddadagi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" jumalasi quyidagi jumla bilan o'zgartirildi:

O’zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo’lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Bosh qomusimizda hozirgi zamon konstitutsiyasidagi umuminsoniy qadriyatlar va va xalqaro huquqning eng muhim me’yorlari mujassamlashgan bo’lib, u jamiyat uchun xizmat qilib kelmoqda. Ma’lumki, huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri inson huquqlarini muhofaza qilish sanaladi. Bugungi kunda globallashuv sharoitida har bir xalqning o’ziga xosligi, qadriyatlari va milliy an’analarini saqlab qolish, odamlarda ma’naviyat va didni tarbiyalashda huquqiy ongni shakllantirish qonunchilikning asosiy omillaridandir. Bundan tashqari davlat va jamiyat hayotida siyosiy va sud-huquq masalalari muhim rol o’ynaydi. Yangilangan Konstitutsiya esa bizga yanada ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu imkoniyatlar negizida esa albatta rivojlanish, taraqqiy etish asosiy o'rinda turadi. XXI asr yoshlari o'z huquqlarini bilishi lozim, chunki shundagina ular o’zlarini har tomonlama himoya qila oladi va kelajagi uchun adolatli qarorlarni qabul qila oladi. Bunday adolatli va insonlar uchun xizmat qiluvchi qarorlar nafaqat yoshlarni, balki mamlakatni ham taraqqiy etishiga yordam beradi. Yangilangan Konstitutsiyamizda ko'plab masalalarga e'tibor qaratildi va ularning hozirgi kundagi hayotimizga amaliy tatbiq etilyotgani har birimizni xursand qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstitutsiya
2. https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsiya-mamlakatimizda-amalga-oshirilayotgan-demokratik-yangilanishlar-poydevori
3. https://lex.uz/acts/-81253
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Referendum
5. https://meningkonstitutsiyam.uz/oz/site/page/konstitutsiyaning-mazmun-mohiyati

RAQAMLI TA’LIMDA KOGNITIV KOMPETENSIYANING ASOSIY TURLARI MEZONLARI

K.K.Kudratov - PhD, Nizomiy nomidagi TDPU o’qituvchisi

Jahonda olib borilgan raqamli kompetensiyaviy yondashuvga oid izlanishlarda o‘zining asosiy ilmiy qarashlari bilan XXI asr yillarda tadqiqotlarda “kompetensiya” tushunchasi umumdidaktik va metodologik darajaga ko‘tarildi. Bu holat uning ta’lim – tizimida amaliy-kognitiv rivojlanish maslalarini yoritishda muhim o‘rin egallab keldi.

Raqamli fikr-mulohazlarida "kompetensiya" tushunchasi “bilish”, “kompetentlilik”, “qobiliyat”, “maxorat” tushunchalari mazmuniga kirib xaligacha aniq ta’riflanmagan termin sifatida muhokamlar jarayonida ketmoqda. Raqamli ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni 5 ta jihatga bo‘lib ta’lqin qilib o‘tadi .

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining amaliy-kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ta’lim jarayonining amaliy faoliyatining o‘zi bilan

bog‘langan holda tahlil qilib o‘rgansak, kompetensiya tushunchasini kengroq muomalaga kiritilishi ushbu tushunchani qo‘llash amaliyotini nazariy tushunishga ehtiyoj tug‘diradi.

Mr. Walo Hutmacher fikr-mulohazlarida kompetensiyaning asosiy turalri

Demak, “kompetensiya” tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish uchun ushbu atamaning ta’rifini, uning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu tushuncha lotin tilidan tarjima qilinganda "competentia" inson yaxshi biladigan, bilim va tajribaga ega bo‘lgan bir qator masalalarni anglatuvchi tushuncha sifatida ifodalash mumkin. “Kompetensiya” tushunchasi pedagogik tushunchalardan farqi shundan iboratki, uning asosida turgan real hayotiy ob’ektiv tushunchalar tarkibida muhim o‘rin egallaydi. “Kompetensiya” tushunchasi atrofidagi tushunmovchilik va noaniqliklar, kompetensiyaning yagona va haqiqiy ta’rifini olishga tayyor bo‘lgan ob’ektivistik nuqtai nazardan kelib chiqadi. Ushbu muammo bir nechta ta’riflarning mavjudligini nazarda tutgan konstruktiv yondoshuv nuqtai nazaridan kelib chiqgan holda yechiladi. Ushbu yondoshuvda tushunchaning adekvatlilik mezoni sifatida ta’rif qo‘llanilgan kontekstda ma’noga ega bo‘lgan semantik soha chegaralari xizmat qiladi.

Bizning nazarimizda bo‘lajak o‘qituvchilarda amaliy va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida:

birinchidan, amaliy va kognitiv kompetensiya ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodkorlik muhitini yaratish orqali talabalarning ichki motivlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;

ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarda amaliy va kognitiv komptensiyalarni rivojlantirish kreativ-ijodkorlik sifatlarini yuzaga chiqarishda guruh jamoasining tashqi motivatsion ta’sirlar orqali rivojlantirish;

uchunchidan, bo‘lajak informatika o‘qituvchilari maqsad qilib qo‘ygan faoliyat ko‘nikmalariga yetishlari, mustaqil ijodiy faoliyat yuritishlari, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda zarur ko‘nikma va izlanuvchanlik qobiliyalari kabi o‘quv imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish sifatalari xozirgi vaqtda dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Jumaladan, ushbu maslalarga amerikalik olimlar ishlab chiqarishning turli soxalarida inson faoliyatini rivojlantrish uchun maxsus kompetensiyalardan foydalangan holda universitet bitiruvchilari tomonidan o‘quv-tarbiya jarayonida o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim-dasturlarida belgilangan maqsada erishish darajasini aniqlash borasida o‘z tajribalari olib borganlar. Masalan, olimlar kompetensiya inson shaxsiyatining tuzilishidagi o‘zgarmas fazilat emas, balki, ular rivojlanishi xam mumkin, namoyon bo‘lishi ham mumkin, uni rag‘batlantirish orqali rivojlantirib iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etishiga to‘xtalib o‘tgan. Xususan, ta’limda an’anaviy yondashuvi orqali bo‘lajak o‘qituvchilar individual xususiyatlarning muhimligi va "eng yaxshi ish"ni baholash

uchun shaxsning xulq-atvor kompetensiyalarini qo‘llash orqali o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish masalasi muhim o‘rin tutadi .

Xalqaro tajribalarda jamiyatda ta’lim va fan taraqqiyotida Byuk Britaniya tajribasi muhim o‘rin tutadi. Byuk Britaniya tajribasida ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni funksional kompetensiyalarning kasbiy sifatlarga qo‘yiladigan talabalar doirasida bo‘lajak mutaxassisning o‘z jamodoshlari va ish jamoasida o‘z o‘rini topishida muhim o‘rin tutishi maslalariga e’tibor qaratgan holda ta’lim tizimiga tatbiq etib kelmoqda. Maslan, XX asrning oxiri XXI asr boshlaridan Germaniya ta’lim tizimi kompetensiyaviy yondoshuv asosida ta’limni tashkil etish masalasi dolzarb vazifa sifatida ilgari surilgan. Shu sababli Germaniyada kompetensiyaviy yondashuvning 6 ta jihatlariga urg‘u bergan holda tashkil etilgan. Demak, ularning amaldagi ta’lim standartiga mos tarzida ta’lim-tizimiga bosqichma-bosqich o‘tila boshlagani quydagi kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta’lim mazumniga singdira boshlagan:

- Handlungskompetenz yan’ni, (xarakatchanlik kompetensiyasi); fan va predmetli kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi;
- Fachkompetenz(kasbiy kompetensiya) ushbu kompetensiya orqali o‘quvchilarda kasbiy layoqatni shakllantirishga urg‘u berishga yo‘naltirilgan;
- Sachkompetenz (umumiy-bilish kompetensiyalari) – mustaqil fikrlashi, kreativ tafakkuri va xarakat qilish qobiliyati, sinchkov va muammoni xal etishga oid ko‘nikmalari shakllanadi;
- Personalkompetenz (shaxsiy-kompetensiyasi) – shaxsiy-qobilyatlarining rivojlantirish yo‘llarini tushinishi, taxlil qilish va baxolashga tayyorligi va qobiliyati, shaxsiy, mexnat va ijtimoiy xayotdagi talablar va chegaralar, xayyotiy rejalarini tanlash va amalga oshirish ko‘nikmasini shallantirish;
- Soziaekompetenz (ijtimoiy kompetensiyalar);
- Lernkompetenz (o‘quv-kompetesiyalari) o‘quv-tarbiya jarayonida meta-kompetensiyalarga tenglashtirilgan ta’limiy kompetensyailarni o‘zlashtirish orqali tashkil etishga yo‘naltiriladi .

Yevropa malakatlaridan Fransiya va Germaniya ta’lim-tizimida qabul qilingan kompetensiyaviy yondashuvning ko‘p o‘lchovli va analitik konsepsiyasini shakllantirish, o‘quv-tarbiya jarayonini sinxronlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi va ta’lim tizimida kasbiy yo‘naltirilganlik uchun ijtimoiy kompetensiyalar o‘rtasida o‘zaro a’loqadorlikni rivojlantirishga yo‘naltirgan holda ta’limni tashkil etib borailadi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi mantiqiy tafakkurini, shaxsiy xulq - atvor, ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarning rivojlantruvchi darajalarning baholashini aks ettiruvchi individual, va bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan kompetensiyaviy modellarini qurishga asoslangan ikki yo‘nalishni birlashtirishi zarurligi kabi sifatlarga alohida urg‘u berilgan holda ta’limni tashkil etib olib borlimoqda.

Bo‘lajak informatik o‘qituvchilarida amaliy va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’limning ichki-muhiti ya’ni o‘zaro a’loqa chegaralarini tashkil etuvchi tahliliy qiymatlar soxasi alohida o‘rin tutadi. Mavjud tadqiqotlarda oliy

ta’lim muassasalari bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining amaliy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishdan maqsad mustaqil-tanqidiy fikrlovchi, o‘z ustida ishlash qobilyatiga ega, motivatsion-kognitiv tafakkur tarzi ham bo‘lajak o‘qituvchining alohida iqtidori aniqlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilarda amaliy va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda – shaxsiy-kasbiy qobilyati, mustaqil o‘z ustida ishlashi va shaxsiy rivojlanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi . Jumaladan, olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu o‘quv faoliyati natijasida, bo‘lajak o‘qituvchining o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kasbiy yo‘nalganlikka o‘qitishda mustaqil yo‘naltirish masalalari tahlil etish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, o‘rganilgan ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqil o‘zlashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyat sohasida shaxsining mustaqil fikrlashi bilan bog‘liq holda amaliy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari, xususan, kompetentli yondashish nuqtai nazaridan yetarli darajada o‘rganilmaganligini keltirib o‘tishni ham joiz deb topdik.

Jumaladan, amaliy va kognitiv kompetensiyani rivojlantirishda bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining bilimi, o‘zlashtirishi, balki sub’ektiv yangi bilimlarni yaratishi, shaxsiy-fikr mulohazalari orqali mustaqil fikrlash jarayoni dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim va zamonaviy ijtimoiylashuv jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Xususan, ijtimoiy o‘zgarishlarning namoyon bo‘lishi ta’lim jarayonini rivojlantiruvchi jihatlarda o‘zaro to‘xtalib o‘tganligini ham takdlab o‘tish lozim.

“Amaliy va kognitiv kompetensiya” tushunchasi tahlilini ochib berishda ta’limiy yondashuvlarni integrallashuvi orqali quyidagi xulosalarni keltirib o‘tishni lozim deb topdik:

olib borilgan tadqiqotlarda o‘quv-tarbiya jarayonida ta’lim texnologiyalarini bilishga, o‘quv faoliyati, o‘z-o‘zini boshqarishga va bilim olish malakalarini egallashga e’tibor qaratilganligi;

amaiy va kognitiv kompetensiya jamiyat taraqqiyotida ta’limning sifat jihatdan takomillashtirishini nazarda tutadi;

ta’limda kompetensiyaviy yondashuv shaxsiy sifatlarini rivojlanishi, amaliy va kognitiv kompetensiya tarkibida intellektual, motivatsion, emotsional, irodaviy, qadriyatli, baholovchi va boshqa komponentlarni ajratib ko‘rsatadilar, lekin kognitiv ta’lim alohida iqtidorga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Amaliy va kognitiv kompetentlikka bag‘ishlangan mavjud dissertasiya tadqiqotlarida faqat o‘quv-bilish faoliyati hamda kompetensiya mazmunini aniqlashning ustuvor tamoyillari orqali shakllantirish mumkinligi ta’kidlanadi.

ADABIY TA’LIMDA ITDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

M.Inoyatova - O‘zPFITI innovatsion loyiha rahbari, p.f.n.

Annotatsiya. Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, adabiyot o‘quv predmetini modernizatsiyalashning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta'lim jarayoniga IT

texnologiyalarini faol tatbiq etishdir. Maqolada ushbu masalaning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-gumanitar fanlar, adabiyot o‘quv predmeti, modernizatsiya, adabiy ta'lim jarayoni, IT texnologiyalari.

Аннотация. Одним из основных направлений модернизации социальных и гуманитарных наук, в том числе литературы, является активное внедрение IT-технологий в образовательный процесс. В статье раскрыта важность этого вопроса.

Ключевые слова: социальные и гуманитарные науки, предмет «Литература», модернизация, литературно-образовательный процесс, IT-технологии.

Abstract. One of the main directions of modernization of social and human sciences, including literature, is the active introduction of IT technologies into the educational process. The article reveals the importance of this issue.

Key words: social and human sciences, subject “Literature”, modernization, literary and educational process, IT technologies.

2021-yil 19-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan yig‘ilishda davlat rahbarimiz jamiyatda ijtimoiy-gumanitar fanlar samaradorligini oshirishning zaruriyatiga alohida e'tibor qaratdi: “Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda ”, — deb uqtirdi u.

Yusuf Xos Hojib so‘zning tarbiyaviy ta'siriga urg‘u berib shunday degan edi:

So‘z bo‘z yerga yashil ko‘kdan tushdi,

So‘z tufayli inson o‘zini ulug‘ qildi.

Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim Abu Lays Samarqandiy “Bo‘stonul orifiyn” nomli kitobida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganishda munozaradan foydalanishning zarurligini ta'kidlab, bunday holatda munozara odobiga rioya etish, o‘zi bilan bahsga kirishgan zotni hurmatlay bilish, qizishmaslik, muloyimlik va lutfu karamni saqlay bilishning zarurligi, munozarani o‘z shaxsini ustun qo‘yish, kekkayish, manmanlik vositasiga aylantirishdan saqlanish kerakligini uqtirgan.

Insonni so‘z vositasida tarbiyalovchi adabiyot o‘quv predmeti – jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi.

Adabiyotda jamiyatning ijtimoiy muammolari, inson turmush tarzi uning ijtimoiy faoliyati bilan uyg‘unlikda o‘rganiladi. Ya'ni, shunchaki, qaysidir

voqeaning nechanchi yili bo‘lib o‘tgani emas, balki uning inson hayotiga ta'siri, dunyoqarashida qanday o‘zgarishlar ro‘y bergani, qanday xulosaga kelingani, natijada nimalar amalga oshirilgani tahlil etiladi.

Davlat rahbarimizning “Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ta'limga oid innovatsion texnologiyalar hamda ITni qo‘llashni muhim vazifa sifatida barcha fan o‘qituvchilari oldiga qo‘yildi.

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kabi O‘zbekiston ham kadrlar salohiyatini IT bilan bog‘laydi. Zero, IT insoniyat kelajagini belgilab beruvchi muhim omillardan biridir.

IT ning ta'lim jarayonida qo‘llashning samarali jihatlari aksioma darajasida metodistlar tomonidan e'tirof etilayotgani bejizga emas. Hozirgi kunga kelib IT kundalik hayotimizga chuqur kirib keldi va mustahkam o‘rin egalladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar axborot olish uchun mobil telefonlarni tanlayotgani va buning zararli oqibatlaridan ota-onalar xavotirda ekanligi ham bor gap. Kichkinagina qo‘l telefoni vositasida bolaga ta'sir ko‘rsatayotgan IT – nima o‘zi? U nimasi bilan jajjigina go‘dakni ham o‘ziga jalb etmoqda? Uning foydali xususiyatlarini tatbiq etib ta'lim samaradorligini oshirish uchun nimalar qilish lozim?

Ma'lumki, axborotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish vositalari hamda metodlari IT ni tashkil etadi.

Mohirona loyihalangan ta'lim mahsuloti (didaktik materiallar) o‘zining jozibador dizayni, grafikasi va animatsiyasi bilan o‘quvchining diqqat-e'tiborini jalb eta olsagina o‘quvchi dars jarayoniga kirishib keta oladi. Bu ITning o‘quvchida o‘quv motivatsiyasini vujudga keltiruvchi omil ekanligini isbotlaydi. Hayot bilan hamnafas ilgarilash uchun ta'lim va IT ning uyg‘unlashuviga zaruriyat mavjud. Bu jarayonda o‘qituvchiga moderatorlik vazifasi yuklatiladi. Endilikda moderatorlik o‘qituvchi faoliyati jozibasini belgilab beruvchi xususiyatga aylanadi.

O‘qituvchi- moderator dars jarayonida amalga oshiriladigan veb-forum, chat yohud exokonferentsiyada o‘quvchilarning mashg‘ulot tartib-qoidalarga rioya qilishlarini naorat qilib boradi.

Albatta, ta'lim jarayonida ITdan foydalanish darsda qo‘llaniladigan ko‘plab texnologiyalarni cheklab qo‘ymaydi. U yuz yillar davomida yig‘ilgan ta'lim usullari va vositalariga qo‘shimcha asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Sababi endilikda darslarni axborot texnologiyalarisiz o‘tilishi go‘dakligidanoq mediaga o‘rganib qolgan bolakayning qiziqishlariga mos kelmaydi. O‘quv jarayoni uni zeriktirishi, bilimlarni egallashdan zavq olmasligi mumkin. Bu juda xavfli omil.



Chunki bilimlardan yuz o‘girgan o‘quvchi ertangi kunning yaxshi mutaxassisi bo‘la olmaydi

Adabiyot darslari qo‘llaniladigan ko‘plab metodikalar ichida diskurs-tahlil metodikasi innovatsion metod va texnologiyalarni rad etmay, ularni o‘z tarkibiga olgan holda, istiqbolli metodika ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Zero, uning imkoniyatlari doirasida IT ning amalga oshirilishi, shubhasiz, ta'lim jarayoniga yangi yo‘nalishni kiritadi.

Адабиёт darslarida turli manbalarni o‘rganish orqali mustaqil ishlarni tashkil etish va amalga oshirishda diskurs-tahlil metodikasi vositasida o‘quvchilar diqqati manbaning asosiy mazmuniga bevosita aloqador qismidan uning terminologik jihatlariga, problematikasiga yo‘naltiriladi. Shu sababli mavzu shunchaki konspektlashtirilmay, ijodiy o‘zlashtiriladi. Mavzuni o‘rganishning axborot makoni imkon qadar kengayadi, chunki o‘qituvchining har bir o‘quvchiga beradigan topshirig‘i muayyan reja asosida asosiy masalaga javob izlashga qaratiladi. Diskurs-tahlil metodikasining asosiy materiali ijodiy topshiriq tarzida o‘quvchiga beriladigan ilmiy manbalarga asoslangan intellektual kvest hisoblanadi. Qo‘llanma yosh avlodning ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Ularda topqirlik, vaziyatga tez moslasha bilish, zukkolik fazilatlarini tarkib toptiradi. IT-texnologiyalarining qo'llanilishi darsning sifatini oshirish bilan birga, o'qituvchi mehnatini yengillashtiradi.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМАХ

Насирова Шаира Нармурадовна
Навоийский государственный педагогический институт, Профессор кафедры «Информатика»
Тиллаев Маъруф Махмуджонович
Навоийский государственный педагогический институт,
Независимый исследователь кафедры «Информатика»

Аннотация. В статье рассматривается эффективность использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в образовательных системах. Описываются основные направления применения ИИ, такие как адаптивное обучение, автоматизированные системы оценки, образовательные роботы и виртуальные помощники. Анализируются преимущества и вызовы, связанные с внедрением ИИ в учебный процесс. Делается вывод о значительном потенциале ИИ для повышения качества образования и улучшения учебных результатов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, адаптивное обучение, автоматизированные системы оценки, образовательные роботы, виртуальные помощники, качество образования.

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimlarida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqiladi. AIni qo'llashning asosiy yo'nalishlari, masalan, moslashuvchan ta’lim, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, ta'lim robotlari va virtual yordamchilar tasvirlangan. O‘quv jarayoniga sun’iy intellektni joriy etish bilan bog‘liq afzallik va muammolar tahlil qilingan. AI ta'lim sifatini oshirish va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun katta salohiyatga ega degan xulosaga kelingan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, moslashuvchan ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, o'quv robotlari, virtual yordamchilar, ta'lim sifati.

Abstract: The article examines the effectiveness of using artificial intelligence (AI) technologies in educational systems. It describes the main areas of AI application, such as adaptive learning, automated assessment systems, educational robots, and virtual assistants. The advantages and challenges associated with the integration of AI in the educational process are analyzed. The conclusion highlights the significant potential of AI to enhance the quality of education and improve learning outcomes.

Key words: artificial intelligence, adaptive learning, automated assessment systems, educational robots, virtual assistants, quality of education

Современные технологии искусственного интеллекта (ИИ) играют все более значимую роль в образовательных системах. Они предоставляют новые возможности для персонализации обучения, автоматизации рутинных задач и

повышения уровня вовлеченности студентов. Введение ИИ в образование также способствует созданию мультимедийных электронных ресурсов, что помогает развивать цифровую образовательную систему.

Глобализация и информатизация создают новые возможности для внедрения ИИ в образование. Согласно ЮНЕСКО, цифровые технологии создают новую среду для общения, в которой учащиеся осваивают не только навыки работы с цифровыми технологиями, но и умения, такие как поиск информации, критическая оценка данных, работа в команде и творческое мышление. Создание высококачественной и высокотехнологичной образовательной среды является важной задачей для улучшения системы образования [2].

1. Адаптивное обучение

1.1. Принципы адаптивного обучения

Адаптивное обучение предполагает использование алгоритмов ИИ для анализа данных об успеваемости студентов и адаптации учебных материалов под индивидуальные потребности каждого учащегося. Это позволяет создать персонализированные учебные траектории, что способствует более эффективному освоению материала [1].

1.2. Примеры и эффективность

Примеры успешных систем адаптивного обучения включают Knewton, Smart Sparrow и DreamBox. Эти платформы демонстрируют высокую эффективность, особенно для студентов с различными уровнями подготовки. Персонализированные подходы помогают студентам учиться в собственном темпе и получать необходимую поддержку [3].

2. Автоматизированные системы оценки

2.1. Технологии и примеры

Автоматизированные системы оценки используют ИИ для анализа и оценки выполнения учебных заданий. Например, система E-rater от ETS используется в тестировании GRE для автоматической оценки эссе. Эти системы позволяют сократить время на проверку заданий и повысить объективность оценок.

2.2. Преимущества и вызовы

Автоматизированные системы оценки эффективны в обработке больших объемов данных и обеспечении объективности оценок. Однако они сталкиваются с вызовами, такими как необходимость постоянного обновления алгоритмов и учет контекстуальных факторов, влияющих на качество выполнения заданий.

3. Образовательные роботы и виртуальные помощники

3.1. Применение роботов

Образовательные роботы, такие как NAO и Pepper, используются для обучения студентов навыкам программирования, решения задач и командной

работы. Они могут взаимодействовать с учащимися, предоставлять обратную связь и адаптироваться к их уровню подготовки.

3.2. Виртуальные помощники

Виртуальные помощники, такие как Alexa от Amazon и Google Assistant, помогают студентам в учебном процессе, отвечая на вопросы и напоминая о заданиях. Эти технологии делают обучение более интерактивным и доступным.

3.3. Эффективность

Образовательные роботы и виртуальные помощники повышают уровень вовлеченности студентов и помогают преподавателям эффективно управлять учебным процессом. Они предоставляют индивидуальную поддержку, что способствует улучшению учебных результатов.

4. Интеллектуальные системы поддержки принятия решений

4.1. Принципы работы

Интеллектуальные системы поддержки принятия решений (DSS) используют ИИ для анализа данных и предоставления рекомендаций по улучшению учебного процесса. Эти системы помогают преподавателям и администраторам принимать обоснованные решения на основе анализа данных об успеваемости и вовлеченности студентов.

4.2. Примеры и эффективность

Примеры интеллектуальных систем поддержки принятия решений включают платформы Blackboard Analytics и Civitas Learning. Эти системы предоставляют отчеты и визуализации данных, помогая образовательным учреждениям разрабатывать стратегические планы и улучшать учебный процесс.

Заключение

Использование технологий искусственного интеллекта в образовательных системах имеет значительный потенциал для повышения качества образования и улучшения учебных результатов. Адаптивное обучение, автоматизированные системы оценки, образовательные роботы, виртуальные помощники и интеллектуальные системы поддержки принятия решений демонстрируют высокую эффективность. Однако для максимального использования потенциала ИИ необходимо преодолеть ряд вызовов, таких как защита данных и подготовка преподавателей к работе с новыми технологиями. В будущем ИИ продолжит играть ключевую роль в трансформации образовательных систем, способствуя созданию более персонализированных и интерактивных учебных сред.

Использованные литературы

1. CONCEPTUAL BASIS OF DISTANCE LEARNING ORGANIZATION MA Makhmudova, SN Nasirova - ПЕДАГОГИКА И СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ТРАДИЦИИ, ОПЫТ И ИННОВАЦИИ, 2020.

2. Nasirova Sh.N., Tillayev M.M. The importance of creating multimedial electronic learning resources. **Academicia Globe: Inderscience Research** is a scholarly peer reviewed international multidisciplinary Journal, 557-559 p.
3. Artificial Intelligence in Education 19th International Conference, AIED 2018, London, UK, June 27–30, 2018, Proceedings, Part II

MA’LUMOTLAR BAZASI VA BLOKCHEYN

Tuxtamatov Xusan Rixsibayevich
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti
e-mail: thusan76@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma’lumotlar bazasi va blokcheyn haqida, ularning o‘zaro farqlari, tuzilishi hamda foydalanish sohalari haqida yoritib o‘tilgan.
Tayanch so‘zlar: ma’lumotlar bazasi, relyatsion model, blokcheyn, server, kliyent, yozuv, blok.
Аннотация. В данной статье рассматриваются база данных и блокчейн, их различия, структура и области использования.
Ключевые слова: база данных, реляционная модель, блокчейн, сервер, клиент, запись, блок.
Annotation. This article discusses the database and blockchain, their differences, structure and areas of use.
Keywords: database, relational model, blockchain, server, client, record, block.

Ma’lumotlar bazasi va blokcheyn orasida qanday bog‘liqlik bor? Blokcheynni ma’lumotlar bazasining turi sifatida qaraydigan fikrlar ham mavjud. Avval ma’lumotlar bazasi va blokcheyn atamalariga to‘xtalib o‘taylik.

Ma’lumotlar bazasi deyilganda biror ob’ekt yoki uning ma’lum bir bo‘lagi haqidagi tartiblangan ma’lumotlar ketma-ketligi tushuniladi. Biror mantiqiy usul yordamida ma’lumotlarni joylashuviga ma’lumotlar modeli deyiladi. Keng tarqalgan ma’lumotlar modellariga iyerarxik, tarmoqli va relyatsion modellar kiradi.

Keng tarqalgan **relyatsion model** 1970-yilda IBM kompaniyasining hodimi **Edgar Frank Kodd** tomonidan ishlab chiqilgan.

- bu model asosida hosil qilingan ma’lumotlar bazasida ma’lumotlar ikki o‘lchamli jadval ko‘rinishida saqlanadi.
- jadvalning ustuni bir hil turdagi ma’lumotni saqlasa, jadval qatori esa to‘liq yozuvni saqlaydi.
- bunda jadval ustunlari soni avvaldan ma’lum bir sonda bo‘lishi belgilab olinsa, qatorlar (ya’ni yozuvlar) soni cheklovsiz tarzda davom etadi.
- ma’lumotlar bazasi yagona serverda saqlanadi va kliyent-server arxitekturasi asosida ishlaydi [4].

Blokcheynda ma’lumotlar yagona serverda emas, balki foydalanuvchilar o‘rtasida taqsimlangan holda saqlanadi. Zamonaviy shifrlash algoritmlaridan

foydalanish ma’lum bir shaxsga tegishli bo‘lgan shaxsiy yozuvlarni tizimning boshqa foydalanuvchilari tomonidan nusxalash yoki tahrir qilishdan himoya qilish imkonini beradi. Bu tizim quyidagicha ishlaydi:

•avvalgi blok haqida ma’lumotlarga ega bo‘lmagan birlamchi blok hosil qilinadi;

•har bir hosil qilinayotgan navbatdagi blok o‘z sarlavhasida o‘zidan avvalgi blok haqidagi ma’lumotni tranzaktsiya ko‘rinishida saqlaydi;


•tizim foydalanuvchilari bloklarning umumiy sonini ko‘rishadi, lekin faqat o‘zlarining blokiga kirish huquqiga egadir.

Blokcheyn texnologiyasi yaponiyalik olim *Satoshi Nakamoto* tomonidan 2008 yilda taklif qilindi, amaliyotda birinchilardan bo‘lib esa 2009 yilda bitkoinlar uchun ishlatildi. Hozirgi paytda bu texnologiyadan “bulutli” xizmatlarda, onlayn bankingda, onlayn o‘yinlar, internet kataloglarda, identifikatsiya jarayonida, ijtimoiy tarmoqlarda keng foydalanilmoqda [1].

Ma’lumotlar bazasi va blokcheynni asosiy farqlari, o‘xshashliklari va ishlash jihatlariga e’tibor beraylik.

Ma’lumotlar xavfsizligi.

Ma’lumotlar bazasi yagona serverda saqlanishi uning ehtimoliy buzib kirilish xavfini oshiradi, blokcheyn bunday kamchiliklardan holi.



Arxitektura.

Ma’lumotlar bazasining kliyent-server arxitekturasi asosida ishlaydi. Bu arxitektura kichik va katta hajmga ega barcha turdagi ma’lumotlar bilan ishlay oladi. Foydalanuvchi (kliyent) ma’lumotlarni oluvchi hisoblansa, serverlar markazlashgan holda ma’lumotlarni saqlaydi. Foydalanuvchi va server o‘zaro himoyalangan bog‘lanish orqali ma’lumot almashadi.

Blokcheyn esa tarqatilgan ledjer (ma’lumotlarni aniqlash tizimi, u harakatlanayotgan qiymatni kuzatib boradi, foydalanuvchi istalgan vaqtda uning joylashuvini ko‘rishi mumkin) tarmoq texnologiyasidan foydalanadi. Bu peer-to-peer tarmog'i bo‘lib, unda har bir tugun boshqasiga xavfsiz kriptografik protokollar

yordamida ulanadi. Markazlashtirilgan tugun yo‘qligi sababli, tugunlar birgalikda ishtirok etishlari mumkin [2].

Ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash.

Ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashda blokcheyn va ma’lumotlar bazasi bir-biridan farqli ishlaydi. Ma’lumotlar bazasida ma’lumotlar osongina saqlanishi va o‘qiladi. Ma’lumotlar oson o‘chirilishi va yangi qiymatlar bilan almashtirilishi mumkin.

Blokcheyn ma’lumotlarni saqlashga kelganda boshqacha ishlaydi. Blokcheyn ma’lumotlarni o‘zgarmasligini ta’minlaydi, ya’ni yozilgan ma’lumotlarni o‘chirib bo‘lmaydi yoki almashtirib bo‘lmaydi. O’zgarmaslik ma’lumotlarni onlayn ravishda buzish mumkin emasligini anglatadi. An’anaviy ma’lumotlar bazalarida o‘zgarmaslik yo‘q va shuning uchun administratorlar yoki uchinchi shaxs tomonidan manipulyatsiyaga ko‘proq moyil bo‘ladi.

Blokcheyn faqat ikkita amalni qo‘llab-quvvatlaydi: o‘qish va yozish.

- O‘qish operatsiyalari: blokcheyn tarmog‘idan ma’lumotlarni o‘qish yoki olish uchun ishlatiladi.
- Yozish operatsiyalari: blokcheyn tarmog‘iga ma’lumotlarni qo‘shish uchun ishlatiladi [3]

Ma’lumotlar shaffofligi.

Blockchain taklif qiladigan yana bir asosiy xususiyat bu ommaviy blokcheynda yozilgan ma’lumotlarni tekshirish usulidir. Shaffoflik foydalanuvchilarni tarmoqqa ishonchini ta’minlaydi. Ma’lumotlarning yaxlitligi har qanday holatda ham saqlanib qolinadi.

Ma’lumotlar bazalari markazlashtirilgan bo‘lib, shaffoflikning hech qanday shaklini qo‘llab-quvvatlamaydi. Foydalanuvchilar ma’lumotlarni tekshira olmaydilar. Administrator ma’lumotlarni barcha uchun ochishi mumkin, ammo shunga qaramay, ma’lumotlarni tekshirish foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilmaydi [5].

Xarajatlar va qo‘llab quvvatlash.

Ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish blokcheynga qaraganda arzonroq. Ma’lumotlar bazasini sozlash oson bo‘lib, MBBTlarni tez va tejamkor ravishda o‘rnatish mumkin.

Blockchain yangi texnologiya bo‘lib korxonalar blokcheynni o‘z jarayoniga integratsiya qilish uchun to‘g‘ri rejalashtirishni amalga oshirishlari kerak. Yondashuvni o‘zgartirish juda muhimdir, chunki blokcheyn oxirigacha amalga oshirishni talab qiladi va uni mavjud tizimga qo‘shimcha sifatida oddiygina integratsiyalash mumkin emas. Xodimlar tomonidan blokcheynni amalga oshirish va texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar ancha yuqori.

Ishlash tezligi va samaradorligi.

Ma’lumotlar bazalari so‘rovlarni tezroq bajarilish va istalgan vaqtda millionlab ma’lumotlarni qayta ishlashlari mumkin. Blockchain ma’lumotlar bazalariga nisbatan sezilarli darajada sekinroq.

Tranzaksiya blokcheynda amalga oshirilganda, u an’anaviy ma’lumotlar bazasining barcha harakatlarini bajaradi. Biroq, bajarilayotgan ko‘p operatsiyalar tufayli sekinlashadi:

1. Imzoni tekshirish. Blokcheyn tranzaktsiyasi amalga oshirilganda kriptografik algoritmlar yordamida imzolanadi. Ushbu qadam har bir tranzaktsiyaning haqiqiyligini va haqiqiy manbadan kelishini ta’minlash uchun zarur. Bu murakkab jarayon bo‘lgani uchun uni bajarish uchun vaqt kerak bo‘ladi. Agar blokcheyn ilovasi tez bo‘lsa ham, imzoni tekshirish vaqt talab qiladi.

2. Konsensus (kelishuv) mexanizmlari: blokcheyn markazlashtirilmaganligi sababli, blokcheyndagi tranzaktsiyalarni tasdiqlash uchun ko‘p jihatdan konsensus mexanizmiga tayanadi. Bundan tashqari, konsensus tezligi tanlangan usulning turiga bog‘liq. Ba’zi konsensus usullari boshqalarga qaraganda tezroq.

3. Ma’lumotlar ko‘pliligi. Blokcheyn - bu ajralmas tarmoq bo‘lib, unda har bir tugun hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Har bir tugun ishtirok etishini ta’minlash uchun har bir tranzaksiya haqidagi ma’lumotlar har bir tugun tomonidan saqlanishi va tekshirilishi kerak.

Bu uch jihat blokcheynni ishlash tezligini sekinlashtiradi [6].

Ma’lumotlar bazalari foydalanuvchilarga qulay va ko‘plab boshqaruv tizimlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Millionlab foydalanuvchilari bo‘lgan veb-saytlar ham kontentlar uchun ma’lumotlar bazalaridan foydalanadilar. Yana bir afzallik - ma’lumotlar bazasida saqlash usulidir. Ular yozish yoki o‘qish jarayonida tasdiqlanmasligidir.

Xulosa qilib aytganda, ma’lumotlar bazasidan quyidagi holatlarda foydalanish afzaldir:

- uzluksiz ma’lumotlar oqimidan foydalanadigan ilovalar yoki tizimlar;
- maxfiy ma’lumotlarni saqlash;
- onlayn tranzaktsiyalarni qayta ishlash;
- ma’lumotlarni tekshirish talab qilinmaydigan ilovalar yoki tizimlar;
- relyatsion ma’lumotlar;
- turli ilovalar [7].

Blokcheynning maqsadi o‘z foydalanuvchilari uchun ikkita muhim narsani o‘rnatadigan peer-to-peer tarmog’i: shaffoflik va ishonch. Tegishli tekshirishni talab qiladigan har qanday tizim blokcheyndan foydalanishi mumkin.

Masalan, Bitcoin blockchaindan foydalanadi. Bu har kimga shaxsini oshkor qilmasdan aktivlarini bir joydan ikkinchi joyga yuborish imkonini beradi.

Blockchain uchun yana bir ajoyib foydalanish holati - bu ovoz berish tizimiga ishonch va shaffoflikni kiritadi.

Xulosa qilib aytganda, blokcheyndan quyidagi holatlarda foydalanish afzaldir:

- transfer narxi;
- saqlash narxi;
- naqd pul operatsiyalari;
- ishonchli ma’lumotlarni tekshirish;

- ovoz berish tizimlari;
- markazlashtirilmagan ilovalar.

Adabiyotlar:

1. В.И.Красов. Распределенные базы данных. Блокчейн. — Иркутск: изд. ИГУ, 2020.

2. Брюс Шнайер. Прикладная криптография : протоколы,алгоритмы, исход.тексты на языке Си . - М. : Триумф, 2003.

3. Антонопулос А. Осваиваем биткоин. Программирование блокчейна– М.: ДМК Пресс, 2018.

4. Адамцевич Л.А., Пиляй А.И. Разработка базы данных отбора и экспертной проверки объектов культурного наследия для обучения искусственного интеллекта, 2023.

5. Бородина Е.А., Даценко Н.В., Никитин Б.Е., Мачтаков С.Г., Хромых Е.А. Проектирование баз данных. Учебное пособие для подготовки обучающихся по направлениям 09.03.02 - «Информационные системы и технологии», 09.03.03 «Прикладная информатика» / Воронеж, 2023.

6. Гладков А.К., Никольская Д.И. Исследование поисковой оптимизации на основе базы данных ORACLE // Экономика и качество систем связи. 2022. № 4 (26).

7. Гранкин В.Е. Система управления базами данных OPENOFFICE BASE. Практикум. Москва, 2022.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xoliqulova Aziza Norqo‘chqor qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola maktab o‘quvchilarining dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi o‘quvchilarda innovatsion kompetentlikni samarali shakllantirish, metodlardan foydalanish usullarini va imkoniyatlarni ochib beradi.

Kalit so‘z. Axborot vositalari, kommunikativ kompetensiya, ta‘lim, texnologiya, innovatsiyalar, texnologik jarayon, o‘qitish, nutq, so‘zlashish, bilim.

Аннотация

В данной статье раскрываются методы и возможности эффективного формирования инновационной компетентности учащихся, использования методов и использования информационных технологий школьниками в ходе урока.

Ключевое слово. Информационные средства, коммуникативная компетентность, образование, технология, инновация, технологический процесс, обучение, речь, говорение, знание.

Abstrakt

This article reveals the methods and possibilities of effective formation of innovative competence in students, the use of methods and the use of information technologies by schoolchildren in the course of the lesson.

Keyword. Information tools, communicative competence, education, technology, innovation, technological process, teaching, speech, speaking, knowledge.

XIX asr axborot texnologiya va innovatsiyalar asri deb bejizga aytilmagan. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta‘lim va tarbiyasi deb javob beraman” deb aytgan gaplari bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoniga muvofiq, ilm-fanni rivojlantirishni maktabdan, ya’ni boshlang‘ich ta‘limdan boshlash kerak. O‘quvchilarga sifatli beriladigan bilimlar esda qolarli va tushunarli bo‘lishi uchun axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantirilgan.

1.Kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida va birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olish, muomala madaniyatini egallash, ijtimoiy moslashuvchanlikni, jamoada ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

2.Axborot bilan ishlash kompetensiyasi–mediamanbalardan amalga oshirilishi ko‘zlanayotgan tayanch kompetensiyalarning bosh yo‘nalishi mustaqil fikrga ega bo‘lib, o‘z fikrini yozma va og‘zaki bayon eta olish kompetensiyasiga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Mustaqil fikr mustaqil tafakkurning, mustaqil tafakkur esa mustaqillik tafakkurining muhim jihatini tashkil etadi.

Nutqiy kompetensiyaning birinchi elementi bu tinglab tushunish sanaladi.Bu jarayon o‘quvchining go‘daklik davridan shakllanib, yillar davomida rivojlanib boradi. Muayyan fan, sohaga oid informatsiyani, ommaviy axborot vositalari orqali o‘qib eshittirilgan turli ma’lumotlarni o‘zi mustaqil tinglab tushunishi, anglashi, qayta og‘zaki gapirib berishi,erkin tahlil qila olishi me’yoriy hujjatlarda belgilangan. Shu o‘rinda olima Sh.Yuldashevaning fikricha, “Ma’lumki, tinglab tushunish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Boisi so'zlovchining radio, televidenie orqali yoki muloqot paytida ifodalagan nutqini tinglovchi tezda qabul qilib, mazmunini tushunib, xotirada saqlab qolishi lozim. Bunday nutqni qaytadan o'qib olish uchun imkon bo'lmaydi. Tinglab tushunish gapirish bilan uzviy bog'liq. Tinglab tushunish ko'nikmasi egallangan bo'lsa, o‘quvchida gapirish ko'nikmasi ham yaxshi rivojlanadi”. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi fanni o‘rganishga doir turli ma’lumotlarni o ‘quvchilar tinglaydilar hamda ularda aniq tasavvurlar va tafakkuri rivojlansa, u ma’lumotni qayta tushungan holda gapirib muloqot qila

oladilar. So‘zlovchining hamma informatsiyasini, poetik matn tinglanganda o‘quvchi uni to‘liqligicha batafsil anglamasligi mumkin. O‘quvchilarda bilimni egallash qobiliyatini takomillashtirish, nazariy ma’lumotni izlab topib o‘rganish ko‘nikmasini rivoj toptirish va mantiqiy izchil fikrlash malakalari mustahkamlash ulardagi qiziqishlar va izlanishlar olib borish bilan bog‘liq. Shundagina o‘quvchilar omma oldida, tadbirlarda ma’lumotni tinglab tushunishga o‘rganib boradilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida ta‘limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolati berilgan davlat organlarining huquq doirasiga o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni ta‘limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayonida joriy etish haqida so‘z borgan.

Ta‘lim -tarbiya mazmuni maqsad va vazifalari davrlar o‘tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirgi inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ulardan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya‘ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Yanada yaqinroq yondashadigan bo‘lsak, pedagogik jarayon bu mehnat quroli bilan mehnat obyektiga bosqichma-bosqich ta‘sir etish natijasida mahsulot yaritib beradigan ishchining faoliyatidir.

Yangi pedagogik texnologiyalarni ta‘limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish haqida so‘z borgan. Axborot texnologiyalari bilan ishlash o‘z yoshiga mos kitoblarni o‘qish, televizor, radio, kompyuter, internet orqali o‘tiladigan bilimlarni bola tez esda saqlaydi va so‘zlab bera oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

- Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining professionalligi,o‘quvchilar fikrini olishligi, diqqatini tortish hamda axborot texnologiyalarini chuqur bilish;
- Axborot vositalarida didaktik o‘yinlarni tashkil qila olishligi va o‘qituvchi boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ularga to‘g‘ri yondashish va yo‘naltirishidir.

Boshlang‘ich sinflarda turli xil multimedia, didaktik o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning yanada bir ahamiyatli tomoni shundaki, o‘quvchilarga dars jarayonida mavzuning ko‘rinishi hunarlar haqida bo‘lsa, duradgorlik, oshpazlik, temirchilik, chorvachilikni uni bajariladigan vazifalarni ko‘rgazmalilik va har bir kasbga oid rasmlar bilan o‘quvchiga ko‘rsatish va bu qanday kasbligini so‘ralsa, bola o‘qishni, yozishni bilmagan holatda ham rasmga qarab bemalol so‘zlab berishi mumkin va shu bilan nutqiy kompetensiyaning axborot texnologiya bilan samarali shakllanishiga olib keladi.

Ona tili fanini o‘qitish jarayonida yuqori sifatli elektron ta’lim vositalardan foydalanish va ularni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etish o‘quvchilar tomonidan axborotlarni qabul qilish, ularga ishlov berish, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni muntazam nazorat qilish,

ijodkorlikni tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, ta’lim natijasini uzluksiz kuzatib borish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Talim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" 29-oktayabr 2020-yil PF- 5047-son Farmoni.
3. G‘afforova " Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent- 2016
4. Eshmirzayev G. "Boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda elektron darsliklarni o‘rni" Jizzax-2021
5. Ro`ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi” / Metodik qo`llanma –T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.- 115b.
6. Alavutdinova N.G. “Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi” Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 6b.
7. Yuldasheva Sh.Sh. Davlat tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy malakalarini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nom. diss. –T.: 2008. –23–24 b.

O‘QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent Toshkent shahar Yangi asr universiteti,
kenjayevamuhayyo14@gmail.com. Tel.: +998915791977

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda axborot bilan ishlash va multimedialardan foydalanish orqali muloqotga kirishish, samimiy munosabatda bo‘lish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar. axborot texnologiyalari, lingvistik kompetensiyalar, multimedialardan foydalanish, muloqotga kirishish.

Аннотация. В данной статье высказывается мнение о повышении эффективности образования за счет эффективного использования возможностей информационных технологий, работы с информацией и использования мультимедиа в формировании языковой компетенции учащихся, наличия душевного отношения.

Ключевые слова. информационные технологии, лингвистические компетенции, использование мультимедиа, общение.

Abstract. In this article, there is an opinion about increasing the effectiveness of education by effectively using the possibilities of information

technologies, working with information and using multimedia in the formation of linguistic competence of students, and having a sincere relationship.

Key words. information technologies, linguistic competences, use of multimedia, communication.

Axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, bilim olishga bo‘lgan rag‘batini oshirish hamda nazariy tushunchalardan amaliyotda erkin ifodalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishi nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Shu sababli ta’lim-tarbiyaga oid me’riy hujjatlarda uzluksiz ta’lim bosqichlari uchun multimedia ishlanmalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi qo‘yilgan[1]. Bu esa, davr bilan hamnafas bugungi kun yoshlarining axborotlarni to‘g‘ri tanlash, ular orasidan muhimini saralab olish, tartibga solish yo‘llarini izlash, axborotlar bilan ishlashga oid zamonaviy usullarni o‘zlashtirishlariga zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Elektron axborot ta’lim muhitini tashkil etish zamonaviy ta’lim turlaridan biri bo‘lib, insonning individualligini anglash, ularning psixologik xususiyatlarini bilish va hisobga olishga asoslanadi. Shuningdek, elektron axborot ta’lim muhiti innovatsiyalar diffuziyasi samaradorligining asosi sifatida belgilanadi[2].

O‘quvchilar tomonidan yozma nutqni o‘rganish mazmun-mundarijasidagi turli komponentlarning o‘zlashtirilishi u yoki bu elektron-didaktik vositalardan ustuvor foydalanishni taqozo qiladi. O‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalari bevosita axborot bilan ishlash orqali ham shakllantirilib boriladi. Bunda ona tili ta’limini mediamanbalar: televidenie, radio, kompyuter, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar, yangi rusumdagi telefonlar yordamida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilarning ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli, maqsadli va samarali foydalanish vazifasi ularning quyidagi harakatlarni amalga oshirishlarini taqozo etadi:

1. O‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish qilinadi.

2. O‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi.

3. O‘quvchilar video lavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqeliklarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi.

4. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi.

Chunonchi, darsning kirish qismida mavzuga oid videolavhadan parcha namoyish qilish va o‘zaro suhbat tashkil etish o‘quvchilarni psixologik jihatdan yangi mavzuga to‘liq jalb etishga yordam beradi. So‘ngra beriladigan savollar yoki tayanch so‘z va birikmalar asosida suhbat tashkil etish, uni og‘zaki muhokama qilish, leksik-grammatik topshiriqlar bo‘yicha yozma tahlillar o‘tkazish videolavha mazmunini chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi” [3].

“Ona tili” darsligidagi “Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish“ mavzusini “Videotopishmoq” metodi orqali o‘rganilishiga doir misollar keltiramiz:





Jonivorlar ichida bordir bir jonzot, Odil to‘pni menga ... (**ot**)

Uning nomi esa juda yaxshi ... (**ot**)





Yig‘laganda to‘kilar ko‘zlaridan ... (**yosh**) Mening ukam juda ... (**yosh**)





Jajji ukam samimiy ... (**kul**adi)

Daraxt shoxi yonganda hosil bo‘lar ... (**kul)**

Videolavhalar namoyish qilingach, o‘quvchilardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi mavzuga xos bo‘lgan jihatlar ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali o‘quvchilar o‘rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo‘ladi[5]. Ayniqsa, mavzuning nomlanishiga e’tibor qaratiladi va bu metod orqali o‘quvchilarning barchasi darsga jalb qilinadi. Ko‘rinadiki, multimediali vositalarining komponentlari o‘ziga xos vazifalarni bajaradi: audio tinglab tushunish, video obrazlilikni tasavvur etish, animatsiya idrok etish kabi bilish jarayonlari rivojini ko‘zda tutadi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonidagi bosh munosabat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatdir. Ijodiy ta’limda ham bu bog‘lanish o‘z shaklini o‘zgartirgan holda asosiy o‘rinni egallaydi. An’anaviy ta’limdagi bog‘lanishlar qatoriga o‘qituvchi va darslik, o‘qituvchi va o‘quv materiali, o‘qituvchi va ko‘rgazmali qurol, o‘quvchi va darslik, o‘quvchi va o‘quv materiali, o‘quvchi va ko‘rgazmali qurol kabilar kirsa, kompyuterli ta’limda ularning shakli birmuncha o‘zgaradi [4]. Demak, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida muloqotga kirishish, samimiy munosabatda bo‘lish o‘zaro fikr almashish va ijodiy faollikni ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 21.10.2020 y. 06/20/6084/1398-son.

2. Vaughan Tay. Multimedia: Making It Work. Chapter 1: What Is Multimedia. 2011. ISBN: 978-0-07-174850-6/. – R. 15.

3. Muxitdinova X.S. Til ta’limiga videomateriallar qanday uyg‘unlashadi? // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. –№ 8. – 15–16-b.
4. Axmedova G.M. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2007. – 162 b.
5. Kenjayeva M.A. 5-6 sinf o`quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: ped. fan. dok. (PhD) diss. dissert. – Toshkent, 2021. – 130 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’LIMDA QO’LLANILISHI

Jabbarova H.K. *SamDCHTI, katta o‘qituvchi*
Irgashova S. B.*SamDCHTI, 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. **T**a'limda raqamli transformatsiya hozirgi zamon ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida yanada samarali, moslashuvchan va interaktiv qilishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada ta'limda raqamli transformatsiyaning joriy holati, yutuqlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Birinchi navbatda, raqamli transformatsiya jarayonida foydalanilayotgan asosiy texnologiyalar uchun masofaviy vositalar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning ta'lim sifati muhokama qilinadi. Raqamli transformatsiyaning ta'lim sohasidagi dolzarb masalalarni hal qilishda qanday yordam berishi, xususan, ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, individual ta'lim yo'llarini yaratish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: internet of Things, Sun'iy Intellekt (AI), Virtual va Kengaytirilgan Haqiqat (VR/AR), Blokcheyn Texnologiyalari, Texnologik Hamkorlik, Moslashtirilgan Ta'lim Muhitlari.

Raqamli ta'lim bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Pandemiya davridan boshlab onlayn ta'lim platformalari keng qo'llanila boshladi. Ta'lim muassasalari an'anaviy darslar bilan bir qatorda raqamli o'quv materiallarini ham taklif etmoqda. Bu esa ta'limning yanada moslashuvchan va keng ommaga yetib borishini ta'minlamoqda. Bu borada ta'lim siyosati, davlat va xususiy sektor hamkorligi, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va raqamli ta'lim tizimlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar muhim rol o'ynaydi. Ayni kunlarda ta’lim sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalar va yechimlar keng tarqalmoqda. Asosan, ular o'qituvchilar va talabalarga ajoyib ta'lim tajribasidan bahramand bo'lishlariga imkon berib, ta'lim jarayonlarining turli sohalari va aspektlarini qo'llab-quvvatlashi va yaxshilashi mumkin.

Hozirda ta’lim jarayonlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining keskin ortib borishi o‘quv yurtlarida kompyuterlashtirishning rivojlanishiga, ularni kompyuter resurslaridan tulaqonli foydalanishiga

yaqinlashtirib kelmoqda. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. [1].

Bu borada mamlakatimizda bir nechta texnologik yutuqlarga erishildi. Bulardan, Sun'iy Intellekt (AI): Virtual va Kengaytirilgan Haqiqat (VR/AR), Blokcheyn Texnologiyalari, Internet of Things (IoT)larni aytish mumkin. Sun'iy Intellekt (AI) - inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi hisoblanadi. Sun'iy Intellekt asosidagi tizimlar talabalarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, AI yordamida avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va o'quv materiallarini moslashtirish mumkin.

Virtual va Kengaytirilgan Haqiqat (VR/AR) texnologiyalari orqali talabalar haqiqiy hayotga yaqin bo’lgan tajribalarni boshidan kechirishlari mumkin. Ya’ni, Virtual reallik (VR, inglizcha: virtual reality, VR, sun’iy haqiqat)— texnik vositalar yordamida yaratilgan, insonga uning his-tuyg‘ulari orqali uzatiladigan dunyo: ko‘rish, eshitish, teginish va boshqalar tushuniladi. Virtual haqiqat ta’sirga ham, reaktsiyaga ham taqlid qiladi. Kengaytirilgan virtuallik (ing:augmented virtuality, AV) esa - bu real dunyo ob'ektlari mavjud bo'lgan virtual haqiqat bo‘lib, aralash haqiqatga ishora qiladi. Umuman olganda, kengaytirilgan virtuallik real va virtual obyektlarning barcha variantlari va kompozitsiyalarini qamrab oluvchi voqelik-virtuallik uzluksizligi qismidir. AV kontseptsiyasi real vaqtda virtual dunyo bilan o'zaro ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan jismoniy elementlar, ob'ektlar yoki odamlar birlashtirilgan virtual makonni anglatadi. Masalan, tibbiyot talabalarining anatomiyani o'rganish jarayonida VR texnologiyalaridan foydalanishlari mumkin, bu ularning amaliy ko'nikmalarini oshiradi[2].

Blokcheyn texnologiyalari orqali talabalarning akademik ma'lumotlarini xavfsiz saqlash va ularga osongina kirish imkonini berish mumkin. Avvalombor, “blokcheyn” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “bloklar zanjiri” ma’nosini anglatadi. Boshqa bir adabiyotda keltirilgan ta’rifga asosan, “Blokcheyn – bu markazlashtirilmagan ma’lumotlar bazasi bo‘lib, u o‘zida undan ro‘yxatdan o‘tgan barcha ishtirokchilar ma’lumotlari (o‘tkazmalari) haqida ma’lumotlarni alohida “zanjir” shaklida saqlash imkonini beradi”[5]. Blokcheyn odatda ilg'or ma'lumotlar bazasi texnologiyasi sifatida ta'riflanadi. Bu texnologiya talabaining yutuqlarini saqlash va tasdiqlash jarayonini soddalashtiradi va ishonchlilikni oshiradi. Saqlangan barcha ma'lumotlar ommaviydir va osongina tekshiriladi. Barcha bloklar bir-biriga ulangan bo’ladi. O‘z o‘rinda, blokcheyn bir qator mutaxassilar tomonidan kelajak texnologiyasi sifatida qaralib, uning asosiy vazifasi tizimlashtirilgan ma’lumotlarni saqlashdan iborat.

Internet of Things (IoT) qurilmalari yordamida esa ta'lim muassasalari xavfsizlikni oshirish, resurslarni boshqarish va ta'lim jarayonlarini samarali tashkil qilish imkoniyatiga ega. IoT- bu Internet jihozlari deb ataladigan maxsus qurilmalar tarmog‘i bo‘lib, Internet yoki boshqa tarmoqlarda real ma’lumotlarni to‘plash va almashish uchun ishlatiladi. Amaldagi ushbu texnologiyaga misollar quyidagilarni

o‘z ichiga oladi. Masalan, IoT sensorlari talabalarning ishtirokini va faoliyatini kuzatish uchun ishlatilishi mumkin.

Raqamli transformatsiya jarayonida ko’plab muammolar mavjud va ularni bartaraf etish maqsadida ko’plab yechimar uchraydi. Asosiy muammolardan biri bu texnologik infratuzilma yetishmovchiligidir. Bu masalaga batafsil to’xtaladigan bo’lsak, ko'plab ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologik infratuzilma yetishmaydi. Internetga ulanishning past sifati va kompyuter, planshet kabi qurilmalarning yetishmasligi raqamli ta'limni qiyinlashtiradi. Bu muammoga yechim sifatida davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali infratuzilmani yaxshilash uchun investitsiyalar kiritilishi kerak. Bu, jumladan, internet tarmog'ini kengaytirish, yangi texnologik uskunalar sotib olish va mavjud infratuzilmani yangilashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ko'plab o'qituvchilar yangi texnologiyalarni samarali qo'llash uchun yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas. Shuning uchun, o'qituvchilar uchun maxsus treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish kerak. Bu jarayonda texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, o'qituvchilarni yangi vositalar bilan tanishtirish va ularni qanday qo'llashni o'rgatish lozim[3]. Keyingi muammoga to’xtaladigan bo’lsak, ayrim talabalar yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy qurilmalarga ega bo'lsa, boshqalari bu imkoniyatlardan mahrumdir. Raqamli tengsizlikni kamaytirish uchun davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va boshqa moliyaviy yordam ko'rsatish dasturlari tashkil etilsa va ta'lim muassasalari tomonidan bepul yoki arzon texnologik qurilmalar taqdim etilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Raqamli ta'lim platformalari va tizimlari ko'pincha o'zaro integratsiyalanmagan bo'lib, bu esa o'qitish jarayonini murakkablashtiradi. Yagona platformalarni ishlab chiqish va mavjud tizimlarni integratsiyalash orqali bu muammoni hal qilish mumkin. Shu bilan birga, ochiq standartlardan foydalanish ham tizimlarning o'zaro moslashuvchanligini oshiradi. Talabalar va o'qituvchilar ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash muhimdir. So’nggi muammo sifatida kiberhujumlar va ma'lumotlar sizib chiqishi xavfi mavjud ekanligini aytishimiz mumkin. Kuchli xavfsizlik choralari ko'rish, shu jumladan, shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya va doimiy xavfsizlik monitoringi kabi texnologiyalarni joriy etish zarur[4]. Ta'lim muassasalarida maxfiylik siyosatlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish talab etiladi. Umumiy hisobda aytadigan bo’lsak bu muammolarning yechimlari quyidagilardan iborat:

1. Texnologik Hamkorlik. Ta'lim muassasalari texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlik qilishi kerak. Bu orqali yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud texnologik muammolarni hal qilish mumkin bo'ladi

2. Moslashtirilgan ta'lim muhitlari. Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali individual ehtiyojlarga moslashtirilgan o'quv dasturlari yaratish mumkin. Bu esa har bir talabaning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi

3. Uzluksiz yaxshilash. Raqamli ta'lim jarayonlarini uzluksiz ravishda yaxshilab borish uchun talabalar va o'qituvchilardan doimiy ravishda fikr-mulohaza olish zarur. Bu orqali ko’plab samarali yechimlarga erishish mumkin.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim sohasida raqamli transformatsiya zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish va uning keng ommaga yetkazib berilishini maqsad qilgan jarayondir. Bu transformatsiya ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'z aksini topmoqda, jumladan, elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari, sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari va interaktiv ta'lim vositalari kabi innovatsiyalar orqali. Hozirgi holatda, raqamli transformatsiya ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, va bilimlarni individual darajada o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda, masalan, texnologiyalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi va o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarining yetishmasligi. Istiqbolda esa, raqamli transformatsiyaning davomiy rivojlanishi yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Xususan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili orqali ta'lim jarayonlarini yanada shaxsiylashtirish, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida yanada jonli va qiziqarli ta'lim usullarini yaratish mumkin. Shu bilan birga, global miqyosda ta'lim imkoniyatlarini tenglashtirish va barcha uchun sifatli ta'limni ta'minlash yo'lida raqamli transformatsiya asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, ta'limda raqamli transformatsiya jarayoni, uning hozirgi holati va kelgusidagi istiqbollari, ta’lim tizmini yanada zamonaviy, qulay va samarali qilish yo’lida muhim omil bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хашимова Д.П., Парпиева Р.А. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.
2. Madiyarova M.A. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni ta’tbi qetish. “Рақамли технологиялар: иқтисодиёт ва таълим тизимини ривожлантириш тенденциялари”мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами.122-124- b.
3. EHL Insights (2022). Digital transformation challenges in education: 5 pitfalls to avoid. Hospitality Insights. Retrieved from Hospitality Insights
4. Jaramillo, C. (2022). Overview of Digital Transformation in Education. PixelPlex. Retrieved from PixelPlex
5. https://trends.rbc.ru/trends/industry/5f05c0a79a7947aac5c7577a

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDA INNOVATSIYALAR.

Bekchonova Shoira Bazarbayevna - Yangi asr universiteti
Umumta’lim fanlari kafedrasi mudiri
PhD,dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanlaridagi innovatsiyalarning ko'p qirraliligi asoslangan, asosiy yutuqlari, ularning

tarmoqlar bo'yicha natijalari va kelajakni shakllantirish uchun ega bo'lgan o'zgartiruvchi kuchlar yoritilgan.

Kalit soz'lar: kompyuter, informatika, raqamli texnologiya, axborot texnologiyalari, internet

Аннотация: В этой статье рассматривается разнообразие инноваций в области компьютерных наук и информационных технологий, подчеркиваются ключевые достижения, их отраслевые последствия и преобразующая сила, которую они имеют для формирования будущего.

Ключевые слова: компьютер, информатика, цифровые технологии, информационные технологии, Интернет.

Informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar zamonaviy jamiyatning asosiga aylandi, sanoatni qayta shakllantirdi, aloqani inqilob qildi, yashash va ishlash tarzimizni tubdan o‘zgartirdi. Sun'iy intellektdan (AI) blokcheyngacha bo'lgan ushbu yutuqlar an'anaviy chegaralardan oshib, turli sohalarda taraqqiyot va o'zgarishlar uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etdi. Raqamli asrda harakatlanar ekanmiz, ushbu innovatsiyalar salohiyatini tushunish va ulardan foydalanish yangi imkoniyatlarni ochish va murakkab muammolarni hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya va jamiyat o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni o'rganib chiqib, biz ushbu innovatsiyalarning iqtisodiyot, boshqaruv, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarga chuqur ta'sirini aniqlaymiz. Samaradorlik va mahsuldorlikni oshirishdan ijodkorlik va aloqadorlikni rivojlantirishgacha informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar insoniyat taraqqiyoti traektoriyasini misli ko'rilmagan yo'llar bilan olg'a siljitmoqda[2, 5].

Bir qancha olim va tadqiqotchilar o'zlarining kitoblari orqali informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalarni tushunish va rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. Mana bir nechta taniqli olimlar va ularning ushbu sohadagi nufuzli ishlari:

1. Vinton G. Cerf va Robert E. Kan: Bu ikki kashshof ko'pincha zamonaviy internetning asosini tashkil etuvchi TCP/IP protokollarini ixtiro qilganlar. Ular informatika sohasidagi innovatsiyalar bo'yicha maxsus kitoblar yozmagan bo'lishsa-da, ularning tarmoq texnologiyalariga qo'shgan hissasi turli nashrlarda va informatika va tarmoqqa oid darsliklarda keng hujjatlashtirilgan.

2. Tim Berners-Li: World Wide Web ixtirochisi sifatida Tim Berners-Li axborot texnologiyalari manzarasiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. U informatika sohasidagi innovatsiyalar bo'yicha maxsus kitoblar yozmagan bo'lsa-da, Internetning rivojlanishi va kelajagi haqidagi fikrlari maqolalar, intervyular va internetni rivojlantirish bilan bog'liq turli tashabbuslarda ishtirok etish orqali baham ko'rilgan.

3. Rey Kurtsveyl: Taniqli futurist va ixtirochi Rey Kurzveyl texnologiya va jamiyat kesishishi haqida ko'p yozgan. Uning "Yagonalik yaqin: insonlar biologiyadan oshib ketganda" kitobi eksponent texnologik o'sish potentsialini,

jumladan, informatika va axborot texnologiyalaridagi yutuqlarni va uning insoniyat kelajagi uchun oqibatlarini o'rganadi.


4. Nikolas Negroponte: MIT Medialaboratoriyasi va “Bola boshiga bitta noutbuk” tashabbusi asoschisi sifatida Nikolas Negroponte informatika va axborot texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishda asosiy shaxs bo‘ldi. Uning "Raqamli bo'lish" kitobi raqamli texnologiyalarning jamiyatga o'zgartiruvchi ta'sirini o'rganadi va aloqa, o'yin-kulgi va ta'limning kelajagi haqida tushuncha beradi.

5. Jaron Lanier: Kompyuter olimi, musiqachi va yozuvchi Jaron Lanier virtual reallik va raqamli media ustidagi ishlari bilan tanilgan. Uning "Kelajak kimning egasi?" raqamli texnologiyalar, jumladan, informatikaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini o‘rganadi va raqamli asrda boylik va hokimiyatni yanada adolatli taqsimlash tarafdori.

6. Kevin Kelli: Wired jurnalining asoschi ijrochi muharriri sifatida Kevin Kelli texnologiyaning jamiyatga ta'sirini muhokama qilishda taniqli ovoz bo'ldi. Uning “Muqarrar: kelajagimizni shakllantiradigan 12 texnologik kuchni tushunish” kitobida asosiy texnologik yo‘nalishlar, jumladan, informatika va axborot texnologiyalari hamda ularning insoniyat kelajagi uchun ta’siri o‘rganiladi [3, 4].

Ushbu olimlar va tadqiqotchilar o'zlarining yozuvlari, tadqiqotlari va sohaga qo'shgan hissalari orqali informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar haqidagi tushunchamizni shakllantirishda muhim rol o'ynadilar. Garchi ularning kitoblari faqat ushbu mavzuga qaratilmasa ham, ular raqamli asrdagi texnologik taraqqiyotning kengroq natijalari va salohiyati haqida qimmatli tushunchalarni beradi[7].

Informatika va axborot texnologiyalaridagi innovatsiyalar sog'liqni saqlash, ta'lim, moliya va o'yin-kulgi kabi turli sohalarda inqilob qildi. Mana bu sohalardagi asosiy innovatsiyalar:



1-rasm. Informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar

1. Sun'iy intellekt (AI): AI mashinalarga tabiiy tilni qayta ishlash, tasvirni aniqlash va qaror qabul qilish kabi odatda inson aql-zakovatini talab qiladigan vazifalarni bajarishga imkon berish orqali sanoatni o'zgartirdi. Sog'liqni saqlashda AI tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, dori-darmonlarni aniqlash va shaxsiylashtirilgan davolash tavsiyalari uchun ishlatiladi. Moliya sohasida AI algoritmlari firibgarlikni aniqlash, xavfni baholash va algoritmik savdo uchun qo'llaniladi. Ta’lim sohasida sun’iy intellekt asosidagi repetitorlik tizimlari va moslashuvchan o‘quv platformalari o‘quvchilar uchun shaxsiy o‘rganish tajribasini taqdim etadi.

2. Narsalar interneti (IoT): IoT internet orqali ma'lumot almashish va ma'lumot almashish imkonini beruvchi sensorlar va aktuatorlar bilan o'rnatilgan o'zaro bog'langan qurilmalarni anglatadi. IoT ilovalari aqlli uylar, sog‘liqni saqlash monitoringi, transport va qishloq xo‘jaligi kabi turli sohalarni qamrab oladi. Sog'liqni saqlash sohasida IoT qurilmalari bemorlarning hayotiy belgilarini masofadan turib kuzatib boradi, bu esa sog'liq muammolarini erta aniqlash imkonini beradi. Qishloq xo'jaligida IoT sensorlari hosildorlikni optimallashtirish uchun tuproq namligi darajasini va atrof-muhit sharoitlarini kuzatib boradi. Transportda IoT-ni qo'llab-quvvatlaydigan tizimlar trafikni boshqarishni yaxshilaydi va transport vositalariga prognozli texnik xizmat ko'rsatish imkonini beradi[6].

3. Blokcheyn texnologiyasi: Blokcheyn - bu tranzaktsiyalarning yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlaydigan markazlashtirilmagan, taqsimlangan daftar texnologiyasi. U moliya, ta'minot zanjiri boshqaruvi, sog'liqni saqlash va ovoz berish tizimlarida ilovalarga ega. Moliya sohasida blokcheyn xavfsiz va shaffof tranzaktsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi va vositachilarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Ta'minot zanjirini boshqarishda blokcheyn shaffoflik va kuzatuvni kuchaytiradi, bu esa real vaqt rejimida ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lgan mahsulotlarni kuzatish imkonini beradi. Sog'liqni saqlash sohasida blokcheyn bemor ma'lumotlarini himoya qiladi va tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni osonlashtiradi.

4. Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR): AR va VR texnologiyalari raqamli kontentni jismoniy dunyoga (AR) joylashtirish yoki butunlay virtual muhitlarni (VR) yaratish orqali immersiv tajribalarni yaratadi. Ushbu texnologiyalar o'yin, ta'lim, trening va marketingda qo'llaniladi. Ta'limda AR va VR simulyatsiyalari o'quvchilarga virtual ob'ektlar va muhitlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish imkonini berib, o'rganish tajribasini yaxshilaydi. Treningda VR simulyatsiyalari ishchi kuchini tayyorlash, tibbiy ta'lim va harbiy simulyatsiyalar uchun ishlatiladi.

5. Katta ma'lumotlar tahlili: Katta ma'lumotlar tahlili qaror qabul qilishda ma'lumot berish uchun katta va murakkab ma'lumotlar to'plamidan tushunchalarni olishni o'z ichiga oladi. U ma'lumotlarni qidirish, mashinani o'rganish va bashoratli tahlil kabi usullarni o'z ichiga oladi. Katta ma'lumotlar tahlili barcha sohalarda mijozlarni segmentatsiyalash, bozor tahlili, firibgarlikni aniqlash va xavflarni baholash uchun ishlatiladi. Sog'liqni saqlashda katta ma'lumotlar tahlili aholi salomatligini boshqarish, kasalliklarni kuzatish va klinik qarorlarni qo'llab-

quvvatlash uchun ishlatiladi. Moliya sohasida u investitsiya strategiyalari va risklarni boshqarish uchun bashoratli modellashtirish imkonini beradi.

6. Cloud Computing: Bulutli hisoblash internet orqali saqlash, qayta ishlash quvvati va dasturiy ilovalar kabi hisoblash resurslariga talab bo'yicha kirishni ta'minlaydi. Bu an'anaviy mahalliy infratuzilmaga nisbatan miqyoslilik, moslashuvchanlik va iqtisodiy samaradorlikni taklif etadi. Bulutli hisoblash ma'lumotlarni saqlash, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, falokatlarni tiklash va hamkorlik qilish uchun ishlatiladi. Sog'liqni saqlash sohasida bulutli hisoblash bemor ma'lumotlarini xavfsiz saqlash va almashishni osonlashtiradi. Ta'lim sohasida u talabalar va o'qituvchilar uchun onlayn ta'lim platformalari va hamkorlik vositalaridan foydalanish imkonini beradi[4].

Ushbu innovatsiyalar informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlarni, sanoat va butun jamiyat kelajagini shakllantirishda davom etmoqda. Texnologiya rivojlanib borar ekan, ushbu texnologiyalarning mas'uliyatli va adolatli qo'llanilishini ta'minlash uchun axloqiy, maxfiylik va xavfsizlik masalalarini hal qilish juda muhim bo'ladi[6].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, informatika va axborot texnologiyalaridagi innovatsiyalar atrofimizdagi dunyoni idrok etish va o'zaro munosabatda bo'lish tarzimizdagi paradigma o'zgarishini ifodalaydi. Texnologik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lganimiz sababli, imkoniyatlar cheksiz bo'lib, diqqat bilan ko'rib chiqish va strategik harakatlarni talab qiladigan imkoniyatlar va muammolarni taklif qiladi. Shaxslar va jamoalarning imkoniyatlarini kengaytirishdan tortib global hamkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirishgacha bo'lgan ushbu yutuqlar mustahkamlik, inklyuzivlik va barqarorlik bilan ajralib turadigan kelajakni ochish uchun kalit hisoblanadi.

Biroq, taraqqiyot va'dalari orasida ushbu yangiliklarning axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tan olish va hal qilish juda muhimdir. Oldinga yo‘nalishni belgilar ekanmiz, texnologiyaning afzalliklari hamma uchun ochiq bo‘lishini va raqamli kelajak sari yurishda hech kim ortda qolmasligini ta’minlash uchun tenglik, oshkoralik va hisobdorlik tamoyillariga ustuvor ahamiyat berish zarur. Texnologik taraqqiyotni insoniy qadriyatlar va intilishlar bilan birlashtirgan innovatsiyalarga yaxlit yondashuvni qo‘llash orqali biz- kelajak avlodlar raqamli asrning murakkabliklaridan o‘tishimiz hamda yanada yorqin, adolatli va barqaror kelajak yaratish uchun informatika va axborot texnologiyalarining to‘liq imkoniyatlaridan foydalanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekchonova Sh.B. Kiber pedagogika – XXI asrda raqamli ta’lim muhiti pedagogikasi. TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA. 2023/2 ISSN 2181-8274.Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.Toshkent-2023. 6-9 bet

2. Cerf, Vinton G. (2020). "Digital Democracy: Past, Present, Future". Digital Government: Research and Practice (1). Association for Computing Machinery: 1–10. doi:10.1145/3382738

3. Berners-Lee, T. (2010). "Long Live the Web". Scientific American. 303 (6): 80–85
4. Ray Kurzweil Singularity Superintelligence and Immortality On The War in Ukraine Lex Fridman Podcast 321. September 17, 2022 – 439.
5. Nicholas Negroponte. https://speaking.com/speakers/nicholas-negroponte/
6. Jaron Lanier. https://www.jaronlanier.com/
7. www.history-computer.com

TRANSFORMING LINGUISTIC HORIZONS: THE IMPACT OF AI ON LANGUAGE LEARNING

Abdulkhay Kosimov Akhadalievich
EFL teacher, Applied English department, FSU

Abstract. AI is revolutionizing how we acquire new languages, making the process more engaging, efficient, and accessible than ever before. This article explores the multifaceted impact of AI on language learning, delving into the specific ways AI is personalizing education, fostering dynamic practice opportunities, and breaking down geographical barriers. We'll examine the benefits for both learners and educators, highlighting how AI can empower individuals and reshape the language learning industry as a whole.

Keywords: AI, ELIZA, Duolingo, reshaping the language, EFL, learning process

Introduction

Artificial intelligence (AI) refers to the ability of machines to exhibit intelligent behavior, such as learning, problem-solving, and decision-making. This intelligence isn't like human consciousness, but rather a sophisticated set of algorithms that enable machines to analyze data, identify patterns, and adapt their responses accordingly. AI has permeated various aspects of our lives, from facial recognition software on smartphones to recommendation algorithms on streaming platforms (Bostrom, 2014).

The transformative impact of AI on language learning hinges on several key technologies:

1) Machine Learning is a subfield of AI where algorithms learn from data without explicit programming. In language learning apps, ML algorithms analyze user interactions, identify strengths and weaknesses, and personalize learning paths accordingly (Wang, 2023).

2) Natural Language Processing focuses on enabling computers to understand and manipulate human language. NLP powers features like speech recognition, which assesses pronunciation in real-time, and sentiment analysis, which can tailor content based on a learner's emotional state (Kanan, et al., 2019).

3) Adaptive Learning leverages AI to adjust the difficulty and content of learning materials based on the user's performance. This ensures learners are

constantly challenged without feeling overwhelmed, optimizing the learning process (Baker, 2010).

The integration of AI into language learning tools has a surprisingly long history. Early attempts in the 1960s involved computer programs like ELIZA, which could simulate basic conversations but lacked the sophistication of modern AI (Weizenbaum, 1966). The 1990s saw the rise of CD-ROM based language courses that incorporated rudimentary speech recognition technology, allowing learners to practice pronunciation. However, these programs were limited in their ability to provide feedback and lacked the adaptive capabilities of modern AI. The turning point came with the explosion of mobile learning in the late 2000s and early 2010s. The proliferation of smartphones and tablets paved the way for AI-powered language learning apps. These apps leveraged machine learning and speech recognition to offer a more personalized and interactive learning experience, marking a significant leap forward.

Mobile language learning apps have become a cornerstone of the AI-powered learning revolution. Popular platforms like Duolingo and Babbel leverage machine learning algorithms to personalize learning paths and adapt content based on user performance. These apps utilize gamification techniques, rewarding users for completing lessons and achieving milestones, fostering a sense of accomplishment and boosting motivation (Liu et al., 2019). Duolingo, for instance, employs spaced repetition algorithms to optimize vocabulary retention. This technique involves strategically re-introducing learned words at spaced intervals, solidifying them in the user's memory. Similarly, Babbel tailors its lessons to the user's learning pace and goals, ensuring the content remains challenging yet achievable.

AI-powered chatbots are transforming language learning by providing learners with opportunities to practice speaking and listening in a safe and interactive environment. These chatbots can simulate conversations on various topics, allowing users to practice their fluency and receive immediate feedback on their grammar and pronunciation (Gong et al., 2020). For example, an app like Mondly utilizes chatbots that engage in open-ended conversations, encouraging learners to think critically and respond spontaneously. Furthermore, virtual tutors powered by AI can provide personalized feedback and guidance, mimicking the experience of having a human language instructor. These virtual tutors can adjust their difficulty level and conversation topics based on the learner's progress, catering to individual needs.

Benefits of AI in Language Learning

AI is revolutionizing language learning by offering a multitude of benefits for learners of all ages and backgrounds. One of the most significant advantages of AI-powered language learning tools is their ability to personalize the learning experience. Unlike traditional one-size-fits-all methods, AI utilizes machine learning algorithms to identify individual strengths and weaknesses. Based on this data, AI platforms can create personalized learning paths, focusing on areas that require the most improvement and tailoring content to match the learner's interests and goals (Wang, 2023). For instance, an AI-powered language app might identify

a learner's difficulty with verb conjugations and create targeted exercises to strengthen their understanding. Additionally, these platforms can adapt the difficulty level of lessons dynamically, ensuring learners are constantly challenged without feeling overwhelmed (Baker, 2010). This personalized approach not only optimizes learning outcomes but also keeps learners engaged and motivated. Traditional language learning methods often lack the immediacy of feedback. Learners might wait days or even weeks to receive feedback from a teacher, making it difficult to identify and correct mistakes effectively. AI-powered tools address this issue by providing real-time feedback on various aspects of language learning, including grammar, pronunciation, and vocabulary usage. While AI technology has made significant strides in language learning, certain limitations still exist. Speech recognition software, for instance, can struggle with regional accents and slang, potentially leading to inaccurate feedback and hindering pronunciation improvement (Wang, 2023). Furthermore, AI chatbots, while offering valuable conversation practice, may lack the nuanced understanding and adaptability of a human language instructor. They might struggle with complex topics or unexpected conversational turns, limiting the depth and breadth of language learning experiences.

Future Trends and Innovations

The future of AI-powered language learning is brimming with exciting possibilities. The boundaries of AI in language learning are constantly expanding. Cutting-edge technologies like virtual reality (VR) and augmented reality (AR) hold immense potential for creating immersive language learning environments. Imagine practicing conversations in a virtual Parisian cafe or learning vocabulary through interactive AR games – these are just a few possibilities on the horizon (Liu et al., 2023). By collaborating with cognitive scientists and linguists, AI developers can gain a deeper understanding of how humans learn languages. This knowledge can then be used to create AI-powered tools that cater to different learning styles and optimize memory retention (Wang, 2023).

Experts in the field of language learning predict a future where AI becomes an indispensable tool, seamlessly integrated into the learning process. One such prediction is the rise of intelligent language learning companions – AI-powered virtual tutors that provide personalized guidance, feedback, and support throughout the learning journey (Liu et al., 2023). Additionally, experts anticipate the development of AI-powered tools that can assess not just linguistic skills but also cultural fluency. These tools can analyze a learner's communication style and provide feedback on how well they are adapting to the cultural norms of the target language.

Conclusion

This article has explored the multifaceted impact of AI on language learning, highlighting its potential to revolutionize the way we acquire new languages. We've delved into the inner workings of AI-powered tools, examining how machine learning, natural language processing, and other technologies personalize learning experiences, provide real-time feedback, and foster engagement. Additionally, we've

explored the benefits of AI for learners of all backgrounds, including personalized learning paths, improved pronunciation, and increased accessibility.

References

1) Baker, R. S. J. D. (2010). Personalised learning and mastery learning. Learning and Instruction, 20(3), 249-257.

2) Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, dangers, strategies. Oxford University Press.

3) Bullock, S., Romero, C., & Vu, D. (2017). Big data in education: Current challenges and potential. International Journal of Learning and Technology, 12(3), 175-187.

4) Kanan, T., Sadaqa, O., Aldajeh, A., Alshwabka, H., AlZu'bi, S., Elbes, M., ... & Alia, M. A. (2019, April). A review of natural language processing and machine learning tools used to analyze arabic social media. In 2019 IEEE Jordan International Joint Conference on Electrical Engineering and Information Technology (JEEIT) (pp. 622-628). IEEE.

5) Gong, Y., Wang, S., & Liu, Z. (2020). A review of intelligent dialogue systems for language learning. Neurocomputing, 383, 152-162.

6) Liu, D., Guo, J., & Liu, M. (2019). Gamification for mobile language learning apps: A review of the literature. The International Journal of Mobile Learning and Multimedia, 14(3), 239-258.

7) Liu, X., & Zheng, R. (2023). Artificial intelligence in computer-assisted language learning: A review of recent progress. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 34(2), 379-403.

8) Wang, C. (2023). Artificial intelligence in language learning: A review of the literature. System, 113, 102542.

9) Weizenbaum, J. (1966). ELIZA - a computer program for the study of natural language communication. Communications of the ACM, 9(1), 36-45.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ilhom Dustnazarovich G‘aniyev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ba’zi misol-masalalarning grafiklari Python dasturlash tili va Maple dasturi yordamida yechimlari topilgan.

Kalit so‘zlar: Python, yechimlar soni, koordinatalar sistemasi, eng katta qiymat, eng kichik qiymat, Maple

Bilamizki, hozirgi kunda raqamli texnologiyalarga bo‘lgan talab har qachongidan ham ko‘roq hisoblanadi. Shunday ekan biz ham o‘quvchilar va talabalarga ko‘proq raqamli texnologiyalarga bog‘lab dars berishimiz kerak. Keling raqamli texnologiyalar yordamida qanday tartibda dars o‘tish tartibi va usullarini

ko‘rib o‘taylik. Bunda biz Python dasturlash tili hamda amaliy dasturlardan foydalamiz.

Aniq fanlarni o‘qitishda eng avvalo tasavvurimiz yaxshi bo‘lishi kerak, chunki ko‘plab masalar chizmalar bilan ishlaymiz. Shuning uchun biz matematikani o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanamiz.

Masalan $y = x^2$ *va* $y = 2x$ funksiyalarni kesishgan sohasini yuzasini toppish kerak bo‘lsin. Buning uchun eng avval bu funksiyalarni grafiklarini chizib, kesishish nuqtalarini topib olamiz.

```
import numpy as np

import matplotlib.pyplot as plt

x = np.linspace(-5, 5, 100)

y1 = x**2

y2 = 2 * x

plt.plot(x, y1, label='y = x^2')

plt.plot(x, y2, label='y = 2x')

plt.title('y = x^2 ve y = 2x Grafikleri')


plt.xlabel('x')

plt.ylabel('y')

plt.legend()

plt.grid(True)

plt.show()
```



Chizmadan ko‘rinadiki bu 2 ta grafik $x=0$ *va* $x=2$ nuqtalarda kesishar ekan. Endi shuni o‘zimiz bilgan matematik usulda integral orqali hisoblab, yuzani topamiz.

$$\int_0^2 \left(2x-x^2\right)dx = \frac{2x^2}{2} - \frac{x^3}{3}\Big|_0^2 = \frac{2\cdot 2^2}{2} - \frac{2^3}{3} = \frac{4}{3}$$


Demak, bizga berilgan $y=x^2$ *va* $y=2x$ funksiyalar hosil qilgan yuza $\frac{4}{3}$ ga teng ekan.

Shu grafikni endi Maple dasturi orqali chizib ko‘ramiz.

$f1 := x \to x^2$

$f2 := x \to 2x$

$plot\left(\left[f1(x), f2(x)\right], x=-2...3, color=\left[blue, red\right], legend=\left["y=x\,\hat{}\,2", "y=2x"\right]\right);$



Grafigimiz yuqoridagi ko‘rinishga keldi.Bu grafikda ham bizning funksiyalarimizning kesishish nuqtalari $x=0$ *va* $x=2$ ga teng bo‘lib, quyidagi integral yordamida yuzani hisoblaymiz.

$$\int_0^2 \left(2x-x^2\right)dx = \frac{2x^2}{2} - \frac{x^3}{3}\Big|_0^2 = \frac{2\cdot 2^2}{2} - \frac{2^3}{3} = \frac{4}{3}$$

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalar va o‘quvchilarga raqamli texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tilsa bolaning tasavvuri va fikrlashi o‘sadi. Yana Python va Maple dasturlarini yana bir qancha matematik kutubxonalari mavjud. Ular yordamida istalgan misol masalalarga yechim topishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ganiev I.D. Basic Requirements For Educational Electronic Resource / Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference, 138–139. Retrieved from.
2. Ganiev I.D. (2023). Classification of educational electronic resource and electronic resource. "online - conferences" platform, 135–137.
3. Ганиев И. Д. Тенденции преподавания курса сетевых технологий // ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2023 год №7).
4. Ганиев И.Д. “blended learning” и “flipped classroom” в совершенствовании методической системы обучения сетевым технологиям. 340-343 стр.
5. https://www.maplesoft.com/documentation_center/
6. https://pylessons.readthedocs.io/ru/latest/
7. https://matplotlib.org/stable/tutorials/index.html

MATEMATIKA FANINI O’RGANISHDA SUNIY INTELEKTLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Usanov Yoqub Dilmurod O’g’li
Artikov Farxod Sayfiddinovich

Sun'iy intellekt texnologiyalari boshqa sohalar qatori ta'lim sohasida katta o'zgarishlar kiritmoqda. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini optimallashtirish, individual o'rganishni kuchaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.


Matematika darslarida sun'iy intellekt ilovalaridan foydalanish o'quvchilarning ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Microsoft Math Solver, Wolfram Alpha, Photomath, Symbolab, Khan Academy, Mathway va Desmos kabi ilovalar matematika fanida keng qo'llaniladi va o'qituvchilarga hamda o'quvchilarga turli darajadagi matematik masalalarni yechishda yordam beradi. Ushbu ilovalar qadam-baqadam tushuntirishlar, grafik vizualizatsiyalar va keng qamrovli resurslar orqali o'quvchilarni matematikani o'rganishga rag'batlantiradi va ularning o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Xsusan O’zbekiston sharoitida o’quvchilar matematik tenglama va tengsizliklarni yechishda Photomath, Micorsoft Maht Solver platformalaridan foydalanib kelmoqda.

Hozirgi kunda tenglama va tengsizliklarni yechishda analitik yechimlar bilan birqatorda vizuval yechimalar ham muhim hisoblanmoqda, yani o’quvchilar masala yechimi mazmunini tushinib yetishida grafik yechimlarning ham o’rni katta hisoblanadi.


Matematik tenglama va tengsizliklarni ham analitik yechish ham grafiklar yordamida yechib ko’rsdatadigan sun’iy intelektlar mavjud. Masalan Wolfram Alpha paltformasi, bu platformada tengalama yoki tengsizliklarni kiritsak, yechilish usullari va grafigini ham bir vaqtning o’zida chiqarib beradi.

Misol uchun $\begin{cases} x^2+y^2=1 \\ (x-2)^2+(y-1)^2=4 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini Wolfram Alpha sun’iy intelektidan foydalanib yechamiz. Masalani kiritish bo’limiga x^2+y^2=1, (x-2)^2+(y-1)^2=4 ko’rinishida yozamiz, biga quyidagicha yechimlarni ko’rsatib beradi.



1-rasm

Bundan tashqari matematikadagi yechimini oddiy yo’llar bilan chiqarishning iloji bo’lmagan masalalarni ham yechimini toppish bir muncha osoniroq hisoblanadi. Masalan $\int x^x\,dx$ ko’rinishidagi integrallash masalasini olamiz. Bu misolni kiritish uchun platformadagi Math input MATH INPUT tugmachasini bosamiz va kiritamiz. Misolning yecimi quyidagicha bo’lar ekan.



2-rasm

Bundan tashqari bu patformadan differensiallash masalalarida, yuqori tartibli differensial tenglamalarni yechishda, matritsa va determinant masalalarini yechishda ham foydalanish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqori darajali tenglamalar sistemasini grafiklar orqali yechish, yechimni oddiy yo'llar bilan topishninig imkoni bo'maganda Wolfram Alpha va shunga o'xshash bir qancha sun'iy intelektlarni qo'llanilishi, o'qituvchi dars davomida biror grafik shaklni ko'rinishi va u haqidagi bilimlarni o'quvchiga yetkazib berishi birmuncha oson bo'ladi. Bu va bunga o'xshash sun'iy intelektlardan dars davomida foydalanish, o'quvchiga masala va uni yechimini tezda tasavvur qila olishi va shu turdagi masala va uning yechimi haqidagi bilimlarni yodda saqlashi, bu bilimlarni masalalar yechishda ishlata olishi va hayotda mustaqil qo'llay olishi oson bo'ladi.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, T. (2016). The Theory and Practice of Online Learning. AU Press.
2. Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age. Tony Bates Associates Ltd.
3. Matematika fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. https://kompy.info.

METHODOLOGICAL BASIS OF CREATIVE EDUCATION: THEORY AND PRACTICE

Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi- *O'zDJTU Ingliz tili 2-fakulteti talabasi*

Abstract: Creative education is pivotal in fostering innovation and critical thinking skills among learners. This article explores the theoretical underpinnings and practical applications of creative education methodologies. Drawing from educational psychology, cognitive science, and pedagogical theories, it discusses the importance of creativity in modern education and its correlation with academic achievement and real-world problem-solving. The article delves into various creative education approaches such as project-based learning, inquiry-based learning, and design thinking, highlighting their efficacy in enhancing student engagement and fostering a culture of innovation.

Keywords: Creative education, methodology, theory, practice, innovation, critical thinking, project-based learning, inquiry-based learning.

Annotatsiya: Kreativ ta'lim o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola kreativ ta'lim metodologiyalarining nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishini o'rganadi. Ta'lim psixologiyasi, kognitiv fan va pedagogik nazariyalardan kelib chiqqan holda, u

zamonaviy ta’limda kreativlikning ahamiyati va uning o‘quv yutuqlari hamda real muammolarni hal qilish bilan bog‘liqligini muhokama qiladi. Maqolada loyihaga asoslangan ta’lim, so‘rovga asoslangan ta’lim kabi turli kreativ ta’lim yondashuvlari o‘rganilib, ularning talabalar faolligini oshirish va innovatsion madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligi ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: Kreativ ta’lim, metodologiya, nazariya, amaliyot, innovatsiya, tanqidiy fikrlash, loyihaga asoslangan ta’lim, so‘rovga asoslangan ta’lim.

Аннотация: Творческое образование имеет решающее значение для развития инноваций и навыков критического мышления среди учащихся. В этой статье исследуются теоретические основы и практическое применение методологий творческого образования. Опираясь на педагогическую психологию, когнитивную науку и педагогические теории, он обсуждает важность творчества в современном образовании и его взаимосвязь с академическими достижениями и решением реальных проблем. В статье рассматриваются различные подходы к творческому образованию, такие как обучение на основе проектов, обучение на основе запросов и дизайнерское мышление, подчеркивая их эффективность в повышении вовлеченности учащихся и развитии культуры инноваций.

Ключевые слова: Креативное образование, методология, теория, практика, инновации, критическое мышление, проектное обучение, исследовательское обучение.

Creative education is increasingly recognized as a fundamental aspect of modern pedagogy, essential for equipping learners with the skills necessary to thrive in today's rapidly evolving world (Amabile, 1996 [1]). At its core, creative education emphasizes the cultivation of creativity, innovation, and critical thinking among students, empowering them to tackle complex challenges and generate novel solutions (Robinson, 2001 [2]). This article provides a comprehensive overview of the methodological basis of creative education, elucidating the theoretical frameworks that underpin its practices and examining its practical implications for teaching and learning.

Theoretical Foundations of Creative Education:

Creative education is rooted in various theoretical frameworks from educational psychology, cognitive science, and pedagogical research. According to the seminal work of Piaget (1972) [3] and Vygotsky (1978) [4], creativity is an innate cognitive capacity that emerges through active exploration and socio-cultural interactions. These theories emphasize the importance of providing learners with opportunities for hands-on experimentation, collaborative problem-solving, and reflection to foster creative thinking skills.

Moreover, Csikszentmihalyi's (1996) [5] concept of flow highlights the significance of creating optimal learning environments that balance challenge and skill, enabling students to experience deep engagement and intrinsic motivation in their learning pursuits. Similarly, the socio-cultural theory of learning posits that creativity arises from social interactions and cultural contexts, underscoring the role of teachers as facilitators who scaffold students' creative endeavors within meaningful learning experiences (Vygotsky, 1978 [4]).

Principles and Practices of Creative Education:

Building upon these theoretical foundations, creative education encompasses a range of pedagogical approaches aimed at nurturing students' creative potential. Project-based learning (PBL), for instance, encourages students to explore authentic problems and develop solutions through hands-on projects, fostering creativity, collaboration, and critical thinking (Thomas, 2000 [6]). Similarly, inquiry-based learning (IBL) emphasizes the process of questioning, investigation, and discovery, allowing students to construct their understanding of concepts while honing their problem-solving skills (Harlen & Qualter, 2004 [7]).

Furthermore, design thinking, a human-centered approach to innovation, empowers students to empathize with users, define problems, ideate solutions, prototype designs, and iterate based on feedback (Kelley & Kelley, 2013 [8]). By immersing students in real-world challenges and providing them with opportunities to iterate and innovate, these methodologies foster a culture of creativity and resilience, preparing students to thrive in an increasingly complex and dynamic world.

Role of Educators in Facilitating Creative Learning Environments:

Central to the success of creative education is the role of educators as facilitators and mentors who inspire, guide, and support students' creative endeavors (Sawyer, 2012 [9]). Teachers play a crucial role in designing learning experiences that stimulate curiosity, encourage risk-taking, and cultivate a growth mindset among students (Dweck, 2006 [10]). By fostering a supportive and inclusive classroom culture that celebrates diversity of thought and encourages experimentation, educators can empower students to unleash their creative potential and become lifelong learners and innovators.

Integration of Creativity Across Curricula:

To fully realize the benefits of creative education, it is essential to integrate creativity across various disciplines and curricula. Whether in STEM (science, technology, engineering, and mathematics) fields, humanities, or the arts, creativity is a universal skill that transcends disciplinary boundaries and fosters interdisciplinary collaboration and innovation (National Research Council, 2012 [11]). By infusing creativity into lesson plans, assessments, and learning activities,

educators can cultivate a holistic approach to education that nurtures students' intellectual curiosity, problem-solving abilities, and imaginative thinking skills.

In conclusion, creative education represents a paradigm shift in contemporary pedagogy, emphasizing the cultivation of creativity, innovation, and critical thinking among learners. By grounding its practices in sound theoretical frameworks and leveraging innovative pedagogical approaches, creative education holds the promise of transforming traditional schooling into dynamic learning environments that inspire and empower students to thrive in the 21st century. As educators continue to explore and refine the methodological basis of creative education, it is imperative to prioritize creativity as a core competency in education, ensuring that all students have the opportunity to unleash their creative potential and contribute to a brighter, more innovative future.

REFERENCES:

1. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context: Update to the social psychology of creativity. Westview Press.
2. Robinson, K. (2001). Out of our minds: Learning to be creative. Capstone Publishing.
3. Piaget, J. (1972). Intellectual evolution from adolescence to adulthood. Human Development, 15(1), 1-12.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
5. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention. HarperCollins.
6. Thomas, J. W. (2000). A review of research on project-based learning. Autodesk Foundation.

BO'LAJAK MUHANDIS-DASTURCHILARNI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'QITISHNING INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASI.

Musurmonova Shahlo G'ulomovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali assistenti
shahlo.musurmonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandis-dasturchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning tashkiliy- funksional madeli keltirilgan. O'qitishda fanlararo aloqalarni ta'minlash orqali innovatsion ta'lim shakllari va ularni amaliyotga qo'llash yoritilgan. Bo'lajak muhandis-dasturchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli ta'lim muhitada o'qitish orqali

kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarning yaxlit tizimi, kasbiy kompetentsiyalar asosida rivojlantirish ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: muhandis-dasturchi, tashkiliy-funksional, kasbiy, raqamli ta’lim, fanlararo, innovatsion ta’lim, kompetentsiya,kasbiy faoliyat,ekskursion dars, konferension dars, kombinatsion dars, individual.

Ta'limda fanlararo aloqalarni ta'minlash bo'lajak muhandis-dasturchilarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim sharti bo'lib, ta'limda uzviylik va o'zaro aloqadorlik, matematik voqeliklarni yangi ta'lim usullarida ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Barcha jarayonlarda fanlararo aloqadorlikka erishishda amaliy mazmundagi masalalar muhim o'rin tutadi, birinchidan, talabalarga funksiyalarni modellashtirishni amalga oshirishiga yordam beradi, ikkinchidan esa amaliy mazmundagi masalalarni yechishda fundamental bilimlardan foydalanib bevosita boshqa fanlarni o'rganish jarayonida qo'llash malakalarini oshishiga olib keladi. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandis-dasturchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning tashkiliy-funksional modelini ishlab chiqdik (1 - rasm).

Ushbu modeldan kelib chiqib, quyida tashkiliy-funksional modelni ta'lim jarayonida qo'llanilishini keltirib o'tamiz.

Ekskursion-Darsda:

Bo'lajak muhandis-dasturchilarga ekskursion-Dars hamkor tashkilotlarga tashrif buyurish orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar ishlab chiqarishni bevosita kuzatish, yetakchi muhandis-dasturchilar bilan tanishish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ekskursion-Darsda evristik va tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalaniladi, bunda talabalarning algoritmlash va modellashtirish kompetensiyalari shakllantiriladi. Ekskursion-Dars odatda auditoriyadan tashqari mashg'ulot bo'lib, asosan texno-parklarda yoki IT-markazlarda o'tkazilishi mumkin.


Evristik pedagogik texnologiyalarni qo'llashda talabalarning kasbiy tayyorgarligi faollashadi, masalan: muvozanat, stressga chidamlilik, o'z-o'zini anglash motivasiyasi, ijodkorlik, kreativlik. Ushbu ta'lim metodi ko'pincha yangi mavzuni tushuntirishda qo'llaniladi.

Evristik ta'lim texnologiyasi - bu talaba tomonidan ta'limning o'z shaxsiy mazmuni, maqsadlari va tuzilishini, shuningdek uni tashkil etish, diagnostika va tushunish jarayonini tayyorlashni o'rganishini maqsad qilib oluvchi ta'limdir A.V. Xutorskiy [3] hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi – kasbiy muammolarni muhokama qilish, baholash, aniqlash va hal qilishni o'rgatadigan ta'lim texnologiyasidir.

Kombinasion-Darsda:

Kombinasion-Darsda *loyihalash texnologiyasini* qo'llash orqali talabalarning loyihalash va konstruksiyalash kompetensiyasini shakllantirish amalga oshiriladi. Kombinasion dars ma'ruza, amaliy, laboratoriya, to'garak kabi ta'lim shakllarining barchasini birdek loyihalash texnologiyasidan foydalanib olib borilishidir.



1-rasm. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandis-dasturchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning tashkiliy-funksional modeli

Kombinasion-Dars hamkor tashkilotlar bilan uzviylikda fan dasturlarini ishlab chiqish, amaliyot jarayonlarini muvofiqlashtirish, hamkorlikda uslubiy ta'minotni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari ilab chiqarishning etakchi xodimlarini ham ta'lim jarayoniga jalb qilish nazarda tutiladi.

Zamonaviy metodika va texnologiyalarning turli yo'nalishlari orasida eng maqbul maqsadlarga erishtiruvchi metod -loyihalash metodi hisoblanadi. *Loyihalash metodi* – talabalarni bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan

amaliy masalalarni ishlab chiqish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan ta'lim tizimidir.

Loyihalash metodikalarining samaradorligi quyidagi sabablarga asoslanadi:

-loyihalash metodikasi shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, bunda ta'limni rivojlanish jihati kasbiy ta'limda etakchilik qiladi;

-loyihani amalga oshirish jarayonida ta'lim shaxsning o'zi tomonidan motivlashgan bo'lib, bu o'z navbatida ishni bajarish jarayonida unga bo'lgan qiziqish va ishga berilishni kuchaytiradi;

-loyihalash metodikasida "o'qituvchi-talaba" munosabatlari ierarxiyasi (pog'onalari, ketma-ketligi) an'anaviy ta'lim metodlaridan tubdan farq qiladi.

Konferension-Darsda:

Konferenssion-Darsda differensial ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali talabalarning dasturlash va avtomatlashtirish kompetensiyalarini shakllantirish amalga oshiriladi. Konferension-Dars internetda ijtimoiy tarmoqlar (telegram, instagram, facebook) differensial texnologiyasidan foydalanib olib borilishidir.

Differennsiallashgan o'quv jarayoni deganda talabalarning ma'lum o'quv fanlari bo'yicha o'quv materiallarini turli darajada («A», «B», «S») egallashlariga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tushuniladi.

Differensial ta'lim texnologiyasi – talabalarga past o'zlashtiruvchilarga yordam berish, kuchlilarga e'tibor berish imkonini beradi. Ushbu texnologiya yordamida kuchli o'zlashtiruvchilar ta'limda tez va chuqur bilim olishga erishadilar. Bilimli talabalar o'zlarining qobiliyatlarini takomillashtiradilar, past o'zlashtiruvchilar o'qish muvaffaqiyatini his etish hamda o'z qobiliyatlari doirasida o'zini namoyish qilish imkoniga ega bo'ladilar, ta'limning rag'batlantirish darajasi oshadi.

Bunday ta'lim texnologiyasini tashkil etish natijasi – har bir talabaning individual xususiyatlarining (qobiliyatlarining) yuzaga chiqishi va rivojlanishidir.

Bo'lajak muhandis-dasturchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari ishlab chiqildi. Bo'lajak muhandis-dasturchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning tashkiliy-funksional modelini ishlab chiqildi. Innovasion ta'lim shakllari: kombinatsion-Dars, ekskursion-dars, konferension-Darslarda ta'lim texnologiyalardan: differensial o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, evristik ta'lim texnologiyasi, tanqidiy fikrlash texnologiyasidan samarali foydalanilib talabalarning kasbiy kompetensiyalari shakllantirildi, kasbiy tayyorgarligi takomillashtirildi.

ADABIYOTLAR

1. Штофф, В. А. Моделирование и философия / В. А. Штофф. – М. : Наука, 1966. – 304 с

2. Файзиева М.Р. Ўқув жараёнига мослашувчи WEB тизимларни яратиш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 189 б.

3. Хуторской, А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций [Электронный ресурс] / А.В. Хуторской // Интернет-журнал «Эйдос. – 2005. – Режим доступа: http://www.eidos.ru/journal/2005/1212.htm.

4. Musurmonova Sh.G’. Teaching Function Graphs To Students Using Educational Methods. //The American Journal of social science and education Innovations, 3(03). ISSN 2689-100X – USA. 2021. SJIF:5.857. P-450-455; https://theamericanjournals.com/index.php/tajssei/article/download/921/868.

КВАНТ АЛГОРИТМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ДИНАМИК ОБЪЕКТЛАРНИ БОШҚАРИШ

Якубова Ноилахон Собиржоновна,
Тошкент давлат техника университети доценти,
e-mail: noila.yakubova@gmail.ru

Аннотация. Ҳозирда ишлаб чикаришини автоматлаштириш билан боғлиқ бўлган амалий соҳадаги фанларнинг ривожланиши билан юқори даражали автономликка мослашувчанлик хоссасига, ишончлиликка ва ноаниқлик шароитларда юқори сифатга эга бўлган турли хил техник тизимларни яратиш зарурияти пайдо бўлди. Бундай тизимларнинг бошқариш объекти мураккаб, кўп ўлчамли, ночизиқли бошқариш тизимлари бўлиб, бу каби тизимларнинг хусусиятлари кўплаб имкониятларни қамраб олади ва мазкур тизимнинг жорий ҳолатига мос келишлик билан изоҳланади. Бошқарув объекти сифатида олинган технологик қурилма кўп ўлчамли ва кўп боғланишли бўлганлиги учун рақамли бошқариш тизимини моделлаштириш ва синтезлаш алгоритмлари интеллектуал усуллар сирасига мансуб бўлган алгоритмлардан фойдаланиб ечилди.

Калит сўзлар: квант алгоритми, нейротармоқли модель, квант норавшан ростлагич, суперпозиция, корреляциялаш матрицаси, интерференция, синтез, интеллектуал тизим.

Ҳозирги вақтда техник ривожланиш билан боғлиқ ҳолда бошқариш объектлари, ишлаб чиқилаётган бошқариштизимларининг мураккаблашуви сезиларли ортишига сабаб бўлмоқда. Шу сабабли юқори даражали автономликка мослашувчанлик хоссасига, ишончлиликка ва ноаниқлик шароитларда юқори сифатга эга бўлган турли хил техник тизимларни яратиш зарурияти пайдо бўлди. Бундай тизимларнинг бошқариш объекти мураккаб, кўп ўлчамли, ночизиқли бошқариш тизимлари бўлиб, улар зарурий фойдаланиш тавсифи ва кенг функционал имкониятларга башоратлаш имкониятига, ҳамда ташқи таъсир ва тизимнинг жорий ҳолатга мослашувчан хусусиятига эгадир. Тизимлардаги омилларнинг ноаниқлиги ва ўзгарувчанлиги динамик тизимлар ҳолатини башоратловчи, ўз навбатида бошқариш масаласини ечишни мураккаблашишига олиб келади.

Динамик объектлар ва ноаниқлик алоқаларининг хусусиятлари ҳамда ахборот етарли бўлмаган шароитларда қарор қабул қилишни эътиборга олган ҳолда тизимли таҳлил, математик моделлаштириш, ахборотларга ишлов

бериш ва тадқиқотнинг мураккаб динамик объектларни бошқариш усулларини қўллаш, ечими ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш имконини берадиган муҳим масалалардан биридир.

Ноаниқ шароитларда мураккаб динамик объектларни бошқариш тизими динамикасининг моделларини қуриш, моделлар тузилишини тавсифлаш ҳамда квант ҳисоблаш усулларини қўллаш асосида мураккаб динамик объектларни бошқариш жараёнининг квант норавшан моделини ишлаб чиқиш ва бунда моделнинг реал объект билан адаптациялаш масаласи асосий вазифалардан биридир:

Бунда, кўрилаётган тизим қуйидаги динамик тенглама билан берилган бўлсин:

$$x(k)=Ax(k)+Bf[u(k),u(k-1),...,u(k-m+1)],\ y(k)=Cx(k),$$

бунда: $f[\cdot]$- силлиқ ночизиқли функция $\frac{\partial f}{\partial u(k+1)}=0;\frac{\partial f}{\partial u(k)}\neq 0$,

A,B - матрицалар; *x* - жараён ҳолати; *k* - тактлар қиймати; *y*-чиқиш қиймати; *m* - вақт; *C* - чиқиш вектори.

Квант механикасидаги классик ҳолатдан фарқли ўлароқ, бу икки ҳолат суперпозиция ҳолатида бўлиши мумкин, яъни квант битининг энг умумий ҳолатини қуйидагича ёзиш мумкин:

$$|\psi\rangle=\alpha|0\rangle+\beta|1\rangle$$

бу ерда: α ва β - комплекс сонлар.

Нолга мос келадиган кет-векторлар вакубитнинг бирлик ҳолати қуйидаги шаклга эга бўлади:

$$|0\rangle=\begin{bmatrix}1\\0\end{bmatrix}\text{ ва }|1\rangle=\begin{bmatrix}0\\1\end{bmatrix}$$

$|\psi\rangle=\alpha|0\rangle+\beta|1\rangle$ функция билан тизимнинг ҳолатини ўлчашда, $|0\rangle$ ҳолатда аниқлаш эҳтимоллиги α^2, $\langle 1|$ ҳолатда аниқлаш эҳтимоллиги β^2 га тенг. Бу эҳтимоллар йиғиндиси бирга тенг:

$$|\alpha|^2+|\beta|^2=1$$

Бу муносабат нормаллаштириш шарти деб аталади [1].

Квант алгоритмик ячейкасини лойиҳалаш жараёни учта квант операторининг матрица шаклини ўз ичига олади: суперпозиция, квант корреляцияси (ёки квант оракул) ва интерференция, улар квант қидирув алгоритмлари таркибига киради. Умуман олганда,квант генетик алгоритми ёрдамида квант алгоритмик ячейкасини тузилишини қуйидаги формула билан ифодалаш мумкин:


$$QAG=\left[(Int\otimes^n I)\cdot U_F\right]^{h+1}\times\left[QAG\left[{}^nH\otimes^m S\right]\right]$$

бу ерда: I - идентификацион матрица оператори; $\otimes$ – тензор оператори; S муаммонинг тавсифига қараб I ёки H га тенг.

Юқоридаги тенгламага кўра, лойиҳадаги биринчи қисм квант алгоритмик ячейкаси- U_F турини тавсифловчи чигаллашган ҳолат оператори бўлиб, у ўрганилаётган функциянинг сифат хусусиятларини физик жиҳатдан тавсифлайди. Қабул қилинган сигналларни [0,1] назорат сигналларининг жорий қийматларини уларнинг олдиндан маълум бўлган максимал қийматларига (мах K) бўлиш орқали нормаллаштирилади. Эҳтимоллик зичлиги функциялари аниқланади.

Мазкур квант ҳисоблаш усуллари асосида технологик объект кўрсаткичлари ва объектга таъсир этувчи факторларнинг вақт бўйича ўзгаришига эга бўлган стационар бўлмаган вазиятлар мавжуд бўлганда ҳам бошқариш моделини қуриш мумкин бўлади.

Юқорида келтириб ўтилган маълумотлар норавшан квант хулосалаш тизимининг қоидалар базасини шакллантириш учун хизмат қилиб бошқариш жараёнида қўлланилади. Қуйида шампанизатор қурилмасидаги ҳароратини автоматик ростлаш тизимининг моделини MATLAB дастури ёрдамида олинган компьютер модели келтирилган [2].



1- расм. Ферментатор қурилмасидаги ҳароратнинг автоматик ростлашнинг компьютер модели.

Тажрибавий натижалар асносида жараённинг матрицавий узатиш функцияси қуйидаги математик муносабатдан топилади:

$$\begin{bmatrix} y_1 \\ y_2 \end{bmatrix} = \begin{pmatrix} \dfrac{9.5e^{-0.3p}}{(2.69p+1)(1.9p+1)} & \dfrac{0.4}{2p+1} \\ \dfrac{0.5}{1.4p+1} & \dfrac{1.5}{1.8p+1} \end{pmatrix} \times \begin{bmatrix} u_1 \\ u_2 \end{bmatrix}.$$

Норавшан кириш ва чиқиш ўзгарувчиларининг тегишлилик функцияси асосида холат тенгламаси матрицаси элементлари норавшан коэффициентлар сифатида ифодаланади ва норавшан тўплам шаклида ёзилади.

Юқоридаги муносабатлардан кўриниб турибдики, мураккаб динамик

объектларни нейро-норавшан бошқариш тизимини квант ҳисоблаш усуллари асосида синтезлаш тармоқни ўқитишнинг янги усулига ўтиш ва норавшан қоидалар базасини шакллантиришни қулайлаштиради. Технологик жараённи бошқариш учун норавшан квант ростлагичли синтезлаш алгоритми соддалиги ва қулайлиги билан бошқаларидан фарқ қилиб, тегишлилик функцияларининг стандарт шакллари ва бошқариш қоидаларининг минимал қийматларидан фойдаланиш имконини беради.

Адабиётлар

1. Yakubova Noilakhon. Application of quantum algorithms in the synthesis of dynamic objects. Chemical technology. Control and management 2023, №6 (114) pp. 61-67. International scientific and technical journal journal homepage: https://ijctcm.researchcommons.org/journal.

2. Якубова Н.С., Жамолова С.Р., Алойдинов М.Ғ. ИССЛЕДОВАНИЕ КВАНТОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМАХ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2024. 3(120). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/17067 .

MILLIY XALQ CHOLG‘ULARIDA KO‘P OVOZLILIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xudayberdiyeva Mushtariy - O‘zPFITI tayanch doktoranti

Anotatsiya: Mazkur maqolada milliy cholg’ularimizda ko’p ovozlilikni ahamiyati, so’ngi yillardagi adabiyotlar, milliy cholg’ularda ijrochilik ko’nikmalarini rivojlantirish va bu borada olib borilayotgan ishlar hamda yechimini kutayotgan muammo va yechimlar xususida so’z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье говорится о значении полифонии на наших национальных инструментах, литературе последних лет, развитии исполнительского мастерства на национальных инструментах и проводимой в этом направлении работе, а также проблемах и решениях, ожидающих своего решения.

Abstract: This article talks about the importance of polyphony in our national instruments, the literature of recent years, the development of performance skills in national instruments and the work being done in this regard, as well as the problems and solutions that await their solution.

Kalit so'zlar: ko’p ovozli musiqa, cholg’u ijrochilik ko’nikmasi, milliy musiqa, musiqiy ijod, mahorat, ijro, ta’lim tizimi, ilmiy tahlil.

Ключевые слова: полифоническая музыка, исполнительское мастерство на музыкальных инструментах, национальная музыка, музыкальное творчество, мастерство, исполнительство, образовательная система, научный анализ.

Key words: polyphonic music, performing skills on musical instruments, national music, musical creativity, skill, performance, educational system, scientific analysis.

Musiqa ming-ming yillar davomida insonga hamroh bo‘lib, uning mehnat faoliyati, turmush-tarzi, his-tuyg‘u va orzu-umidlarini o‘zida ifoda etadi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib kelgan. Barchamizga ayonki, kuy-qo‘shiqqa, san’atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Azal-azaldan o‘zbek oilalarida, albatta, biror milliy musiqiy cholg‘u ijro etilgan va saqlangan. Mana shu an’ana hozirgi davrgacha davom etib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida bugungi kunda navqiron yosh avlodimizning boy milliy musiqiy madaniyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yosh avlodni teran fikrli, o‘ziga mustahkam ishonch bilan tarbiyalashda milliy musiqiy merosimiz, milliy cholg‘u va cholg‘u kuylarimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy cholg‘ularda ijrochilik san’ati insoniyat ma’naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya’ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, moxir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy vositadir. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining musiqa haqidagi ilmiy merosi, badiiy adabiyot va rassomchilik san’atidagi qimmatli ma’lumotlar hozirda bizning davrgacha yetib kelgan. O‘zbek xalq cholg‘ulari va ijrochilik an’analari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjiridagi uzilgan xalqalarni tiklashda qaysidir ma’noda ulkan xizmat qilmoqda. XVIII-XIX asrlarda o‘zbek xalq va professional musiqa san’ati rivojlana boshladi. Ayni shu davrda cholg‘u ijrochiligi san’ati tarixida bir qancha sozandalar yetishib chiqdi. Ulardan To‘ychi Xofiz, Shorahim Shoumarov, Shobarot tanburchi, Abdusoat dutorchi, Usta Usmon Zufarov (Toshkent), Rustambek (Andijon), Abduqodir naychi, Ahmadjon qo‘shnaychi (Qo‘qon), Ro‘zimatxon changchi (Namangan), Usta Masaid doyrachi, changchi Usta Olim Komilov va boshqalardir. Bu san'atkorlar o‘zbek xalq musiqasi xazinasi boyliklarini saqlab qolishda, yosh iste’dodlarni tarbiyalashda, qadimiy cholg‘ularning tuzilishini takomillashtirish va yangiliklarni yaratishda katta rol o‘ynashdi. Yangi musiqa cholg‘ulari asta-sekin turmushga kirib kelib, o‘tgan yuz yillik oxirida ansambllardan mustahkam o‘rin oldi. Musiqa cholg‘ularidan qo‘shiq va raqslarga jo‘r bo‘lishda ham keng foydalanildi, ohanglarning metroritmik bezak va qochirimlar bilan to‘ldirildi.

O‘zbek musiqiy madaniy merosimizda xalq cholg‘ulari turlarining ko‘pligi va ular uzoq davrdan beri tarixiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o‘tib kelganligi ma’lum. XIX asrning ohirlariga kelib o‘zbek xalq cholg‘ulari va ijrochiligi katta o‘zgarishlarga duch keldi ya’ni an’anaviy ijro va cholg‘ular asosida yangi nisbatan murakkab va mukammal cholg‘ular va ijro yo‘nalishi namunalari ijodkorlarimiz tomonidan yaratildi. O‘zbek musiqa ijrochiligi o‘z navbatida ikki

guruhga ajratiladi. 1-guruhga an’anaviy cholg‘ular kirsa, 2-guruhga takomillashgan, ya’ni rekonstruksiya qilingan cholg‘ular kiradi.

Xalq orasida an’anaviy cholg‘u ijrochiligi azaldan shakillangan bo‘lib, turli ko‘rinish va tarkiblarda namoyon bo‘ladi. An’anaviy cholg‘u va ijrochiligi yuqori darajadagi professional individuallikni talab etadi. Shungga ko‘ra ijro usullari va imkoniyatlari yuzaga kelgan. Ijro amaliyoti cholg‘ularni guruh bo‘lib ijro etish mumkinligini ko‘rsatdi va taqozo etdi. Shunga asosan an’anaviy cholg‘ular sozandalar tomonidan bir-biriga mos ovoz turlari va ijro imkoniyatlari doirasida guruhli tarkiblarga ajratildi. Ijroda keng ko‘lamlilikka va katta ovoz imkoniyatiga ega bo‘lish maqsadida barcha cholg‘ular yig‘indisidan katta cholg‘ular ansambli tashkil etilgan, shuning natijasi o‘laroq ansambl ijrosi amaliyotda qo‘llana boshladi.

Ayni vaqtda o‘zbek musiqa ijrochiligini 3 ta yo‘nalishga ajratishimiz mumkin. Ular xalq folklori musiqasi, xalq mumtoz musiqasi hamda kompozitorlik musiqa ijodi yo‘nalishlari. Folklor yo‘nalishi ommaviylik xususiyatiga ega bo‘lgan, texnik va ovoz jihatlari bir-biriga yaqin cholg‘ular yordamida ijro etiladi hamda uning ijro sharoiti va joyi ham o‘ziga hosligi tufayli cholg‘u va ijrochidan har qanday vaziyatga tez moslashish va ijro eta olishni taqozo etadi. Bu ijro yo‘nalishida asosan nay, chang, rubob, g‘ijjak va doyra cholg‘ularidan foydalanadilar.

Xalq mumtoz musiqa yo‘nalishida ijro etiladigan cholg‘ular asosan kamer xususiyatli ekanligini inobatga olinib, sharoit, joy va muhitga asoslanadi. Ansambl tarkibi esa deyarli barcha cholg‘ularni qamrab oladi.

Kompozitorlik ijodi ijrochilik yo‘nalishi bir qancha zamonaviy uslublarni qamrab olgani holda, bir necha xil cholg‘ularni o‘z ichiga oladi. Musiqiy asarlarning janrlar negizida cholg‘ularning tarkibiy qismi shakillantirilib ijro etiladi. Bu shakillantirilish jarayonida cholg‘u duetidan toki xalq cholg‘ulari orkestrigacha bo‘lgan cholg‘ular tarkibi tuziladi. Hozirgi vaqtda bu jarayon keng qo‘llanilib kelmoqda. Aytish joizki, orkestrni to‘liq ovoz imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun, ba’zan, Yevropa cholg‘ularidan ham foydalaniladi.

Ijrochilik amaliyotida qo‘llanilayotgan barcha cholg‘ular o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, uch turga bo‘linadi. Ular torli, puflama hamda zarbli cholg‘ular. O‘zbek cholg‘ularida ijroviy va texnik imkoniyatlar ulkan. Buning isboti o‘laroq, boshqa xalqlar musiqa asarlarini va jahon klassik asarlarini me’yorida ijro etilayotganini radio, televideniya hamda internet tarmoqlarida kuzatishimiz mumkin. Bunday ijrolar o‘zbek xalq cholg‘ularini naqadar rang-barang ekanligini ko‘rsatadi.

Tarixdan ma’lumki, an’anaviy o‘zbek musiqasida – vokal musiqasida ham, cholg‘u musiqasida ham bir ovozli, ya’ni unison ijrochilik yaratilgan. Ushbu an’ana xozirgacha saqlanib qolgan. Xo‘sh, unda ko‘p ovozli musqaning ahamiyati qanday? O‘zbek xalq cholg‘ularini ko‘p ovozli musiqaga moslashtirishning nima keragi bor? – kabi savollar yuzaga kelishi tabiiydir.

O‘rta Osiyoga ko‘p ovozlilik tushunchasi XX-asr boshlarida kirib keldi. Agar tarixga murojaat qiladigan bo‘lsak, O‘rto Osiyo musiqiy madaniyati ham juda uzoq davrga borib taqaladi. Hozirigi paytga kelib biz uchun odatiydek eshtiladigan ko‘p ovozli musiqa va bir qancha zamonaviy janrlar kirib kelguniga qadar O‘rta Osiyo

xalqlari bir ovozli musiqa ya’ni monodiya ijro qilishgan. Buning yakkaxon va jamoaviy ijroda esa ansambl ko‘rinishlari mavjud edi.

O‘zbekistonda professional kompozitorlik ijodining rivojlanishi, an’anaviy ijrochilik yo‘nalishidan tubdan farq qiluvchi nota yozuvi orqali ijro etish yo‘nalishini kirib kelishi va rivojlanishiga zamin bo‘lib xizmat qildi.

Ko‘p ovozlilik tushunchasi o‘z navbatida jamoaviy ijroning yangi ko‘rinishi bo‘lgan xalq cholg‘ulari orkestri shakillanishiga xizmat qildi. O‘tkan asrning 30-yillarida bizga qardosh bo‘lgan mamlakatlarda ham huddi shunday o‘tish davri edi. Ko‘plab san’at jonkuyarlarining mehnatlari bilan yangi ommaviy musiqa san’ati ya’ni xalq cholg‘ulari orkestri shakillantirildi. Bu jarayonda yangi musiqiy shakilni doimiy targ‘ib etuvchi san’at fidoiylarining o‘rni ahamiyatlidir. Ularning say-harakatlari tufayli yangilikka intiluvchan yoshlarni orkestr san’ati o‘ziga jalb etdi. Ilk bor tajriba sifatida tashkil etilgan orkestrlar professional jihatdan mukammal bo‘lmasada, o‘sha davr musiqiy jamoatchilikni o‘ziga jalb etdi hamda turli madaniyatlar o‘rtasida ajoyib axborot almashinuvi vazifasini bajardi.

O‘zbekistonda 30-yillar oxirida jamoaviy ijrochilikning ikki yo‘nalishi paydo bo‘ldi. Birinchisi T.Jalilov rahbarligidagi etnografik orkestr, ikkinchisi N.Mironov boshlagan so‘ng ishni A.Petrosyans davom ettirgan notali xalq cholg‘ulari orkestri edi. Shu davrdan boshlab ikki jamoa o‘z faoliyatini boshladi. Shundan so‘ng unison uslubdan ko‘p ovozlilik ijro uslubiga o‘tish jadal tus oldi va bu o‘z navbatida bir qancha yechilishi kerak bo‘lgan muammolarni keltirib chiqardi. Bulardan birinchisi orkestr jamoasi maqsadlariga to‘gri keladigan cholg‘ularga zarurat tug‘ildi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, turli ovoz balandligini o‘zida jamlagan cholg‘u oilalariga ehtiyoj sezildi.

Shu tariqa davr va zamon taqozosi bilan 1920- yilllar oxiri 1930-yillar boshida sozgar ustalar Sh.Shoumarov, M.Xarratov, U.Zufarov, R.Isaboyevlar xalq cholg‘ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish, ya’ni modernizatsiyalash yo‘lida asta-sekin tajribalarni boshlab yubordilar. Ayni shu paytda A.Petrosyans rahbarligida usta-kostruktor A.Kevxoyans, S.Didenko, V.Romanchenkolar ham xalq cholg‘ulari chizmasini yaratdilar. Ular k o‘p ovozli orkestr hamda turli xalqlar musiqiy asarlarini ijro etish uchun cholg‘ularning o‘n ikki bosqichli teng temperatsiyalangan tur va oilalarini yaratdilar. Cholg‘u oilalari va soz masalasi, ijro repertuari kabi bir qancha masalalar o‘z yechimini topgandan so‘ng, 1938-yilda nota orqali ijro etiladigan xalq cholg‘ulari orkestri tashkil etildi. Jamoaning birinchi badiiy rahbari va dirijyori etib Ashot Ivanovich Petrosyans, shunda so‘ng 1957- yilda Said Aliyev, 1976-yilda Foruq Sodiqovlar tayinlandilar. Ular o‘zlarining yuksak ijodiy davrlarida orkestr juda katta yutuqlarga erishdi. Ko‘plab konsertlar namoyish etdilar, festival va konkurslarda ishtirok etib sovrinli o‘rinlarga ega bo‘ldilar.

O‘zbek xalq cholg‘ularida orkestr ijrochiligi juda katta o‘rin egallagan. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri o‘zbek xalq milliy musiqasi, kompozitorlik ijodi va jahon kompozitorlari asarlarini ham o‘zbek xalq cholg‘ulariga moslashtirib, professional darajada ijro eta oladi. Shunisi diqqatga sazovarki,

hozirgi kunda o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarida zamonaviy estrada musiqiy na’munalari ham ijro etib kelinmoqda.

Yosh sozandalarni professional ijrochi bo‘lib yetishishida ko‘p ovozlikning, ya’ni orkestr va ansambllarning o‘rni beqiyosdir. Bunda ijrochi eshitish qobiliyati, ijro maxorati, nota o‘qish va jamoa birligini o‘rganadi.

Yurtimizda o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligida kadrlar tayyorlash masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Mustaqilligimiz sharofati bilan, Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlarimiz va poytaxtimiz Toshkent shahrida ko‘plab musiqa maktablari, ixtisoslashgan litsey va kollejlar, oliy o‘quv bilim yurtlari o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Hozirgi kunda ham ko‘plab bu kabi o‘quv dargohlari bunyod etilmoqda, mavjudlari esa qayta tamirdan chiqarilmoqda. E’tiborga molik jihati shundaki, ko‘plab maktabgacha ta’lim muassasalarimizda musiqa darslari, xususan, o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilikning dastlabki bosqichlari o‘rgatilib kelinmoqda.

Respublikamizda ixtisoslashgan litsey va kollejlarda orkestr ijrochilik faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan. Ularning repertuarlari ham ancha boy. Musiqa va san’at maktablarida ko‘p ovozli, xususan orkestr ijrochiligiga ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Chunki, bu bosqichda ko‘p ovozlikka e’tibor qanchalik ko‘p qaratilsa, ta’limning keying bosqichida (litsey va kollejlarda) orkestr ijrochiligiga zamin yaratiladi. Dastavval, to‘liq orkestr ijrochiligidan oldin, cholg‘u oilalaridan kichik orkestrlar tuzish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, torli chertma cholg‘ular orkestri, zarbli cholg‘ular orkestri, yoki alohida cholg‘u oilalaridan iborat bo‘lgan orkestr ham tuzish mumkin. Bu kabi tajribalar o‘tgan asrning 70-80-yillarida keng qo‘llanilgan. Unda dutor orkestri, chang orkestri, rubob orkestri jamoalari tuzilgan. Hozirgi kunda ham bu kabi tajribalarni keng qo‘llash mumkin. Ayniqsa o‘rta ta’lim bosqichida bu kabi orkestr ijrochiligi yosh ijrochi uchun katta maktab vazifasini o‘taydi. Ularning repertuariga kichik cholg‘u kuylarini har xil ovozlarga ajratib berish va jamoaviy ijro etish ko‘p ovozlikning dastlabki bosqichi bo‘ladi. Bu kabi tajribani maktabgacha ta’lim muassasalarida ham qo‘llash mumkin. Masalan, o‘yin tarzida oddiy qarsak chalish yoki tovushlarni kuylash orqali ham amalda ijro qilish mumkin.

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida har yili “Navro‘z sadolari” xalq cholg‘ulari orkestrlari va ko‘p ovozli ansambllarining respublika festivali bo‘lib o‘tadi. Unga 1997-yili asos solingan bo‘lib, dastlab shahar, keyinchalik respublika, hozirgi kunda esa xalqaro miqyosdagi festivalga aylandi. Bu festivalda maktabgacha ta’lim muassasalari, musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashgan litsey va kollejlar, oliy musiqa o‘quv yurtlaridagi orkestr hamda ansambllar, professional jamoalar ishtirok etadi. Festivalda xalq cholg‘ulari orkestrlari va ko‘p ovozli ansambllar ijrochiligi yo‘lida izlanayotgan yosh iste’dodlarni aniqlash, bu betakror meros na’munalaridan san’at ixlosmandlarini bahramand etish imkonini bermoqda. Bu festivalda boshlang‘ich ijrodan, professional ijrogacha bo`lgan jamoalar ishtirok etishi bejiz emas. Bunda yosh

sozandalar, tajribali sozandalardan o‘rnak olgan holda ijrochilik maxoratini tarbiyalab, o‘z tajribalarini oshirib borishadi. Respublikamizning barcha hududlarida bu kabi ko‘rik-tanlovlar juda ko‘p.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ko‘p ovozli ijrochiligida professional jamoalarning o‘rni beqiyos. Xozirgi kunda O‘zbekiston Davlat xalq cholg‘ulari akademik orkestri va “Sug‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri jamoalarining faoliyati diqqatga sazovardir. Ularning repertuari juda boy va rang-barang kuylardan iborat. Bu orkestrlarning ijodi yosh ijrochilarga maktab vazifasini ham o‘tamoqda.

O‘zbek xalq cholg‘ulari, xususan, ko‘p ovozli orkestr ijrochiligi yo‘lida hali juda ko‘p qilinadigan ishlar bor. Hozirgi cholg‘ularimiz va ijrochiligimiz ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan emas. O‘zek xalq cholg‘ularini yanada sifatini yaxshilash, ijrochilik maxoratini oshirish, yangi uslubiyat va repertuarlarini boyitish, biz kabi ijodkor yoshlardan izlanish, o‘z ustimizda tinmay mehnat qilishni taqazo etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 1995 yil 20 oktabr // O‘zbekiston ovozi. – Toshkent, 1995. – 21 oktabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2017. – 18 noyabr.

3. T.E. Solomonova “O‘zbek musiqasi tarixi”. Toshkent “O‘qituvchi” 1981.

4. Abdurahimova Ф. Orkestr sinfi . Toshkent , “ G.G‘ulom ” nashriyoti , 2012 .

5. Tashmatova A. “ Ijrochilik san’ati tarixi ” T. , Musiqa nashriyoti , 2017 .

6. Tashmatova A. “Musiqiy cholg'ular muzeyi” Katalogi . T. , Fan , 2006 .

7. Zohid Haqnazarov. “Dirijyorlik haqida” O’quv qo’llanma. Toshkent, 2011.

8. Tashmatova A. Beknazarov X. “ CHolg’ushunoslik ” Toshkent , 2015 .

9. Abdurahimova F. Orkestr sinfi . Toshkent , Musiqa nashriyoti , 1. 2015 .

10. R.F.Qodirov. “Musiqa psixologiyasi” O’quv qo’llanma. Toshkent., Musiqa, 2016.

11. F,Qodirov “Ommabop musiqiy glossariy” Mahsus lug’at ma’lumotnoma. Toshkent “O’zbekiston” 2016.

12. S.Begmatov, M.Matyoqubova “O’zbek an’anaviy cholg’ulari” O’quv qo’llanma. Toshkent .Yangi nashriyot - 2008.

EFFECTIVENESS OF USING THE PROJECTED EDUCATIONAL METHOD IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Nasirova Shaira Narmuradovna – Navoi State Pedagogical Institute, Professor of the Department of Computer Science, Uzbekistan.

Khalikov Muhriddin Mardikulovich - basic doctoral student of the Navoi State Pedagogical Institute
Khalikova Adiba Mardikulovna- 16th school in Navoi, teacher

Abstract. This article provides information on the effectiveness of using the project education method in the educational process. In the modern pedagogical technology, the method of determining the educational goal and technologicalization of the educational process, algorithmization, design, and project education is described.

Key words: education, system, method, process, technology, project, pedagogy, innovation, teaching, form, method.

Despite the creative work carried out in the framework of national programs in the field of education and a number of positive changes achieved, the acceleration of the dynamics of the development of the quality of education, the effective use of the conditions and opportunities created in it, remains an urgent issue today. But no matter how much the educational process is technologicalized based on the latest achievements of science, achieving the final result, that is, providing thorough, in-depth knowledge, high intellectual potential, competitiveness, high quality, and efficiency, is directly related to theoretical and practical training. it will depend on the professional qualification, skills, creativity, ability of professors and teachers to introduce and apply advanced technologies and innovations in their pedagogical activities. The quality and efficiency of education depends on the extent to which the student has mastered the educational content, his ability to think independently and thinking activities, and the training organized in the form of subject-subject.

In modern pedagogical technology, the determination of the educational goal and the technologicalization, algorithmization, and design of the educational process provide for the following:

- to increase the student's activity in the educational process, to ensure his direct participation, to invite him to cooperate;
- to develop skills for working with programs, manuals, and lecture texts provided for in the curriculum;
- educational content, independent reading of texts, formation of skills and qualifications;
- accustoming the student to be able to express his opinion, defend it, prove it.

When conducting education, it is necessary to organize the educational process taking into account pedagogical motives, needs, interests, and goals. In the lecture, it is not appropriate to give the information to the students only ready-made, because in this case, not enough attention is paid to teaching him to think independently. Therefore, it is necessary to direct them to activity, to think, to think in order to solve various problems in accordance with practice, to find vital answers to questions independently. One of the important factors of training qualified personnel is to increase the quality and efficiency of education.

Modern methods, forms and tools of teaching and interactive technologies, in particular, non-traditional methods of project-based education, play an important role in improving the quality and efficiency of education. For this reason, achieving a high level of efficiency in the educational process is the right design of the educational process.

The project education method is one of the interactive methods, and it is very useful for students to learn independently based on the effective methods of achieving the educational goal.

In the activities organized on the basis of projects, students rely on their independent experience, search for solutions, they receive information from different sources, from each other, process it, and convey it to each other. In such an environment, students consciously master educational materials through collaborative development, free thinking, writing, drawing, and mutual analysis. Students protect the information by searching for it themselves, processing it, summarizing it. Therefore, the project-based exercises are carried out by working individually, working in pairs, working in small groups, working in large groups, and organizing discussions in large groups. When working in such a situation, the student uses all his abilities, internal capabilities, thinking, and actively begins to find a solution to the project.

Depending on their duration, training projects can be small projects, one paragraph, short-term, three-four paragraphs, long-term. When forming projects, it is necessary to take into account the needs, interests, desires, goals, abilities, activities, and intelligence of students.

Every professor-teacher faces a question when designing a lesson. That is, the purpose, task, sequence, consistency of each exercise, what to do to activate it, how to organize it? When setting the goal of the training and its implementation, the following should be observed:

- selection of educational materials, organization of it based on didactic requirements;
- equipping the methods and processes used;
- functional organization of one's own activity, organization of student's work in groups.

In organizing the educational process on the basis of projects, it is required that the leader of the training show dedication, inspire the student, and achieve the final goal by making him interested. Below are the stages of organizing the training process based on the project:

- collecting materials on the subject, determining the content of educational goals and objectives;
- hoosing the form, method and tools of education, taking into account the unit of time spent by the learner to master concepts, knowledge, skills, projects;
- developing a system of exercises and examples to obtain the results of each stage, conducting theoretical work, developing tests, questions;

▪applying the project to the training process and creating a mechanism for conducting and completing the training process.

In conclusion, it can be recognized that:

▪the goal of project-based training ensures full mastery of the subject content in the educational process;

▪acquisition of knowledge, skills, and competencies from the educational standards provided for in the training is achieved.

▪the student is not only trained, but also taught to learn independently, knowledge is not given to him ready-made, he is taught to acquire knowledge independently from specific sources.

▪if all professors and teachers can master pedagogical technology and use it in their activities, the final results of educational work are guaranteed.

References:

1. Nasirova Sh. N., Xoliqov M.M., Jurayeva D.E. Computer animation is a tool for development of creative skills. Republican conference on "Prospects of using modern information technology resources in the educational system", May 30, 2023, Tashkent, pp. 88-89

2. Nasirova Sh.N. Effectiveness of using electronic resources in the digital technology education system. “Education without teacher" Scientific-methodical journal № 6 2023, ISSN 2181-7138, Nukus, 2023, pp. 96-102

3. Nasirova Sh.N., Tillayev M.M. The importance of creating multimedial electronic learning resources. **Academicia Globe: Inderscience Research** is a scholarly peer reviewed international multidisciplinary Journal, **ISSN:** 2776-1010, **SJIF:** 5.653, https://doi.org/10.17605/OSF.IO/9QHUJ, 557-559 p

METHODS OF ACHIEVING INCREASING THE EFFICIENCY OF MODULAR TRAINING

Nasirova Shaira Narmuradovna – Navoi State Pedagogical Institute, Professor of the Department of Computer Science, Uzbekistan.

Azimov Umidjon Ismoilovich- 16th school in Navoi, teacher

Khalikov Muhriddin Mardikulovich - basic doctoral student of the Navoi State Pedagogical Institute

Abstract. This article provides information on how to improve the effectiveness of modular training. Modular training is considered one of the promising systems of training, optimization and systematization of training content on the basis of activity ensures variability and flexibility of programs.

Key words: training, module, system, optimization, education, knowledge, skill, competence, activity.

Абстрактный. В данной статье представлена информация о том, как повысить эффективность модульного обучения. Модульное обучение считается одной из перспективных систем обучения, оптимизация и

систематизация содержания обучения по видам деятельности обеспечивает вариативность и гибкость программ.

Ключевые слова: обучение, модуль, система, оптимизация, образование, знания, навык, компетентность, деятельность.

Annotasiya. Ushbu maqolada modulli o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishish usullari to’g’risidagi ma’lumotlar yoritilgan. Modulli o‘qitish o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanib, faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Kalit so’zlar: o‘qitish, modul, tizim, optimallash, ta’lim, bilim, ko’nikma, malaka, faoliyat.

The current development of science, technology, production and technology is defining the image of modern society. The most important feature of modern society is globalization in all its spheres. Globalization itself requires rapid movement, immediate acquisition of necessary information, their processing and effective implementation. Only personnel who are knowledgeable in their field, have acquired professional skills at a high level, and have rich experience and skills will have the opportunity to move in this way. Therefore, it is appropriate to take into account this demand of the time in the process of training personnel in higher education institutions.

Modular training is one of the promising systems of training, because it is best adapted to the system of developing the knowledge and creative abilities of learners. In traditional education, educational goals are expressed through the activities of the pedagogue, that is, they are directed to imparting knowledge, while in modular education, they are expressed through the activities of learners and are directed to professional activities.

Modular training creates an opportunity to comprehensively solve the following modern issues of education.

Optimizing and structuring the content of training based on module - activity ensures the variability and flexibility of programs;

- individualization of education;
- control the effectiveness of training at the level of teaching practical activities and evaluating observable characters;
- activation based on interest in the profession, independence and full realization of educational opportunities.

The effectiveness of modular training depends on the following factors:

- the material and technical base of the educational institution;
- level of qualified teaching staff;
- level of training of listeners;
- to the assessment of expected results;
- development of didactic materials;
- to the result and analysis of the modules.

In modular training, the possibility of step-by-step training is created through fully reduced and in-depth classification of educational programs. That is, it will be possible to individualize teaching. The following goals are pursued when switching to modular training:

- ensuring continuity of education;
- individualization of education;
- creating sufficient conditions for independent learning of educational material;
- acceleration of training;
- to achieve effective learning of science.

Modular teaching requires the delivery of problem-based and guided lectures that provide generalized information on the main issues of science. Lectures should be aimed at developing the creative abilities of listeners. Module practical and laboratory exercises should be created together with lectures, they should be supplemented with new material for studying the content of lectures. In order to increase the efficiency of teaching the module, the following methods of teaching can be used:

- problematic communication;
- heuristic conversations;
- educational games;
- design and guidance texts, etc.

The following advantages are determined from the content of the module system of education:

- ensuring the continuity of education between disciplines and modules within disciplines;
- establishment of methodically based compatibility of all types of educational process within each module and between them;
- adaptability of the modular structure of the science;
-regular and effective monitoring of students' learning (after each module);
-classification of students according to their immediate ability (after the initial modules, the teacher can recommend individualization of the subject to some students);
-acceleration of teaching as a result of "compressing" information, effective use of classroom hours and optimization of hours allocated for lectures, practical exercises, individual and independent work.

As a result, the listener will have sufficient knowledge and skills. In teaching based on the modular methodology, it should be developed in accordance with the principles of activity, systematic quantization, interest, modularity, problematic, cognitive visualization, reliance on errors.

References:

1.Nasirova Sh.N., Khalikov M.M., Methods of Control of Student Knowledge in Computer Sciences. Journal of advanced research and stability (jars), Volume: 01 Issue: 06 | 2021 ISSN: 2181-2608, 730-734 pp.

2.Nasirova SH.N. Innovative technologies in science education. Proceedings of the 16th Republican Multidisciplinary Scientific Distance Online Conference on "Scientific and Applied Research in Uzbekistan", Tashkent, 2020, June 2, part 10(5), pp. 247-249.

3.**Nasirova Sh.N., Maxmudova M. A.** Effectiveness of opportunities in the use of electronic resources in education. Oriental art and culture ISSN 2181-063X Scientific methodological journal special issue, II/2020, Kokand, p. 204-211.

4. Nasirova Sh.N., Kochkarova S.S., Zhorakulov A.J. The importance of distance education based on virtual technologies. "Teacher and continuous education" Scientific-methodological journal № 3, Nukus, 2020, pp. 47-50

5.Makhmudova M. A., Nasirova Sh.N., Muhamedova M. M. Tasks for a future computer teacher in educational information. International conference oneconomics and social sciences ISSN: 2349-0721, 2020, 197-199 pp.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YOSH AVLODGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Niyozov Muhammad Baxronovich, Abdullayev Abbos Botir o‘g‘li. –
Guliston davlat pedagogika instituti

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir. O‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi davlatimizning ta’lim sohasini isloh qilish bo‘yicha asosiy hujjatlarida «Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi», deb belgilab qo‘yilgan.

Raqamli texnologiyalarning o‘quvchilar ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli vaziyatlari mavjud. Bu birinchi navbatda o‘quv faoliyati doirasiga o‘quvchilarning raqamli texnologiyalari bilan bevosita muloqotga kirishishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda virtual olam texnologiyalari asosida tayyorlangan kompyuter o‘yinlari va atraktsionlarini ham unutmaslik lozim hattoki, kompyuter bilan bog‘liq bo‘lmagan holda ham insonlar smart telefon, animatsion filmlar, kredit kartochkalari, plastik kartochkalardan foydalanish orqali kompyuterlar bilan o‘zi bilmagan vaziyatlarda muloqotga kirishadi. Qolaversa, o‘qituvchilarning o‘zlari ham raqamli texnologiyalar bilan yaqindan muloqot qilishlari ularning ta’sirini kengroq bo‘lishiga yo‘l ochishadi.

Raqamli texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanar ekan, o‘qituvchilar quyidagi holatlarga alohida e’tibor berishlari zarur. Birinchidan, axborot texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlariga olib o‘tiladi. O‘tkazilgan psixologik tadqiqotlar masalalarning aniqlikligiga, mantiqiyligiga ketma-ketliligi hamda refleksivligiga talablarning

ortishi kuzatiladi. Bu erda ruhiy muloqot vositalarining roli pasayadi. Ikkinchidan, teskari aloqa kuchayadi. An'anaviy faoliyatning o'ziga hos xususiyatlari kompyuterlashadi. Ta'lim jarayoni uchun, shu jumladan, kichik yoshdagi bolalar uchun ham mo'ljallangan dasturiy va texnik vositalarning - insonlashuvi kuzatilmoqda. Ularda foydalanuvchilar o'z faoliyatlarini mavjud bo'lmagan, ammo qandaydir amallarni bajarish uchun zarur bo'lgan elementlar bilan to'ldirishmoqda. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bunday vaziyatlar axborot texnologiyalari bilan aloqador faoliyatning turli ko'rinishlarining (shu jumladan ta'lim olish bilan bog'liq faoliyatda ham) murakkab va ziddiyatli tuzilmasini shakllantiradi.

O'quvchilarga raqamli texnologiyalarning ta'siri ortib, u chegaralangan doiradagi ruhiy ta'sirlardan tortib, to shaxsni to'la o'zgartirishgacha (internetga bog'lanib qolish, kompyuter dasturiga oid maniyalar, xakerlik sindromi) borishi mumkin. Bugungi kunda shaxsning to'la o'zgarishi masalasi olimlar tomonidan batafsil o'rganib chiqilmagan. Shuning uchun, ta'lim jarayoni uchun mo'ljallangan zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida pedagoglar va psixologlarning faol ishtirok etishlari zarur.

Namuna sifatida ta'limda internet-texnologiyalardan foydalanishni masalasini ko'raylik. Internet-texnologiyalar kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o'zgarishlari hamda ta'lim olish usullarining o'zgarishi asosida shaxsning tarbiyasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Chunki, internet bilan ishlaganda, o'quvchilarning faolligi ortadi, ta'lim jarayoni individuallashadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi avtoritar munosabatlar kamayadi, turli ma'lumot manbalari (ular o'zaro ziddiyatli yoki bir-birini rad etishi mumkin) bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning shaxsini rivojlantiradi. Ularda mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka, mobillikka rag'batlanish paydo bo'ladi. Ammo, salbiy ta'sirlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Intensiv intellektual va ijodiy rivojlanish o'quvchilarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishini ta'minlay olmaydi. Ular turli kompyuter manbalariga, shu jumladan internatga bog'lanib qolishlari mumkin. Bu esa kelajakda shaxsini boshqalardan ajralib qolishiga sabab bo'la oladi. Bolalarning ruhiyatida keskin o'zgarishlar ro'y berib, ularda o'z do'stlarini virtual olam qaxramonlari bilan almashtirish, ruhiy javob reaktsiyalarida pasayish, qiziqishlar doirasida torayish kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, olimlar uchun raqamli texnologiyalar ta'sirida olingan ruhiy komponentalirning qaysilari faoliyatning kompyuterlarsiz doirasiga olib o'tilishini hamda ta'limning axborotlashuvining ruxiyatga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini aniqlash ham muhim xisoblanadi. Bu esa o'z navbatida pedagoglar uchun ham o'ta dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi pedagoglar ta'lim faoliyati aniqlik, samaradorlik va bashorat qilish mumkinlik kabi sifatlar evaziga o'zgarishini ta'kidlashmoqda. Bu o'rinda ta'lim oluvchilar ongini rivojlantirish usullariga o'rgatuvchi va boshqa kompyuter dasturiy vositalarining ta'sirini inkor etmaslik lozim. Vaziyatni to'g'ri tushuntirish, o'quvchilarga ongli ravishda

masalalarni echish usullari orasidan optimalini tanlashga o‘rgatish pedagoglar uchun asosiy masalaga aylanib qoladi.

Ta’lim jarayonida kompyuterlardan foydalanish psixologlarning ta’kidlashlaricha, ilgari mavjud bo‘lgan, ammo qandaydir sabablar bilan unutilib ketgan ruhiy komponentlarning ayrimlari qayta tiklanmokda. Elektron pochta, chatlar, telekonferentsiyalar yozma muloqot ko‘nikmalarini (ular amalda rivojlangan davlatlarda telefon aloqalarining rivojlanishi natijasida unutilib ketgan edi) talab qiladi. Bu esa o‘z ichiga Internet bilan tanish bo‘lish, ish yuritish va shaxsiy yozishmalar madaniyati, o‘z kayfiyatini ifoda etuvchi maxsus belgilarni o‘rganishni talab qiladi.

Internet millatlararo muloqotni yangi bosqichlarga ko‘taradi, umummadaniy bilishni faollashtiradi, yozishmalar jarayonida chet tillarini intensiv ravishda o‘rganishga sharoitlar yaratadi.

Raqamli texnologiyalarni faoliyatning turli doiralariga tatbiq etish asosida insonni ortiqcha va mashaqqatli mehnatdan ozod qilish va uning rivojlanishi uchun shart sharoitlar tayyorlash yotadi. Raqamli texnologiyalar asta-sekinlik bilan ayrim ko‘nikma va malakalarning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Masalan, bugungi kunda elektron jadvallarning ahamiyatini rad eta olmaydi. Ular insonlarni ko‘plab ortiqcha mehnatdan qutulishga yordam beradi. Ammo, kalkulyatorlardan hattoki boshlang‘ich sinflarda foydalanish ularda og‘zaki xisob, tez xisoblash ko‘nikmalarini yo‘qolishiga sabab bulishi mumkin. Bu esa oqibatda o‘quvchilarning son tushunchasi ustida amallarni to‘g‘ri bajara olmay qolishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov R, Begimqulov U, Tayloqov N. Ta’limda axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanma. O‘zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2010, -120 b.
2. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., J.D.Saidov Ta’limda axborot texnologiyalari o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020. -292 b
3. Toshtemirov D.E., Jonibekov Sh. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati G’G’ “Ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagogika va psixologiyaning muamolari va istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Guliston-2022-yil 6-7-may, 69-70 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA YOSH AVLODNI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Niyozova Gulnoza Baxtiyor qizi - Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: maktabgacha ta’limda yosh avlodni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati xaqida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, raqamli texnologiyalar vositasi yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishtirishga zamin yaratadi va ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, raqamli texnologiya, intellektual qobiliyat, rivojlanish, maktabgacha ta’lim.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ko‘plab islohotlarga davlatimizning rivoji va kelajagining mustahkam asosi sifatida jiddiy e’tibor bilan qaralmoqda. Davlatning kelajagi va ravnaqi unda kamol topayotgan yosh avlodning intellektual salohiyati va har jabhadagi faolliklari, yutuqlariga bog‘liq.

Yosh avlodning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning har bir sohada amalga oshiradigan faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, yigit-qizlarning ijtimoiy-siyosiy salohiyati, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish jamiyatimizda amalaga oshirilayotgan islohotlar davlat siyosati darajasida ekanligini namoyon etadi. Ilm-fan, san’at, madaniyat, sport, adabiyot kabi ko‘plab sohalarda yosh iste’dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o‘qitish, salohiyatini yanada yuksaltirish tizimini tashkil qilish, o‘sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi maxsus ko‘p tarmoqli ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha ishlar sifatini oshirish zarurati bugungi rivojlanish asrining asosiy talablaridan biriga aylanmoqda. Iqtidorli bolalarni aniqlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, iste’dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni har tomonlama yetuk va intellektual barkamol avlod qilib shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ham o‘z ifodasini topgan.

Barkamol avlod ta’lim-tarbiyasida turli texnologiyalarni, jumladan, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning birinchi turi bo‘libgina qolmay, balki ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi birinchi pog‘ona hamdir. Bola faoliyatining 80 foizini turli o‘yinlar, jumladan, didaktik o‘yinlar tashkil etadi. O‘yin orqali bolalarda mashg‘ulotlar jarayonida muvaffaqiyatli bilim olishi, intelektual qobiliyatlari rivojlantiriladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun, yosh avlodning raqamli texnologiyalardan foydalanish savodxonligini shakllantirish maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda pedagog va psixolog olimlar tomonidan yosh avlodlar o‘rtasida qobiliyatlarning shakllanishiga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan Ular iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ulardagi qobiliyatni shakillantirish, har bir shaxs qobiliyatini namoyon bo‘lishiga ko‘ra tavsiflanishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Shunga ko‘ra, qobiliyatlar faqat faoliyat natijasida namoyon bo‘luvchi, ijtimoiy muhit omillarining ta’siri natijasida shaxsiy layoqatlarning kamol topishi bilan belgilanadi. Qobiliyat bilim va malakalarning o‘zida ko‘rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo‘ladi, ya’ni, mazkur faoliyat uchun muhim bo‘lgan

bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mashg‘ulotlarda raqamli texnologiyalaridan foydalanish ancha nozik masala hisoblanib, ko‘plab munozara va turli xil fikrlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishiga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularni har tomonlama yetuk inson bo‘lib rivojlanishida, mashg‘ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o‘qish, rasmlarni ko‘rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish, kompyuterli o‘yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishi uchun mo‘ljallangan barcha kompyuterli o‘yin dasturlarining hammasi ham ta’lim jarayonida o‘z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o‘yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondoshuv va e’tibor kerak bo‘ladi. Kompyuterli o‘yin dasturlari shunday yaratilgan bo‘lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O’yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olish, uni qanday bajarish kerakligini o‘ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni raqamli texnologiyalar bo‘yicha boshlang‘ich savodxonligini ham oshirish mumkin, ya’ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to‘g‘risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu bolalarni kompyuter o‘yinlaridan foydalana olish bilim va ko‘nikmalarini shakllanishida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Raqamlashtirish sharoitida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish usulini ko‘rib chiqish uchun yosh avloddagi qobiliyatning ba’zi tarkibiy qismlarini aniqlash foydali ekanligini tadqiqotimiz davomida aniqladik. Raqamli texnologiyalar vositasida intellektual qobiliyatni rivojlantirish shaxsning shaxsiyati va hissiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011. -257 b.

2. Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayoniga multimediaga asoslangan kompyuter o‘yinlarini qo‘llash // Zamonaviy ta’lim 2022, 3(112), 59-67 b.

3. Toshtemirov D.E., Jonibekov Sh. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati // “Ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagogika va psixologiyaning muamolari va istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Guliston-2022-yil 6-7-may, 69-70 b.

4. G.R.To‘xtasinova, T.I. O‘rmonova, Bolalar bog‘chasida intellektual psixologik o‘yinlar T.:2005

5. Бабаева Д.Ю. Развитие творческих способностей у детей - дошкольного возраста// Материалы IX Международной научной конференции.

6. G.B.Niyozova Prospects for the development of intellectual abilities of preschool children / Middle European Scientific Bulletin, Volume 42 | Nov-2023, 84-89 pp.

7. G.B.Niyozova Yosh avlodni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar o‘rni va ahamiyati / UzMU xabarlari 2023 1/6/1 130-133 b

REAL-TIME VIDEO DATA ANALYSIS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MACHINE LEARNING

Norov Elnur Islomovich

Abstract. The integration of Artificial Intelligence (AI) and Machine Learning (ML) in real-time video data analysis has significantly advanced the capabilities of automated systems to process and interpret visual information instantaneously. This review paper provides a comprehensive overview of the methodologies and technologies employed in real-time video analysis using AI and ML. Key areas of focus include real-time object detection and recognition, activity and behavior analysis, and quality enhancement techniques. The thesis also discusses the underlying frameworks, such as convolutional neural networks (CNNs) and recurrent neural networks (RNNs), and highlights practical applications in surveillance, autonomous vehicles, healthcare, and broadcasting.

Real-time analysis of video data has become increasingly vital across various sectors, including security, transportation, healthcare, and entertainment. The ability to process and interpret video streams instantaneously enables timely decision-making and enhances the functionality of automated systems. The advent of AI and ML has brought transformative changes to this domain, providing sophisticated tools and algorithms that can handle the complexity and volume of video data in real time.

Traditional video analysis methods often relied on manual monitoring and simple motion detection techniques, which were limited in accuracy and scalability. However, the rapid advancements in AI and ML, particularly deep learning, have introduced powerful models capable of performing complex tasks such as object detection, facial recognition, and activity analysis with high precision and speed.

One of the most significant breakthroughs in real-time video analysis is the development of deep learning architectures like convolutional neural networks (CNNs) and recurrent neural networks (RNNs). These models excel at extracting and processing features from video data, making them ideal for various applications. For instance, CNNs are widely used for object detection and recognition, leveraging their ability to identify patterns and features across multiple layers. RNNs, on the other hand, are particularly effective for sequence-based tasks, such as activity recognition, where temporal dynamics are crucial.

Real-Time Object Detection and Recognition

Real-time object detection and recognition are critical components of video analysis, enabling systems to identify and classify objects within video frames almost instantaneously. Various models and techniques have been developed to achieve high accuracy and speed in object detection.

YOLO (You Only Look Once)

YOLO is one of the most prominent frameworks for real-time object detection. It frames object detection as a single regression problem, straight from image pixels to bounding box coordinates and class probabilities. YOLO divides the input image into a grid and directly predicts bounding boxes and their corresponding class probabilities for each grid cell. This approach significantly enhances processing speed while maintaining reasonable accuracy.





Figure 1. The YOLO Detection System.

Processing images with YOLO is simple and straightforward. Our system (1) resizes the input image to 448 × 448, (2) runs a single convolutional network on the image, and (3) thresholds the resulting detections by the model's confidence. YOLO is refreshingly simple: see Figure 1. A single convolutional network simultaneously predicts multiple bounding boxes and class probabilities for those boxes. YOLO trains on full images and directly optimizes detection performance. This unified model has several benefits over traditional methods of object detection[1].

SSD (Single Shot MultiBox Detector)

SSD is another real-time object detection framework that eliminates the need for a region proposal network by detecting objects in a single shot. It uses multi-scale feature maps and convolutional predictors to detect objects of various sizes. SSD achieves a balance between speed and accuracy, making it suitable for applications requiring real-time processing.



(a) Image with GT boxes (b) 8 ×8 feature map (c) 4 ×4 feature map

Figure 2. SSD framework

Architecture: SSD employs a series of default boxes of different aspect ratios at each feature map location, predicting both the bounding boxes and the confidence scores for each box simultaneously. This approach allows SSD to handle objects at different scales effectively[1,2].

Faster R-CNN

Although not as fast as YOLO or SSD, Faster R-CNN offers a two-stage detection approach with higher accuracy. It uses a region proposal network (RPN) to generate object proposals, which are then classified and refined by a second network. Advances in this framework have optimized its performance, making it feasible for semi-real-time applications.

Super-Resolution

Super-resolution techniques enhance the resolution of video frames, making them clearer and more detailed. Deep learning models, such as CNNs, can predict high-resolution images from low-resolution inputs in real-time.

Generative Adversarial Networks (GANs): These networks have been particularly effective in super-resolution tasks, generating high-quality images that retain fine details from low-resolution inputs[1].

Noise reduction techniques are essential for improving the clarity of video streams, especially in low-light or noisy environments. Denoising Autoencoders: These networks are trained to remove noise from input images, producing cleaner and more visually appealing outputs. They are highly effective in real-time applications due to their efficiency and accuracy[5].

Conclusion

The integration of AI and ML in real-time video analysis has ushered in a new era of automated visual interpretation. Techniques such as YOLO, SSD, and 3D CNNs have revolutionized object detection and action recognition, enabling

applications across various domains. Despite the significant advancements, challenges such as handling occlusions, improving detection accuracy for small objects, and optimizing computational efficiency remain. Future research is expected to focus on overcoming these challenges, enhancing the robustness and applicability of real-time video analysis systems. As AI and ML technologies continue to evolve, their impact on real-time video analysis will likely expand, offering increasingly sophisticated solutions for complex visual tasks.

References

[1] Redmon, J., Divvala, S., Girshick, R., Farhadi, A. (2016). You Only Look Once: Unified, Real-Time Object Detection. Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR).

[2] Liu, W., Anguelov, D., Erhan, D., Szegedy, C., Reed, S., Fu, C. Y., Berg, A. C. (2016). SSD: Single Shot MultiBox Detector. European Conference on Computer Vision (ECCV).

[3] Zhang, Y., Lu, H. (2021). A Comprehensive Review of Deep Learning-Based Object Detection and Recognition in Autonomous Driving. IEEE Transactions on Neural Networks and Learning Systems.

[4] Ahmed, S., Baig, M. H. (2020). Intelligent Video Surveillance: A Review through Deep Learning Techniques for Crowd Analysis. Journal of Computer Vision and Pattern Recognition.

[5] Juan Terven., Diana-Margarita Córdova-Esparza., Julio-Alejandro Romero-González. “A Comprehensive Review of YOLO Architectures in Computer Vision: From YOLOv1 to YOLOv8 and YOLO-NAS”. 2023, 5(4), 1680-1716; https://doi.org/10.3390/make5040083

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Nuriddinova Gulshoda O’lmasqulovna
SamDU Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti dekan o`rinbosari

Annotasiya. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilim haqiqatdan ham ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlantirishning hal qiluvchi omiliga aylanadi. Yangi bilimlardan foydalanib yangi ta’lim usullarini ishlab chiqarish mumkin bo‘ladi, sababi matematik usullardan foydalanagan holda bashoratlash natijasida tajribaga asoslanib, real voqelikni aks ettiruvchi yangi bilimlarni olish mumkin. Axborotlashgan jamiyatga o‘tish davrida ixtiyoriy tashkiliy tizim o‘z faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish, innovatsion yangiliklarni joriy etish, raqobatda

yutib chiqish uchun axborotdan maksimal holda to‘liq va tezkor foydalanish usullari shakllanadi.

Kalit so’zlar: Axborotlashgan jamiyat, simsiz tarmoq, Smart jamiyat, innovatsion ta’lim, Smart Lear, Smart Education, intellectual ta’lim.

Axborotlashgan jamiyat o’tgan asrning oxiridan boshlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida, jamiyatimizda yangi raqamli avlod yetishib chiqdi. Ular uchun ilg’or texnologiyalardan foydalangan holda smart qurilmalar va gadjetlardan foydalanish, yashash maydonining ajralmas elementlaridan biri bo’lib hisoblana boshlandi. Simsiz tarmoqqa o’tish, smart-terminallarning tarqalishi, Smart qurilmalarning rivojlanishi, mobil ofisning kengayishi jamiyatning yangi sifati bo’la boshladi. Unda insonlar tomonidan texnik vositalar va Internet xizmatlaridan foydalanishning uyg’unlashuvi yangi sifatiy natijalarga olib keladi. Natijada subyektlarning o’zaro ta’siri oqibatida raqamli o’zgarishlar va yangi samaralarni olish imkonini yaratiladi.

Barcha sohalarida aqlli jamiyatning shakllanishi global tendensiya sifatida namoyon bo’lmoqda. Masalan, Gollandiya, Avstraliya va Koreya Smart konsepsiyasini e’lon qilishdi. Gollandiya davlati ta’limni smart texnologiyalar asosida rivojlantirishni milliy g’oya va asosiy siyosiy vazifa sifatida ko’radigan rivojlanish strategiyasini qabul qildi. Ular smart ta’limni rivojlantirish asosida Smart iqtisod va Smart jamiyat tashkil etishni bosh siyosiy vazifa sifatida ko’ra boshlashdi. Avstraliyada esa kuchli aqlli mamlakat strategiyasi ta’lim inqilobi orqali amalga oshirilishi nazarda turilgan. Janubiy Koreya Respublikasida esa Smart Education axborot jamiyatini qurishda asosiy tizimli yechim hisoblanib, u milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashning asosiy usullaridan biri deb qaraladi. Bugungi kunda boshqa ko’plab rivojlangan davlatlar ham aqlli ta’limni rivojlantirish yo’lidan borishmoqda. Yangi Smart Society (aqlli informatsion jamiyat) modeli zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida inson uchun intellektual, yuqori texnologiyali va qulay muhit yaratishni nazarda tutadi.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarni til o’rganish jarayoniga jalb qilish va uning samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanishning real imkoniyatlari mavjud:

Turli xil, ko’rinish va imkoniyatlarga ega bo’lgan raqamli avtotarjimon vositalar, dasturlar va tizimlar;

Global, korporativ va local smart texnologiyalar;

Hozirgi davrda katta tezlik bilan rivojlanayotgan hamda aql bobar qilmagan natijalarga erishayotgan sun’iy intellekt tizimlari;

Wiki-texnologiyalar asosida tashkil qilingan dastur, algoritm va tizimlar.

Smart Learning (Aqlli ta’lim)ni rivojlantirish boyicha YUNESKO tomonidan e’lon qilingan XXI asr ta’limning yetakchi tamoyili hamma uchun ta’lim va butun hayot davomida ta’limni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Aqlli ta’lim istalgan vaqtda, istalgan joyda ta’lim olish imkoniyatini amalga oshiradi. Buning uchun faqatgina xohish va iroda bo’lsagina bas. Bugungi kunda ta’limni rivojlantirishning asosiy pozitsiyasi shu holat bilan bog’liqdirki, endilikda eski

ta’lim tizimi insonlarni Smart jamiyatda ishlashga tayyorlay olmaydi va zamonaviy Smart texnologiyalarsiz innovatsiyalar yaratish hamda information jamiyatga o’tish mumkin emas. Agar ta’lim tizimi rivojlanishning ushbu yo’nalishlaridan orqada qolsa, u holda uning rivojlanishi mumkin bo’lmay qoladi va u stagnatsiyaga uchray boshlaydi. Ta’lim sohasiga nisbatan Smart texnologiyalarning yondoshuvi quyidagilardan iboratdir:

o’quvchilarga bilim yetkazish uchun turli gadjetlar, smartfonlar, planshetlar va boshqa shunga o’xshash qurilmalardan foydalanish.

smart texnologiyalarga integratsiyalashgan intellectual virtual o’quv muhitini shakllantirish vositasi sifatida qarash.

Integratsiyalashgan intellectual ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim va zaruriy sharti shundan iboratki, Smart texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanishi, ularning kundalik hayotga kirib boorish intensivligi va ta’lim tizimining doimiy o’zgaruvchan muammolarga reaksiyasi ma’lum bir intellectual algoritmlarga asoslangan holda hal qilinadi. “Smart Education – Aqlli ta’lim”dan foydalanish va joriy etishning asosiy sababi – mavjud ta’lim tizimini “Smart Economy” va “Smart Society”ning yangi talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratidir. Aqlli ta’limni aqlli axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini zamonaga moslashtirilgan tarzda amalga oshirishni o’z ichiga olgan ta’lim paradigmasi deb hisoblash ham mumkin. Smart Education paradigmasini amalga oshirish o’zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik muhit bilan moslashuvchan o’zaro munosabatda bo’lish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma, va malakalarni egallash boyicha ta’lim va tarbiya jarayonini shakllantirishga qaratilgan. Aqlli ta’limning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun unga global axborot jamiyati imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatini berish kerak. Smart Educationning asosiy tamoyillari esa quyidagilardan iboratdir:

1. ta’lim muammolarini hal qilish uchun ta’lim dasturida zamonaviy dolzarb ma’lumotlardan foydalanish kerakdir, chunki ta’lim va har qanday kasbiy faoliyatda axborot oqimi hajmining tezligi tezkor sur’atlar bilan o’sib bormoqda. Shuning uchun ham mavjud o’quv materiallariga bo’lgan talablarni amaliy masalalarni yechishga qaratgan holda, ularni real vaqt rejimidagi ma’lumotlar bilan to’ldirilib turilishi kerak (virtual laboratoriyalar, bulutli ma’lumotlar, online yoki offlayn ta’lim, qo’shimcha elektron manba’lar va shu kabilar);

2. talabalarning mustaqil kognitiv tadqiqot loyihasini yaratish va uni ilmiy asosda rivojlantirish ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish lozim. Bu tamoyil talabalarni o’z oldiga qo’yilgan vazifalarni hal qilish uchun ijodiy izlanishga, mustaqil ravishda axborot va tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda yo’naltiradi (masalan, onlayn maslahatlar, konsalting, frilanserlik kabilar);

3. taqsimlangan o’quv muhitida turli xil usul va uslubiyatlarni jalb qilgan holda ta’lim jarayonini amalga oshirish talab qilinadi. Ta’lim muhiti ta’lim muassasasi hududi yoki masofaviy ta’lim tizimi bilangina cheklanmasligi kerak -o’quv jarayoni uzluksiz bo’lishi kerak (m-learning, D-learning, B-learning, podkastlar, vebkastlar, bloglar va boshqalar);

4. ta’limni individuallashtirishning moslashuvchan ta’lim traektoriyalari turli xil ko’rinishlarda bo’lishi mumkin, masalan, ta’lim faoliyatining xilma-xil ko’rinishda bo’lishi, o’quvchilarga turli ta’lim dasturlari va kurslarini o’rganish imkoniyati yaratilishi, o’quv jarayonida o’quvchilarning o’z imkoniyatlariga yarasha sog’lig’i, moddiy va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishdata’lim olish uchun uchun keng imkoniyatlarni ta’minlashni talab qiladi (masalan, eksternat ta’lim, inklyuziv ta’lim kabilar).

Bugungi zamonaviy jamiyatda ta’lim olish va yangiliklarni o’rganish nafaqat sinfda, balki, uyda, ishxonada, ta’tilda hamda boshqa hamma joylarda mumkin bo’lib qoldi. Masalan, muzeylar, kottejlar, dachalar yoki kafelar kabi jamoat joylarida ham kerakli bo’lgan bilimlarni olish mumkin bo’ladi. Bu jarayonlar sababli ta’lim jarayoni va o’quvchini bog’laydigan asosiy element faol ta’lim mazmuni bo’lib, uning asosida vaqt va makon chegaralarini olib tashlashga imkon beradigan yagona ma’lumot yoki bilimlar omborlari (information yoki bilimlar bazalari) kabi imkoniyatlarga yo’l ochildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Маркова Ю.Ю. Методика развития умений письменной речи студентов на основе вики-технологии (английский язык, языковой вуз): дис. канд. пед. наук. М.: МГГУ им. М.А. Шолохова, 2011.

2. Сысоев П.В., Евстигнеев М.Н.Технологии Веб 2.0: Социальный сервис вики в обучении иностранному языку // Иностранные языки в школе. 2009. No 5. С. 2–8.

3. Сысоев П.В. Блог-технология в обучении иностранному языку // Язык и культура. 2012. No 4. С. 115–127.

4. https://dzen.ru/a/

O’QITUVCHI-O’QUVCHI HAMKORLIGINI VUJUDGA KELTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Axmedova Mavludaxon Axrorjon qizi - Nizomiy nomidagi TDPU,
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxasissligi
2-kurs magistranti

Anontatsiya: Ma’lumki, ta’limning sifati pedagoglar sifatiga chambarchas bog‘liq. Ta’limning o‘quvchi ma’lumotlarni passiv qabul qilishiga asoslangan an’anaviy modeli zamon talablariga javob bera olmasligi, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, jamoa bo‘lib ishlash, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil o‘zlashtirish singari muhim kompetensiyalarga ega shaxsni tarbiyalay olmasligi tadqiqotlarda isbotlangan.

Kalit so‘zlar:ta’lim,davlat,tarbiya,jamiyat,bilim,ilmiy yondashuv,ilm,fan

Аннотация: Известно, что качество образования тесно связано с качеством педагогов. Традиционная модель обучения, основанная на пассивном получении информации учащимся, не может отвечать требованиям времени, важны критическое и творческое мышление, решение проблем, работа в команде, самостоятельное получение новых знаний и навыков. оно не может обучить человека компетентности.

Ключевые слова: образование, государство, образование, общество, знание, научный подход, наука, наука.

Abstract: The article discusses the pedagogical significance of teacher-student collaboration.

Keywords: pedagogical collaboration, learning environment, planning, goals and objectives, teaching methods, assessment, collaborative activities, behavior, conscious adaptation, knowledge, experience, life skills

Ta’lim jarayonida har bir o‘quvchida mustaqillikka va hamkorlikka intilish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bilimlarni o‘zlashtirish faqatgina mavjud ob’ektiv hodisa sifatida talqin etilishi mumkin emas. Unda o‘z-o‘zini rivojlantirishning bir qator ichki quvvatlari ham ishtirok etadi. U sub’ektivlik belgilariga ham ega. Shaxsiy tajribaga xos bo‘lgan, uning tabiiyligini baholamagan, ilmiyligi, ilmiy-tarixiy ongga zid bo‘lmagan xususiyatidir. U o‘zida muayyan shaxs ongiga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalaydi.

O’qituvchilar maktab amaliyotida axloq tarbiyasida qo’llashi mumkin bo’lgan quyidagi asosiy pedagogik uslub turlari mavjud:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga demokratik yondoshish, tarbiyaviy ishlar natijasini oshkora muhokama qilish va uni o’quvchilar bilan birgalikda baholab, kelgusi rejalarni tuzishni taqozo etadi. Bu uslub pedagog - o’qituvchi - o’quvchilar kollektivi shaxslararo munosabatlarni erkinlik, demokratik talablar asosida shakllantirib, o’kuvchilarning tashabbuskorligi, o’z - o’zini tarbiyalash ishiga ijodiy yondashish orqali barcha psixologik - idividual imkoniyatlarini, qobiliyatini ro’yobga chiqarishga zamin yaratadi.

2. O’quvchilar bilan do’stona munosabat - pedagogik uslub. U o’quvchi shaxsini hurmat qilish va talbchanlik mezoni asosida qurilgan. Ushbu uslub asosida o’z faoliyatini tashkil etgan pedagog har o’quvchining kelajagiga umid bilan qarashi, unga individual yondoshishga harakat qilishi, jazo usullarini tartibsiz qo’llamasligi, o’quvchilar kollektivi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsad qo’yishga intilishi lozim. Aslida bu uslub biz ko’rib o’tgan birinchi uslubga o’tishga zamin tayyorlashi, unga muqaddima bo’lishi mumkin. Aksincha, o’qituvchi ma'lum pedagogik mohiyatga ega bo’lishga intilmasa, o’z fanidan bilimi sayoz bo’lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondoshmasa, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasa o’quvchilar uni "katta birodar", "konsultant" sifatida asta - sekin tan olmay

qo’yishadi. Pedagog o’zining tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi etakchilik rolini yo’qotib, o’quvchilar hurmatini engil yo’l bilan qozonmoqchi bo’lgan bachkana shaxsga aylanib qolishi mumkin.

3. Pedagogik muomala - masofa uslubi. Bundan tajribali pedagoglar ham, faoliyatini endi boshlagan yosh o’qituvchilar ham foydalanishiga harakat qilishlari mumkin. O’qituvchilar asosan pedagogik talabga tayanadilar: o’kuvchilar oldiga ma'lum tarbiyaviy maqsadlarni qo’yib, uni bajarilish jarayonini kuzatish, xatolarini tuzatish, baholash bilan mashg’ul bo’ladilar. Bunday pedagoglar o’qitayotgan sinflarda tarbiyaviy maqsadlar nomigagina amalga oshiriladi; tarbiyaviy tadbirlar o’quvchilarda hatti - harakat motivlari, rivojlanish ehtiyojlarini shakllantirmaydi. Nari borsa, sinf o’quvchilari axloqiy bilimlarni o’zlashtirib olishlari mumkin. Lekin bu xil bilimlar amaliyotda kam qo’llaniladi.

4. Qo’rquvga asoslangan uslub. Bundan odatda yosh,tajribasiz o’qituvchilar foydalanishga harakat qiladilar. Ushbu uslub asosan taqiqlashga tayanadi. Bolalar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Bu uslub maktab islohoti manfaatlariga mutlaqo mos emas.

5. Ustamonliq qilishga harakat qilish uslubi. Uni odatda ma'lum bilimlarga ega bo’lmagan, pedagog sifatida o’ziga ishonchi yo’q, sinfda o’quvchilar kollektivini boshqara olishga ko’zi etmagan ayrim o’qituvchilar qo’llashga harakat qiladilar. Ammo o’kuvchilar ertami - kechmi bu nayrangbozlikning oxiriga etadilar. Buning oldi olinmasa, sinfda tarbiyaviy ishlarga jiddiy putur etishi mumkin. O’quvchilar hurmatini qozonishga intilish pedagogik maqsad bo’libgina qolmay, balki kommunistik tarbiyamaqsadlarini amalga oshirish vositasi hamdir.

O’z - o’zidan ko’rinib turibdiki, birinchi va ikkinchi pedagogik uslublar tarbiyaviy faoliyatda yaxshi samara beradi; uchinchi, to’rtinchi va beshinchi pedagogik uslublardan pedagoglar iloji boricha o’zlarini halos qilishlari kerak.

O’qituvchining talabalarga ta'sir o’tkazish samarasi uning printsipialligi va talabchanligi o’z aksini topadi. Bundan tashqari u o’ziga ham o’ta talabchan bo’lmog’i, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda obru, e'tibor qozonmog’i lozim.

Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida o’qituvchining talabalarga ta'sir o’tkazish natijasida ularda:

- o’z - o’zini va o’zgalarni ho’rmat qilish;
- o’z - o’zini va boshqalar faoliyati, xulqini baholash;
- o’z - o’zini nazorat va o’zgalarni nazorat qilish;
- o’z - o’zini boshqarish (ham bilish faolyaitida, ham xulq atvorda)
- o’z - o’zini takomillashtirish va yangi fazilatlarni egallash shakllanadi.

Do’stona muomala talaba bilan o’qituvchi o’rtasidagi bilimlarni puxta o’zlashtirishni ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qladi. Pedagogik jarayonda sodir bo’ladigan muomala odobi muallimning

axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga o'z kasbiga, o'kuvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namayon bo'lishi mumkin.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala - munosabatlar katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plangan bilimlarni axloqiy tajribani egallab oladi. Muallimlik pedagogik jarayonda etakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlari xulqiga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalr bilan muloqotda bo'ladi.

Bolalar ta'lim tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini o'zlashtiradi. O'quvchi muomala odobini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Pedagoglar jamoasida o'qituvchilar o'rtasidagi muomala munosabatlar insonparvarlik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning qonunlariga (o'qituvchi odobining) asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari, qoidalari, talablari pedagoglar jamosaining fikri asosida boshqariladi. Yoshlarga ta'lim - tarbiya berish bir kishining ishi emas, uning pedagoglar jamoasi bujaradi. Ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun maktab, o'quv yurtining butun jamoasi, hamma o'qituvchilar birlashib harakat qilishlari lozim. Har bir muallimning hatti - harakati, xulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsadi talablariga mos bo'lmog'i kerak. Jamoaning ayrim o'qituvchiga ta'siri pedagoglar jamoasida shakllangan muomala odobi, munosabatlariga bog'liq. Har bir bolaning tarbiyasi uchun mas'uliyatning birligi pedagoglar jamoasining o'quvchiga nisbatan talablari ham bir xil bo'lishini taqozo etadi. Bu o'qituvchi odobining qonuniyatlaridan biridir. Darsda o'quvchilarning intizomi pedagogik jamoadagi muomala odobi, axloqiy munosabatlar darajasini ko'rsatadi. Maktabda o'quv intizomini saqlash butun pedagoglar jamoasining ishi. Pedagoglar jamoasida o'zaro yordam va ishonchning mavjudligi muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasining maqsadga o'qituvchilarning axloqiy saviyasiga bog'liq. Pedagoglar jamoasida o'zaro muomala munosabatlar kollegiallik va yakka boshchilikka, intizomni saqlashga asoslanadi. O'qituvchi o'quvchilarning katta bo'lib qolganligini e'tirof etishmagach, ularning bir qismi o'qituvchilar bilan o'zlarining chinakam qiyofalarini yashirib muomala qila boshlaydilar. Ular ba'zan o'qituvchilarga ma'qul tarzda o'zlarini tutishga intiladilar. Shunday qilib, tarbiyalanuvchilarda moslashuvchanlik va nosamimiylik kabi xususiyatlar shakllannishi uchun zamin yaratiladi. Bu esa o'qituvchining o'quvchilarga ta'sirini qiyinlashtiradi, ularni to'lqinlantirayotgan muomalalarni hal qilishga yordam ko'rsatish, ya'ni homiylik pozitsiyasini ro'yobga chiqarish

imkoniyatidan mahrum etadi. Ilg‘or nazariyalarning amaliy tadbiqi shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning ijtimoiy tajribalari, ular orasidagi hamkorlikka asoslangan do‘stona munosabatlar, buning natijasida o‘quvchilarda shakllangan shaxsiy sifatlar va hattoki ayrim nuqsonlar ham o‘zaro muloqot jarayonining mahsulidir. Ta’lim jarayonidagi ishchan muloqotning muhim vazifalaridan biri – uning samaradorligini ta’minlash bilan bir qatorda, o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning bir-birlarini tushinishlariga erishishdan iboratdir. Ta’lim jarayonidagi o‘zaro hamkorlik natijasida o‘quvchilarning ijtimoiy tajribalari ortadi va ular o‘zlari uchun zarur bo‘lgan insoniy sifatlarni o‘zlashtiradilar.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Ochilova G.O., M usaxonova G.O. Pedagogika. -T.:TD IU , 2005
2. Ibragimov X, Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. T., 2008 yil.
3.Hoshimov K.,Nishonova S. Pedagogika tarixi T., 2015 yil.
4. .Mavlonova R, O.To‘raeva O,.Xoliqberdiev K. Pedagogika darslik. T.,2011 yil.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING NUTQNI TANIB OLISHDAGI AHAMIYATI

Otoboyeva Aziza Shakirovna -*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, “Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, otaboyevaziza@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt tizimlari, texnologiyalari va ularning turlarini paydo bo‘lishi, rivojlanishi va imkoniyatlariga ko‘ra ularni hayotda qo‘llanilishi orqali sun’iy intellekt usullari yordamida o’zbek tili nutqini tanish algoritmlarini va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi o‘zbek tili nutqini tanishning bugungi holati, shuningdek, sun’iy intellektning bu sohadagi o‘rni haqida atroflicha ma’lumot beradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются системы, технологии и их виды искусственного интеллекта в зависимости от их возникновения, развития и потенциального применения в жизни при разработке и внедрении алгоритмов и программного обеспечения распознавания речи на узбекском языке с использованием методов искусственного интеллекта. В нем представлена подробная информация о современном состоянии распознавания узбекской речи, а также о роли искусственного интеллекта в этой области.

Annotation: In this article, artificial intelligence systems, technologies, and their types, according to their emergence, development, and their potential application in life, are discussed in the development and implementation of Uzbek language speech recognition algorithms and software using artificial intelligence methods. It provides detailed information about the current state of Uzbek speech recognition, as well as the role of artificial intelligence in this field.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, texnologiya, axborot texnologiyalari tabiiy til, tabiiy til generatsiyasi, nutq, nutqni tanib olish.

Kirish.

Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi.

Sun’iy intellekt orqali turli xil amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat bo’lib u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi.

Ayni paytda dolzarb bo‘lib hisoblanayotgan sun’iy intellektning texnologiyalari ro‘yxatining birinchi pozisiyasini tabiiy til avlodi egallaydi va mashinalar inson miyasida boshqacha tarzda qayta ishlanadi va muloqot qiladi. Tabiiy tilni yaratish - bu tuzilgan ma’lumotlarni ona tiliga aylantiradigan zamonaviy texnologiya. Albatta o’zbek tilida Mashinalar ma’lumotlarni foydalanuvchiga kerakli bo‘lgan formatga aylantirish uchun algoritmlar bilan modellashtirilgan va dasturlashtirilgan.

Tabiiy til - bu sun’iy intellektning kichik to‘plami u kontentni ishlab chiquvchilarga yetkazib berishga yordam beradi. Kontent ishlab chiquvchilari o’zlarining maqsadli auditoriyaga erishish uchun turli xil ijtimoiy media platformalarida va boshqa media platformalarda reklamalarini targ‘ib qilish uchun avtomatlashtirilgan kontentdan foydalanishlari mumkin. Ma’lumotlar kerakli formatlarga aylantirilishi sababli insonlarning aralashuvi ko’rinarli darajada kamayadi. Ma’lumotlar diagrammalar, grafikalar va boshqalar shaklida ko‘rsatiladi.

Asosiy qisim. Nutqni tanib olish degani - og'zaki tilni yozma yoki mashinada o'qiladigan matnga aylantirish jarayoni, ammo bu jarayon anchagina qiyinchiliklaridan holi emas. Nutqni tanib olishning asosiy muammolaridan ba'zilari urg'u va dialektdagi o'zgarishlar, fon shovqini, cheklangan ma'lumotlar, lug'at va grammatika, semantik taxhlil doirasidagi tafovvutlar, idiomatik iboralar bilan ishlash va lug'atdan tashqari so'zlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va yangi muhitlarga moslashish ham muammoga aylanishi mumkin. Nutqni aniqlashning yanada mustahkam va aniq tizimlarini ishlab chiqishda ushbu muammolarni hisobga olish kerak va bu muammolar bilan shug‘ullanish mutaxassislardan katta tajriba talab etmoqda. O‘zbek tilinig boshqa tillar bilan o‘zaro munisabatida, oddiyroq bir tomonini aytadigan bo‘lsak tillar aro tarjima masalasida katta yutuqlarga erishilishi ko’zda tutilmoqda.

Sun’iy intelektda o‘zbek tili nutqini aniqlashning umumiy ko‘rinishini, ayni paytdagi holati, jumladan, uning tarixi, rivojlanishi va dolzarb muammolari haqida umumiy ma’lumot berish va uning uchun ishlatiladigan zamonaviy modellar va texnikalar, jumladan, an’anaviy usullarga to’xtalib o’tamiz. Nutqni aniqlashda sun'iy intellektning o’rni, uning afzalliklari va cheklovlari, nutqni aniqlash tizimlarining aniqligi va samaradorligini oshirish uchun uni qanday qo'llash

mumkinligi ustida ish ko‘radi va buni nazotar qiladi. Nutqni aniqlash inson va kompyuterning o‘zaro ta’siri o‘rtasidagi ko‘prik desa bo‘ladi. Texnologiya inson nutqini bir necha tillarda taniydi va o‘zgartiradi.

Rivojlanishlar shuni ko‘rsatadikiy, oddiy smatrfonni boshqalaridan ajratib turuvchi xususiyati ham suniy intelektning natijasi ekanligi iPhonening Siri ham nutqni aniqlashning klassik namunasidir. Hozirda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Virtual agent texnologiya deb atalib, o‘quv dizaynerlari uchun qimmatli vositalarga aylaib ulgurdi. Virtual agent - bu odamlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan kompyuter ilovasi. Veb-ilovalar va mobil ilovalar mijozlarga ular bilan hamkorlik qilish va savollariga javob berish uchun xizmat ko‘rsatuvchi agentlar sifatida chat-botlarni taqdim etadi.

Sun’iy neyron tarmoqlarga asoslangan holda ishlaydigan sun’iy intellektning yana bir sohasi Chuqur (kirib borib) o‘rganish hisoblanadi. Ushbu uslub kompyuterlar va mashinalarni xuddi odamlar kabi o‘rganishga o‘rgatadi. "Chuqur" atamasi neyron tarmoqlarda yashirin qatlamlarga ega bo‘lgani uchun yaratilgan. Odatda, neyron tarmoq 2-3 ta yashirin qatlamga ega va maksimal 150 tadan ortiq yashirin qatlamlarga ega bo‘lishi mumkin. Chuqur o‘rganish model va grafik ishlov berish blokini o‘rgatish uchun yirik ma’lumotlarda samarali hisoblanadi. Algoritmlar bashoratli tahlilni avtomatlashtirish iyerarxiyasida ishlaydi. Chuqur o‘rganish yo‘ldoshlardan har qanday mavjud ob’yektlarni aniqlash uchun ayerokosmik va harbiy kabi ko‘plab sohalarda muvaffaqiyat bilan qo‘llanilmoqda, ishchi mashinaga yaqinlashganda xavfli hodisalarni aniqlash orqali ishchilar xavfsizligini yaxshilashga yordam beradi, saraton hujayralarini aniqlashga yordam beradi va bu mashinani tanishga, yaqindan o’rganishni talab qiladi.

Mashinani o‘rganish - bu sun’iy intellekt bo‘limi bo‘lib, u mashinaga dasturlashtirilmagan holda ma’lumotlar to‘plamidan ma’no chiqarish imkonini beradi. Mashinani o‘rganish texnikasi korxonalarga algoritmlar va statistik modellar yordamida amalga oshiriladigan ma’lumotlar tahlili bilan ongli qarorlar qabul qilishga samarali yordam beradi. Yirik-yirik korxonalari uni turli sohalarda qo‘llashdan foyda olish uchun mashinani o‘rganishga katta miqdorda sarmoyalar kiritmoqda. Mashinani o‘rganish - bu mashinaga dasturlashtirilmagan holda ma’lumotlar to‘plamidan ma’no chiqarish imkonini beradi. Mashinani o‘rganish texnikasi korxonalarda algoritmlar va statistik modellar yordamida amalga oshiriladigan ma’lumotlar tahlili bilan ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Korxonalar uni turli sohalarda qo‘llashdan foyda olish uchun mashinani o‘rganishga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. Sog‘liqni saqlash va tibbiyot kasbi kasalliklarni bashorat qilish va samarali davolash uchun bemor ma’lumotlarini tahlil qilish uchun mashinani o‘rganish usullariga muhtojlik, bank va moliya sektori mijozlarga investisiya imkoniyatlarini aniqlash va taklif qilish hamda xavf va firibgarliklarning oldini olish uchun mijozlar ma’lumotlarini tizinli tahlil qilish uchun mashinani o‘rganishga muhtoj. Chakana sotuvchilar mijozlar ma’lumotlarini tahlil qilish orqali mijozlarning xohish-istaklari, iste’molchilar xatti-harakatlari o‘zgarishini bashorat qilish uchun mashinani o‘rganish talab etiladi.

Mashinani o‘rganish - bu sun’iy intellekt bo‘limi bo‘lib, u mashinaga dasturlashtirilmagan holda ma’lumotlar to‘plamidan ma’no chiqarish imkonini beradi. Mashinani o‘rganish texnikasi korxonalarga algoritmlar va statistik modellar yordamida amalga oshiriladigan ma’lumotlar tahlili bilan ongli qarorlar qabul qilishga samarali yordam beradi. Yirik-yirik korxonalari uni turli sohalarda qo‘llashdan foyda olish uchun mashinani o‘rganishga katta miqdorda sarmoyalar kiritmoqda.

Xulosa qiladigan bo ‘lsak, sun’iy intellekt intellektning hisoblash modellarini aks yetadi. Intellektni muammolarini hal qilish, xulosalar chiqarish, tilni qayta ishlash va dasturlashtirilishi mumkin bo‘lgan tuzilmalarni rivojlantirish. Tilllar aro aloqalarni rivojlantirish, davlatlar aro aloqalarni rivojlantirishga qolavessa, insoniyat hayotidagi barcha sohalardagi modellar va operayiv funksiyalar sifatida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklariga erishib ulgurilgan. Sun’iy intellektning ob’yektiv va kelajakdagi maqsadlari insonning barcha murakkab faoliyatini avtomatlashtirish orqali xatolar va noto‘g‘ri qarashlarni bartaraf etishdan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barskiy A. B. Neyronnыye seti: raspoznavaniye, upravleniye, prinyatiye resheniy. M.: Finansы i statistika, 2004y. 176 c.
2. 2. Vasserman F. Neyrokompyuternaya texnika: teoriya i praktika / M.: Mir, 1992y. 105 s.Xaykin S. Neyron tarmoqlari: to‘liq kurs. M.: M.Uilyams, 2005 y. 1104 s.
3. Shmeleva A. Iqtisodiy obyektni aniqlash haqidagi haqiqat. Computerpress. 1998y. № 1. 306-316-betlar.
4. Haffner P., Waibel A. Multi-State Time Delay Neural Networks for Continuous Speech Recognition // Advances in Neural Information Processing Systems. San Mateo: Morgan Kaufmann Publ., 1992y. 579-588

TALABALARDA KASBIY FAOLIYAT UCHUN BILIMGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH PARADIGMASI TAHLILI

Primova Go’zal G’ulomjonovna

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,

Email: primovagozal673@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida talabalarda kasbiy faoliyat uchun bilimga yo‘naltirilgan o‘qitish paradigmasida ta’limning tayanch, asosiy, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o‘tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta’minlash haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Innovatsion faoliyat, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’limning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tafakkur.*

Mamlakatimiz taraqqiyotini ta’minlash uchun bugungi kunda har sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida, shu jumladan, texnika oliy ta’limidagi o‘quv mashg‘ulotlarida axborot-kommunikatsiya va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish va shu asosda tahsil oluvchilarda o‘quv-biluv motivatsiyasini oshirish zarur talabga aylanmoqda.

Bo‘lajak kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorlik va muvofiqlik darajasi, ularning texnika sohasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallaganligi, kundalik ta’lim tizimida yaratuvchilik xususiyatlari bilan, ta’limdagi sifat va samaradorlik bilan belgilanadi.

Bu borada mamlakatimizda bir qator hukumatimiz tomonidan me’yoriy-xuquqiy hujjatlar qabul qilindiki, bularning barchasi yoshlarga bilim egallashga katta imkoniyat yaratib berdi va bo‘lajak mutaxassislarning iqtidorini yanada yorqinroq namoyish qilishga qaratildi. Ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida talabalarning “yaqin zonadan rivojlanish” va ularning refleksiv imkoniyatlarining rivojlanishi, didaktik jarayonlardagi o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Shundan kelib chiqib, biz tadqiqot davomida didaktik jarayonlarni tizimlashtirish pradigmasini keng o‘rganishga qaror qildik.

Texnika oliy ta’lim tashkilotlaridagi o‘qitish jarayonida talabalarda kasbiy faoliyat uchun bilimga yo‘naltirilgan o‘qitish paradigmasida ta’limning tayanch, asosiy, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o‘tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta’minlashga asoslanadi. Mazkur paradigma ta’lim muassasasiga ta’lim oluvchilarning maqbul kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li sifatida qaraladi. Bunda o‘qitish paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi ehtiyojlarga to‘laqonli javob bera oladigan ta’limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;
- ta’lim jarayonida o‘quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko‘ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;
- pedagogik ta’limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya’ni, talabalar tomonidan o‘zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta’minlovchi invariant bilimlarning o‘zlashtirilishiga erishish;
- ta’limning ijtimoiylashuvi – mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, o‘zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta’minlash, talabalarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;
- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish;
- ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g‘oyalariga asoslanish;

- shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;
- shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishida o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;
- ta’limning uzluksizligi, ta’limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta’minlovchi kasbiy ta’lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta’limning u yoki bu bosqichida o‘qitilishi yoki o‘qishni boshqa tipdagi o‘quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;
- ta’limning ekvivalentligi, ya’ni uning davlat ta’lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me’yorlarga muvofiq darajasi.

Texnika oliy ta’lim tashkilotlarida ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o‘zini o‘zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o‘rtacha namuna, standartlashgan) dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo‘q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyali – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo‘ladi. Talabalarda o‘quv-biluv motivatsiyani rivojlantirishning yetakchi determinantasi “ta’lim” oliy ta’lim didaktikasida aniqroq shaklda o‘qitish jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarning shaxsiy rivojlanish darajasi bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bilimli odam nafaqat bilimdon, balki jamiyatdagi shaxsiyat xususiyatlarini juda qadrlaydigan shaxsdir. Ta’lim shaxsga ma’lum bir "inson qiyofasini" berish, shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratib berish sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. Primova G.G. The motivation of student cognition activities. journal of philosophy Readings.org 5281/zenodo. 4915841(276-280)ISSN 2036-4989.

2. Primova G.G. Features use of internet technologies in education Босма International Multidisciplinary Scientific Journal ISSN: 2091-573X Vol. 1 Issue 1, June-2021

3. Primova G.G. Ta’limni raqamlashtirish masalalari aralash va gibrit o‘qitish texnalogiyalari // Ilm sarchashmalari. Urganch davlat Universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2021-yil 10-son

TALABALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TARKIBIY KOMPONENTLARI

Qarshiboyev Nizomiddin Abdumalik o‘g‘li - Jizzax politexnika instituti

“Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasi assistenti E-mail: wolkswagen1991@mail.ru

Annotatsiya: Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o‘rganishning muhim bosqichi talabalar uchun kelajakdagi ishlariga mos vazifalar qo‘yishdir. Boshlang‘ich qismda vazifalarni talabalar sinfda muhokama qiladi hamda muammoli vaziyatlarni aniqlash uchun tekshiriladi.

Kalit so‘zlar: (AKT), kognitiv, kasbiy, ijodiy faoliyat, aksiologik, shaxsiy, sub’ekt, shaxsiy sifatlar, "shaxs bo‘lish" motivlar.

Ular ko‘pincha bo‘lajak muhandislari kasbiy faoliyatining muammoli vazifalari bilan axborot-kommunikatsion texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning yo‘qligidan kelib chiqadi. axborot-kommunikatsion texnologiyalar vazifalarini hal qilish g‘oyasini shakllantirish umumiy loyiha doirasida amalga oshirilishi mumkin. Dastlab, talabalar o‘zlarining maxsus loyihalarini amalga oshiradilar, so‘ngra ularni to‘liq va birlashtirilgan loyihaga aylantiradilar. Loyihani ishlab chiqish, taqdim etish va baholash axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) o‘qituvchisi va ixtisoslashtirilgan fan o‘qituvchilarining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Tavsiya etilgan protsedurani amalga oshirish qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muammosi misolida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Tadqiqotimizda bakalavriat talabalarining axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarining shakllanish darajasini aniqlash uchun bir qator olimlarning dissertatsiya ishlarini tahlil qildik va ularning ishlarida axborot kompetensiyalarining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqladik:

N. G. Vitkovskaya quyidagi komponentlarni taklif qiladi:

1) kognitiv - ma’lumot uchun so‘rov, ma’lumot bilan ishlash; 2) qiymatga asoslangan - axborotga o‘rnatish; 3) refleksiv - kasbiy muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlardan foydalanish; 4) texnologik - axborotni tahlil qilish va umumlashtirish, natijalarni taqdim etish [1].

A.V.Goferberg quyidagi “axborot kompetensiyasi komponentlari”ni ko‘rib chiqdi:

1) motivatsion komponent axborot texnologiyalari bilan ishlashga ijobiy munosabatni o‘rnatadi va kasbiy muammolarni hal qilishda yangi axborot texnologiyalaridan professional tarzda foydalanishga qaratilgan;

2) kognitiv komponent kasbiy faoliyatda yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha bilimlar tizimi bilan ifodalanadi;

3) operativ-harakat komponenti axborotni tahlil qilish va umumlashtirish hamda natijalarni taqdim etishni, shuningdek, kasbiy faoliyatda yangi texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi [2, 32-b.].

G. A. Gareeva quyidagi tarkibiy qismlarni bildiradi:

1) kognitiv tayyorgarlik - AKT sohasidagi bilimlar, axborot-ta’lim muhitida axborot bilan ishlash usullari haqidagi bilim; 2) motivatsion-qiymatli tayyorlik - axborot bilan ishlashga qiziqish, AKTdan foydalanish zarurati, AKT vositasida axborot resurslaridan foydalanishga tayyorgarlik, axborotning qimmatliligini

anglash; 3) texnologik tayyorgarlik - AKT vositalaridan foydalanish qobiliyati, axborotni olish, saqlash, qayta ishlash va uzatish usullarini bilish.

E. M. Zayseva quyidagi "mutaxassislarning axborot kompetensiyasining tuzilishini va tarkibiy qismlarning kombinatsiyasini ochib berdi:

1) *kognitiv,* kasbiy muammolarni ijodiy hal qilish uchun zarur bo‘lgan o‘zlashtirilgan bilimlar tizimini aks ettiradi; 2) *ijodiy faoliyat*, o‘quvchilarning kasbiy faoliyatda o‘zini o‘zi anglash uchun zarur bo‘lgan turli xil faoliyat usullarini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo‘shish; 3) *shaxsiy,* sub’ektning shaxsiy sifatlarida namoyon bo‘ladi, "shaxs bo‘lish" ijtimoiy tartibini amalga oshiradi: ehtiyojlar, motivlar; 4*) aksiologik*, talabalarning qadriyatlar dunyosiga kirishi uchun qulay shart-sharoitlarni amalga oshiriladi.

S.R. Markoulis axborot-kommunikatsiya kompetensiyasining quyidagi komponentlarini taklif etadi:

Talabalarga dars jarayonidagi nazariy va amaliy bilimlarini hayotga tadbiq qilishda virtual laboratoriyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadbiqotlarning rivojlanishiga bevosita hissa qo’shadilar. Bundan tashqari o’sha simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o’z xissalarini qo’shishlari mumkin. Bu o’z o’rnida talabalarni faqatgina “tinglovchi” vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi. Bu esa o’z navbatida talabalarda o’qish va tadqiqotlarga bo’lgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi.

Hozirgi kunda o’quvchilarga dars berishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llashga asoslangan yangi turlari shakllanmoqda. Ular orasida kompyuterda maxsus dasturlar yordamida o’quvchilar tomonidan kuzatilishi qiyin bo’lgan fizik jarayonlarni animatsiyalar, videoroliklar vositasida ko’rgazmali tushuntirish salmoqli ahamiyatga ega. Shuning uchun fizika kursidagi jarayonlarni o’rganish, hamda darslarda qo’llaniladigan qurilmalarni virtual analogini hosil qilish, talabalar ishlashini nazarda tutadigan turli virtual tajriba ishlari yordamida mashg’ulotlarni o’tkazishni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyevning 24. 01. 2020y dagi murojaatnomasi
2. Mirzaxmedov B.M. Fizika o’qitish metodikasi kursidan o’quv eksperimenti. T., O’qituvchi, 1989.

3. Bursian E.V. Zadachi po fizike dlya kompyutera, M., 1991, 357 s
4. https://phet.simulation/bending-light
5. https://phet.colorado.edu/en/simulation/bending-light

RAQAMLI TA'LIM MUXITIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Yangi asr universiteti "Umumta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
Saydimova Mushtariy Kurbondurdiyevna
E-mail: *mushtariy88@mail.ru*

ANNOTATSIYA. Maqolada raqamli texnologiya, bulutli texnologiyalar, ta'limda raqamli texnologiyadan foydalanish, raqamli texnologiyani ta'lim tizimi vostilari, raqamli texnologiyasini ustunliklari, raqamli kompetensiya, narsalar interneti (Internet of Things, IoT), kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR) haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiya, bulutli texnologiya, narsalar interneti (Internet of Things, IoT); kengaytirilgan haqiqat (AR); virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR)

АННОТАЦИЯ. Цифровые технологии, облачные технологии, использование цифровых технологий в образовании, инструменты цифровой системы образования, преимущества цифровых технологий, Интернет вещей (IoT), дополненная реальность (AR), виртуальная реальность (Virtual Reality, VR).

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровые технологии в образовании, облачные технологии, Интернет вещей (IoT); дополненная реальность (AR); виртуальная реальность (Виртуальная реальность, VR).

ANNOTATION. Digital technologies, cloud technologies, the use of digital technologies in education, tools of the digital education system, the advantages of digital technologies, Internet of Things (IoT), augmented reality (AR), virtual reality (VR).

Keywords: digital technologies, digital technologies in education, cloud technologies, Internet of Things (IoT); augmented reality (AR); virtual reality (Virtual reality, VR).


Yurtimizdagi o'zgarishlar bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatori raqamli davrga o'tmoqda va bu bilan bog'liq o'zgarishlar aksariyat hollarda, ishlab chiqarish sohalarida, uy-joy kommunal xo'jaligida, savdo va boshqa sohalarda aniq ko'rinmoqda. Hozirgi kunda biz o'z hayotimizning asosiy qismini virtual dunyoga o'tkazayapmiz: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar va boshqa moslamalar orqli. Axborot resurslarining barcha toifadagi inson hayotiga - yosh bolalardan tortib, katta yoshdagi insonlargacha kirib borganligi – axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikrni shakllantiradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab barcha ta'lim muassasalarini rivojlanishiga hizmat qilmoqda. Raqamlashtirish, o'rganilgan

bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, insonlarga ko‘proq ma’lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini bermoqda. Ta’lim muhitida raqamlashtirish bilan bog‘liq katta o‘zgarishlar yuz berdi.[2]

Elektron ta’lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar qatoriga ta’limga oid muammolarni hal qilish, ta’lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish vositalarini usullari kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta’limdagi o‘rni va ro‘lini anglash zarurati oliy ta’lim metodikasi va didaktikasi sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o‘z aksini topishi kerak. Hozirgi kunda oliy ta’lim integratsiyasida raqamli texnologiylarni qo‘llash muammolari kelgusida rivojlanish strategiyasini va unga yo‘naltirilgan yo‘nalishni tanlash bilan bog‘liq izlanishlarga sabab bo‘ladi. Kelajakda raqobatdosh ta’lim va tadqiqot modeliga o‘tish uchun raqamli transformatsiya dasturi allaqachon ishlab chiqilishi kerakligi aniq.[1]

Pedagogik texnologiyalar talabalarning raqamli ta’lim muhitida texnologiyalardan foydalanishini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga, hamkorlikni rag‘batlantirishga va o‘qitish va o‘rganish amaliyotini yaxshilashga yordam beradi.



Raqamli ta’lim muhitida pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashganda e’tiborga olinadigan asosiy jihatlar:

1. Raqamli kompetensiya: Raqamli kompetentsiya pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining asosiy omili hisoblanadi. O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi, jumladan, ularning ta’limda texnologiyadan foydalanish bo‘yicha pedagogik tushunchalari talabalarning raqamli kompetentsiyasini qo‘llab-quvvatlashda juda muhim

2. O‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy rivojlanishi: O‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy rivojlanishi maktab muhitida raqamli texnologiyalar samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyalari, shaxsiy xususiyatlari va kasbiy rivojlanishi maktabning raqamli salohiyati va transformatsiyasiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillardir

3. Hamkorlikda bilim yaratish: hamkorlikda bilim yaratishga yordam berish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bu asosan juftlik yoki guruh ishlariga asoslangan bilim yaratish uchun texnik ilovalardan ko‘p qirrali foydalanishni, bir darsdan ortiq davom etadigan ochiq topshiriqlarni va ish strategiyalarini modellashtirishni o‘z ichiga oladi

4. Innovatsion raqamli maktab modeli: Innovatsion raqamli maktab modelidan maktablar pedagogik va mehnat amaliyotini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalardan innovatsion usulda foydalanayotganligini tekshirish uchun foydalanish mumkin. Ushbu model tegishli oldingi tadqiqot yondashuvlariga tayanishga urg‘u beradi va maktablarning kundalik amaliyotidan keng ma’lumotlar bilan ma’lumotlarga asoslangan yondashuvdan foydalanadi

5. Qurilma turi: Foydalanilayotgan qurilma turi ham o‘rganishdagi texnologiya samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. Misol uchun, sinfda noutbuk va planshetlardan foydalanadigan talabalar, ishlatmaydiganlarga qaraganda yomonroq natijalarga erishadilar. Biroq, ba’zi texnologiyalar neytralroq va o‘quvchilar faoliyatiga sezilarli ta’sir qilmaydi

Xulosa qilib aytish mumkinki, raqamli ta’lim muhitida pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashuvi puxta rejalashtirish va turli omillarni hisobga olishni talab qiladi. O‘qituvchilarni zarur trening va qo‘llab-quvvatlash bilan ta’minlash, hamkorlikda bilim yaratishga ko‘maklashish va to‘g‘ri raqamli qurilmalar va texnologiyalarni tanlash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saydimova M.K. “Raqamli texnologiyalardan foydalansh” «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli № 7-sonli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi 19.12.2022y. b 249-255.

2. УДК 37.013.77 ББК 88.8 Ц 752 Ц 752 Цифровая образовательная среда в школе: психологические риски и возможности: сборник методических разработок краевого конкурса среди педагогов-психологов Ставропольского края / отв. ред. Боброва И.А., Королькова Ю.В., – Ставрополь: СКИРО ПК и ПРО, 2022 г. – 111 с.р-6

3. M. Butaboyev, A. O’rinov, F. Mulaydinov, Isroiljon Tojimatov. Raqamli iqtisodiyot. “SamDu” nashriyoti - 2021.

4. Облачные технологии в образовании [Электронный ресурс] – URL: http://wiki.vspu.ru/workroom/tehnol/index.

TA’LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: SUN’IY INTELLEKT, AR VA VR TEXNOLOGIYALARINING HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna - TDIU, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti
Shamsiddinov Dilshod Yusupovich - TDIU “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” fakultetiII-75 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ta’limdagi raqamli transformatsiyaning rivojlanayotgan sohasiga e’tibor qaratadi, asosiy e’tibor sun’iy intellekt (AI), kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) kabi ilg‘or texnologiyalarni integratsiyalashuviga qaratadi. Sun’iy intellekt, AR va VR ilovalarining joriy manzarasini chuqur tahlil qilinib, ularni tatbiq etish bilan bog'liq qiyinchiliklar va cheklovlarni ko'rib chiqadi.

Kalit sozlar: Raqamli transformatsiya, Ta'lim texnologiyasi (EdTech), Sun'iy intellekt (AI), Kengaytirilgan reallik (AR), Virtual haqiqat (VR), Shaxsiylashtirilgan ta'lim, Intellektual repetitorlik tizimlari, Interfaol darsliklar, Ta'lim simulyatsiyalari.

Ta'limdagi raqamli inqilob shunchaki yangi vositalarni qabul qilishdan iborat emas, bu pedagogika, qulaylik va ishtirok etishdagi tub o'zgarishlarni ifodalaydi. AI, AR va VR ob'ektivlari orqali o'qituvchilarga an'anaviy o'qitish usullarining cheklovlarini engib o'tish, shaxsiy ehtiyojlar va imtiyozlarga mos keladigan shaxsiylashtirilgan va chuqur o'rganish tajribasini taklif qilish huquqi beriladi.

Ta'limda AI, AR va VRning hozirgi holati va kelajakdagi inson salohiyatini har tomonlama o'rganish uchun zamin yaratadi. Ushbu texnologiyalarning ilovalari, afzalliklari, muammolari va kelajakdagi istiqbollarini o'rganish orqali biz ularning ta'lim kelajagi uchun o'zgartiruvchi ta'sirini ochib berishni maqsad qilganmiz.

Ta'limda AI ilovalariga umumiy nuqtai nazar solsak sun'iy intellekt (AI) ta'limni o'zgartiruvchi kuch sifatida paydo bo'lib, o'qitish va o'rganish tajribasini yaxshilash uchun ko'plab ilovalarni taklif qiladi.

1. AIga asoslangan shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribalari. AI algoritmlari o'quv materiallari va faoliyatini individual ehtiyojlar va o'rganish uslublariga moslashtirish uchun talabalar ma'lumotlarini tahlil qiladi. Moslashuvchan o‘quv platformalari o‘quvchilarga o‘z sur’atlarida o‘sish va diqqatini qiyin sohalarga qaratish imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan ko‘rsatmalar, tezlik va fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun mashina o‘rganishdan foydalanadi.

2. Intellektual repetitorlik tizimlariyakkama-yakka repetitorlik o‘zaro ta’sirini taqlid qilish uchun sun’iy intellektdan foydalanadi, talabalarga moslashtirilgan ta’lim va fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Bu tizimlar o‘quvchining faoliyatiga moslashadi, noto‘g‘ri tushunchalarni aniqlaydi va tushunchalarni o‘zlashtirishni osonlashtiradigan maqsadli tadbirlarni ta’minlaydi.

3. Avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa mexanizmlari sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari baholash jarayonini avtomatlashtiradi, talabalarga o'z

vaqtida va ob'ektiv fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlari yozma javoblarni tahlil qilishi va grammatika, izchillik va mazmun bo'yicha batafsil fikr-mulohazalarni taqdim etishi, o'qituvchilar tomonidan taqdim etilgan fikr-mulohazalarni oshirishi va baholash jarayonini soddalashtirishi mumkin.

Ta'lim kontekstlarida kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyasi raqamli kontentni jismoniy dunyoga joylashtirish, immersiv va interaktiv o‘quv muhitlarini yaratish orqali o‘rganish tajribasini boyitadi.

1.AR ilovalari orqali sinfda o‘rganish tajribasini oshirish. AR ilovalari 3D modellar, animatsiyalar va simulyatsiyalar kabi raqamli tarkibni jismoniy ob'ektlar yoki muhitlarga joylashtirish orqali an'anaviy o'quv materiallarini to'ldiradi. Mavhum kontseptsiyalarni vizualizatsiya qilish va amaliy tadqiqotlarni osonlashtirish orqali AR tushunish va sinf sharoitlarida ishtirok etishni kuchaytiradi.

2. AR bilan ishlaydigan dala sayohatlari va simulyatsiyalar. AR texnologiyasi o'rganishni sinf devorlaridan tashqarida kengaytirib, tarixiy joylar, muzeylar va geografik joylarga virtual sayohat qilish imkonini beradi. AR simulyatsiyalari o'quvchilarga virtual ob'ektlar va muhitlar bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi, aks holda kirish imkoni bo'lmagan tajribaviy o'rganish imkoniyatlarini beradi.

3. Interfaol darsliklar va o‘quv materiallari. AR bilan takomillashtirilgan darsliklar va o‘quv materiallari o‘quvchilarni qiziqtirish va ularning murakkab mavzularni tushunishlarini chuqurlashtirish uchun videolar, viktorinalar va interaktiv diagrammalar kabi interfaol elementlarni o‘z ichiga oladi. Multimedia kontentini bosma materiallarga muammosiz integratsiyalash orqali AR statik resurslarni dinamik o'rganish tajribasiga aylantiradi.

Ta'limda VR texnologiyasini turli ta’lim sohalarida tajribaviy o‘rganish imkonini beruvchi immersiv va interaktiv simulyatsiyalarni yaratadi.

1. VR-dagi immersiv o‘quv muhitlari. VR muhitlari o'quvchilarni uch o'lchovli ob'ektlar va muhitlarni o'rganishi va o'zaro aloqada bo'lishi mumkin bo'lgan virtual olamlarga olib boradi. Tarixiy diqqatga sazovor joylar yoki ilmiy hodisalarga virtual sayohatlar kabi immersiv tajribalar, qiziqish va qiziqishni kuchaytiradi, bu esa o'quvchilarga tushunchalarni misli ko'rilmagan usullarda tasavvur qilish imkonini beradi.

2. Virtual laboratoriyalar va tajribalar. VR texnologiyasi laboratoriya muhitini taqlid qilib, talabalarga xavfsiz va boshqariladigan sharoitda eksperimentlar o‘tkazish va amaliy ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar qimmat yoki xavfli uskunalardan foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va STEM fanlari bo'yicha tajriba o'tkazishga yordam beradi.

3. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun VR-ga asoslangan trening simulyatsiyalari. VR simulyatsiyalari tibbiy muolajalar, muhandislik dizayn muammolari va kasbiy ta'lim mashqlari kabi haqiqiy dunyo stsenariylarini takrorlaydi va chuqur va real ta'lim tajribasini taqdim etadi. Xavfsiz muhitda takroriy

amaliyotga imkon berish orqali VR turli sohalarda ko'nikmalarni egallash va malakani oshiradi.

Sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalarining ta'limga integratsiyalashuvi an'anaviy ta'lim paradigmalarini o'zgartirib, ta'lim natijalarini yaxshilaydigan ko'plab afzallik va imtiyozlarni taqdim etadi.

1.Talabalar o‘rtasida faollik va motivatsiya yaxshilandi. AI, AR va VR texnologiyalari talabalarning qiziqishini o'ziga tortadi va o'quv faoliyatida faol ishtirok etadi. Interfaol va immersiv tajribalar o‘quvchilarning e’tiborini tortadi va qiziqishni uyg‘otadi, bu esa faollik va motivatsiyaning yuqori darajalariga olib keladi. Passiv o'quvchilarni faol ishtirokchilarga aylantirib, ushbu texnologiyalar bilimlarni saqlab qolish va akademik muvaffaqiyatga erishish uchun ijobiy ta'lim muhitini rivojlantiradi.

2.Shaxsiylashtirilgan va interfaol tajribalar orqali yaxshilangan ta’lim natijalari. Sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o‘quv platformalari o‘quv materiallari va mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, afzalliklari va o‘rganish uslublariga moslashtiradi. Moslashuvchan qayta aloqa mexanizmlari tushunchalar va ko'nikmalarni o'zlashtirishni osonlashtiradigan o'z vaqtida yo'l-yo'riq va yordam beradi. Interfaol AR va VR tajribalari amaliy tadqiqotlar va tajribalar o‘tkazish, tushunishni chuqurlashtirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Turli xil ta'lim imtiyozlarini qondirish orqali ushbu texnologiyalar o'rganish tajribasini optimallashtiradi va barcha talabalar uchun ta'lim natijalarini maksimal darajada oshiradi.

3.Boshqa holda kirish mumkin bo‘lmagan o‘quv resurslari va muhitlariga kirish. AR va VR texnologiyalari geografik va logistik to‘siqlarni engib o‘tib, o‘quvchilarga virtual muhitlar va boshqa yo‘llarda erishib bo‘lmaydigan resurslarga kirish imkonini beradi. Tarixiy joylar, ilmiy hodisalar va madaniy yodgorliklarga virtual sayohatlar o‘rganish tajribasini boyitadi va o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar xavfsiz va boshqariladigan sharoitlarda tajriba va izlanishlar o'tkazish, jismoniy jihozlar va resurslarga kirish bilan bog'liq cheklovlarni bartaraf etish imkonini beradi. AIga asoslangan ta'lim platformalari talab bo'yicha moslashtirilgan o'quv materiallari va resurslariga kirishni taklif qiladi, bu esa o'quvchilarga istalgan vaqtda, istalgan joyda, o'z tezligida o'rganish imkonini beradi.

4. Tajribaviy o‘rganish va real dunyo simulyatsiyalari uchun imkoniyatlar. AR va VR simulyatsiyalari o‘quvchilarni real va interaktiv stsenariylarga cho‘mdirib, turli sohalarda tajribaviy o‘rganish imkonini beradi. Tibbiy muolajalar, muhandislik dizayn muammolari va kasbiy tayyorgarlik mashqlari kabi real vaziyatlarning virtual simulyatsiyalari nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadigan amaliy o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Talabalarga nazariy bilimlarni haqiqiy kontekstda qo‘llash imkonini berib, ushbu texnologiyalar mehnatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalarining integratsiyasi ta'limni o'zgartirish uchun bir qator muammolar va cheklovlarni hal qilish kerak.

1. AI, AR va VR texnologiyalarini tatbiq etishda xarajat va qulaylik to‘siqlari:

Ta'lim sharoitlarida AI, AR va VR texnologiyalarini joriy qilish uchun zarur bo'lgan dastlabki investitsiyalar ko'plab muassasalar, ayniqsa moliyaviy resurslari cheklanganlar uchun taqiqlangan bo'lishi mumkin. Uskuna, dasturiy ta'minot va infratuzilmaning narxi, shuningdek, davom etayotgan texnik xizmat ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash keng miqyosda qabul qilish uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bundan tashqari, texnologiyalardan foydalanish va internetga ulanishdagi nomutanosiblik, ayniqsa, kam ta'minlangan jamoalar va rivojlanayotgan hududlarda ta'lim imkoniyatlaridagi tengsizlikni kuchaytiradi.

2. Texnik murakkabliklar va infratuzilmaga qo‘yiladigan talablar:

AI, AR va VR texnologiyalari ko'pincha samarali joylashtirish va texnik xizmat ko'rsatish uchun maxsus apparat, dasturiy ta'minot va texnik tajribani talab qiladi. Mavjud IT tizimlari va infratuzilmasi bilan murakkab integratsiya texnik qiyinchiliklar va muvofiqlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Ta'lim muassasalari ushbu texnologiyalarning uzluksiz joriy etilishi va optimal ishlashini ta'minlash uchun mustahkam infratuzilma va texnik yordamga sarmoya kiritishlari kerak.

3.An’anaviy ta’lim tizimlari va o‘quv dasturlari bilan integratsiya muammolari:

AI, AR va VR texnologiyalarini an’anaviy ta’lim tizimlari va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish manfaatdor tomonlar o‘rtasida puxta rejalashtirish, muvofiqlashtirish va hamkorlikni talab qiladi. O'zgarishlarga qarshilik, xabardorlikning yo'qligi va institutsional inertiya qabul qilish harakatlariga to'sqinlik qilishi va ushbu texnologiyalarni mavjud o'qitish amaliyoti va ish oqimlariga uzluksiz integratsiyalashuviga to'sqinlik qilishi mumkin. Pedagoglar o'zlarining pedagogik yondashuvlarida ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishlari uchun tegishli yordam va treninglar bilan ta'minlanishi kerak.

Texnologiya jadal sur'atlar bilan rivojlanishda davom etar ekan, ta'lim kelajagi o'qitish va o'rganish tajribasini qayta shakllantirishni va'da qiladigan qiziqarli istiqbollar va rivojlanayotgan tendentsiyalarga ega:

1.Ta’lim uchun sun’iy intellekt algoritmlari va mashinani o‘rganish modellarida kutilayotgan yutuqlar:

Sun'iy intellekt sohasi ta'lim dasturlari uchun maxsus mo'ljallangan algoritmlar va mashinani o'rganish modellarida sezilarli yutuqlarga tayyor. Sun'iy intellektga asoslangan moslashuvchan o'quv platformalari talabaning individual ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etish uchun ilg'or tahlil va bashoratli modellashtirishdan foydalangan holda yanada murakkablashadi. Tabiiy tillarni qayta ishlash algoritmlari aqlli repetitorlik tizimlariga yanada nozik va kontekstga mos keladigan fikr-mulohazalarni taqdim etish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning faolligi va tushunishini oshiradi.

2. AR va VR apparat va dasturiy ta’minotidagi potentsial innovatsiyalar:

Kengaytirilgan reallik (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridagi tez o'zgarishlar immersiv va interaktiv ta'lim tajribasi uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Yengil minigarnituralar va taqiladigan qurilmalar kabi AR apparatidagi innovatsiyalar ARni ta’lim maqsadlarida foydalanish uchun qulayroq va ko‘p qirrali qiladi. Xuddi shunday, VR apparat va dasturiy ta'minotidagi takomillashuvlar yanada real simulyatsiyalar va muhitlarni yaratish imkonini beradi, VR-ga asoslangan trening va turli fanlar bo'yicha tajribaviy o'rganish samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt, kengaytirilgan reallik, virtual reallik ta'lim texnologiyalari ekotizimlarida innovatsiyalar va tajribalar o'tkazishga yordam beradi. Blokcheyn texnologiyasi ishonchli va shaffof hisobga olish va sertifikatlash jarayonlarini ta'minlaydi, o'quvchilarga o'z ta'lim yozuvlari va hisob ma'lumotlarini avtonom tarzda boshqarish imkoniyatini beradi. IoT qurilmalari va sensorlari ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni osonlashtiradi, talabalarning xatti-harakati va o'rganish naqshlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

AI, AR va VR texnologiyalarining tarqalishi onlayn va masofaviy ta'lim imkoniyatlarining o'sishiga yordam beradi, bu esa o'quvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan yuqori sifatli ta'lim resurslari va tajribalaridan foydalanish imkonini beradi. Virtual sinf xonalari va hamkorlikdagi o‘quv muhitlari keng tarqalib, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida sinxron va asinxron o‘zaro aloqalarni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adaboyotlar ro`yxati:

1. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., and Freeman, A. (2020). NMC Horizon Report: 2020 Higher Education Edition. The New Media Consortium.

2. Kizilcec, R. F., Pérez-Sanagustín, M., and Maldonado, J. J. (2017). Self-regulated learning strategies predict learner behavior and goal attainment in Massive Open Online Courses. Computers & Education, 104, 18-33.

3. Dede, C. (2009). Immersive interfaces for engagement and learning. Science, 323(5910), 66-69.

4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., and Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in Education. Pearson.

5. Siemens, G. (2013). Learning analytics: The emergence of a discipline. American Behavioral Scientist, 57(10), 1380-1400.

6. Wu, D., Xiang, C., Zuo, W., Li, J., Wang, S., Wang, L., ... & Gao, F. (2021). Enhancing Learning Experience in Virtual Reality through Gamification: A Review. Journal of Educational Computing Research, 59(1), 226-255.

7. Abdullayeva I.M., Shoaxmedova N.X. (2023) Ta’limda sun’iy intellektning imkoniyatlari. O`zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy electron jurnali 4(17)-son statmirror.uz

8. Shoaxmedova N.X., Shamsiddinov D.Y. (2024) Sun'iy intelektning inson hayotidagi o`rni. Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnal 1-son. www.marketingjournal.uz

O'QUV JARAYONIDA MULTIMEDIALI ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI YARATISHDA FOYDALANILADIGAN PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR

Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich -Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi; mirobidsulaymonov@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari va dasturoy ta’minotlar haqida so'z boradi. Hozir kunda barcha soha axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib kelmoqda va ta'limda ham ushbu axborot texnologiyalari vositalaridan unumli foydalanish yo'llarini ko'rib chiqamiz. O’qituvchlar zamon bilan hamnafas bo’lib, zamonaviy qurulmalar va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi kerakligi. Ushbu maqolada o'qituvchilar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan ba'zi dasturiy ta’minotlar va tizimlar to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'quv jarayonida axborot texnologiyalar, Axborot, Kahoot!**:** Tezkor testlar, Platforma, interaktiv muhit.

Аннотация: В данной статье рассказывается о современных средствах информационных технологий и программном обеспечении, используемых в образовательном процессе. Сегодня во всех областях используются инструменты информационных технологий, и мы рассмотрим способы эффективного использования этих инструментов информационных технологий в образовании. Учителя должны идти в ногу со временем и эффективно использовать современную технику и педагогические технологии. В этой статье представлена информация о некоторых программах и системах, которыми учителям необходимо овладеть.

Ключевые слова: Информационные технологии в образовательном процессе, Информация, Kahoot!: Быстрые тесты, Платформа, интерактивная среда.

Annotation: This article describes modern information technology tools and software used in the educational process. Today, information technology tools are used in all fields and we will look at ways to effectively use these information technology tools in education. Teachers must keep up with the times and effectively use modern technology and pedagogical technologies. This article provides information about some of the programs and systems that teachers need to master.

Key words: Information technologies in the educational process, Information, Kahoot!: Quick tests, Platform, interactive environment.

Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri – ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishdir. Muxtaram Prizidendimiz Sh.Mirziyoyev takitlaginidek "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivoji barcha sohalarning jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi, odamlarga qulaylik

yaratadi" va kommunikatsiyalari barcha sohalarni rivojlantirishda muxum o‘rin tutadi shu o‘rinda ta‘limni rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalari qo‘llash ta‘lim sifatini oshiradi va boshqa rivojlangan davlatlar ta‘lim tizimlari bilan raqabotlasha oladigan ta‘lim tizimlarini yaratishga imkon beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda ham ta‘lim taraqiyoti juda tez rivojlanmoqda.

Deyarli xar daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar sodir bo‘lib, xar bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmokda. Axborot oqimi va xajmining ko‘pligi xayotning xar bir laxzasida uyda, ishxona va xatto dam olish vaqtida xam ta’sir etmoqda. [1]

Asosiy qism. Axborot o‘zi nima ekanligini aytadigan bo‘lsak, Axborot lotin tilidan olingan bo‘lib, "informatio" tushuntirish, bayon qilish ma’nosini beradi. Axborot - bu to‘plangan, qayta ishlangan va izohlangan, foydalanish uchun qulay ko‘rishda taqdim etilgan ma‘lumotlardir. O‘quv jarayonida axborotlarni o‘quvchilarga yetkazishda multimediali elektron ta’lim resurslarini foydalanish yuqori samara beradi, buning uchun pedagogik dasturiy vositalarning ko‘plab turli xil funktsiyalarga ega turlari mavjud. Quyida shunday vositalarning ba’zilari keltirib o’tamiz: [2]

Kahoot!: Interaktiv viktorinalar va o‘yinlar yaratish uchun ishlatiladi, bu o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi.

kahoot! ning ta'lim jarayonidagi roli aytadihgan bo‘lsak

O‘quvchilarning motivatsiyani oshirish: Qiziqarli va interaktiv muhit Kahoot! o'yin uslubidagi yondashuvi orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘yin elementlari rag‘batlantiruvchi ballar, raqobat va real vaqtdagi javoblar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

O‘qitishning o‘yinlashtirilgan yondashuvi: O‘yinlashtirish orqali o‘quvchilarni bilim olish jarayoniga jalb etadi va ularda o‘rganish istagini kuchaytiradi. [3]


O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash: Real vaqtdagi mulohazalar Kahoot! o‘qituvchilarga o'quvchilarning darhol fikr-mulohazalarini olish imkonini beradi, bu esa dars jarayonida darhol tahlil qilish va kerakli o'zgarishlarni kiritishga yordam beradi.

Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish: Kahoot! orqali o'tkaziladigan guruh o'yinlari o'quvchilarning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Bilimlarni mustahkamlash va tekshirish: o'**z-o'zini baholash** Kahoot! o'quvchilarga o'z bilimlarini baholash imkonini beradi. Bu jarayon o'quvchilarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Tezkor testlar va so'rovlar: o'qituvchilar Kahoot!ni tezkor testlar va so'rovlar o'tkazish uchun foydalanishi mumkin, bu esa dars oxirida yoki yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Platformaning bu imkoniyatidan foydalanish uchun https://create.kahoot.it manzili

orqali kirilib ro‘yxatdan o‘tib 1-rasmda ko‘rsatilgan maydonchalar to‘ldirilib dars jarayonida o‘quvchilar bilimini bahaolashda foydalanish mumkin.



1-rasm. **Kahoot!:** Platforma interfesi.

Kahoot! ning o'qitish usullariga ta'sirini o'rgangan tadqiqotlar, bu platforma o'qituvchilarga interaktiv va zamonaviy usullar orqali dars o'tishga imkon berishini ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarning darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishiga yordam beradi. O'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish Kahoot! o'quvchilarning jamoaviylik, hamkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham foydali bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Bu platforma orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, guruhda ishlash va tezkor qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Kahoot! Pltformasi ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosida o'rganilgan natijalar, Tadqiqot natijalari bo'yicha o'quvchilar motivatsiyasini oshirishi, o'yinlashtirishning o'quv jarayoniga ta'siri, real vaqtda olingan mulohazalar, jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z-o'zini baholash imkoniyatlari, tezkor testlar va so'rovlar o'tkazish, tadqiqot natijalari, o'qitish usullariga ta'siri, o'quvchilarning kommunikativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishamiz. [4]

Kahoot! ta'lim jarayonida o'quvchilarni jalb qilish, motivatsiyani oshirish va bilimlarni mustahkamlash uchun kuchli vosita sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlar bu platformaning o'qituvchilar va o'quvchilar uchun foydaliligini tasdiqlaydi. Bu vosita interaktiv o'quv muhiti yaratish va o'quv jarayonini qiziqarli qilishda samarali ekanligi ko'rsatmoqda bu platforma o'qituvchilarga o'quv materiallarini interaktiv va qiziqarli tarzda taqdim etish, shuningdek, o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish imkonini beradi. platformaning o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib, turli o'quv maqsadlariga mos ravishda tanlanishi mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [1] Panshin B. Digital economy: features and development trends. Science and innovation,3, 157, 17-20 (2016).
2. [2] I.Q.Ximmatov, M.A.Sulaymonov. Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta’lim-tarbiyaning ahamiyati.

Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqbollari. Xalqaro konferensiya. 02.2024 y.

3. [3] https://namdu.uz/uz/post/1027 Namangan davlat universitet - Yoshlarda internet, virtual axborot madaniyatini shakllantirish - eng muxim vazifa. 01.08.2022

4. [3] Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqbollari.

Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta'limtarbiyaning ahamiyati
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:8k81kl-MbHgC

5. [4] Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:hqOjcs7Dif8C

USING CORPORA DURING LEARNING AND TEACHING FOR PRE-SERVICE TEACHERS

Sultonova Munojat Yunusovna- PhD researcher at Fergana State University msultonova27@gmail.com)

Abstract. Nowadays, there has been a growing concern about the limited use of corpus tools and resources in the classroom, despite continued interest from researchers. This paper argues that focusing on the teacher's role in incorporating corpora into teaching is crucial for increasing its popularity. It is important for future language teachers to be introduced to corpora and concordances during their training as both learners and teachers. The paper will present a study where student teachers were taught how to analyze corpora and incorporate them into their teaching. The reflections and opinions of the student teachers will demonstrate the importance and potential of such training.

Key words: corpora, training, teaching, concordances, incorporating

Аннотация. В настоящее время растет обеспокоенность по поводу ограниченного использования корпусных инструментов и ресурсов в классе, несмотря на постоянный интерес со стороны исследователей. В этой статье утверждается, что сосредоточение внимания на роли учителя во включении корпусов в преподавание имеет решающее значение для повышения его популярности. Будущим учителям языка важно знакомиться с корпусами и конкордансами во время их обучения как в качестве учащихся, так и в качестве учителей. В документе будет представлен практический пример, в котором студентов-преподавателей учили анализировать корпуса и включать их в свое обучение. Размышления и мнения студентов-преподавателей продемонстрируют важность и потенциал такого обучения.

Ключевые слова: корпуса, обучение, преподавание, согласования, включение.

Introduction. The introduction of computers has led to significant changes in the study of language. The way we approach language, how we study it, and what we focus on have all been transformed with the availability of computer technology in the research community. The use of computer systems to store language data and access them through software interfaces has given rise to modern corpus linguistics. This approach focuses on analyzing language data stored in digital format (language corpora) using tools like concordances. Johns (1986) was one of the first to propose using concordances for foreign language learners, calling this method 'data-driven learning' (DDL). He believed that exploring patterns in the target language through computer-generated concordances could be beneficial for students. Johns (1988) emphasized the importance of concordances as a powerful tool for language learners. In recent years, corpus-based language learning has gained attention, with numerous studies exploring the use of corpora in language education.

Recently, there has been growing concern that the passion and dedication seen in academic research in this area are not being translated into actual language teaching methods. Tribble (2000) points out that only a few teachers are incorporating corpora into their classroom instruction. In a subsequent survey conducted in the UK, he found that many of his fellow educators still find information technology, including corpus analysis, to be unfamiliar territory (Tribble, 2001).

Several factors contribute to successfully integrating corpus applications in language classrooms, including the availability of resources and appropriate training for learners. However, it is important to remember that the decision to incorporate corpora into language teaching ultimately rests with the teacher. The teacher plays a significant role in introducing corpus work into the classroom, but this role has often been overlooked. This article focuses on the teacher's role in teaching and learning with corpora, as well as the key factors influencing their decision to implement corpora: motivation, availability of materials, and possessing adequate skills to teach with corpora.

Research on the use of corpora in language learning and teaching has mainly focused on learners. Previous studies have explored topics such as providing corpus resources for learners, training them in corpus consultation, and assessing the effectiveness of hands-on concordance. However, it is crucial for teachers to also have experience in using concordance output if they expect their students to benefit from it. Teachers need a solid understanding of corpus analysis in order to effectively incorporate it into their teaching practices. The question arises as to when and how teachers should acquire this 'corpus literacy' (Mukherjee, 2002). Time constraints have been identified as a significant challenge in popularizing corpus consultation

among teachers (Sultonova M, 2023). Given the complexity of corpus analysis and interpretation, it is suggested that corpus training be included in initial teacher education programs to enable teachers to meaningfully integrate it into their teaching practices.

The surprising lack of emphasis on the teacher's role in utilizing corpora in the classroom is highlighted by Johns (1988), who notes that using corpora requires a shift in the traditional roles of students and teachers. Teachers must adapt to becoming directors and coordinators of student-led research, a change that can be challenging for them to accept. Additionally, teachers, particularly non-native ones, may feel inadequate in guiding learners through corpus analysis as it challenges established norms such as the syllabus and the teacher's authority. These obstacles pose significant challenges to the traditional role of teachers in language classrooms and may hinder the integration of corpora into teaching practices.

The lack of readily available teaching materials based on corpora poses a significant challenge for teachers. While some reference materials like dictionaries and grammars are corpus-driven, direct corpus applications are not commonly included in curricula or textbooks (Barlow & Burdine, 2005). There are some resources available, such as ELT textbooks based on corpora and standalone products with corpus-based activities (Sultonova M, 2023). However, teachers still face challenges in evaluating the appropriateness of these materials for their students' language proficiency level, vocabulary needs, and curriculum integration. Additionally, teachers need to have a good understanding of how to use corpora effectively in the classroom and guide students who may be unfamiliar with this approach. Creating their own materials presents even more challenges, including finding or creating a suitable corpus, learning how to use concordance software, designing meaningful exercises, and developing worksheets.

In order for language teachers to effectively utilize corpora, it is crucial for them to have a strong grasp of corpus analysis. Their lack of confidence in this area may hinder their willingness to incorporate it into their teaching practices. The evaluation of student teachers' tasks revealed that some aspects of Data-Driven Learning (DDL) that are typically seen as beneficial were approached with caution due to concerns about classroom management. The challenges faced by student teachers in creating materials underscore the need for access to pre-made and comprehensive tasks.

References

1.Barlow, M., & Burdine, S. (2005). American phrasal verbs. (CorpusLAB Textbooks). Houston, TX: Athelstan

2.Johns, T. (1986). Micro-concord: A language learner’s research tool. System, 14(2), 151–162.

3. Johns, T. (1988). Whence and whither classroom concordancing? In T. Bongaerts, P. de Haan, S. Lobbe, & H. Wekker (Eds.), Computer applications in language learning (pp. 9–27). Dordrecht: Foris.

4.Mukherjee, J. (2002). Korpuslinguistik und Englischunterricht: Eine Einfu¨hrung. (Sprache im Kontext, Bd. 14). Frankfurt am Main: Peter Lang

5. Sultonova, M. (2023). INGLIZ TILINI O'QITISHDA KORPORADAN FOYDALANISHNI DEDUKTIV VA INDUKTIV METODLARI. *Research and Implementation*. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/899

6.Sultonova, M. (2023). INCORPORATING CORPUS LITERACY SKILLS INTO TEACHING ENGLISH TEACHER TRAINING. *Research and Implementation*. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/900

7. Tribble, C. (2000). Practical uses for language corpora in ELT. In P. Brett & G. Motteram (Eds.), A special interest in computers (pp. 31–41). Whistable, Kent: IATFEL.

8. Tribble, C. (2001). Corpora and language teaching: Adjusting the gaze. Unpublished paper presented at the 22nd ICAME: Future Challenge for Corpus Linguistics, Universite´ Catholique de Louvain, France

SUN'IY INTELLEKT VA UNING IMKONIYATLARI

Azimqulov Sayxun Niyozali o`g`li - Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o`qituvchisi

Anotatsiya. Sun'iy intellektni o'rganish va u haqda ma'lumotlarga ega bo'lish davr talabidir. Bu maqolada sun'iy intellekt va uning imkoniyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar berildi. Aslida uning imkoniyatlari juda ko'pdir.

Kalit so'zlar: intellekt, aql, sun'iy intellekt, sun'iy super intellekt, sun'iy umumiy intellekt.

Intellekt (lotincha intellectus – sezish, idrok etish, anglash, tushunish) yoki aql – psixikaning yangi vaziyatlarga moslasha olish, tajriba asosida o'rganish va eslab qolish qobiliyatidan iborat sifati. Hamda tushunish va mavhum tushunchalarni qo'llash va atrof-muhitniboshqarish uchun o'z bilimlaridan foydalanish.

Aql-idrok – bu insonning barcha kognitiv qobiliyatlarini o'zida mujassam etgan muammolarni o'rganish va hal qilishning umumiy qobiliyati: his qilish, idrok etish, xotira,tasvirlash, fikrlash, tasavvur qilish[2].

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani

yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi.Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi[3]. SIni amalga oshirishning ko'p holatlarida – kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha – chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.

1980-yillarning boshlarida Hisoblash bo'yicha olimlar Barr va Feigenbaum sun'iy intellektning (SI) quyidagi ta'rifini taklif qilishdi:

"Sun'iy intellekt – bu aqlli kompyuter tizimlarini, ya'ni biz an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan imkoniyatlarga ega bo'lgan tizimlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi hamda tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqa muammolarni hal qila olishdir"[4].

Keyinchalik, bir qator algoritmlar va dasturiy ta'minot tizimlari sun'iy intellekt deb atala boshlandi, ularning ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular ba'zi muammolarni hal qilish haqida o'ylayotgan odam kabi hal qila oladi.

Sun'iy intellektning asosiy xususiyatlari tilni tushunish, o'rganish, fikrlash va eng muhimi, harakat qilish qobiliyatidir.

Sun'iy intellekt – bu sifatli va tez rivojlanayotgan tegishli texnologiyalar va jarayonlar majmuasi,masalan:

tabiiy tildagi matnni qayta
ishlashmashinani o'rganish

ekspert tizimlari

virtual agentlar (chatbotlar va virtual yordamchilar)

2021 yilga kelib tadqiqotchilar Sun'iy intellekt turlarining quyidagi tasnifidan foydalanganlar:

Sun'iy Super Intellikt (SSI) gipotetik sun'iy intellekt bo'lib, u nafaqat insonning maksimal qobiliyatlarini takrorlay oladi, balki undan ham oshib ketadi. SSIga ishonuvchilar, u insonni o'z irodasiga bo'ysundirish uchun uning fikrlari va his-tuyg'ulariga kirib borish qudratiga ega bo'lishiga ishonishadi[5].

Shuningdek, gipotetik jihatdan kuchli yoki umumiy SI (Sun'iy umumiy intellekt, SUI) oqilonalik nuqtai nazaridan SSI dan bir pog'ona pastroq bo'lib, ushbu turdagi SI tarafdorlari o'z e'tiqodlarida hech bo'lmaganda ishlashga qodir bo'lgan mashinalarni yaratish imkoniyati bilan cheklangan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, "virtual sohani jadal rivojlantirish" uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi.[6]

Sun’iy intellekt zamonaviylikning muhim tarkibiy qismlaridan biridir

Sun’iy intellektning funksionalligi va bajarish tezligi tufayli yangi tizimlarni yaratish natijasida paydo bo‘lgan raqamli iqtisodiyot paradigmalarini, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish tezlashmoqda.

Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor, takroriy ishlov berish imkoniyatlari va aqlli algoritmlar bilan birlashtirib ishlaydi, bu dasturlarga ma’lumotlardagi naqsh va xususiyatlardan avtomatik ravishda o‘rganish imkonini beradi. Sun’iy intellekt ko‘plab nazariyalar, metodologiyalar va texnologiyalarga ega bo‘lgan murakkab fandir. Uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

Mashinani o‘rganish - bu naqshlarni topish uchun ma’lumotlarga o‘rgatilgan algoritmlarni o‘rganadigan o‘rganish sohasi. U neyron tarmoqlar, statistika, operatsiyalarni o‘rganish va boshqalar usullaridan foydalanadi. ma’lumotlarda yashirin foydali ma’lumotlarni ochish;

ma’lumotlarni qayerdan izlash va qanday xulosalar chiqarishni ko‘rsatuvchi aniq dasturlashtirilgan ko‘rsatmalar mavjud emas[7].

Neyron tarmoq mashinani o‘rganish usullaridan biridir. Bu biologik neyron tarmoqlarni – tirik organizmning nerv hujayralari tarmoqlarini tashkil etish va ishlash printsipi asosida qurilganmatematik model, shuningdek, uning dasturiy yoki apparat ta’minoti[8].

Chuqur o‘rganish ko‘plab neyronlar va qatlamlarga ega bo‘lgan murakkab neyron tarmoqlardan foydalanadi. Ushbu chuqur neyron tarmoqlarni o‘rgatish, shuningdek, ulkan ma’lumotlar to‘plamlarida murakkab naqshlarni aniqlash uchun ortib borayotgan hisoblash quvvati va takomillashtirilgan texnikalar qo‘llaniladi.

Kognitiv hisoblash - bu sun’iy intellektning bir tarmog’i bo‘lib, uning vazifasi odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga o‘xshash odam va kompyuter o‘rtasidagi tabiiy o‘zaro ta’sir jarayonini ta’minlashdir. SI va kognitiv hisoblashning yakuniy maqsadi tegishli javob berish orqali tasvirlar va nutqni talqin qilish orqali kompyuter orqali insonning kognitiv jarayonlariga taqlid qilishdir.

Kompyuterda ko‘rish naqshni aniqlash va tasvir va videoni aniqlash uchun chuqur o‘rganishga tayanadi. Mashinalar allaqachon tasvirlarni qayta ishlash, tahlil qilish va tushunishni, shuningdek, fotosuratlar yoki videolarni olish va atrof-muhitni sharhlashni biladi.

"Sun’iy intellekt" bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi - bu miya ishini tushunishga intilish, inson ongining sirlarini ochish va inson aqlining ma’lum darajasiga ega mashinalar yaratish muammosi. Intellektual jarayonlarni modellashtirishning asosiy imkoniyati shundan kelib chiqadiki, miyaning har qanday funktsiyasi, cheklangan miqdordagi so‘zlardan foydalangan holda qat’iy bir ma’noli semantikaga ega tilda tasvirlangan har qanday aqliy faoliyat printsipial ravishda elektron raqamli kompyuterga o‘tkazilishi mumkin.[9]

Keling, ba’zi natijalarni sarhisob qilaylik. Birinchidan, shuni ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt va siyosatga oid nashrlar sonining ko‘payishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Biroq, ularning aksariyati siyosatshunoslikning markaziy muammolari bilan faqat bilvosita bog’liq. Ushbu mavzu bo‘yicha nashrlar ko‘pincha texnik fanlar, fan va texnologiya falsafasi, raqamli aloqa jurnallari va boshqalar bo‘yicha jurnallarda uchraydi. Yaqin kelajakda siyosatshunoslarning sun’iy intellekt texnologiyalariga qiziqishi sezilarli darajada oshishiga guvoh bo‘lamiz, deyishga barcha asoslar bor. Demak, sun’iy intellekt - bu kelajak fanidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Пантелеева Т.А., Арустамов Э.А., Максаев А.А. Возможности искусственного интеллекта в управлении кадровыми ресурсами в условиях свободного предпринимательства // Интернет-журнал «Отходы и ресурсы», 2019 №3,
2. Камилова Р.Ш. Абдулатипова М.А. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ // Опубликовано в 2013, Выпуск Май 2013, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ
3. Боймуродов, А. Х., & Азимқулов, С. Н. (2021). ТАЪЛИМ САМАРАДАОРЛИГИГА ЭРИШИШДА ТИЗИМДА ИННОВАЦИОН УЛУЛЛАР. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 839-843.
4. АЗИМҚУЛОВ, С. (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ТАШКИЛ КИЛИШДА ҚУЛЛАНИЛАДИГАН ЎҚИТИШ УСУЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ, 2(1), 54-57.
5. Азимқулов, С. Н. (2021). КЛАСТЕРНЫЙ ПОДХОД И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В НАУЧНО- ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 826-861.
6. Azimqulov, S. N. (2020). ZAMONAVIY TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI. ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ, 4(44), 124-126.
7. Boymurodov, A. X., Azimqulov, S. N., & Davlatova, A. R. (2021). ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMI AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1389-1395.
8. S.N. Azimqulov. (2020). Hududiy ta’lim sohasida informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qitish metodikasini klaster usuli yordamida rivojlantirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami, Volume, 3(8), 191-195.
8. Nabijonov, R., Nabiyev, I., & Nabiyeva, M. (2024). АНАЛИЗ РАЗЛИЧИЙ МЕЖДУ НИЗКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫМИ РАБОТНИКАМИ И РОБОТОВ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. Потомки Аль-Фаргани, 1(2), 327–329. извлечено от http://al-fargoniy.uz/index.php/journal/article/view/414

TA’LIMDA SUNÍY INTELLEKT, AR VA VR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USLUBIYATI

AYUPOV R. H.- O’DJTU ZAT kafedrasi professori
PAYAZOV M.M- O’DJTU ZAT kafedrasi dotsenti
SOBIRJONOV R. A. - O’DJTU ZAT kafedrasi katta o’qituvchisi

Sun'iy intellekt (AI), virtual reallik (VR) va to’ldirilgan reallik (AR) texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli sohalarda transformatsion o'zgarishlarga olib keldi va ta'lim sohasi ham bundan istisno emas. Sun'iy intellekt, AR va VR platformalarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish an'anaviy o'qitish tizimida va o'qitish usullarida inqilob qilish, ta'lim jarayonlari va natijalarini yaxshilash uchun innovatsion yechimlarni taklif qilish imkoniyatlariga ega. Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi ta’lim tizimini sun’iy intellekt, AR va VR platformalaridan foydalanish asosida o‘zgartirishning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishdan iborat. Ta'lim odamlarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi, ularga tobora murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan dunyoda harakat qilish imkonini beradi. Biroq, ta'limning an'anaviy yondashuvida ko'pincha o'quvchilarning turli xil o'rganish uslublari, imtiyozlari va ehtiyojlarini hisobga olmaydi. Aynan shu yerda

AI, AR va VR platformalari shaxsiylashtirilgan, moslashtirilgan va optimallashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etish orqali ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ta’limda sun’iy intellekt, AR va VR platformalaridan foydalanishning bir qancha asosiy afzalliklari bor. Birinchidan, bu plarformalardan foydalanish asosida shaxsiylashtirilgan individual ta'lim haqiqatga aylanmoqda, chunki sun'iy intellekt algoritmlari shaxsiylashtirilgan tarkib va tavsiyalarni taqdim etish uchun talabalarning ishlashi, afzalliklari va xatti-harakatlari haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv talabalarga o'z imkoniyatlariga mos ravishda ta’lim olish, ularning qiziqishlari asosida mavzuni chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Ikkinchidan, sun'iy intellektga asoslangan intellektual repetitorlik tizimlari real vaqt rejimida fikr-mulohazalar, tavsiyalar va moslashuvchan baholashni ta'minlashi mumkin. Bu tizimlar o‘quvchilar javoblarini tahlil qilish, ularning zaif tomonlarini aniqlash va maqsadli tadbirlarni taklif qilish uchun mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalanadi, va hu bilan bilim olish samaradorligini oshiradi va akademik muvaffaqiyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt platformalarining avtomatlashtirish imkoniyatlari mavjudligi tufayli ta'lim tizimidagi ma'muriy jarayonlarni sezilarli darajada soddalashtirish mumkin bo’ladi. Bu imkoniyatlardan foydalanish asosida talabalarni o’qishga qabul qilish, rejalashtirish, baholash va ma’lumotlarni tahlil qilish kabi vazifalar samarali hal etilishi mumkin, Bu esa professor-o‘qituvchilarga ma’muriy ishlarga emas, balki o‘qitish va murabbiylikka ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi. Ushbu avtomatlashtirish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki ta'lim muassasalariga o'z vaqtida va ma'lumotlarga asoslangan xolda tegishli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, AI platformalari katta hajmdagi ta'lim ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish orqali hayotiy ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi. Ushbu imkoniyatlar o'qituvchilar va boshqaruvchilarga turli tendentsiyalarni aniqlash, rivojlanishni chamalash va o'qitish strategiyalarini moslashtirish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. AIning analitik imkoniyatlaridan foydalangan holda, ta'lim tizimlari o'quvchilar ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun asosli qarorlar qabul qilish mumkin. Nihoyat, sun'iy intellekt platformalarining virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari bilan integratsiyasi immersiv va interaktiv o'rganish tajribasini beradi. VR va AR simulyatsiyalari real dunyo stsenariylarini qayta yaratishi mumkin, bu esa o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni o‘rganish va simulyatsiyalarni o‘rganish orqali tushunishlarining mohiyatini tushunish imkonini beradi. Ta'limda AI, AR va VR platformalarining imkoniyatlari juda katta bo'lsa-da, hal qilinishi kerak bo'lgan muhim fikrlar va muammolar ham mavjud. Talabalar ma'lumotlaridan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash uchun maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligi kabi axloqiy masalalar ham diqqat bilan ko'rib chiqilishi lozim. Talabalar orasidagi raqamli tafovutni bartaraf etish va mavjud tengsizliklarni kuchaytirmaslik uchun sun'iy intellektga asoslangan ta'lim tizimidan teng foydalanishni ta'minlash ham juda muhimdir. Xulosa qilib

aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt platformalarining ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi ta’limda sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Individuallashtirilgan ta'lim tajribasi, smart ta'lim tizimlari, ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish, real ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda VR va AR texnologiyalarining integratsiyasi orqali o'qitish va o'qitish natijalarini yaxshilash uchun AI ning salohiyatini namoyish etadi. Ta’limda sun’iy intellektni qo‘llash orqali biz o‘quvchilarga ko‘proq yo‘naltirilgan, samarali va optimal ta’lim ekotizimini yaratishimiz mumkin. Ta’limda suníy intellekt, AR va VR texnologiyalarni qo’llash masalasini ilmiy asosda o’rganish uchun foydalanishimiz mumkin bo'lgan amallar ketma-ketligini quyida ko’rsatib o’tamiz:

1. *Ushbu muammo boýicha mavjud adabiyotlarni ko’rib chiqish*. Ta'limda sun'iy intellekt, VR va AR lardan foydalanish bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar, hisobotlar, kitoblar va boshqa tegishli manbalarni o’rganib chiqish asosida AIni ta'limga integratsiya qilishning asosiy tendentsiyalari, muammolari va imkoniyatlarini aniqlash.

2. *Keys tadqiqotlari natijalarini o’rganib chiqish*. Sun'iy intellekt platformalarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan ta'lim muassasalari yoki tizimlar misollari, strategiyalarni, duch kelgan qiyinchiliklarni va erishgan natijalarini o’rganib chish.

3. *Intervyu va so'rovnomalar o’tkazish*: Sun'iy intellekt va ta'lim sohasidagi mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazish. Bunga o'qituvchilar, tadqiqotchilar, siyosatchilar va texnologiya ishlab chiquvchilari kirishi mumkin.

4. *Ko’rib chiqilayotgan masala boýicha nazariy asosni ishlab chiqish*: Natijalarni tahlil qilish uchun nazariy asosni ishlab chiqish. Bunga ta'lim, psixologiya, informatika va boshqa tegishli fanlar nazariyalari kirishi mumkin.

6. *Qiyosiy tahlilni amalga oshirish*. Ta'limda qo'llaniladigan turli xil sun'iy intellekt platformalari va VR hamda AR texnologiyalarini solishtiriladi. Ularning kuchli, zaif tomonlarini va turli ta'lim sharoitlariga mosligi baholanadi.

7. *AI, VR va AR ni ta’limga tadbiq etishning axloqiy va ijtimoiy oqibatlarni ko’ra bilish*. AIni ta'limga kiritishning axloqiy va ijtimoiy oqibatlari o’rganib chiqiladi. Ushbu muammolar turli manfaatdor tomonlarga, jumladan, talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar va siyosatchilarga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ham tadbiq qilinadi.

8. *Kelajakdagi yo'nalishlarni chamalash va tavsiyalar berish*. Tahlillar asosida AI, AR va VR ni ta'limga integratsiya qilishning kelajakdagi yo'nalishlarini taklif qilish mumkin bo’ladi. Mashinaviy o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va moslashtirilgan o'qitish tizimlari kabi yangi texnologiyalar ta'lim kelajagiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ham ko'rib chiqish kerak bo’ladi.

Sun'iy intellekt platformalari, AR va VR dan foydalanish orqali ta'lim tizimini o'zgartirish bo'yicha keng qamrovli va yaxshi tuzilgan tadqiqot ishini tayyorlash mumkin. Quyida keltirilgan to’rt yo’nalishni ta'lim tizimida sun'iy intellekt platformalari, AR va VR dan foydalanish orqali amalga o'zgartirilishi kerak bo’lgan asosiy yo'nalishlar sifatida ko’rsatishimiz mumkin:

1. *Individuallashtirilgan ta'limning rivojlanishi*. AI, VR va AR platformalari o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, afzalliklari va o'rganish uslublariga asoslangan moslashtirilgan kontent va tavsiyalarni taqdim etish orqali talabaga moslashtirilgan ta'limni amalga oshirishga imkon beradi.

2. *Intellektual ta'limning amalga oshirilishi*. AI, VR va AR ga asoslangan o'quv tizimlari o'quvchilarga ularning imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim olishga sharoit yaratib, maqsadli yordam olish imkonini beruvchi shaxsiy tavsiyalar, fikr-mulohazalar va baholashlarni taklif qilishi mumkin.

3. *Ta'lim boshqaruvini avtomatlashtirishga erishish*. AI, VR va AR platformalari ma'muriy vazifalarni soddalashtiradi, jumladan, talabalarning qabuli, rejalashtirish, baholash va ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlarni tahlil qilish, o'qituvchilarning qo'lda bajariladigan ishlari hajmini kamaytirish va ta'limni yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

4. *VR va AR dan samarali foydalanishga erishish*. Sun'iy intellekt platformalari *VR va AR* texnologiyalari bilan birgalikda o'quvchilarga murakkab tushunchalarni real va amaliy tarzda o'zlashtirishga imkon beruvchi immersiv va interaktiv ta'lim tajribasini taklif etadi. Shuni ham ta'kidlash mumkinki, AI, VR va AR sifatli ta'lim olish imkoniyatini oshiradi, o'quv natijalarini yaxshilaydi va talabalar uchun umumiy o'rganish tajribasini optimallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adams, R., Siemens, G., & Chen, D. (2019). Education 2030: A Need for AI in Education Grand Challenge. Journal of Learning Analytics, 6(3), 9-25.
2. Education Commission. (2016). The Learning Generation: Investing in Education for a Changing World. Retrieved from [source link].
3. Jozwiak, W. (2021). Transforming Education: Artificial Intelligence in Schools. Retrieved from [source link].
4. Liu, D. Y., Du, X., & Sun, Y. (2018). Artificial intelligence and its role in the future of education: An exploratory review. IEEE Access, 6, 10721-10730.
5. UNESCO. (2018). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. Retrieved from [source link].

TADBIRKORLIK FAOLIYATI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY USLUBIY JIHATLARI

Mamasoatov Dilshod Ravshanovich

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mamlaktimizda kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni taqozo etadi. Shuni hisobga olgan holda Prezidentimiz

tomonidan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ham tashkil etilgan. Jamg‘arma tomonidan quyidagi keng imkoniyatlar yaratilgan:

qonunchilikka muvofiq, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun yetarli mablag‘lari bo‘lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ustav kapitalida ishtirok etish, keyinchalik Jamg‘arma ulushini mahsulot ishlab chiqarish va eksportga yetkazib berish boshlanganidan so‘ng ikki yil mobaynida bozor qiymatida sotish;

kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari va fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish, mahsulotning dizayn darajasini xalqaro standartlarga yetkazish maqsadida xorijiy mutaxassislarni jalb etish hamda chet elda mahalliy mahsulotga bo‘lgan talabni inobatga olib, ularni tashqi bozorlarga olib chiqish bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini qoplagan holda moliyaviy yordam ko‘rsatish, Jamg‘arma tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatish kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari va fermer xo‘jaliklari tomonidan keyinchalik qaytarish sharti bilan amalga oshiriladi.


Mamlakatimizning eksport salohiyati o‘sishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari alohida o‘rin egallaydi.


Samarqand viloyati bo‘yicha 2022 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- 318,8 mln. AQSh dollari miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi .

- eksportning umumiy hajmidagi ulushi, 45,6 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksportda tovar, xizmatlarning, jami eksport hajmidagi ulushi ham sezilarli darajada oshganligini ko‘rishimiz mumkin(1-rasmga qarang).





1-rasm. Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksportda tovar, xizmatlarning jami eksport hajmidagi ulushi(%)

Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan 2022- yilda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida – 100,0 %, Qo‘shrabot hamda Kattaqo‘rg‘on tumanlarida – 100,0 %, Payariq tumanida – 89,1 %, Oqdaryo tumanida – 82,2 %, Urgut tumanida –78,7 %, Narpay tumanida – 64,4 %, Samarqand tumanida 53,3 % va Ishtixon tumanida – 48,6 %, eng past ko‘rsatkich Nurobod tumanida – 4,5 % ni tashkil etdi. Samarqand viloyatida tadbirkorlik subyektlari eksportida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish uchun internet tarmog‘idan samarali foydalanish zarur. Buning natijasida jumladan:

• Internet tarmog‘ida ma’lumotlar sahifadan-sahifaga tezda o‘tadi. Foydalanuvchilar yordamida Internetga joylashtirilgan axborot bir zumda butun tarmoqqa yoyilishi mumkin.

• Korxona haqidagi ma’lumotlarni zamonaviy usullarda yoritish imkoniyati. Bu sahifa yoki reklama dizaynini yaratish orqali amalga oshiriladi.

• Korxona mijozlari geografiyasi va sonini aniqlash mumkin. Maxsus hisoblagich yordamida qaysi davlat foydalanuvchilari veb-sahifaga tashrif buyurganini ko‘rish mumkin.

Internet yordamida reklamada mijozlar yoshi va toifasini hisobga olish mumkin.

• Internet orqali ixtiyoriy joydan va ixtiyoriy paytda talablar, takliflar va fikr-mulohazalar yuborilishi mumkin.

Xat bir zumda korxona pochta qutisiga tushadi. Internetning barcha foydalanuvchilari sizning mijozingiz bo‘lishi mumkin.

• Internet yordamida marketing tadbirlarini tezda va arzon o‘tkazish mumkin. Bunda so‘rovlarga mijozlarning keng doirasini jalb etish mumkin.

Ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish usullari tavsifini keltiramiz.

1. Elektron reklama va marketingni joriy etish uchun Internetda muloqot qilishning quyidagi texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

• Elektron pochta;

• Bloglar va veb-sahifalar;
• Forum;
• Jamoa tarmog‘i;
• Videokonferensiya.

2.Elektron reklama matnining shrifti, rangi va kattaligi o‘qishga qulay bo‘lishi zarur. Oddiy ranglardan foydalangan ma’qul. Veb-sahifa mazmuni bilan e’tiborni jalb qilgani maqsadga muvofiqdir, chunki kitob mazmuni bilan qiziqarli bo‘lgani kabi, veb-sahifa ham aynan mazmuni bilan foydalanuvchilarga qiziqarli bo‘ladi. Doimo veb-sahifaga yangi ma’lumotlarni joylashtirib, mijozlar e’tiborini tortish mumkin.

3.Elektron reklamada chop etilayotgan rasm korxona faoliyatini ifodalagani ma’qul. Masalan, muhokama, ish jarayoni yoki bayram tantanasida olingan rasmlar qiziqarlidir.

4. Elektron reklamada ovoz berish, savolnomalar yordamida marketing tadbirlarini amalga oshirish mumkin. Buning uchun veb-sahifa va blog, forum, jamoa tarmoqlaridan foydalanish, masalan, yangi mahsulotlarga bo‘lgan talabni o‘rganish yoki xizmat ko‘rsatish sifatini aniqlash mumkin.

5. RSS (Really Simple Syndication) xizmatini tashkil etish mumkin. Ushbu xizmat ixtiyoriy veb-sahifadan avtomat tarzda, RSS sahifadagi o‘zgarishlar haqida ma’lumotlarni olish imkonidir.

6. Elektron reklamada banner odatdagi banner vazifasini bajaradi. U, odatda, kichkina rasm yoki poster bo‘lishi mumkin. Bannerni chertish natijasida banner reklama qiluvchi sahifaga o‘tiladi, masalan, korxona yangi mahsulotlari bannerini veb-sahifasida joylashtirish mumkin. Korxona veb-sahifasi bannerini turli veb-sahifalarda reklama uchun joylashtirish mumkin. Masalan, hamkorlar va ommabop elektron media-mahsulotlarida joylash mumkin. Banner taklifni tasvirlagani maqsadga muvofiq, shunda u mijozlarni o‘ziga jalb etadi.

7.Elektron pochta yordamida korxona axborotnomalarining jo‘natilishini tashkil etish mumkin. Masalan, korxona yangi mahsulotlari hamda xizmatlari, yangi loyihalari, natijalari va foydali tavsiyalarini muntazam ravishda, yaratish va manzillarga yuborish mumkin. Odatda, ushbu axborotnomani olish uchun mijozlar ro‘yxatdan o‘tishi zarur. Bu sizga mijozlar omborini yaratishga yordam beradi. Axborotnomadagi yangi bilim va qiziqarli ma’lumotlar uning mijozlari sonini keskin oshiradi. Ushbu tizimni veb-sahifada, blog yoki jamoa tarmog‘ida o‘rnatish zarur. Shu bilan birga, korxona yangiliklarini hamkorlar yoki ommabop veb-sahifalar axborotnomalarida tarqalishini tashkil qilish mumkin. Ba’zi korxonalar axborotnomalarni tarqatishda hamkorlik qiladilar. Axborotnoma mijozlari odatda, qiziqarli ma’lumotlarni Internet texnologiyalari yor-damida o‘z hamkasblari va do‘stlariga yuboradilar. Bu esa, korxona qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlariga yangi mijozlarni jalb etadi. Axborotnomalar yordamida so‘rovnomalar va tadqiqotlar olib borish mumkin.

8. Videokonferensiyalar, uchrashuvlar yordamida reklama va marketing tadbirlarini doimo olib borish mumkin. Masalan, korxona yangi mahsulotlari

taqdimotiga bag‘ishlangan konferensiya o‘tkazish mumkin. Uni forum yordamida ham o‘tkazish mumkin. Konferensiya va uchrashuvlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ularni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarga amal qiling. Forumni korxona veb-sahifasida o‘rnatish yoki forumlarda korxona bo‘limini ochish mumkin. Masalan, www.businessinfo.uz forumida korxona forumini ochish mumkin. Unda muntazam ravishda, mijozlar va hamkorlar bilan konferensiya, uchrashuv, savolnomalar, virtual qabulxona yaratish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki elektron to‘lovlar bu Internet orqali to‘lovlarni masofadan amalga oshirish imkoniyatidir, ya’ni foydalanuvchi bank bilan muloqotni va pul muomalalarini Internet orqali amalga oshirish. Masalan, korxona Internet do‘konda sotib olingan mahsulot haqini Internet orqali to‘laydi yoki korxona qishloq xo‘jaligi mahsulotlarlarini sotish uchun yoki xizmatlaridan foydalanish uchun to‘lovni Internet orqali bajaradi. Bank bilan muloqot bank veb-sahifasi orqali amalga oshiriladi. Muloqotni va to‘lovlarni amalga oshirish uchun bank veb-sahifasida maxsus xizmat bo‘lishi zarur. Odatda, ushbu xizmatdan foydalanish uchun ruxsatni bank ofisida olish mumkin. Bank veb-sahifasida foydalanuvchi shaxsiy kabineti orqali to‘lovlarni amalga oshirishi yoki hisobidagi to‘lovlar bilan tanishishi mumkin. Elektron hamyondan dunyoning ixtiyoriy nuqtasida foydalanish va to‘lovlarni amalga oshirish mumkin. Yana bir afzalligi to‘lov bir zumda amalga oshiriladi.

UCHINCHI RENESSANSNI BARPO ETISHDA YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

Nu’monjonova Malika Nasimjon qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar (Ingliz tili) fakulteti talabasi, malikanumonjonova505@gmail.com

Annotatsiya: Barcha zamonlarda mamlakat kelajagi yoshlar uchun bo‘lib kelgan. Taraqqiyot va rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari - bu doimo yoshlardir. Davlat ularga har qanday sharoitda har qanday sinovlar davrida tayanib kelgan. Sababi, bu yosh, jismonan va ma’nan sog'lom insonlar yangi , zamonaviy va mustahkam binolar qurdilar, hozirgi globallashuv zamon darajasidagi ixtiro, kashfiyotlar yaratishdi va ularni hayotga tadbiq etishdi. Bu jarayonda yoshi katta avlodning vazifasi yoshlarga ushbu shiddatli va murakkab dunyoda o'zlarining munosib o'rnini topishga yordam berish, o'zlarini imkon qadar anglab olishga ko'maklashishdir. Ushbu maqolada yoshlarning salohiyati, keng imkoniyatlari, kelajakda qilinadigan ishlar va vazifalarning samarasi haqida kichik izlanishlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, siyosat, masuliyat, taraqqiyot, oila, jamiyat, islohotlar, ijtimoiy faollik.

Аннотация: Будущее страны всегда за молодежью пришел. Движущими силами прогресса и развития являются всегда молоды. Государство

полагалось на них при любых обстоятельствах и во все трудные времена. Причина в том, что эти молодые, физически и психически здоровые люди строили новые, современные и прочные здания, создавали изобретения и открытия на уровне нынешней эпохи глобализации и применяли их на практике. В этом процессе задача старшего поколения – помочь молодым людям найти свое достойное место в этом напряженном и сложном мире, помочь им максимально реализовать себя. В этой статье было проведено небольшое исследование о сильной разнице между первой и третьей молодежью Возрождения, а также о потенциале, широких возможностях и эффекте будущей работы молодежи третьего Возрождения.

Ключевые слова: Молодежь, политика, ответственность, развитие, семья, общество, реформы, социальная активность.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk avlodni ulg‘aytirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan islohotlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishlari uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganligini davrning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va ularni amalda tatbiq etish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonida har jabhada yoshlar faolligini oshirishva ularni munosib rag‘batlantirish vazifalari belgilandi.

Unda yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashi, ularning bandligini ta’minlash, ilmiy va badiiy kitoblarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, “ommaviy madaniyat” va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish, yoshlarni ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga jalb etish, xalq mafaatlari yo‘lida sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli va fidoyi yosh tashabbuskor rahbar kadrlarni tarbiyalash kabi masalalar keng yoritilgan.

Buyuk yunon tarixchisi Gerodot o‘zining Sharq bo‘ylab safari davomida Misr ehromlaridagi bir bitik uni hayron qoldirgan: “Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilmoq kerak?!” Tarixchi ushbu yozuvni o‘qiganiga ham ikki ming yildan ko‘proq vaqt bo‘ldi. Yozuvning bitilgani sanasi to‘g‘risida aniq ma’lumot keltirilmagan. Bundan shuni ko‘rishimiz mumkinki, yoshlar masalasi hamisha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, bu masalaga turli zamonlarda har xil fikrlar bildirib kelingan.

Ulug‘ marifatparvar alloma Mahmudxo‘ja Behbudiy ham yoshlarga murojaatnomasida, shunday yozadi: “....Ushbu taraqqiy etgan zamonda ilmsiz,

marifatsiz, quruq tasavvur bilan yashab bo‘lmaydi. Hozirgi zamonaviy taraqqiyot va rivojlanish shunday kuchli bo‘lmoqdaki, ozgina fursat o‘tar-o‘tmas quruq va chirigan taassublarimizni ildizi bilan qo‘porib tashlaydi. Shuning uchun barcha yoshlarimiz bu borada bir narsaga tayanishlari mumkin. Bu narsa ilm-u marifatdir”. degan ajoyib ibratli so‘zni aytib o‘tganlar.

Yoshlar ongini chalg‘itish ularni fikrlarini yot tarafga o‘zgartirish uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrda yuksak manaviyat, odob-axloq masalasiga e’tiborni ko‘proq qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Ushbu jarayonda, ayniqsa, yoshlarni, etibordan chetda qoldirmaslik juda ham zarur. Vaqt, imkoniyat boy berilsa, keyin kech bo‘lishi turgan gap. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganlar: “Vatan bizning valine’matimiz va murabbiyimizdir, xar bir valine’mat va murabbiyga xizmat qilish lozim, bas, Vatanga xizmat burchdir” deganlar.

Yoshlarda internetda olayotgan axborotlariga tanqidiy yondashishi va ularning ishonchli manbalar asosida o‘z dunyoqarashlarini kengaytirishlari, ularning zararli ma’lumotlarni inkor eta bilish idrokini hosil qilish g‘oyat muhim hisoblanadi. Har bir yosh ma’lum bir ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishi, shiddatli zamonda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga befarq bo‘lmasligi zarur. Bu ishni birinchidan, o‘zining taqdiri, kelajagi oldidagi ma’suliyati deb bilsa, ikkinchidan, Vatani va xalqi oldidagi burchi sifatida tushunmog‘i kerak. Shuning uchun ham yoshlar bugungi kunda yurtimizda hukm surib turgan tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetib, bu ne’matni o‘z ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylash yo‘lida tinmay o‘qish va izlanishda bo‘lishlari lozim. Yoshlardan doim ogohlik va hushyorlik qolaversa, ziyrak bo‘lish ham talab etiladi.

Buyuk marifatparvar bobomiz Yusuf Xos Hojib shunday deganlar: “Yoshlikni qadriga yeting, u bir kuni shaksiz sizdan ketadi, uni qanchalik qattiq tutmang, bir kuni sizdan qochadi.” Odam bolasi dunyoga shunchaki emas, balki hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, “komillikka, ezgu niyat va maqsadlarga erishish, atrofidagi odamlar, yaqinlari, do‘stlari ta’sirida kamolot cho‘qqilarini birma-bir zabt etish uchun keladi. Ma’nan boy, jismonan sog‘lom va axloqan pok bo‘lib borgani sari uning oilasi, manzil – makoni ham go‘zallashib, hayoti fayzliva ma’no-mazmunga boy kechadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda eng muhim va dolzarb vazifalardan biri shuki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni rostgo‘ylik, hayo, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik kabi diniy-milliy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tarbyalash, ular qalbida o‘z xalqi, millati va Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish, ularni turli-tuman yot g‘oyak va qarashlardan, buzg‘unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilish kabilardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 5106-son farmon.

2. A.Miravaz o„g„li “Tarbiyaning oltin kaliti yoxud yuldagi belgilar” kitobi.

3. “Oyna” jurnali, 1914-yil 41-son.

4. Yahyo Muhammad Amin, “Iternetdagi tahdidlardan himoya asari” Toshkent Movarounnahr, 2016.

5. Is’hoqjon Muhammadjon O‘g‘li, “Talim va Tarbiya asari” Toshkent: Hilol Nashr 2018.

6. Kel Nyuport, “Diqqat asari” Ingiliz tilidan Sojida Samandarova tarjimasi, Toshkent: “Ofset-print” MChJ, “Nihol nashiryoti, 2020.

7. Akmal Miravaz o‘g‘li, Tarbiyaning oltin kaliti yohud yo‘ldagi belgilar” Toshkent: Movarounnahr, 2020.

ASPECTS OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION

M.YU.DOSHCHNOVA, D.A.AYUPOVA, R.R.ALIYEV

The use of artificial intelligence in the educational process can be one of the solutions to overcome the problems associated with modern education and increase the effectiveness of the educational process. Artificial intelligence can be used in education to solve various tasks, but they are all conditionally divided into the following categories:

1. Personalization of learning - AI solves the problem of tailoring learning to the needs of each student. AI systems can analyze student data and suggest personalized learning paths based on their knowledge level, interests and abilities.

2. Knowledge Assessment - AI helps in assessing students' knowledge using data analysis and machine learning algorithms. This can improve the accuracy and objectivity of the assessment.

3. Support teachers and automate routine tasks - AI supports teachers in their work tasks, such as creating tests, developing educational materials and managing educational processes.

4. Performance Prediction - AI can be used to predict student performance based on their learning and behavior data.

5. Fostering Creativity and Innovation - AI can help develop students' creativity and innovation by creating an environment for experimentation and exploration of new ideas.

6. Improving accessibility to education - AI can help improve accessibility to education for people with disabilities, for example, through automatic reading and writing systems for the visually impaired or translation systems for the deaf, etc. This category also relates to improving the quality of distance learning.

7. Development of new forms of learning - AI can help create new forms of learning, for example, through virtual classrooms, interactive learning programs, etc., which can make learning more interesting and effective [1].

Let us briefly describe the tools and technologies existing on the market. Below are a few examples of foreign products and tools that use artificial intelligence to personalize learning and adapt to the knowledge level of each student:

- Smart Sparrow is a proprietary platform for creating personalized online courses using AI.
- DreamBox Learning is an online platform with over 2,000 math assignments that uses AI to tailor assignments to each student's level of knowledge.
- Querium is an app that provides interactive science and math lessons and assignments that uses AI to improve students' skills.

In addition, there are several interesting examples of the use of artificial intelligence in education:

- Skyeng is an online English language school that uses AI to personalize the learning experience for each student.
- “Smart Class” - a system of personalized training courses. This system uses AI to analyze employees' knowledge and provides them with customized assignments and training materials.
- SberClass is an educational platform that uses AI to personalize learning and approach to each student.
- Yandex.Textbook is a free service from the Yandex company that helps students study school subjects using AI technologies.

It is necessary to consider the ethical and social aspects of the use of AI in education and the possible consequences of introducing AI into the learning process. Assessments may become more objective with the use of AI, but this may lead to a loss of personality and social interaction in the educational environment. Each aspect has its advantages and disadvantages, and to achieve the best results, it is necessary to balance between the use of AI and traditional teaching methods [2]. Below are the main aspects in which traditional education and education based on the use of artificial intelligence can be compared (Table 1).

Table 1

Aspects of introducing AI into the educational process

Aspects	Traditional education	Education using AI
Personalization	Limited by the ability of the teacher to take into account the needs of each student	Using AI for adaptive learning that takes into account the individual needs and level of knowledge of each student

Knowledge to order	No opportunity to get additional help outside of class	Using AI to detect gaps in students' knowledge and provide customized materials
Performance assessment	Grades may be subjective and do not reflect the student's actual level of knowledge	Using AI to objectively assess students' knowledge based on their learning data
Loss of identity	A teacher should be a leader and mentor, but AI can replace him	The use of AI may lead to a loss of personality and individuality in learning
Lack of social interaction	Students may lose opportunities to interact with their peers	The use of AI may lead to a lack of social interaction between students
Programming errors	Errors can lead to incorrect assessment of students' knowledge	Errors in AI programming can lead to incorrect assessment of students' knowledge and affect their learning

Let's analyze the main risks and problems of widespread implementation of AI in education. Despite the many benefits, implementing AI in education also comes with risks and challenges. Some of them include:

- loss of jobs - one of the main risks of introducing AI into education is the loss of jobs. Automation of processes will lead to job losses in the education sector.

- lack of transparency and accountability - another risk associated with the injection of AI into education is the lack of transparency and accountability. Using AI in decision making can lead to a lack of transparency and accountability. It is possible that the decisions made by AI will be difficult to explain to people, which may cause mistrust on the part of students and teachers. This can lead to decreased trust in educational institutions and a decrease in the quality of education.

- distortions in data - if the data on which the AI operates contains errors or is not balanced, this can lead to errors in its work and distortion of the results. This could negatively impact the effectiveness of AI in education.

- the need to teach new skills to teachers and students - teachers and students will be required to learn new skills. Teachers must learn skills in working with AI systems, such as analyzing data and using AI tools to create new courses. Students may need training in skills to work with AI systems. However, not all teachers and students may be ready for such training, which can lead to uneven access to education and unequal distribution of knowledge [3].

- changing the role of teachers - with the introduction of AI in education, the role of teachers will be more of an advisory nature. They must learn how to work with AI systems so that they can use it as a tool to improve their courses.

- data protection - the introduction of AI in education requires data protection. Educational institutions must take steps to protect data and ensure privacy. Training-related data can be sensitive and must be protected from data theft or unauthorized access. In addition, it is necessary to ensure that the data is used only for educational purposes and is not shared with third parties without the consent of the students.

- the need for qualified specialists to configure AI - the introduction of AI in education requires the availability of qualified specialists who can configure and maintain AI systems. Educational institutions must ensure the availability of such specialists to ensure the effectiveness of AI systems. Not all educational institutions have the ability to hire qualified specialists, which can lead to an uneven distribution of knowledge and access to education.

- loss of the human factor in education - the introduction of AI in education can lead to the loss of the human factor in education. Interaction with AI systems may not replace meaningful communication with teachers and other students. This can lead to decreased student motivation and a deterioration in the quality of education.

In conclusion, it should be noted that in order to ensure the effective operation of AI systems, educational institutions must be ready to use them and have the necessary resources. It must be taken into account that the human factor is important in education, and it is necessary to maintain social interaction between students and teachers. It is also important to ensure data protection and responsibility for decisions made. At the same time, the introduction of AI in education can be considered as an opportunity to expand the capabilities of the educational process. Artificial intelligence can help educators analyze large amounts of data, determine individual student needs, and develop personalized educational programs. AI can also make it easier to assess students' knowledge and help them prepare for exams. The use of artificial intelligence (AI) technology in education leads to a significant improvement in the quality of learning. Finally, the introduction of AI in education can help reduce training costs and increase the efficiency of the learning process. However, when introducing AI into education, it is necessary to consider the risks and challenges associated with its use. The main risks are violation of data protection and the possibility of errors in decisions made.

It is important to ensure not only data protection, but also responsibility for decisions made. In addition, it is necessary to consider possible resistance from teachers and students who may fear that AI will replace the human element in education.

Literature:

1. Nishanov A. H., Doshchanova M. Y., Mirzaev D. A. Methods of indistinct regulation in management problems educational process //Открытые семантические технологии проектирования интеллектуальных систем. – 2015. – №. 5. – P. 365-368.

2. Babamukhamedova M. Z., Doshchanova M. Y., Djangazova K. A. Intellectual means of automation of management of training //Открытые

семантические технологии проектирования интеллектуальных систем. – 2015. – №. 5. – С. 369-373.

3. Doshanova M. Y. et al. The importance of software products in educational system such as test answer sheet recognition and inspector //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 4-3. – С. 6-8.

APPLICATION OF END-TO-END TECHNOLOGIES IN EDUCATION

M.YU.DOSHCHNOVA, D.A.AYUPOVA, D.D. ISOQOV

Recently, specialists from various fields of activity have been paying attention to changes in the development of end-to-end technologies. Financing of end-to-end technologies occurs in accordance with the national program “Digital Technologies”. Vocational education is the link responsible for training personnel for the digital economy and the use of end-to-end technologies [1].

It is believed that end-to-end technologies simultaneously affect several scientific and technical industries or their areas. In the context of the national program “Digital Technologies,” nine areas for the development of end-to-end technologies are identified. Their list includes:

- Artificial intelligence;
- Robotics;
- Sensory;
- Big Data;
- Distribution registry systems;
- Neurotechnology;
- Wireless connection;
- Quantum technologies;
- New production technologies;
- Virtual and additional reality systems.

One of the most interesting and promising end-to-end technologies in the field of education is virtual reality. This industry appeared in the 20th century, and since then it has experienced a significant leap forward [2, 7]. The path of its development has been formed for more than half a century, and at the moment the following methodology for the operation of the VR system has been identified:

1. Artificial intelligence creates an image (sound, 3D images).
2. The created image has a certain effect on a person.
3. Special sensors on the user’s body record his reaction, including actions that change the position of the person’s body, and transmit this data to the “core” of the system.
4. Virtual reality adapts to the person, having the data that was transmitted.

At the moment, VR system technologies are in great demand, since a person is presented with a complete picture of the world, corresponding to reality and adaptable to everyone. Thus, VR evokes a feeling of complete immersion in the

virtual world, as if in reality. This is facilitated by the use of specialized equipment: helmet, virtual reality glasses. With this help, a person can "find himself" anywhere in the world and study the most complex information using a clear example. As a result, learning will be more effective, and in addition to this, horizons will develop [3].

There are the following types of virtual reality: Classical (VR-virtual Reality); Augmented (AR-Amenden Reality); Mixed (MR-Mixed Reality).

Using the classic view, synthesized digital content is considered, divorced from reality and in no way connected with it. Augmented virtual reality superimposes computer information onto a picture of the real world. Mixed virtual reality is connected with real reality and includes it, combines the real world and the world that once existed, but remains only in the computer version. An example is a prehistoric forest that existed several centuries ago. In mixed VR, a person can "walk" through a given forest.

Another of the newly introduced end-to-end technologies is robotics. Robotics is an applied science that is responsible for the design, production and automation of technical systems - robots. A robot is a mechanical object that is capable of performing tasks and interacting with the environment without human assistance. This type of technology is developing rapidly in our time, and sensor technology, which is responsible for the sensors in the robot mechanism, is also developing together with it. It develops sensors that convey information about the robot and its physical environment. There are a huge number of sensors: from sensors of mechanical quantities (different displacement vectors - angular and linear, measurements of distance, forces and moments, acceleration) to technical vision systems, radioactive and magnetic fields, temperature, current and voltage meters, acoustic sensors and others. Thanks to sensors, the robot can interact with the external environment without human assistance.

Robotics is necessary for several areas in the field of education: inclusive education, computer education (using new technologies), developmental field of education [6].

On the part of inclusive education, robots are used as a way to be present in a particular place. They have a screen that transmits a person's image, their emotions, and also a microphone so that they can communicate and interact to feel completely present in a particular place. This is necessary for people who cannot get to where they need to be to get the education they need.

Education using new technologies promotes robots to work instead of teachers. Nowadays, there are not enough qualified teachers to teach the large new generation. Robots can solve this problem, although not completely. For children, this is an interesting solution to involve them in the learning process, and students will also quickly learn to work in the field of modern technologies and from the very beginning will clearly understand the standard work of robotics [8].

Robots also play an important role in the development of certain skills. Today, LEGO and Arduino educational kits for robotics are widely known. They develop

students' creativity and imagination, scientific interest in technology, teamwork skills, and skills in finding non-standard solutions. Robots are the future of education, training and upbringing of the new generation.

Blockchain is considered a relatively new end-to-end technology. This industry has already integrated into the financial sector. Blockchain is an extensive database operating according to certain rules, which is a chain of blocks that contain information. In other words, this is a chain of blocks of information following each other, which cannot simply be swapped or changed. Any changes in the content are tracked, each block has a unique code, and if something changes in it, the code itself changes, and subsequent blocks become invalid because of this. There is no leadership in this system; data verification is carried out by a certain group of users - miners. They confirm the authenticity of information and form blocks from it. This stands out as an advantage, since when transferring documents or any valuable information, there is always a link that determines their authenticity. In this case, this is not required, and therefore the system operates "without third parties."

This industry can be actively used in the educational field: the ability to store portfolios, certificates, diplomas and other documents in one place. It can also be used to create distance courses from educational institutions.

3D printing is one of the additive technologies that has existed for quite some time and is being successfully introduced into the field of education. 3D printing is the process of converting digital data into physical objects by layering a polymer that then hardens into a plastic product. This technology thus allows the creation of prototypes of physical objects. The use of 3D printing during training develops imaginative thinking among students, increases their interest in the learning process, and also allows them to see the result of their work in a short time. In addition to this, the student sees all his design errors at once and can draw conclusions about his work. This end-to-end technology ensures effective training for students in practice, where entire projects with all their flaws are clearly visible. In addition, not all educational institutions have the opportunity to train students in practice, but it is quite easy to purchase a 3D printer, as well as learn how to operate it, which is a significant advantage.

Cross-cutting technologies are an integral part of the development of vocational education. Many countries have already achieved some success in this, since they began the development of end-to-end technologies earlier. The period of distance learning during restrictions showed that society is just beginning to adapt to new technologies, and we are at the beginning of the path of digitalization of education. But the dynamics of development of end-to-end technologies is gaining momentum every year. Our country is aimed at developing end-to-end technologies, which by 2030 plans to take a leading position in the technological field and enter the top 10 countries in terms of the number of professionals involved in research and development.

Literature:

1. Markova, S.M. Forecasting the development of professional education / S.M. Markova, S.A. Tsyplakova, E.P. Sedykx, A.V. Khizhnaya, O.N. Filatova // The 21st Century from the Positions of Modern Science: Intellectual, Digital and Innovative Aspects. – Cham, 2020. – P. 452-459

2. Markova, S.M. University modernization in the conditions of industrialization of production and intelligent machines /S.M. Markova, S.A. Tsyplakova, E.P. Sedykx, O.N. Filatova, A.V. Khizhnaya // Lecture Notes in Networks and Systems. 2021. – T. 200. – P. 940-947

3. Petrov, Y.N. Change of the Level of Working Capacity of a Student in the System of Professional Education Under Mental Load / Y.N. Petrov, A.Y. Petrov, N.S. Petrova, N.V. Syrova, O.N. Filatova // Lecture Notes in Networks and Systems. 2020. – T. 129. – P. 925-932

4. Steven M. LaValle. VIRTUAL REALITY, University of Illinois, Cambridge University Press, Copyright Steven M. LaValle, 2017, URL:http://vr.cs.uiuc.edu

5. Gordon Wetzstein. A personalized VR/AR system that adapts to the user is crucial to deliver the best possible experience // The BRIDGE, Vol. 46, No. 4, Winter 2016.

6. Tapani Levola. “Diffractive optics for virtual displays” // SID (Society for Image Display), 14/5, 2006.

7. Walter Galan, Oculus Rift Development Kit 2 Teardown. URL:https://www.ifixit.com/Teardown/Oculus+Rift+Development+Kit+2+Teardown/27613

KASB-XUNAR MAKTABLARI O‘QITUVCHILARINING O‘QUV JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHIDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Turdiyeva Munisa Mutalovna

Toshkent tuman 1-son kasb-xunar maktabi Informatika va axborot texnologiyalari fan o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim bozorining globallashuvi munosabati bilan milliy ta’lim tizimiga qo‘yiladigan yangi talablar majmui shakllanmoqda. Asosiy talablardan biri - aniq va tez o‘zgaruvchan ta’lim bozorida ishlash qobiliyati. Axborot inqilobi asrida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda kuchli kechikish ta’lim sifatining keskin pasayishi va davlat ehtiyojlarining qondirilmaganligi kabi jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shundan kelib chiqib, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini keskin oshirish va oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini sifatli qayta tayyorlash zarurati yuzaga keldi, bu esa bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Kalit so‘zlar:

Zamonaviy jamiyatda doimiy o‘zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida oliy ta’lim va bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablar o‘zgardi:

- o‘qituvchilarning malakasi;
- yangi avlod texnikasi.

Ushbu maqolada o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalardan o‘qitish vositasi sifatida foydalanish bo‘yicha past bilim darajasidir.

IT-texnologiyalarga asoslangan ta’lim muassasasini boshqarish va o‘quv jarayonidagi innovatsiyalar raqobat muhitida ustunlik yaratish imkonini beruvchi asosiy mexanizmdir. Ishonchli va samarali infratuzilmani yaratish, ma’lumotlarga kirishning yagona usullarini joriy etish, axborot resurslarining butun majmuasini boshqarish imkoniyatini oshirish, shuningdek, ikkita strategiya - axborotlashtirish strategiyasi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash axborotlashtirishni rivojlantirishning asosiy faoliyati hisoblanadi.Ushbu tadbirlarni kompleks tarzda amalga oshirishni axborot resurslarining integratsiyalashuvini ta’minlaydigan va universitetning tashkiliy tuzilmasi va akademik siyosatiga muvofiq ta’lim jarayonini avtomatlashtirish imkonini beruvchi korporativ axborot muhitini shakllantirish bilan bog‘lash mumkin.

Har bir guruhning javoblari quyidagi ko’rinishda bo’ladi. O’qituvchi ularning har birini tushuntirib beradi:

1-guruhning javobi: $\boldsymbol{f = (x \leftrightarrow y\bar{z}) \rightarrow (\bar{x} \downarrow z)}$

[1] Konyunksiya amali o‘rniga matematikadagi ko`paytirish amali (·) ni qo`yish ham mumkinligi hisobidan, belgini qo`ymaslik ham mumkin

6-jadval

x	y	z	$\bar{z}$	$y\bar{z}$	$x \leftrightarrow y\bar{z}$	$\bar{x}$	$\bar{x} \downarrow z$	$(x \leftrightarrow y\bar{z}) \rightarrow (\bar{x} \downarrow z)$
0	0	0	1	0	1	1	0	0
0	0	1	0	0	1	1	0	0
0	1	0	1	1	0	1	0	1
0	1	1	0	0	1	1	0	0
1	0	0	1	0	0	0	1	1
1	0	1	0	0	0	0	0	1
1	1	0	1	1	1	0	1	1
1	1	1	0	0	0	0	0	1

2-guruhning javobi: ***f={00101111}***

Vektor funksiyani chinlik jadvaliga kiritamiz va mukammal dizyunktiv normal shaklni topish qoidasidan foydalanamiz. Mukammal dizyunktiv normal shaklni toppish uchun chinlik jadvalida funksiyaning qiymatlar satridagi 1 ga teng bo'lgan o'zgaruvchilarning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatarini ko'paytmasini 1 ga teng qilgan holda to'liq elementar konyunksiyalar ko'rinishida yozamiz. So'ng ularni dizyunksiya amali bilan birlashtiramiz.

7-jadval

x	*y*	*z*	*f*	*Elementar konyunksiyalar*
0	0	0	0	-
0	0	1	0	-
0	1	0	1	$\bar{x}y\bar{z}$
0	1	1	0	-
1	0	0	1	$x\bar{y}\bar{z}$
1	0	1	1	$x\bar{y}z$
1	1	0	1	$xy\bar{z}$

1	1	1	1	$\boldsymbol{xyz}$

Yuqoridagi vektor funksiya uchun mukammal dizyunktiv normal shakl quyidagicha:


$$\boldsymbol{f = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee xy\bar{z} \vee xyz}$$

3-guruhning javobi: $\boldsymbol{f = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee xy\bar{z} \vee xyz}$ funksiyani $\boldsymbol{\bar{x} \vee x = 1}$ tengkuchli formulani qo'llash orqali soddalashtiramiz:

$$\boldsymbol{f = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee xy\bar{z} \vee xyz = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}(\bar{z} \vee z) \vee xy(\bar{z} \vee z)}$$
$$\boldsymbol{= \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y} \vee xy = \bar{x}y\bar{z} \vee x(\bar{y} \vee y) = \bar{x}y\bar{z} \vee x}$$
$$\boldsymbol{= (\bar{x} \vee x)(y \vee x)(\bar{z} \vee x) = (y \vee x)(\bar{z} \vee x) = y\bar{z} \vee x}$$

Javob: $\boldsymbol{f = y\bar{z} \vee x}$

4-guruhning javobi. $\boldsymbol{f = x \vee y\bar{z}}$ fuksiyaning mantiqiy sxemasini quramiz:



2-rasm. $\boldsymbol{f = x \vee y\bar{z}}$ fuksiyaning mantiqiy sxemasi.

Bu metod talaba yoki o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi. Agar fan ushbu metoddan foydalanib o'qitilsa, har bir mashg'ulot talaba yoki o'quvchilarini o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib, fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtirish va ularni yozma, rasm, chizma, ko'rinishida ifodalay olishga erishiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, "Kichik guruhlarda ishlash", "Zinama-zina" interfaol metodlarini o'quv jarayonida yuqorida berilgan tartibda qo'llay olish uchun guruhlarga ajratilgan qismlar o'zaro bog'liq bo'lmasligi, ya'ni birinchi qismni o'zlashtirmay turib, ikkinchi yoki uchinchi qismlarni o'zlashtira olib bilishi mumkin bo'lgan mavzular tanlanishi lozim. Bu metodlar quyidagilarga imkon beradi: ta'lim oluvchilarda o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish uyg'otadi; ularning bilishga va faol ijodiy fikrlashga bo'lgan intilishlarni rag'batlantiradi; ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilar mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish imkoniyatlarini oshiradi; ta'lim oluvchilar tomonidan o'z-o'zini boshqarishga keng yo'l ochadi; har bir ta'lim oluvchining qobiliyatlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda bilim (hammaga bir xil bilim berishdan voz kechish) berish uchun imkoniyat yaratadi; har bir ta'lim oluvchi shaxsning yaxshi xislatlarini izlash va ularni rivojlantirishga yordam beradi; o'qituvchining "har bir

ta’lim oluvchi iste’dodli” degan ishonchga ega bo‘lishiga, shunga kelib chiqqan holda uni hurmat qilish, har bir fikriga e’tibor bilan qarash, unga ishonishga, natajada hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini oshiradi; ta’lim oluvchining har bir yutug‘ini qo‘llab-quvvatlash, ma’qullash, unga xayrixoh bo‘lgan vaziyatlarni yaratish va shular asosida yanada chuqurroq bilimlar egallashga bo‘lgan intilishlarini o‘z vaqtida rag‘batlantirib boradi; ta’lim jarayonida har bir ta’lim oluvchiga o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratish va unga bu yo‘lda yordam berish imkoniyatlarini oshiradi; qanday, nimaga va nima uchun o‘qitish kabi savollarga, shuningdek, qanday qilib natijali o‘qitish savoliga javob topiladi; o‘qituvchining ish, ya’ni mehnat samaradorligini oshiradi: o‘qitish jarayonida har bir talabaning individual xususiyatlari va xarakterini inobatga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil qilish, o‘qitish natijasini baholashda esa xususiy (sub’ektiv) baholanishdan o‘qituvchini ozod etish imkonini beradi; o‘qitish jarayoni bo‘yicha bosh vazifalarni o‘qitish vositalariga yuklash orqali o‘qituvchining vaqtini samarali qiladi, shu bois o‘qituvchi uchun ko‘proq vaqtini har bir talabaning shaxsiy rivojlanishiga qaratishga imkon yaratiladi; talabalar bilim darajasini baholash va nazoratda shaffoflikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Башин М.А., Дурнев В.Г. О некотором опыте преподавания дисциплины «Дискретная математика» / Преподавание математики в классическом университете: Тезисы докладов научно-методической конференции. - Ярославль: ЯрГУ 2005. - С.6-7.
2. Дурнев В.Г., Башкин М.А., Якимова О.П. Элементы дискретной математики: учебное пособие. - Ярославль: ЯрГУ 2007.
3. Мехамедов Ў.Х., Усмонбекова М.Ҳ., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. Ўқув услубий тавсиялар Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016.-45 б.
4. А. Рахимов, М. Ҳамроева. “Интерфаол таълим ва унинг дидактик имкониятлари”. XXI Международная научно-практическая интернетконференция 30–31 декабря, 2015.
5. Холматов, Ж., Худойшукурова, Р., & Ибадуллаев, Ш. (2023). Bul algebrasi funksiyalari sistemasini post teoremasi asosida to‘liqlikka tekshirish. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 66-70.
6. Холматов, Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.
7. XOLMATOV J. INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANINI O‘QITISHDA FOYDALANISH //News of UzMU journal. – 2024. – Т. 1. – №. 1.1. 1. – С. 119-222.
8. Abduraimov S. S. et al. Advancing Educational Equity: A Comprehensive Analysis of Integration in Contemporary Education Systems. – 2023.

BO‘LAJAK AKT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Xolmatov Javlon Yusupovich – O‘zbekiston Milliy universiteti Jizza filiali, Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi assistenti, javlonxolmatov@jbnuu.uz,

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'rib chiqilayotgan kompetensiyalar doirasi bo'lajak IT-mutaxassisning intellektual kompetentsiyasini birgalikda tashkil etuvchi kompetensiyalar va diskret matematika va matematik mantiq kursini tashkil etuvchi fanlar bo'yicha o'qitish vositalari bilan chegaralanadi.

Kalit so`zlar: Intellektual kompetentlik, Gilfordning ko'p o'lchovli strukturali modeli, intellektual kompetentlikning tarkibiy qismlari, abstrakt kompetentlik, "intuitiv" kompetentlik.

Bo'lajak AKT mutaxassislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida o'quv jarayoni natijasida shakllanishi kerak bo'lgan asosiy kompetensiyalar quyidagilar hisoblanadi: tarbiyaviy, pedagogik, ilmiy, intellektual, kommunikativ, til, psixologik, axborot texnologiyalari, faktik, (xotirani rivojlantirish), texnik. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, gap, pedagogik vositalarning butun majmuasidan foydalangan holda o'quvchilarni o'qitish jarayonida shakllanadigan asosiy kasbiy kompetensiyalar haqida bormoqda.

Faylasuflar, psixologlar va o'qituvchilarning intellektning tabiatini aniqlash, uning rivojlanishi va darajasini o'lchash muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar tarixi F.Galtonning (1884, Angliya) birinchi sinovlari va J.Kettellning (1885, AQSh) "aqliy" testlariga borib taqaladi. Ushbu ikki xilma-xil tadqiqotlar natijasida paydo bo'lgan g'oyalar intellektni ob'ektiv baholash usullari uchun asos bo'ldi. Shu bilan birga, uzoq yillar davom etgan inson ongining ma'lum bir kontseptsiyasi yaratildi.

XX asr boshidan boshlab intellektning mohiyatini tushuntirishning ikkita asosiy yondashuvi paydo bo'ldi. Ulardan biri K.Spirmen nomi bilan bog'liq bo'lib, intellektni intellektual faoliyatning barcha darajalarida ifodalanadigan umumiy omil sifatida tan oldi, ikkinchisi (L.Terston, J.P.Gilford) intellektual faoliyatning har qanday umumiy tamoyilini inkor etdi va ko'plab mustaqil intellektual funktsiyalar mavjudligini ta'kidladi.

Gilfordning ko'p o'lchovli strukturali modeli intellektual faoliyat orqali hal qilinadigan turli vazifalarni tavsiflovchi uchta parametrga asoslanadi:

1. 5 turdagi operatsiyalar: Baholash (natija va maqsadni to'g'ri taqqoslash qobiliyati); Konvergentsiya (ob'ektni turli xil xususiyatlar bilan aniqlash, xususiyatlarni birlashtirish);Divergensiya (bir mavzudan foydalanishning turli usullari, imkoniyatlarni kengaytirish); Yodlash (xotiradan saqlash va olish);Bilish (materialni idrok etish va talqin qilish).

2. Intellektual faoliyat materialining 4 turi: Ob'ekt yoki tasviriy;Ramziy yoki ikonik; Semantik; Xulq-atvor.

3. Yakuniy mahsulotning 6 turi: Elementlar; Sinflar; Munosabatlar; Tizimlar; Transformatsiyalar; Mulohaza yuritish.

Uchta parametrlar to‘plamining dekart ko‘paytmasi 120=4*5*6 mumkin bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu turdagi muammolarning aksariyati uchun Gilford va uning shogirdlari maxsus testlarni ishlab chiqdilar.

Keyinchalik Gilford ijodkorlikning 6 ta o'lchovini ilgari suradi: muammolarni aniqlash va shakllantirish qobiliyati; g'oyalarni yaratish qobiliyati; g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati-moslashuvchanlik; stimullar (kutilmagan vaziyatlar) ga nostandart javob berish qobiliyati-o'ziga xoslik; tafsilotlarni qo'shish orqali takomillashtirish qobiliyati; muammolarni hal qilish qobiliyati, ya'ni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati.

Intellektual kompetentli fikrlash texnologiyasi, ya'ni faoliyatning ma'lum bir sohasida samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini ta'minlaydigan bilimlarni tashkil etishning maxsus turi sifatida ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida,

<<Intellektual kompetentlik = Intellekt + Ijodkorlik>>

formula ko`rinishida ifodalashimiz mumkin.

Bu yig'indi emas, balki murakkab tuzilishga ega bo'lgan birlikdir.

Intellektual kompetentlik doirasida biz uning tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatamiz:

- algoritmik kompetentlik
  - abstraksiya (bilimlarni modellashtirish va tizimlashtirish)
  - algoritmlarni loyihalash (sintez qilish).
  - algoritmlarni tahlil qilish
  - algoritmik notatsiya
- induktiv kompetentlik (analogiya va umumlashmalarni qo'llash)
- mantiqiy (deduktiv) kompetentlik
- til kompetentligi

Savol tug'iladi: mavhum kompetentsiyani (bilimlarni modellashtirish va tizimlashtirish), "intuitiv" kompetentsiyani va o'z-o'zini o'rganish kompetentsiyasini alohida vakolatlar sifatida aniqlash va rivojlantirishga arziydimi? Bu qobiliyatlarni kompetentsiya deb hisoblash mumkinmi?

Bu savolga uning matematik modeliga asoslangan kompetentsiya tavsifi asosida javob berish mumkin.

Agar ma'lum bilim va qobiliyatlar majmuasi uchun kortejning barcha elementlarini aniqlash mumkin bo'lsa, u holda bu kompleksni mustaqil kompetentsiya deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, agar ko'rsatilgan vakolatni aniqlash, uni shakllantirish vositalarini ishlab chiqish va uning darajasini baholash zarurati tug'ilsa, bunday ko'rib chiqish mantiqiydir. Masalan, rivojlangan mavhum fikrlash (abstrakt kompetentlik), rivojlangan sezgi ("intuitiv" kompetentlik) va mustaqil kompetentlik tizimlari haqida gapirish odatiy holdir. Haqiqatan ham bu qobiliyatlar shakllantirish, rivojlantirish, baholash va o'qitish ob'ektiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotar.

1. Yarygin O. N. Diskret matematikani o'qitish jarayonida IT mutaxassisliklari talabalarining intellektual kompetentsiyasini shakllantirish. Avtoreferat. Tolyatti, 2007 yil.
2. Aryaeva L.V. O'qituvchi bilan axborot o'zaro aloqada talabalarning intellektual kompetentsiyasini shakllantirishning didaktik shartlari. Sankt-Peterburg, 2008 yil.
3. Savin E. Yu. Intellektning ontologik nazariyasiga asoslangan intellektual kompetentsiyani o'rganish istiqbollari. Материалы всероссийской научно-практической конференции. – Smolensk, 2007. 112-117-betlar.
4. Kholmatov Javlon, & Mustafoyev Erali. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 136–141.
5. Холматов Д., Мустафоев Э. Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 352-356.
6. Холматов Ж., Худойшукурова Р., Ибадуллаев Ш. Bul algebrasi funksiyalari sistemasini post teoremasi asosida to‘liqlikka tekshirish //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 66-70.
7. XOLMATOV J. INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANINI O‘QITISHDA FOYDALANISH //News of UzMU journal. – 2024. – Т. 1. – №. 1.1. 1. – С. 119-222.
8. Abduraimov S. S. et al. Advancing Educational Equity: A Comprehensive Analysis of Integration in Contemporary Education Systems. – 2023.

DINAMIK OBYEKTLARNI TASHXISLASHDA NEYROTARMOQ BOSHQARISH TIZIM ARXITEKTURASINING TAHLILI

Yakubova Noilaxon Sobirjonovna, Sodiqova Feruzaxon Botirxon qizi
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti,e-mail: noila.yakubova@gmail.ru

Annotatsiya. Texnologik jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan nosozliklarni bartaraf etishda insonni tajribasi yetarli bo’lmaydi. Shu sababli, murakkab texnologik jarayonlarni amalga oshirishda ularning holatini tashxislovchi va yuzaga keladigan kamchiliklarini bartaraf etishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan intellektual tizim arxitekturasini yaratish taklif qilindi.

Kalit so’zlar: intellektual tizimlar, qaror qabul qilish, bilimlar modeli, bilimlar bazasi, tashxislash, boshqarish.

Texnologik jihozlarning murakkabligi, jihozlarni ishga tushirish va ishlatish, kuchlanishli rejimdagi ishlash holatida xom-ashyoni tayyorlash, qayta ishlash va aniq maqsadli mahsulotni olish jarayonlari zamonaviy nazorat qilishni va jarayonning holatini tashxislashni talab etadi. Bunday masalalar zamonaviy kimyo sanoati oldida ham o'z o'rniga ega bo'lib, jihozlarning samaradorligi va xavfsizligi masalalari o'z yechimini kutayotgan muammolardan biridir. Bunday jarayonlarni amalga oshirish, sanoat miqyosidagi xom-ashyoni ishlab chiqarish, murakkab holatlarda mahsulotning yaratilishidagi parametrlarning nazorat qilinishida jarayonlarni holatini tashxislovchi intellektual tizimlarni yaratishni talab qiladi.

Texnologik jarayonlarni, qurilmalarni hamda boshqaruv vositalarini avtomatik boshqarish vositalarini qay holatda ishlayotganini yuz berishi mumkin bo'lgan nosozliklarni o'z vaqtida aniqlash va uni bartaraf qilish masalalsi muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqarish tizimlarini murakkablashuvivni va ularga qo'yilgan talablarni yanada oshishiga olib keladi. Nosozliklarni aniqlash ayniqsa sanoat miqyosidagi ko'phajmli sanoat obyektlarini sanoat miqyosidagi obyektlarni ishonchligini, xavfsizligini ta'minlash hamda iqtisodiy va ekologik nuqtai nazardan juda muhimdir. Shu sababli ham texnik tashxislash usullari va zamonaviy boshqarish tizimlarini joriy qilish hozirgi paytda ham ilmiy ham amaliy ahamiyatga egadir.

Boshqaruvda aniq qarorlarni qabul qilish uchun ekspertlardan olingan bilimlar asosida mahsuliy qoidalarni shakllantirishda ikkita narsaga e'tibor berish zarur:

- ekspertdan olinadigan bilimlarni strukturizatsiyalash jarayonini avtomatlashtirish hamda bilimlar modelini identifikatsiyalashni avtomatik tarzda amalga oshirishni yo'lga qo'yish;
- ekspert bilimlarini, tajribasini olish boshqarish masalasini aniq tasavvur qilish va bilish ma'lum soha uchun bilimlar modelini shakllantirish, ular yordamida qaror qabul qilish masalasini yechishni aniqligini oshiradi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishga mo'ljallangan intelektual tizim (QQQKIT):

$$\mathbf{QQQIT=\{x, y, M, E, F_m, MQ, MB, BB\},}$$

bunda:

$x=\{x_i\}$- boshqaruv obyektining kirish ko'rsatkichlari;

$u=\{u_i\}$- qaror qabul qilgandan so'ng boshqaruv ob'ektining chiqish ko'rsatkichlari;

$M=\{M_i\}$- QQQKIT funktsiyalarini amalga oshiruvchi modellar;

$E=\{E_u\}$- turli holatlarda QQQ mo'ljallangan yechimlarni amalga oshiruvchi usullar;

MQ- QQQKIT mahsuliy modellari yoki mahsuliy qoidalar;

MB- joriy va QQQ kerakli ma’lumotlarni saqlashga mo’ljallangan ma’lumotlar bazalari;

BB- QQQKIT uchun kerakli qoidalarni ketma-ket saqlashga mo’ljallangan bilimlar bazasi.

Mahsuliy qoidalar ham o’z o’rnida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

MQ={QN, QG, G, I}

bunda QN-qoidalar nomi yoki tartib nomeri;

Texnologik jarayonning holatini tashxislovchi va boshqaruvchi intellektual tizim arxitekturasi taklif qilinib, bu arxitektura o’zida bir qancha osttizimlarni tashkil qiladi (1-rasm). Tizim arxitekturasi ikki qismdan: tashqi muhit va intellektual tizim qismiga bo’linadi.

Tashqi muhit qismida texnologik jarayon, texnologik jarayonlarni monitoringlash va boshqarishning integrallashgan tizimi va qaror qabul qiluvchi shaxs kabi osttizimlardan tarkib topgan.

Intellektual tizim qismida esa ma’lumotlar va bilimlar bazasi, texnologik nosozliklarni aniqlash, interfaol interfeys, texnologik jarayonni etalon modeli, bilimlar modeli, model aniqligini tekshirish va nosozliklarni bartaraf qiluvchi qoidalar kabi osttizimlardan iborat.

1. **Texnologik jarayon**-kuzatiluvchi (kirish) parametrlari va tashxislanuvchi (chiqish) parametrlaridan iborat.
2. **Texnologik jarayonlarni monitoringlash va boshqarishning integrallashgan tizimi**-QQQ shaxs tomonidan berilayotgan boshqarishga binoan texnologik holatni rostlovchi ta’sir signali texnologik jarayonga ta’sir etib, uning chiqish ko’rsatkichlarining rostlanishiga olib keladi.
3. **QQQ shaxs (texnolog)-** interfaol interfeysga ma’lumotlarni kiritib, intellektual tizimdan jarayondagi nosozliklarni bartaraf etishdagi takliflarni oladi va ularni jarayonga muvofiq qo’llaydi.
4. **Ma’lumotlar bazasi-** ma’lum bir vazifalar doirasida ularga yechim topuvchi va tahlillovchi ma’lumotlardan iborat bo’ladi. **Texnologik jarayonni etalon modeli-** ba’zi parametrlarni tahlil qiluvchi qurilmalarning yetishmasligi tufayli ularning tarkibini tahlil qilishda etalon modellardan foydalaniladi. Bu model orqali parametrning tarkibini va komponentalarini aniqlab turib, uni ma’lumotlar bazasiga uzatib beriladi.
5. **Bilimlar bazasi** - bu ba’zi bir predmetli sohada murakkab vazifalarning yechimini topish uchun tahlil va xulosalarni keltirib chiqaruvchi modellar, qoidalar va omillarning majmuisidir. Bilimlar bazasi ma’lumotlar bazasi va bilimlar modelidan olingan axborotlarga ko’ra qaror qabul qiladi.

6. **Bilimlar modeli**- murakkab vazifalarni yechishda xulosa chiqaruvchi modellar tizimidan iborat bo'ladi.

7. Texnologik nosozliklarni aniqlash- mazkur osttizim joriy va intellectual tizim orasidagi yuzaga kelgan farqlarga muvofiq yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlab, ularni modelni aniqligini tekshiruvchi bo'limga uzatadi.

8. Model aniqligini tekshirish-bu bo'limda jarayon nosozligi aniqlangach bu nosozlikni bartaraf qiluvchi model tanlanadi va bu model jarayonga mos kelishi yoki kelmasligi tekshiriladi.

9. Nosozliklarni bartaraf qiluvchi qoidalar-modelning aniqligi tekshirilgach unga mos keluvchi qoida ishlab chiqiladi.

10. Interfaol interfeys-kiritilgan ma'lumotlarga muvofiq intellektual tizim orqali nosozliklarni bartaraf qilish yo'llari va qoidalarini ko'rsatuvchi oyna bo'lib, bu oynada ko'rsatilgan komandalar yordamida QQQ shaxs ma'lumot oliadi va jarayonda yuzaga kelgan kamchiliklarni tezkor ravishda bartaraf eta oladi.

Murakkab texnologik jarayonlarni amalga oshirishda ularning holatini tashxislovchi va yuzaga keladigan kamchiliklarini bartaraf etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan intellektual tizim arxitekturasini yaratish taklif qilindi. Mazkur arxitekturani qo'llash bevosita jarayonlarda yuzaga keladigan turli xildagi nosozliklarni tahlil qilib, ularni tezkorlikda bartaraf eta olish qobiliyatiga ega ekanligi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Якубова Н.С., Максудова А.И., Урманова В.Т. Интеллектуалное управление многомерными динамическими объектами // Универсум: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 5(86). УРЛ: https://7универсум.com/ру/теч/арчиве/итем/11818 .
2. Якубова Н.С., Абдурасулова Г.Э. Исследование нечетких регуляторов в системах интеллектуального управления на основе квантовых вычислений. Universum: технические науки:электрон. научн. журн. 2023. 3(108). URL:https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15148.

RAQAMLI TA'LIMNING MILLIY INTELLEKTUAL SALOHIYATNI OSHIRISHDAGI IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

Yorqulov Hakimbek Otaqulovich – Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'limning imkoniyatlari va undagi muammolar milliy intellektual salohiyatni oshirish nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. raqamli ta'lim, ta'limda raqamli texnologiyalar, shaxs intellektual salohiyati, milliy intellektual salohiyat.

Texnologiya hayotimizning barcha jabhalariga kirib borishda davom etar ekan, ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Raqamli ta'lim dunyo bo'ylab xalqlarning intellektual salohiyatini oshirishga yangi imkoniyat beruvchi umid chirog'i bo'lib

turibdi. “Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar ijtimoiy qadriyatlarni o‘zgartirdi va odamni onlayn identifikatsiyalashga olib keldi. O‘z ta’lim yo‘nalishini mustaqil ravishda belgilaydigan yangi turdagi talaba uchun boshlang‘ich qo‘yildi. Ular mehnat va o‘qishni uyg‘unlashtirib, shaxsiy rivojlanish va o‘z taqdirini o‘zi belgilashga undaydi” [1].

Raqamli ta’lim shaxsiy va milliy intellektual salohiyatni yuksaltirish, bilimlardan foydalanishni ta’minlash va zamonaviy dunyoning o‘zgaruvchan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishning kuchli vositasidir. Raqamli ta’lim, raqamli vositalar va onlayn platformalar kuchidan foydalangan holda, milliy intellektual salohiyatni oshirishga ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli ta’lim mamlakatlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun taqdim etadigan bir nechta asosiy imkoniyatlarni ko‘rib chiqaylik.

Alohida shaxsning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ya’ni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim platformalarining yaratilishi ta’limning global auditoriyasini yaratdi. Ya’ni geografik va vaqt cheklovlari olib tashlanib, ta’lim resusrlaridan internet mavjud bo‘lgan istalgan joyda va istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati vujudga keldi. Jamiyatning barcha qatlamlariga onlayn kurslar, vebinarlar, mobil ilovalar, ta’lim dasturlari, virtual sinflar va boshqa raqamli platformalar orqali ta’lim olish imkoniyatini beradi. Raqamli platformalar ta’lim olishning global imkoniyatlarini oshirish bilan birga, turli ijtimoiy qatlamlar vakillariga ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qatiy nazar ta’lim imkoniyatlarini yaratib berib ta’limni demokratlashtiradi. Bu imkoniyatlar milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar har bir talabaning individual ehtiyojlari va o‘rganish tezligiga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratishga imkon beradi. Sun’iy intellektdan o‘quvchining o‘rganish ma’lumotlarini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan o‘rganish tavsiyalarini berish uchun ishlatilishi mumkin. Raqmli ta’limning joriy qilinishi o‘qituvchilarni ham o‘z ustida ishlashga majbur qiladi. O‘qituvchilar raqamli texnologiyalar vositasida interfaol, o‘yinli o‘qitish, mavzuga moslashtirilgan viktorinalar metodlarini qo‘llaydilar. Bu esa o‘quvchini darsni o‘zlashtirishda, yangi ma’lumotlarni qidirib topishda faolroq bo‘lishga undaydi, uni mustaqil manbalarni izlab topish va uni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Bu imkoniyatlar oxir oqibat milliy intellektual salohiyatni rivojlanishini ta’minlaydi.

Raqamli ta’lim jismoniy chegaralardan oshib, global miqyosda hamkorlikdagi ta’lim hamjamiyatlarini rivojlantiradi. Raqamli o‘quv platformalari o‘rganishni yanada qiziqarli va samaraliroq qiladigan keng ko‘lamli interfaol vositalar va resurslarni taklif etadi. Bu onlayn forumlar va munozaralar, virtual laboratoriyalar, o‘quv o‘yinlari va butun dunyo bo‘ylab olimlar hamda talabalar bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish imkoniyatlarini, muammolarni hamkorlikda hal qilishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday vositalardan foydalanish ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi, bilim olishga qiziqish uyg‘otadi va o‘quvchilarda tanqidiy

fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli ta’lim hamkorlik va bilim almashish madaniyatini rivojlantirish orqali umrbod ta’lim oluvchilarning jonli ekotizimini shakllantiradi. Doimiy ravishda intellektual izlanishlar va innovatsiyalar chegaralarini kengaytiradi.

Raqamli ta’lim nafaqat turli sohalarda bilim beradi, balki zamonaviy dunyoda talab qilinadigan asosiy raqamli ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu o‘rinda B. Usmonovning “Ta’lim tizimi iqtisodiy o‘sish va mehnat munosabatlari bilan ajralib turadigan raqamli davrga ishonchli o‘tishni ta’minlashi kerak. Sun’iy intellekt muntazam jarayonlarni amalga oshiradigan mehnat bozorida paydo bo‘lishi kerak” [2], - degan fikrini to‘la qo‘llab quvvatlaymiz. Chunki , bo‘lg‘usi mutaxassis kadrlarda raqamli ko‘nikmalarni ta’lim shakllantirib berishi kerak. Raqamli ko‘nikmalarga ma’lumotlar bilan samarali ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, dasturlash, kiberxavfsizlik bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish va boshqalar kiradi. Jamiyatda raqamli savodxonlik darajasini oshirish milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi, chunki bu mamlakatning global raqamli iqtisodiyotda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Talabalarga esa ma’lumotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni aniqlash va raqamli makonda mas’uliyat bilan harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur bo‘ladi. Raqamli savodxon avlodni tarbiyalash axborotlahsgan jamiyat asrining murakkabliklarini yengib o‘tishga qodir bo‘lgan intellektual jihatdan kuchli jamiyatni shakllantirish zaruriyati bilan bog‘liq hisoblanadi.

Raqamli ta’lim jarayonlari jamiyat hayotida bilimlarni keng yoyilishidagi yangi imkoniyat deb qarash kerak, aynan shu jarayon jamiyatning bilimlilik darajasini yangi bosqichga chiqishi va dunyoqarashini kengayishiga xizmat qiladi. Ta’limni yanada xalqchil, adolatli va inklyuziv bo‘lishini ta’minlaydi. Ta’lim olishning global auditoriyasi yaratilishi, shaxsiylashtirilgan ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim hamjamiyatlarini rivojlantirish orqali interfaol ta’limni rivojlanishi va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishi raqamli ta’limning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, axborotlashgan jamiyat asrida intellektual jamiyatni yaratishga hissa qo‘shadi. Raqamli ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar global raqamli davrda davlatlar farovonligini ta’minlovchi kelajak sarmoyasi sifatida baholanishi mumkin. Albatta raqamli ta’lim to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa ta’lim sohasidagi inqilob bo‘lishi mumkin. Yaxshi tomonini niyat qilgan holda aytish kerakki, raqamli ta’limning inqilobiy ta’siri yuz berishi uchun izchil ravishda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda ta’lim resurslarini (raqamli platformalar, ta’lim saytlari, elektron kitoblar, videofilmlar, onlayn ma’ruzalar) ko‘paytirish zarur bo‘ladi. Va ularni rivojlantirish uchun mablag‘ sarflanishi kerak bo‘ladi, buni davlat ajratadimi, ta’limning tijoratlashishi natijasida xususiy sektor ajratadimi buning farqi yo‘q. Raqamli ta’limning kuchidan foydalangan holda, davlatlar o‘z fuqarolarining to‘liq ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishi mumkin. Bu XXI asrning bilimga asoslangan iqtisodiyotida barqaror taraqqiyot va farovonlikning muhim sharti hisoblanadi.

Klaus Shvab asosida raqamlashtirish yotgan to‘rtinchi sanoat inqilobi muammolari haqida shunday deydi: “Shunisi aniqki, imkoniyatlar qancha katta bo‘lsa, yuzaga keladigan muammolar ham undan kam emas”[3]. Raqamli ta’lim ham ko‘plab afzalliklarni taqdim etsa-da, u ayrim muammolar bilan birga keladi. Keling, ba’zi muammolarni ko‘rib chiqaylik:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jumladan, yuqori tezlikdagi internet va elektron qurilmalardan foydalanish ta’lim imkoniyatlaridagi mavjud nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin.

2. Raqamli ta’lim ko‘p jihatdan texnologiyaga tayanadi, bu texnologik malakaga ega bo‘lmagan yoki kerakli qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. O‘zbekiston talabalari orasida ayniqsa shaxsiy kampyuterlar, noutbooklar, planshetlar yetishmasligi muammosi mavjud.

3. Raqamli ta’lim muhitida an’anaviy sinflar taklif qiladigan ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar va shaxslararo aloqalar etishmaydi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va boshqa raqamli vasvasalar talabalar e’tiborini kurs materialidan chalg‘itishi, umumiy samaradorlik va ta’limga diqqatini kamaytirishi mumkin.

5. Haddan tashqari ko‘p ekran qarshisida o‘tirish va raqamli qurilmalarda uzoq vaqt ishlash raqamli charchash yoki “ekran charchog‘i”ga olib kelishi mumkin. Ko‘zning zo‘riqishi, bosh og‘rig‘i va aqliy charchoq bilan tavsiflangan bu hodisa o‘quvchilarning sog‘ligiga va ta’lim natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

6. Onlayn kontentning ko‘payishi axborot sifati va to‘g‘riligini baholashni qiyinlashtiradi. Noto‘g‘ri ma’lumotlar, eskirgan manbalar va sifatsiz materiallar raqamli ta’lim tashabbuslari samaradorligiga putur etkazishi mumkin.

7. Hamma uchun yagona yondashuv yoki avtomatlashtirilgan algoritmlar o‘quvchilarning alohida ehtiyojlarini va his tuyg‘ularini hisobga olmasligi oqibatida o‘zlashtirish natijalari talab darajasida bo‘lmasligi mumkin.

8. Raqamli o‘quv muhitlari xavfsizlik buzilishi, ma’lumotlar sizib chiqishi va maxfiylik bilan bog‘liq muammolarga duch keladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim ko‘plab afzalliklarni taqdim etsa-da, barcha o‘quvchilar uchun teng huquqli foydalanish, sifatli ta’lim tajribasi va ijobiy ta’lim natijalarini ta’minlash uchun uning kamchiliklari va muammolarini tan olish va hal qilish juda muhimdir. O‘z navbatida bu kamchilik va muammolar ta’limda telefon va internetdan foydalanishni to‘xtatish emas balki maqsadli foydalanishni talabalarga o‘rgatish, hatto talab qilish, sinov paytlari telefon va internetdan foydalanishni ta’qiqlash orqali hal qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усмонов Б. Таълимда рақамли технологияларни қўллаш. «Umidli kimyogarlar-2024» XXXIII ilmiy-texnikaviy anjumanining maqolalar to‘plami. Toshkent, TKTI, 26 aprel 2024-yil. 779-780.

2. Усмонов Б. Таълимда рақамли технологияларни қўллаш. «Umidli kimyogarlar-2024» XXXIII ilmiy-texnikaviy anjumanining maqolalar to‘plami. Toshkent, TKTI, 26 aprel 2024-yil. 779-780.
3. Klaus Shvab. To‘rtinchi sanoat inqilobi. – Toshkent: NIHOL, 2002. 171 – bet.

SUN’IY INTELLEKT VR VA AR TEXNOLOGIYALAR.

Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich
Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o‘qituvchisi
yulchiyevbek87@gmail.com.
Djurabayeva Nasibaxon
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
nasibahondzurabaeva26@gmail.com

Annotatsiya. Sun’iy intellekt (AI) biz tajriba qiladigan virtual reallik (VR) yo‘lini batamom o‘zgartirish kuchiga ega. Algoritmlarni va boshqa AI qo‘llab-quvvatlaydigan texnikalarni mashinalardan foydalanib o‘rganish orqali, dasturchilar yanada immersiv, ikki tomonlama va shaxsiylashtirilgan VR tajribalarini yarata olishadi. Sun’iy intellektdan foydalanuvchilar bilan muayyan vaqtda o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan, virtual reallik muhitida ob’ektlarni taniydigan, yanada takomillashgan chatbotlarni yaratadigan, muayyan vaqtda foydalanuvchi hissiyotlarini aniqlaydigan va javob beradigan aqlli avatarlar yaratishda foydalanish mumkin. Sun’iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, biz virtual reallikda sun’iy intellektning yanada innovatsion va qiziqarli ilovalarni ko‘rishni kutishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt , virtual reallik , aqlli avatarlar, ob’ektni tanish, tabiiy tilni ko‘rib chiqish, moslashuvchan o‘rganish, hissiyotni aniqlash, shaxsiylashtirilgan tajriba, immersive, ikki tomonlama, chatbotlar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamyatga ega. Biz ilgari ta’lim dasturlarini an’anaviy usuli ya’ni ma’ruzani yirik xajmli kitoblar va qo‘llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatining u qadar yuqori bo‘lishini ta’minlamagan. Hozirda ta’lim sifatini ko‘tarishda ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Sun’iy intellekt kompyuterlarga o‘zlarining tajribalarini o‘rganish,

berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Sun’iy intellektni amalga oshirishning ko‘p holatlarida - kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha - chuqur o‘rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma’lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o‘rgatish" mumkin.

Sun’iy intellektning rivojlanish tarixi. Sun’iy intellekt" atamasi 1956 yilda paydo bo‘lgan, ammo bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyasi ma’lumotlar hajmini ko‘paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvatini va ma’lumotlarni saqlash vositalarini optimallashtirish fonida haqiqiy mashhurlikka erishdi. O‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan sun’iy intellekt sohasidagi birinchi tadqiqot muammolarni hal qilish va ramziy hisoblash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. 60-yillarda bu sohada AQSh Mudofaa vazirligi qiziqish uyg‘otdi: AQSh harbiylari insonning aqliy faoliyatini simulyatsiya qilish uchun kompyuterlarni o‘qitishni boshladi.

Bugungi kunda keng qo‘llanilib kelinayotgan sun’iy intellekt texnologiyalariga aqlli veb-qidiruv tizimlari (masalan, Google Search), tavsiya tizimlari (YouTube, Amazon va Netflix), tabiiy tilni tushunish (Google Assistant, Siri va Alexa), o‘zini-o‘zi boshqaradigan avtomobillar (masalan, Waymo) va boshqalarni misol qilish mumkin.

Alan Turing sun’iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo‘lgan. Sun’iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. Shu yilning yozida Dartmouth kollejida o‘tgan anjumanda John McCarthy „sun’iy intellekt“ atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi o‘laroq kirgan. Sun’iy intellekt bo‘yicha tadqiqotlar XX asr o‘rtalaridan beri qilinib kelinsa-da, unga nisbatan ommaviy qiziqish 2012-yilda chuqur o‘rganuv boshqa sun’iy intellekt metodlaridan ustunligini namoyon etganda hamda 2017-yilda transformer arxitekturasida erishilgan yutuqlar ortidan keskin ortgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha gurkirab rivojlanib, ko‘plab shirkatlar, universitetlar va laboratoriyalar sun’iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishib kelishmoqda.

Tabiiy til avlodi

Mashinalar inson miyasidan boshqacha tarzda qayta ishlaydi va muloqot qiladi. Tabiiy tilni yaratish - bu tuzilgan ma’lumotlarni ona tiliga aylantiradigan zamonaviy texnologiya. Mashinalar ma’lumotlarni foydalanuvchiga kerakli bo‘lgan formatga aylantirish uchun algoritmlar bilan dasturlashtirilgan. Tabiiy til - bu sun’iy intellektning kichik to‘plami bo‘lib, u kontentni ishlab chiquvchilarga kontentni avtomatlashtirish va kerakli formatda yetkazib berishga yordam beradi. Kontent ishlab chiquvchilari maqsadli auditoriyaga erishish uchun turli xil ijtimoiy media platformalarida va boshqa media platformalarda reklama qilish uchun

avtomatlashtirilgan kontentdan foydalanishlari mumkin.Ma’lumotlar kerakli formatlarga aylantirilishi sababli inson aralashuvi sezilarli darajada kamayadi. Ma’lumotlar diagrammalar, grafikalar va boshqalar shaklida ko‘rsatilishi mumkin.

Ikkinchi o‘rinda Nutqni tanib olish texnologiyasi joylashgan

Nutqni tanib olish

Nutqni tanib olish - bu sun’iy intellektning yana bir muhim to‘plami bo‘lib, u inson nutqini kompyuterlar tomonidan foydali va tushunarli formatga aylantiradi. Nutqni aniqlash inson va kompyuterning o‘zaro ta’siri o‘rtasidagi ko‘prikdir. Texnologiya inson nutqini bir necha tillarda taniydi va o‘zgartiradi. iPhone Siri nutqni aniqlashning klassik namunasidir.

Uchinchi o‘rin esa hozirda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Virtual agenttexnologiyaga tegishli bo‘ldi

Sun’iy intellekt texnologiyaning ko‘plab sohalarida tobora ko‘proq tarqalmoqda, virtual reallik ham bundan mustasno emas. Sun’iy intellektni virtual reallikka birlashtirish orqali, dasturchilar foydalanuvchilar uchun yanada immersiv, ikki tomonlama va shaxsiylashtirilgan tajribalarni yarata olishadi

Virtual reallikda sun’iy intellektning qo‘llash metodlari.

Umumiy foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun sun’iy intellektni virtual reallikda qo‘llashning turli usullari mavjud. Quyida ba’zi misollar keltirilgan:

Aqlli avatarlar: AI dan muayyan vaqtda foydalanuvchilar bilan muloqot qila oladigan aqlli avatarlarni yaratishda foydalanish mumkin. Bu avatarlar foydalanuvchi savollariga javob berishi va shaxsiy tajribani ta’minlash uchun foydalanuvchi xatti-harakatlaridan o‘rganish uchun dasturlashtirilishi mumkin.

Obyektni tanish: sun’iy intellekt algoritmlaridan virtual reallik muhitida obyektlarni tanishda foydalanish mumkin, bu esa yanada real va interaktiv tajribalarni yaratishga imkon beradi. Misol uchun, sun’iy intellekt qo‘llab-quvvatlaydigan VR o‘yini foydalanuvchilarga virtual olamdagi obyektlarni ushlash va boshqarishga imkon bera oladi.

Tabiiy tilni ko‘rib chiqish: ushbu yo‘l virtual reallikda yanada takomillashgan va interaktiv chatbotlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu chatbotlardan foydalanuvchilarni asistant bilan ta’minlashda, savollarga javob berishda yoki oddiy suhbatga kirishishda foydalanish mumkin.

Moslashuvchan o‘rganish: sun’iy intellekt foydalanuvchi xatti-harakati va imtiyozlariga mos keladigan VR tajribalarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun sun’iy intellekt qo‘llab quvvatlaydigan VR o‘quv dasturi

foydalanuvchining ishlashiga asoslanib vazifalarning qiyinchilik darajasini sozlashi mumkin.

Hissiyotni aniqlash: sun’iy intellekt algoritmlaridan muayyan vaqtda foydalanuvchining hissiyotlarini aniqlash va javob berishda foydalanish mumkin. Misol uchun, sun’iy intellekt qo‘llab-quvvatlaydigan VR tajribasi foydalanuvchining emotsional holatiga asoslanib musiqa yoki yorug‘likni o‘zgartira oladi.

Virtual reallikda sun’iy intellekt.

Virtual reallik (VR) katta hajmli minigarnituralar va oddiy grafikalar davridan buyon uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Bugungi kunda, VR biz raqamli kontentda tajriba qiladigan yo‘lni rivojlantirishni kafolatlaydigan zamonaviy texnologiya hisoblanadi. VR ni yuqori cho‘qqilarga olib chiqishga yordam beradigan texnologiyalardan biri bu sun’iy intellektdir. Sun’iy intellekt virtual reallikni ko‘proq immersiv, interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilish orqali tajribamizni o‘zgartirish imkoniyatiga ega. AI qo‘llab-quvvatlaydigan texnikalarni mashinalardan foydalanib o‘rganish orqali, VR dasturchilari foydalanuvchilarning xatti-harakatlariga moslasha oladigan, foydalanuvchi savollariga javob beradigan va hatto muayyan vaqtda foydalanuvchi hissiyotlarini aniqlab javob beradigan tajribalarni yarata olishadi. VR dagi sun’iy intellektning eng istiqbolli ilovalaridan biri bu aqlli avatarlardan foydalanish hisoblanadi. Misol uchun sun’iy intellekt qo‘llab quvvatlaydigan VR o‘quv dasturi foydalanuvchining ishlashiga asoslanib vazifalarning qiyinchilik darajasini sozlashi mumkin.

Sun’iy intellekt dasturiy ta’minoti biznes olamida yuqori talabga ega. Dasturiy ta’minotga bo‘lgan e’tiborning ortishi bilan dasturiy ta’minotni qo‘llab-quvvatlaydigan apparatga ehtiyoj ham paydo bo‘ladi. An’anaviy chip sun’iy intellekt modellarini qo‘llab-quvvatlamaydi. Neyron tarmoqlar, chuqur o‘rganish va kompyuterni ko‘rish uchun yangi avlod sun’iy intellekt chiplari ishlab chiqilmoqda. AI apparati kengaytiriladigan ish yuklarini boshqarish uchun protsessorlarni, neyron tarmoqlar uchun maxsus maqsadli o‘rnatilgan kremniyni, neyromorfik chiplarni va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Nvidia, Qualcomm va AMD kabi yirik tashkilotlar murakkab sun’iy intellekt hisoblarini bajara oladigan chiplarni yaratmoqda. Sog‘liqni saqlash va avtomobilsozlik ushbu chiplardan foyda ko‘radigan sohalar bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytsak, sun’iy intellekt va virtual reallik integratsiyasi biz tajriba qiladigan raqamli kontentni rivojlantirish kuchiga ega. AI qo‘llab-quvvatlaydigan texnikalarni mashinalardan foydalanib o‘rganish orqali, VR dasturchilari foydalanuvchilarning xatti-harakatlariga moslasha oladigan, foydalanuvchi savollariga javob beradigan, va hatto muayyan vaqtda foydalanuvchi hissiyotlarini aniqlab javob beradigan tajribalarni yarata olishadi. Sun’iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, biz virtual reallikda sun’iy intellektning yanada innovatsion va

qiziqarli ilovalarni ko‘rishni kutishimiz mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt intellektning hisoblash modellarini aks yetadi. Intellektni muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, tilni qayta ishlash va hokazolar uchun dasturlashtirilishi mumkin bo‘lgan tuzilmalar, modellar va operatsion funksiyalar sifatida ta’riflash mumkin. Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari ko‘plab sohalarda allaqachon olingan. Sun’iy intellektni qo‘llaydigan tashkilotlar noto‘g‘ri va xatolarni bartaraf etish uchun relizdan oldin sinovlarni o‘tkazishi kerak. Dizayn, modellar mustahkam bo‘lishi kerak. Sun’iy tizimlarni chiqargandan so‘ng, korxonalar turli ssenariylarda doimiy ravishda monitoring qilishlari kerak. Tashkilotlar standartlarni yaratishi va qo‘llab-quvvatlashi va yaxshiroq qaror qabul qilish uchun turli fanlardan mutaxassislarni yollashi kerak. Sun’iy intellektning ob’yektiv va kelajakdagi maqsadlari insonning barcha murakkab faoliyatini avtomatlashtirish orqali xatolar va noto‘g‘ri qarashlarni bartaraf etishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nuraliev F.M., G‘iyosov U.E., Jiyanov O.P. Virtual reallik integratsiyasi va ta’limda muhitni 3D modellashtirishdan foydalanish . 1.Xalqaro konferensiya.

Axborot fanlari va kommunikatsiya texnologiyalari Icisct 2019 Ilovalar, tendentsiyalar va imkoniyatlar, 2019 yil noyabr, Toshkent O‘zbekiston 4-6 https:// doi.org/ 10.1109/ ICISCT47635.2019.9011899.

2. Nuraliev F.M., Ibodullayev SN, (2021), Milliy meros obyektlarini gamifikatsiya texnologiyasi asosida o‘rganish, Axborot fanlari va kommunikatsiyalarini qo‘llash texnologiyalari bo‘yicha xalqaro konferensiya, ISCT120 Imkoniyatlar, 3-5 noyabr, 2021- yil, Toshkent O?zbekiston,

3. Ibodullayev S.N, Bahromov AA (2020), 'Ijodiy ta’lim uchun virtual reallikni amalga oshirishning turli xil usullari va o‘quv jarayonida virtual haqiqatni amalga oshirishning 5 usuli', International Journal of Engineering and Information

THE CHALLENGES ASSOCIATED WITH DIGITAL PROFESSIONS AND THEIR TRAINING

Mallayev O.U. - Perfect universiteti, tffd (PhD), dotsent
Yunusova D.A. - Perfect universiteti, assistant

Annotation: The field of digital professions presents several significant challenges, particularly in terms of training and education. As technology evolves rapidly, educational institutions and training programs must continuously update their curricula to stay relevant. This requires incorporating the latest technological advancements and ensuring that students receive practical, hands-on experience. Additionally, the increasing demand for skilled digital professionals highlights the urgent need to address the skills gap. Developing both technical and soft skills is

crucial for preparing individuals for the modern digital workplace. Furthermore, promoting accessibility and diversity in training programs is essential to foster innovation and inclusivity within the industry. This annotation explores these challenges and underscores the importance of adaptive, comprehensive, and inclusive training strategies in the digital age.

Aim: The aim of this theme is to explore and address the multifaceted challenges associated with training and educating individuals for digital professions. This includes examining the need for constantly updated curricula, integrating hands-on practical experience, bridging the skills gap, and developing both technical and soft skills. Additionally, the theme seeks to highlight the importance of making training programs accessible and inclusive to ensure a diverse and well-prepared workforce that can meet the evolving demands of the digital age.

Methodology: To investigate the challenges associated with digital professions and their training, a comprehensive and multifaceted methodology will be employed. This methodology will include:

Literature Review: Conduct a thorough review of existing academic and industry literature on digital professions, their evolving nature, and the current state of training programs; Identify key challenges and trends from previous studies and reports.

Surveys and Questionnaires: Develop and distribute surveys and questionnaires to educational institutions, training providers, and professionals in digital fields; Collect quantitative and qualitative data on current training practices, perceived challenges, and the effectiveness of different training methods.

Keywords: Digital professions, professional training, curriculum development, technological advancements, hands-on experience, skills gap, technical expertise, soft skills, workforce demand

Main part. The advent of the digital age has ushered in a myriad of new professions, each demanding a unique set of skills and expertise. As technology continues to evolve at an unprecedented pace, the training and education of individuals entering these digital professions have become increasingly complex and challenging. Educational institutions and training programs must constantly adapt to keep up with technological advancements, ensuring that their curricula remain relevant and comprehensive. Additionally, the need for practical, hands-on experience is more critical than ever, as theoretical knowledge alone is insufficient to meet the demands of the modern digital workplace. The growing demand for skilled digital professionals further exacerbates these challenges, highlighting the importance of bridging the skills gap and developing both technical and soft skills. Moreover, making training accessible to a diverse population is essential to fostering innovation and inclusivity within the digital sector**.**

Rapid Technological Advancements. One of the primary challenges in training for digital professions is the rapid pace of technological advancements. The technology landscape is continuously evolving, with new tools, platforms, and methodologies emerging at an unprecedented rate. Educational institutions and

training programs must constantly update their curricula to keep pace with these changes. This requires significant investment in resources and ongoing professional development for educators to ensure they remain current with the latest industry trends.

Skills Gap and Workforce Demand. The growing demand for skilled digital professionals has highlighted a significant skills gap in the labor market. Many training programs struggle to produce graduates with the competencies required by employers. This gap is often due to outdated curricula, a lack of alignment between educational programs and industry needs, and insufficient practical training opportunities. Employers seek individuals who not only possess technical skills but also demonstrate problem-solving abilities, creativity, and adaptability—skills that are not always adequately covered in traditional educational settings.

Practical, Hands-on Experience. Theoretical knowledge alone is insufficient for preparing individuals for the challenges of digital professions. Practical, hands-on experience is essential for developing the skills needed to succeed in a real-world environment. Training programs must incorporate experiential learning opportunities, such as internships, project-based learning, and lab work, to ensure students can apply their knowledge effectively. This hands-on experience helps bridge the gap between theory and practice, providing learners with a more comprehensive understanding of their field.

Integration of Soft Skills. While technical expertise is crucial, soft skills such as communication, teamwork, and leadership are equally important in digital professions. The ability to work collaboratively, manage projects, and communicate effectively with both technical and non-technical stakeholders is essential. Training programs must therefore emphasize the development of these soft skills alongside technical training. This holistic approach prepares individuals to navigate the complexities of the digital workplace and succeed in their careers.

Ключевые слова. Художественное произведение, анализ, знания, навыки, интеграция, междисциплинарная коммуникация, история, биология, география, педагогическое мастерство.

Annotation. This article covers the integration and study of the work of art in the process of its analysis in relation to the sciences. To do this, it is reflected that a thorough study of history, spiritualism, geography, biology and other subjects should initially be started with the pedagogical skills of future teachers.

Keywords. Work of art, analysis, knowledge, skills, integration, interdisciplinary communication, history, biology, geography, pedagogical skills.

Adabiyot va madaniyatni rivojlantirishga qaratilayotgan sa'y-harakatlar bugungi kunda o'z samarasini berayotganligi ko'zni quvontiradi. Bunday targ'ibot va tashviqot ishlari ta'lim sohasida ham sezilarli darajada o'z natijasini ko'rsatmoqda. Yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishlari buyuk mutafakkirlarimiz ijodiga bo'lgan hurmat va e'tibor tuyg'ularini shakllantirib kelmoqda. Jumladan, bu kabi sa'y-harakatlar bo'lajak o'qituvchilar uchun ham unib-o'sib kelayotgan yosh avlod bilan ishlashda katta mas'uliyat ekanligini bilgan holda astoydil intilayotganlari o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy sababi shundaki, ularning bilim va salohiyatlari qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, o'quvchilarning ham fikrlay olish darajasi yanada yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarga zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerakligini unutmasligimiz lozim. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning har jabhada faol bo'lib, o'z ustida tinmay ishlashi kerakligini anglatadi. O'zbek adabiyoti ta'limida mazmuniy uzviylikni ta'minlashda tabiiyki, o'quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzluksizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Chunki o'quvchilarning barchasi badiiy asarni o'qib, tahlil qila olishlari lozimdir. Ushbu masalaning samarali yechimlari — adabiyot fanlarini integratsiyalash va uzviylikka yordam beradigan o'qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi. Davlat ta'lim standartida o'quvchi badiiy asarni to'liq o'qishi ko'nikmasini shakllantirishni alohida qayd etilgan. Bunda o'qituvchilarga o'quvchilar o'qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro'yxati beriladi. O'qituvchi tavsiya qilingan ro'yxatdagi adiblar va asarlarni o'quvchilarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'zi tanlaydi. Bunda o'quv yili davomida o'tilgan asarlar soni muhim rol o'ynamaydi, tanlangan asarlar to'liq o'qiladi va badiiy matn atroflicha tahlil qilinadi.

Adabiyotning boshqa fanlar bilan o'zaro chamcharchas ekanligini, qolaversa, o'sha fanlarni chuqur bilish lozim. Adabiyot tarix, geografiya, musiqa, biologiya, zoologiya, ruhshunoslik kabi bir nechta fanlar bilan uzviy bog'langan holda muhokama qilinadi. Badiiy asarlarning mazmun mohiyatini anglab yetish uchun ushbu fanlarga murojaat qilinadi. Bunday jarayon esa o'z navbatida integratsiyalab o'rganish usuli deyiladi. Ma'lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud

bo‘lgan materiallarni ma’lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etish ko‘zda tutiladi. Integratsiyalashgan ta’lim va fanlararo aloqa bir-birini to‘ldiradigan ikki xil ma’no anlatadi. Fanlararo aloqada o‘quvchining ma’lum bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o‘quv fanlari orasida o‘rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi. Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya’ni umuman fanlar, o‘quv fanlari, ularning bo‘lim va mavzulari bo‘yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o‘rganilgan masalaga xos bo‘lgan yetakchi g‘oyalar hamda hodisalarni o‘quvchilar ongiga mukammal tarzda namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi.

Pedagogik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari adabiy ta’limi jarayonini integratsiyalashning quyidagi bosqichlarini ko‘rib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘ladi:

• o‘quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi (o‘zaro bog‘liqlik);

• oliy o‘quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi (o‘zaro hamkorlik);

• adabiyot o‘qitish metodikasi kafedrasi va maktab o‘quvmetodik birlashmalari integratsiyasi;

•ilmiy-o‘quv va amaliy markazlar integratsiyasi (bilim, amaliyot va ko‘nikma);

•talabalarni ma’lum yo‘nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi;

• mutaxassislar va talabalarning ijodiy jamoasi integratsiyasi bugungi kunda amaliyotda samarali tarzda qo‘llanib kelinmoqda.

Integratsiyalab o‘rganish Shayxzodaning 5-sinf «Adabiyot» darsligidan o‘rin olgan «Iskandar Zulqarnayn» dostonini o‘tishda tarix fani; O‘.Hoshimovning «Dunyoningishlari» qissasini o‘rganishda ruhshunoslik fani; Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasini o‘rganishda geografiya; Janni Rodarining 6-sinf «Adabiyot» darsligidan o‘rin olgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hikoyasini o‘rganishda zoologiya; Abdulla Qahhorning «Bemor», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyalari, erkin Vohidovning «Nido» dostonlarini o‘rganishda tarix; Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari, Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi kabi adabiy asarlarning ichki olamiga kirishda zoologiya fanlaridan olgan bilim va ko‘nikmalarga tayanish, ya’ni barcha fanlarni puxta o‘rganish orqali adabiyot olamida yaratilgan barcha asarlarni integratsiyalagan holda sinchiklab o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masalan, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarini mushohada qilish jarayonida bevosita tarix, geografiya va psixologiya bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, bosh qahramon olamining atrofida ro‘y berayotgan voqealarni zukko kitobxon anglashi yanada oydinlashadi. Yozuvchi o‘sha davrda ro‘y berayotgan voqealarni kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirish bilan bir qatorda o‘smir yoshdagi bolaning boshidan kechirgan qiyinchiliklarni, uning ruhiyatidagi holatlarni tasvirlash jarayonida satira va yumorga boy holda aks ettirar ekan uning asl mohiyatini o‘quvchining o‘zi tahlil va talqin qilishiga imkon beradi. O‘smir yoshdagi bolakay ruhiyatidagi holatni hayotiy misollarda aks ettirilishi esa yozuvchi mahoratini ko‘rsatadi.

Badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida fanlar bilan bog‘liqligini inobatga olgan holda o‘rganilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, asar mohiyatini to‘la anglab yetish uchun o‘quvchidan barcha fanlarni puxta o‘rganishlari yuqori saviyadagi tahlillar jarayonini taqdim etishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunday natijaga erishishda esa bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratlarini to‘la namoyon etish uchun turli metodlardan unumli foydalanishlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini yanada samarali bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Chunki, yosh avlodning iste’dodi va iqtidorini to‘la namoyon etishda, dastlab pedagogik faoliyatlari jarayonida ular bilan do‘stona munosabat o‘rnatish orqali ham katta natijalarga erishishga olib keladi. O‘quvchilarning kitobga mehr qo‘yishlari ham o‘qituvchining bilim salohiyatini belgilab beradi. Shunday ekan zamonaviy o‘qituvchidan bilim, iste’dod, qobiliyat va tafakkurini o‘z ish faoliyatlarida o‘quv-tarbiya jarayonlarining insonparvarlashuviga, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda yondashishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 20.02.2018-y. 06/18/ 5349/0792-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF – 5812-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi: an’anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent – 2020. 160 bet.
4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T: Yangi asr avlodi. 2010. 157 bet.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T. 2018. 351 bet.
6. Mavlonova R. Umumiy pedagogika, T: Fan va texnologiya.- 528 bet.
7. Mavlonova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent. 338 bet.
8. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qish metodikasini takomillashtirish. T. 2019. – 112 bet.
9. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. Boshlang‘ich sinf uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 118 bet.
10. National curriculum: Secondary curriculum. Department of Education. Crown Copyright, 2014.
11. http://dic.academic.ru/

Raqamli ta'lim sharoitida kreativ ta'limning o'rni

Sh. Absalamov – TDPU o’qituvchisi

Raqamli axborot manbalari (matn, rasmlar, simulyatsiyalar, multimedia) qiziq mavzu bo‘yicha faktlar, istiqbollar yoki ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi Bular

umumiy auditoriya uchun bir qator mumkin bo‘lgan rollarni bajarish uchun mo‘ljallangan Bular resursdan o‘rganish uchun qanday foydalanish kerakligini aniqlamaydi - ular bir qator maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Raqamli ta'lim texnologiyalari, kreativlik va innovatsiyani tezlik bilan o'rganishga imkon beradi. Bu texnologiyalar, o'quvchilarning fikrini ifodalash, masalalar yechish, yangi yangiliklar qilish va muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan kreativlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga ma'lumotlarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi, shuningdek, ularni o'z fikrlarini ifodalash va ijodiy ishlar qilishga rag'batlantiradi.

Raqamli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilar muhim kritik fikrlash, muammolarni hal qilish va yangiliklarni yaratish qobiliyatini rivojlantirishadi.

Raqamli ta'limning kreativ ta'limda o'rni va rolini ko'rib chiqish uchun quyidagi nuqtalarga e'tibor bering:

1.Kreativlikni rivojlantirish:

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning kreativlik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Virtual qo'llanmalar, interaktiv darsliklar va online ma'lumotlar o'quvchilarning fikrini ifodalash, yangiliklar qilish va muammolarni hal qilishga rag'batlantiradi.

2. O'quvchilarning o'z fikrini ifodalash imkoniyati:

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, o'z masalalariga yechish va o'z mulohazalarini bayon etish imkoniyatini beradi. Bu ularning o'z fikrlarini isbotlash va ijodiy yondashuvlarini amalga oshirishga imkon beradi.

3. Kooperativ o'qitish:

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga kooperativ o'qitishni rivojlantirishga yordam beradi. Virtual hamkorlik platformalari, online chatlar va jamoatchilik dasturlari o'quvchilarni bir-birlari bilan muloqotda bo'lish, fikr almashish va birgalikda yangiliklar qilishga imkon beradi.

4. Masalalar yechish va muammolarni hal qilish:

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga masalalar yechish va muammolarni hal qilish uchun interaktiv darsliklar, onlayn laboratoriyalar va simulyatsiyalar taqdim etadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning muammolarni tahlil qilish, ularni hal qilish uchun eng optimal yechimlarni topish va yangiliklarni yaratishga yordam beradi.

5. Yangiliklarni qabul qilish:

Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga yangiliklarni qabul qilish, ularni mustahkamlash va yangi fikrlar bilan tanishtirish imkoniyatini beradi. Bu, ularni dunyodagi eng so'nggi texnologik yangiliklar bilan tanishtirib, ularni yangi yaratishlar qilishga ilhomlantiradi. Jamiyatda kreativ ta'limning o'rni juda katta ahamiyatga ega, chunki bu o'quvchilarning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishi, muammolarni hal qilish uchun eng optimal yechimlarni topishi va yangiliklarni yaratishga ilhomlantirishi mumkin.

Raqamli ta'lim texnologiyalari bu jarayonni yanada mustahkamlashtiradi va kreativlikni oshiradi.

O‘qituvchining ahamiyati tufayli o‘qituvchilar o‘z kasbini to‘g‘ri bajarishni ta’minlaydigan turli talablarga muhtoj bo‘lgan mutaxassislar ekanligiga kelishilgan. Kasb talablari zamon talabiga ko‘ra rivojlanishda davom etmoqda.

Raqamli davrda, bugungidek, professional o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar yana so‘roq qilinmoqda. Ilgari egalik qilingan talablarga qo‘shimcha ravishda, uni boshqa tegishli talablar bilan qo‘shish kerak

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK SHAKLLAR TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH

Urazova Zulfiya Murtazayevna
Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha
ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.n.,

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida geometrik jism tushunchasini rivojlantirish hamda fazoviy munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘z: fazoviy munosabat, geometrik shakl, obyekt, tushuncha, tasavvur, taqqoslash.

Аннотация: В данной статье описан процесс развития понятия о геометрических фигурах и формирования представления о пространственных отношениях у будущих учителей начальной школы.

Ключевые слова: пространственные отношения, геометрическая фигура, предмет, понятие, воображение, сравнение.

Abstract: This article describes the process of developing the concept of geometric shapes and forming ideas about spatial relationships among future primary school teachers.

Key words: spatial relationships, geometric figure, object, concept, imagination, comparison.

Hozirgi kunda ta’limni tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanishdan ko‘zlangan maqsad atrofimizni o‘rab turgan tabiat, unda ro‘y beradigan hodisa, voqealarni va jamiyatdagi o‘zgarishlarni anglash, tushunib yetish jarayonini zamonaviy usullar vositasida tez yetkazib berishdan iboratdir.

Odamlar tashqi dunyoni turlicha talqin qiladilar va ular haqida turlicha bilimga ega bo‘ladilar. Shuning uchun ham atrofimizdagi olam va undagi hodisalarni o‘quvchilar anglashi uchun turli axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Maktabda o‘qib yurgan bolalar buyum va narsalarning geometrik tuzilishi haqida ozmi-ko‘p tasavvurga ega bo‘ladilar. Ularning bilim va malakalari hali sodda, g‘o‘r bo‘lsada ba’zi buyum va narsalarni tuzilishiga, ko‘rinishiga qarab

farqlay oladilar. Shuningdek, aytilgan gaplarni eshitib qaysi buyum haqida gan ketayotganini anglaydilar va bir to‘p buyumlar orasidan o‘ziga tanish bo‘lganini ajrata oladilar. Bizning maqsadimiz mana shu holatni yanada kuchaytirish, takomillashtirish va tartibga solishdan iborat.

Atrofimizni o‘rab turgan borliqdagi barcha buyum va narsalar qaysidir ma’noda o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Bunday munosabatlarni sodda ko‘z bilan bir qarashda aniqlash qiyin, chunki bu munosabatlar buyumlarning joylashuvida, o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi[2;4]. Natijada, esa geometrik jism tushunchasi shakllanadi. Umuman, bizga tanish bo‘lgan barcha buyumlar geometrik jismlardir. Ammo ularni aniqlash, farqlash va biror xossasiga qarab guruhlarga ajratish uchun aqliy faoliyat zarur. Shu sababli o‘qitish jarayoni shakllanib borayotgan bilimlarga mos holda tashkil qilinishi lozim va geometrik jismlar bilan bajariladigan almashtirishlar, harakatlar tushunarli bo‘lishi muhim. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, o‘quvchilar uchun fazoviy tushunchalar va munosabatlar haqida tasavvur berish davomida ixtiyoriy buyumlar orasida, ularni qaysi xususiyatlari bo‘yicha taqqoslanayotganiga qarab bir necha xil munosabatlar o‘rnatilishi mumkinligini tushunish kerak. Shuni ta’kidlash lozimki, fazoviy munosabatlar buyumlarning o‘zaro joylashuviga, buyumlar shakliga, bir buyumning ikkinchisiga qay darajada aloqadorligiga, biror guruhga tegishli yoki yo‘qligi kabi taqqoslashlar yordamida o‘rnatiladi.

Psixologik va metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qitishning dastlabki pallalarida geometrik tushunchalar faqat gap-so‘zlar orqali, og‘zaki ifodalangan bo‘lib, o‘quvchilar tasavvurida aniq, bir geometrik shakl yoki buyum hali o‘zining haqiqiy ta’rifiga mos kelmagan bo‘ladi. Fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqar ekanmiz, bolalarning u yoki bu fazoviy belgi yoki munosabat bilan tanishuvi, asosan kuzatish orqali amalga oshiriladi-,[2;97] degan xulosaga tayandik. Kuzatish jarayoni esa o‘qituvchining gap-so‘zlari bilan amalga oshiriladi. Fazoviy belgi va munosabatlarni kuzatish davomida bolalar ularni qabul qilishga o‘rganadilar, ya’ni turli tasvir, shakllarida ko‘radilar va o‘qiydilar.

Fazoviy munosabatlarni so‘z bilan ifodalash haqida gapirilganda, biz shu munosabatni o‘quvchilar tasavvurida yetarli darajada ochib beradigan so‘zlar bog‘lashini nazarda tutamiz. "Munosabat" so‘zini biz, barcha sinflarda to‘plamlarning tartiblangan juftligini belgilash uchun emas, balki boshka so‘z birikmalari bilan birgalikda, qaralayotgan figuralar orasidagi bog‘lanishni xarakterlovchi tushuncha (masalan, kesishish munosabati) sifatida ishlatdik. Tajribalarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, munosabatni yuqoridagi ma’noda 2-sinfdanoq qo‘llash mumkin ekan. Birdaniga "fazoviy munosabatlar" so‘z birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq emas. Ammo ta’kidlash lozimki, figuralar orasidagi har bir aniq munosabatni tushunish, o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonida fazoviy obyektlarning geometrik xususiyatlari ko‘rina boshlaydi.

Holat munosabatlari haqidagi tasavvurlar shakllanishida va ri-vojlanishida bolalarning diqqati shu munosabatlarni o‘rnatish uchun ma’lum bir

anik obyekt mavjudligini his kilishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Obyektlarning o‘zaro joylashuvi "tepada", "pastda", "yonida", "bir tomonida" kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Holat munosabati ko‘pincha qaralayotgan obyektlarning umumiy elementlari borligi bilan xarakterlanadi va "tegishli", "ustida yotadi", "kesishadi" so‘zlari bilan ifodalanadi[3;34].

Tartib munosabatining shakllanishi qandaydir usulda berilgan obyektlar qatori bilan yoki berilgan to‘plamni tartiblashga imkon beriladigan alomatlarga bog‘liq. Tartiblash alomatlari turli-tuman bo‘ladi: kuzatuvchiga nisbatan joylashish tartibi, obyektlarni o‘lchamlarga nisbatan tartiblash va hokazo. Asosiy g‘oyasi moslik tushunchasi bilan bog‘lik, munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish uchun shu moslikda qatnashayotgan figuralar yoki to‘plamlarning bir-biriga mos keluvchi elementlarini qidirib topish muhimdir. Shuningdek, o‘quvchilarga qaralayotgan moslik bo‘yicha bir obyektga bitta yoki bir nechta, bir nechta obyektga bitta obyekt mos kelishi mumkinligini tushuntirish lozim.

Bunday munosabatlarni o‘rganar ekanmiz, ular nafaqat figuralar, buyumlar, figura elementlari orasida, balki tabiati bir-biridan tamomila farq qiluvchi obyektlar orasida ham o‘rnatilishi mumkinligini ta’kidlaymiz. Fazoviy munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish jarayonini boshqarish mumkin.

Xulosa o‘rnida, o‘quvchilarni o‘qitish tizimini shunday tashkil etish lozimki, ular qaysi jarayonlar qanday ketma-ketlikda bajarilishini yaxshi o‘zlashtirsinlar. Shuningdek, har bir amal va jarayon o‘qituvchi nazorati ostida bajarilishi muhim. Bunday amal va jarayonlar qaralayotgan tushunchalar ma’nosini ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish: O‘rta va oliy ped.o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. /Bikbayeva N.U., Ibrohimova Z., Qosimov X. –T.: O‘qituvchi, 1995. - 183 b.

2. Galkina O.I. Razvitiye prostranstvennix predstavleniy u detey v nachalnoy shkole.-M.,1961. -126 s.

3. E.Yangabayeva, Z.Urazova. Boshlang‘ich sinflarda geometrik elementlarni o‘rganishda fazoviy munosabatlar (metodik qo‘llanma) "Ma’rifat-madadkor" nashriyoti, T-2003 y.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ТАРБИЯЛАШДА ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ МИЛЛИЙ МЕРОСНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Илхом ХОШИМОВ,
Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика
фанлари илмий тадқиқот институти мустақил изланувчиси

Аннотация. Мақолада ёш авлодни меросни сақлаш ва ундан фойдаланиш лойиҳаларига жалб қилиш, тарихий-маданий миллий меросни ўрганиш муаммолари бўйича мактаб ўқувчилари ва университет талабаларининг

биргаликдаги илмий-тадқиқот ишлари очиб берилган. Бундан ташқари, тарихий-маданий миллий меросини тиклаш ва сақлаш бўйича қидирув ва ўлкашунослик ишлари айтиб ўтилган.

Калит сўзлар. Тарихий-маданий миллий меросни ўрганиш, маданий фаолият, идеал сифат, фуқаролик-давлат ва цивилизация, маънавий ва моддий манбаа, инновацион моделлар.

Аннотация. В статье раскрывается совместная исследовательская работа школьников и студентов вузов по проблемам привлечения подрастающего поколения к проектам по сохранению и использованию наследия, изучению историко-культурного национального наследия. Кроме того, упоминается разведочная и краеведческая работа по восстановлению и сохранению историко-культурного национального наследия.

Ключевые слова. Изучение историко-культурного национального наследия, культурной деятельности, идеального качества, гражданского состояния и цивилизации, духовного и материального ресурса, инновационных моделей.

Annotation. The article reveals the joint research work of schoolchildren and university students on the problems of attracting the younger generation to projects for the preservation and use of heritage, the study of historical-cultural national heritage. In addition, exploration and local lore work on the restoration and preservation of the historical-cultural national heritage is mentioned.

Key words. The study of historical-cultural national heritage, cultural activity, ideal quality, civil-state and civilization, spiritual and material resource, innovative models.

Мактаб таълим тизими жамиятда содир бўлаётган жараёнларга сезгир муносабатда бўлади. Таълимнинг инновацион моделларини қабул қилиш таълим мазмунини, фикрлаш моделларини, хулқ-атвор стереотипларини ва дунёқарашни ўзлаштиришга олиб келади.

Бугунги кунда одамларнинг воқелик билан муносабатларини тартибга солувчи ижтимоий-маданий доминантларга эга бўлган халқ маданияти мактабдаги таълим тизимининг асосига айланиши кераклигига шубҳа йўқ. Халқнинг тарихий тажрибасига ҳурмат ва ўз она халқига дахлдорлик ҳисси, фаолиятнинг фаол ижодий йўналиши, атрофдаги дунё билан уйғунликда яшаш зарурлигини англаш – бу ўқувчилар тарбиясининг асосий йўналишлари саналади.

Халқимизнинг бой маданияти ота ва она каби бола қалбининг ажралмас қисмига, шахсни шакллантирувчи ибтидога айланиши керак. Ватанпарварликни сингдиришни эса ёшликдан бошлаш керак, чунки болалик йиллари, энг аввало, қалб тарбияси шаклланади. Чунки ўзбек халқи ижодида миллатимизнинг ўзига хос хусусиятлари, ўзига хос ахлоқий қадриятлари сақланиб қолган.

Биз ўтган даврга назар солиш орқали у ердан ҳақиқатан ҳам қимматли ва абадий бўлган ҳамма нарсани олиш имкониятига эгамиз. Ахир миллионлаб ўтмишдошларимиз ўз ҳаётлари тажрибаси билан яратган нарсалар фойдасиз бўлиши мумкин эмас. Ўқувчиларда қуйидаги вазифалар шаклланади: ўзини шахс сифатида англаш, шахс сифатида ўз қадр-қимматини қабул қилиш ва тушуниш, дунё билан муносабатлари ва атрофдаги воқеликдаги ўрнини англаш, маданиятнинг рамзий ҳақиқати билан танишиш, ижодий ўзини ўзи англаш, эстетик ривожланиш.

Ўқитувчи ёрқин шахс, ўқувчилар учун маънавий бойитиш манбаи бўлиши ва ўқувчилар қўйилган вазифаларни биргаликда ҳал қилишга интилаётган шериклар бўлиши керак. Шубҳасиз, нафақат ўқитувчининг ўқувчиларга, балки ўқувчиларнинг ҳам ўқитувчига таъсири, бу уни касбий ўзини ўзи тарбиялашга ундайди. К.Д. Ушинский инсонни фақат инсон тарбиялаши мумкинлигини таъкидлади.

Қадриятларга асосланган таълим шахснинг баҳолаш соҳасини ривожлантиришни ўз ичига олади, у табиий равишда ҳиссиётлар ва туйғуларни – ҳамдардлик, севги, ҳурмат, мағрурлик, раҳм-шафқатни мақсадли етиштиришга таянади.

Тарихий-маданий миллий мерос – бу мамлакатнинг фуқаролик-давлат ва цивилизация ўзига хослигининг энг муҳим асосий элементи, унинг бошқа мамлакатлар билан рақобат муносабатларида маданиятни кўпайтириш учун энг муҳим рамзий маънавий ва моддий манбаи бўлиб, тарихий ўтмишни рамзий маънода ўз аҳолиси ва бошқа мамлакатлар халқларининг онгида мамлакат қиёфасини бирлаштириш орқали мустаҳкамланади.

Бир томондан, янги тарихий шароитларда анъанавий маданиятнинг кўпайиши жамият ривожланишининг узлуксизлигини акс эттиради, тарихий тажриба билан акс эттирилган аксиологик тизим ва одат ҳуқуқ нормаларини қўллаб-қувватлайди, ижтимоий-маданий муассасалар ва жамиятнинг яхлитлиги асосида жамият интеграциясининг ҳал қилувчи омили бўлиб хизмат қилади. Шунингдек, жамиятнинг ички тузилишини тартибга солади, уни аҳолининг аксарият қисми томонидан тақсимланадиган принциплар асосида бирлаштиради.

Бошқа томондан, тарихий-маданий миллий мерос – бу бошқа халқлар маданияти ютуқларини маълум бир жамиятга ва танлаш натижасида тарихан шаклланган ўзига хос маданиятга мослаштирадиган кучли ижтимоий-маданий пойдевор бўлиб, бу гетерогенликни бир хил ижтимоий-маданий муносабатларга киритиш, прогрессив ривожланиш жараёнларини тезлаштириш имконини беради, ривожланишнинг зарур манбаи сифатида маданий шаклларнинг хилма-хиллигини кучайтиради.

Барча асрларда одамлар маънавий ва ахлоқий тарбияни қадрлашган. Замонавий жамиятда рўй бераётган чуқур ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар бизни юртимизнинг келажаги, унинг ёш авлоди ҳақида ўйлашга мажбур қилади.

Шунинг учун маънавий-ахлоқий тарбия муаммосининг долзарблиги камида тўртта қоида билан боғлаш мумкин:

биринчидан, бизнинг жамиятимиз нафақат билимга, балки мукаммал шахсий хусусиятларга эга бўлган, билимли, юксак ахлоқли одамларни тайёрлаши керак;

иккинчидан, замонавий дунёда инсон ҳар куни боланинг заиф ақли ва ҳис-туйғуларига, ҳали ҳам пайдо бўлаётган ахлоқ соҳасига тушадиган ижобий ва салбий таъсир кўрсатадиган турли хил кучли манбалар билан ўралган ҳолда яшайди ва ривожланади;

учинчидан, таълимнинг ўзи маънавий-ахлоқий тарбиянинг юқори даражасини кафолатламайди, чунки таълим – бу шахснинг кундалик хулқ-атворида унинг ҳар бир инсонга ҳурмат ва хайрихоҳлик асосида бошқа одамларга бўлган муносабатини белгилайдиган шахс сифати;

тўртинчидан, ахлоқий билимлар билан қуролланиш ҳам муҳимдир, чунки улар нафақат ўқувчиларни замонавий жамиятда тасдиқланган хулқ-атвор нормалари тўғрисида хабардор қилади, балки атрофдаги одамлар учун ушбу ҳаракатнинг оқибатлари тўғрисида тушунча беради.

Агар биз мамлакатимиз тарихига, келиб чиқишимизга назар ташласак, Ватанимизнинг идеали доимо муқаддаслик, маънавият ва ватанга муҳаббат бўлганлигини кўрамиз.

Шу муносабат билан кўп асрлик маданий анъаналарни сақлаш, ўрганиш ва оммалаштириш, тарихий-маданий миллий мерос ёдгорликларни тиклаш бўйича ишларни фаоллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирларни таъминлаш муҳимдир.

Ёш авлодни меросни сақлаш ва ундан фойдаланиш лойиҳаларига жалб қилиш алоҳида аҳамиятга эга. Бизнинг фикримизча, ушбу йўналишдаги ишларнинг асосий шакллари қуйидагилар бўлиши мумкин:

1. Қуйидаги йўналишлар бўйича тарихий-маданий миллий меросни ўрганиш муаммолари бўйича мактаб ўқувчилари ва университет талабаларининг биргаликдаги илмий-тадқиқот ишлари:

а) энг қадимги мерос ва инсоннинг ижодий бошланишининг келиб чиқиши: даъво қилинган тадқиқотлар ва кутилган натижалар мамлакатимиз ҳудудида инсониятнинг қадимий тарихининг кенг кўламли манбасини ташкил қилиши керак. У кенг хронологик (инсоният маданияти пайдо бўлган пайтдан тош асрининг охиригача) ва ҳудудий диапазонларга эга бўлган археологик ва антропологик материалларга асосланган.

б) Самарқанд ва Бухоро археологик антикварлари: эълон қилинган йўналиш доирасида бирлаштирилган лойиҳаларнинг асосий мазмуни қадимги ва ўрта асрлар тарихини тушуниш учун зарур бўлган илгари номаълум бўлган археологик материалларни тизимлаштириш ва илмий муомалага киритиш, замонавий маданият усулларини қўллаш асосида моддий маданият ёдгорликларини янгидан талқин қилиш, археология ва табиий фанлар, объектларнинг сақланишини таъминлашга янги ёндашувларни ишлаб чиқиш,

Бир қатор лойиҳаларнинг ажралмас қисми турли даврларнинг маълумот ёдгорликлари бўйича дала тадқиқотларини ўтказишдир.

в) Самарқанд ва Бухоро тарихининг цивилизация ва геосиёсий хусусиятлари: тадқиқотнинг тарихий йўналиши республика ва шаҳар ривожланишининг цивилизация ва геосиёсий асосларини, ижтимоий-иқтисодий, демографик, этник, конфессионал ва бошқа тарихий омилларнинг тарихий ривожланишига таъсирини ҳар томонлама ўрганишни ўз ичига олади. Самарқанд тарихидаги давлат тамойилининг роли ва аҳамиятини таҳлил қилиш. Турли хил ноёб тарихий омиллар азалдан маданият, маънавий-ахлоқий қадриятлар, халқ менталитети ва кундалик ҳаётга таъсир кўрсатган.

г) музей ва архив фондлари: маданий меросга киришнинг янги сифатини таъминлаш: музей ва архив фондлари вақт ва маконда жамланган дунё халқларининг тарихий-маданий миллий меросини ифодаловчи махсус маданий ҳодисадир. Бирламчи маълумотларни сақлаш билан бир қаторда музейлар ва архивларнинг вазифаси фондларда сақланаётган коллекцияларни илмий ўрганиш бўлиб қолмоқда, улар шу нуқтаи назардан маданиятнинг турли ҳодисалари ва жиҳатлари бўйича тадқиқотларнинг асосий манбаларидан бири бўлиб хизмат қилади.

2. Она заминнинг тарихий-маданий миллий меросини тиклаш ва сақлаш бўйича қидирув ва ўлкашунослик ишлари:

1) Тарихга саёҳатлар (тарихчилар ва олимлар, қадимги одамлар, маҳаллий тарихчилар, ёш изловчилар билан учрашувлар, музейларга ташриф буюриш, ўқувчиларни тарихий ва архив ишлари билан таништириш, миллий тажриба тубидан ўсиб чиққан қадимий таълимот ва технологияларни ўрганиш).

2) Самарқанд тарихи билан танишиш (умумий ва маҳаллий), шаҳар ва қишлоқларни, уларнинг тарихий ёдгорликлари ва объектларини текшириш, гулхан атрофида тарихий мавзуларда суҳбатлар, тарихий мавзуларда стол ва спектаклларни саҳналаштириш, миллий байроқни шарафлаш билан боғлиқ маросимлар ва бошқалар.

3) табиат қўйнига саёҳат.

4) хазина қидириш (унинг улуғвор аждоди, қаҳрамонлик жанги ёки миллий қаҳрамоннинг беқиёс жасорати, йўқолган қишлоқ ёки шаҳар, унутилган халқ ўйинлари ва байрамлари).

5) миллий ҳунармандчиликнинг буюк анъаналарини ўрганиш (халқ ҳунармандчилиги, йўқолиб бораётган ҳунармандчиликни тиклаш, турли мутахассисликларни ривожлантириш).

6) халқ фолклорига саёҳатлар (қадимий ва замонавий халқ урф-одатлари ва маросимлари тўплами, қўшиқлар, рақслар ва ўйинлар, байрамлар, халқ фолклор гуруҳларини яратиш).

7) чет элда ўзбек адабиёти ва маданиятини ўрганиш, ўзларини ўзбек деб ҳисоблайдиган, лекин ҳеч қачон ўз ватанида бўлмаган болалар билан алоқа ўрнатиш.

Мактаб ўқувчилари қадимги халқларнинг диний ва фалсафий дунёқараши, уларнинг атрофдаги дунёни тушунтириши, космосни ташкил этиш талқини билан танишадилар. Уларда тур, миллат, миллий давлатнинг тарихий илдизлари, тарихий жиҳатдаги вақтинчалик ва фазовий ўзгаришлар, шахс, давлат ва яшаш муҳитининг ўзаро муносабатлари, уларнинг халқнинг шаклланиш жараёнига таъсири табиати очиб берилади.

Хулоса қилиб айтганда, Мактабнинг музейлар, архивлар билан ўқув жараёнидаги ўзаро алоқаси ўқувчиларнинг бадиий-эстетик, ахлоқий, ватанпарварлик тарбияси ва қидирув-тадқиқот фаолиятига ёрдам беради. Бу ўқувчиларга ўз она юрти тарихини, шу жумладан, ватандошларининг маданий меросини ўрганиш имкониятини беради. Бундан ташқари, музейлар ўқувчиларнинг бўш вақтларини маданий ўтказиш, ўқувчиларнинг қизиқарли одамлар билан танишишини тарғиб қилиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонун. www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори. www.lex.uz
3. “Алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудудларни ташкил этиш ва уларни сақлаш тартиби тўғрисида низом”. www.lex.uz
4. Кучмаева, И. К. Культурное наследие: современные проблемы / И. К. Кучмаева. М.: Наука, 1987. – 173 с.
5. Лебедев, А. В. Музей как системообразующее предприятие (на примере Соловецкого архипелага) / А. В. Лебедев // 60 параллель. – 2005. – №2. – С. 22.
6. Словарь музейных терминов. Новая музеология [Электронный ресурс]. – Сектор Российской музейной энциклопедии. – 2002. – Режим доступа: http://www.museum.ru/rme/dictionary.asp?109 (Дата обращения: 05.04.2015)
7. Стернз, Э. Избранное: Религия, культура, литература / Э. Стернз. – Книга света. –М.: РОССПЭН, 2004. – 57 с.
8. Fowler, Peter The Past in Contemporary Society: then, now / Peter Fowler. – London: Routledge, 1992. – 197 p.

ИНТЕГРАЦИЯ РОБОТОТЕХНИКИ И ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ (VR) В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ

Исмаилов Руслан Зодиевич - Преподаватель кафедры общедисциплинарных предметов университета «Янги аср»

Аннотация. Интеграция робототехники и виртуальной реальности в образовательные процессы представляет собой перспективное направление,

способное повысить мотивацию и вовлеченность студентов. Проблема заключается в недостаточном использовании современных технологий в обучении. Решение этой проблемы возможно через разработку и внедрение методологии интеграции VR и робототехники в учебные программы. В статье анализируются существующие подходы, и оцениваются результаты. В результате использование VR и робототехники улучшает усвоение материала и повышает интерес к обучению.

Ключевые слова*:* робототехника, виртуальная реальность, образовательные технологии, интерактивное обучение, мотивация студентов, учебные программы, инновационные методы.

Современное образование находится на пороге новой эры, где инновационные технологии играют ключевую роль в трансформации учебного процесса. Две из таких технологий, робототехника и виртуальная реальность (VR), представляют собой мощные инструменты, которые могут существенно изменить подходы к обучению и подготовке специалистов будущего. Интеграция этих технологий в образовательные процессы открывает множество возможностей для создания более интерактивной, увлекательной и эффективной учебной среды.

Робототехника, как дисциплина, охватывает широкий спектр знаний, от механики и электроники до программирования и искусственного интеллекта. Она не только развивает технические навыки, но и способствует развитию критического мышления, креативности и способности к решению комплексных проблем. Введение робототехники в учебные программы позволяет студентам применять теоретические знания на практике, участвуя в разработке и создании реальных проектов. Это способствует более глубокому пониманию изучаемых предметов и повышает мотивацию к обучению.

Виртуальная реальность, в свою очередь, предоставляет уникальные возможности для создания иммерсивных образовательных опытов. С помощью VR студенты могут погружаться в виртуальные миры, где они могут исследовать сложные концепции и явления в безопасной и контролируемой среде. Виртуальные лаборатории, симуляции и интерактивные учебные материалы позволяют учащимся получать практический опыт, который сложно или невозможно воспроизвести в реальном мире. Например, в области медицины VR может использоваться для тренировки хирургических навыков, а в инженерии – для моделирования и тестирования различных конструкций.

Интеграция робототехники и виртуальной реальности в образовательные процессы не только обогащает учебные программы, но и способствует подготовке студентов к требованиям современной и будущей профессиональной среды. Эти технологии помогают развивать навыки работы в команде, коммуникации и адаптации к быстро меняющемуся технологическому ландшафту. Кроме того, они способствуют развитию интереса к науке и технике среди учащихся, что может положительно сказаться на выборе карьеры в этих областях.

Однако, несмотря на очевидные преимущества, интеграция этих технологий в образовательные процессы сталкивается с рядом вызовов. Необходимы значительные инвестиции в инфраструктуру и оборудование, а также в обучение преподавателей. Важно также разработать методические подходы, которые позволят максимально эффективно использовать возможности робототехники и виртуальной реальности в учебном процессе.

В заключение, можно сказать, что интеграция робототехники и виртуальной реальности в образовательные процессы представляет собой важный шаг на пути к модернизации системы образования. Эти технологии имеют потенциал значительно улучшить качество и доступность образования, подготовить студентов к вызовам будущего и способствовать развитию инновационного мышления. Как учителя, так и ученики должны быть готовы к этим изменениям, чтобы максимально воспользоваться преимуществами, которые они предоставляют.

Методы применения VR технологий для изучения робототехники и их подробный анализ:

Интеграция виртуальной реальности (VR) в изучение робототехники открывает новые горизонты для образовательных процессов, делая их более интерактивными и эффективными. Рассмотрим основные методы применения VR-технологий в области робототехники и проанализируем их преимущества и недостатки.

1. Виртуальные симуляторы и лаборатории

Описание метода:

Виртуальные симуляторы и лаборатории позволяют студентам работать с виртуальными моделями роботов и механизмов. Эти симуляторы могут воспроизводить различные сценарии и условия, которые сложно или дорого воспроизвести в реальной жизни.

Преимущества:

- Безопасность и доступность: Студенты могут экспериментировать с различными робототехническими системами без риска поломки оборудования или травм.
- Экономия ресурсов: Нет необходимости в приобретении дорогостоящего оборудования и материалов.
- Гибкость обучения: Возможность изменения параметров и условий экспериментов позволяет студентам лучше понять влияние различных факторов на работу роботов.

Недостатки:

- Ограниченность реализма: Несмотря на высокий уровень детализации, симуляторы не всегда могут точно воспроизвести физические взаимодействия и нюансы реальной работы роботов.
- Зависимость от технической оснащенности: Для работы с VR-симуляторами требуется мощное компьютерное оборудование и VR-гарнитуры, что может быть недоступно всем образовательным учреждениям.

2. Виртуальные тренажеры для программирования роботов

Описание метода:

С помощью VR-тренажеров студенты могут программировать виртуальных роботов и наблюдать за их поведением в различных сценариях. Такие тренажеры позволяют учащимся отрабатывать навыки программирования и тестировать алгоритмы в интерактивной среде.

Преимущества:

- Практическое обучение: Студенты получают возможность практически применять теоретические знания по программированию роботов.
- Мгновенная обратная связь: Виртуальные тренажеры позволяют сразу увидеть результаты работы и корректировать ошибки в режиме реального времени.
- Развитие навыков: Работа с виртуальными роботами помогает развивать навыки логического мышления, алгоритмического подхода и решения проблем.

Недостатки:

- Недостаток физического взаимодействия: Отсутствие физического контакта с роботами может ограничивать понимание некоторых аспектов их работы.
- Требования к программному обеспечению: Для создания и использования VR-тренажеров необходимо специализированное программное обеспечение, которое может быть дорогостоящим и требовать обучения для преподавателей.

3. Виртуальные учебные курсы и лекции

Описание метода:

Создание виртуальных учебных курсов и лекций, где преподаватели могут использовать VR для демонстрации работы роботов, механизмов и систем, а также для проведения интерактивных занятий и практических упражнений.

Преимущества:

- Интерактивность: VR позволяет сделать лекции и курсы более захватывающими и интерактивными, что способствует лучшему усвоению материала.
- Дистанционное обучение: Возможность проведения занятий в VR позволяет студентам участвовать в обучении из любой точки мира.
- Визуализация сложных концепций: VR позволяет наглядно демонстрировать сложные механизмы и процессы, что облегчает понимание.

Недостатки:

- Сложности в организации: Требуются значительные усилия и ресурсы для создания качественных VR-курсов и лекций.

- Необходимость технической поддержки: Образовательные учреждения должны обеспечить техническую поддержку и обучение для преподавателей и студентов.

4. Совместные VR-проекты и коллаборации

Описание метода:

Студенты могут работать над совместными проектами в виртуальной среде, где они могут создавать, тестировать и оптимизировать робототехнические системы в сотрудничестве с другими учащимися.

Преимущества:

- Развитие навыков командной работы: Совместная работа в VR способствует развитию навыков коммуникации и сотрудничества.
- Международные проекты: Возможность сотрудничества с учащимися и специалистами из других стран и регионов.
- Практическое применение: Студенты могут работать над реальными проектами, улучшая свои практические навыки и знания.

Недостатки:

- Координационные сложности: Работа в виртуальной среде требует высокой степени координации и организации.
- Технические ограничения: Не все образовательные учреждения могут предоставить необходимое оборудование и программное обеспечение для работы над совместными VR-проектами.

Результаты от применения вышестоящих методов:

Углубленное понимание теории: Виртуальные лаборатории позволяют студентам визуализировать и практиковать теоретические концепции, что способствует лучшему усвоению материала.

Развитие практических навыков: Студенты могут отрабатывать программирование и настройку роботов в безопасной и контролируемой среде, улучшая свои практические способности.

Экономия ресурсов: Снижаются затраты на дорогостоящее оборудование и материалы, так как все эксперименты проводятся виртуально.

Повышение безопасности: Исключается риск травм и поломок оборудования, что делает учебный процесс безопасным для студентов.

Мгновенная обратная связь: Студенты получают немедленную обратную связь на свои действия, что позволяет быстро исправлять ошибки и улучшать навыки.

Гибкость обучения: Виртуальные лаборатории могут быть настроены под разные уровни подготовки и индивидуальные потребности студентов, обеспечивая персонализированный подход к обучению.

Ускорение учебного процесса: Возможность быстро настраивать и проводить эксперименты позволяет ускорить процесс обучения и сделать его более динамичным.

Доступ к разнообразным сценариям: Студенты могут работать с различными моделями и сценариями, что расширяет их опыт и готовит к реальным профессиональным задачам.

Подготовка к реальной работе: Работа в виртуальных лабораториях помогает студентам адаптироваться к условиям реальной профессиональной деятельности, повышая их готовность к будущей карьере в робототехнике.

Обсуждение

Преимущества и недостатки интеграции VR и робототехники

Преимущества:

1. Интерактивное обучение: Студенты могут взаимодействовать с учебным материалом в реальном времени, что способствует лучшему пониманию и запоминанию информации.

2. Практическое обучение: Возможность безопасного экспериментирования с роботами и виртуальными моделями позволяет студентам отрабатывать навыки без риска.

3. Повышение мотивации: VR и робототехника делают обучение более увлекательным, что стимулирует студентов к активному участию в учебном процессе.

Недостатки:

1. Технические сложности: Использование VR и робототехники требует наличия соответствующего оборудования и программного обеспечения, а также навыков их использования.

2. Необходимость дополнительного обучения: Преподаватели должны проходить специальное обучение для эффективного использования этих технологий.

3. Высокие затраты: Внедрение VR и робототехники в учебные программы может потребовать значительных финансовых вложений.

Рекомендации для практического применения

На основе полученных результатов можно предложить следующие рекомендации для внедрения VR и робототехники в образовательные процессы:

1. Постепенное внедрение: Начинать с пилотных проектов и постепенно расширять использование VR и робототехники в учебных программах.

2. Обучение преподавателей: Организовывать специальные курсы и тренинги для преподавателей, чтобы они могли эффективно использовать новые технологии.

3. Обеспечение доступности: Разрабатывать решения, которые позволяют снизить затраты на внедрение VR и робототехники, например, использовать открытые программные ресурсы и доступное оборудование.

Перспективы дальнейших исследований

Будущие исследования могут быть направлены на изучение долгосрочных эффектов интеграции VR и робототехники, а также на разработку и тестирование новых образовательных методик с использованием

этих технологий. Также целесообразно провести исследования с более крупной выборкой и в различных образовательных контекстах для подтверждения и расширения полученных результатов.

Интеграция робототехники и виртуальной реальности в образовательные процессы демонстрирует значительный потенциал для улучшения качества обучения. Повышение успеваемости, мотивации и вовлеченности студентов подтверждает эффективность этих технологий. Важно продолжать исследования в этом направлении и разрабатывать практические рекомендации для успешного внедрения VR и робототехники в образование. Преподаватели отметили улучшение взаимодействия и активности на занятиях, а также повышение уровня понимания сложных концепций. Результаты исследования подтверждают, что использование современных технологий в обучении способствует развитию технических навыков и подготовке студентов к профессиональной деятельности.

Список литературы

1. Dede, C., & Richards, J. (Eds.). (2018). *Virtual, Augmented, and Mixed Realities in Education*. Springer.
2. "How Virtual Reality is Changing Education," EdTech Magazine. URL: [https://edtechmagazine.com/k12/article/2019/01/how-virtual-reality-changing-education]
3. "The Impact of Robotics on Education," Robotics Business Review. URL: [https://www.roboticsbusinessreview.com/education/the-impact-of-robotics-on-education/]
4. "Using Robotics to Teach STEM," Education Week. URL: [https://www.edweek.org/ew/articles/2018/09/26/using-robotics-to-teach-stem.html]
5. "VR in Education: How Virtual Reality Benefits Learning," ViewSonic Library. URL: [https://www.viewsonic.com/library/education/vr-in-education-how-virtual-reality-benefits-learning/]

ИНФОРМАТЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

Назаров Илхомжон Усманалиевич
и.о. доцент кафедры математики и ИТО,
доктор философии по педагогическим наукам

Аннотация. В статье рассматривается процесс формирования информационного общества; исследуется влияние информационных технологий на развитие творческой деятельности будущих учителей; раскрывается применение новых современных технических и программных средств в вузах; выявлен комплекс педагогических условий, которые оказывают содействие совершенствованию подготовки будущего учителя; использование информационных технологий помогает достигнуть

необходимых образовательных целей, эффективно сформировать педагогическую направленность.

Ключевые слова: педагогическое образование, информационные технологии, информационное общество, компетентность, компетентностный подход, современная информационная технология, модернизация образования.

Повышение качества педагогического образования является необходимым условием формирования информационного общества и конкурентоспособной экономики. На современном этапе развития нашей республики активное внедрение информационных технологий в сферу образования является национальным приоритетом. Внедрение в учебно-воспитательный процесс информационных технологий является требованием времени. Поэтому современное высшее образование должно быть направлено на подготовку компетентных специалистов, в частности будущих учителей, которые имеют соответствующий уровень компетентности.

Доминирующей тенденцией развития современной цивилизации является переход к информационному обществу, в котором объектами и результатами труда подавляющей части населения станут информационные ресурсы и знания, что соответственно требует основательной подготовки всех членов социума к использованию информационных технологий в своей профессиональной деятельности, в том числе, и педагогов [2].

Нынешний этап развития информационного общества характеризуется процессом тотальной информатизации. Особенность ее заключается в том, что главным видом деятельности в сфере образования является *сбор, накопление, хранение, обработки, передачи* и *использования информации*, которая осуществляется на основе использования средств информационных технологий [3]. Этот факт необходимо учитывать в процессе подготовки будущих учителей с учётом компетентностного подхода.

Компетентностный подход в образовании связан с личностно ориентированным и деятельностным подходами к обучению, поскольку касается того, кто учится, и может быть реализованным и проверенным в процессе выполнения конкретной личностью определенного комплекта действий [2].

Компетентностный подход – *это направленность образовательного процесса на формирование и развитие компетентностей личности, одной из которых является ИТ.*

Создание информационного общества является генеральным направлением мирового развития. Распространяется применение новых современных технических и программных средств в вузах и в школах. И к этому должен быть готов каждый будущий педагог-учитель.

Можно утверждать, что информационное общество сейчас определяет и социально-культурную жизнь человека, формирует и развивает информационную культуру личности – «умение целенаправленно работать с

информацией и использовать для ее получения, обработки и передачи, используя современные технические средства и методы» [1]. В связи с этим особое значение приобретает формирование информационной компетентности будущего учителя.

Современная *(новая)* информационная технология – информационная технология с «дружественным» интерфейсом работы пользователя, использующая персональные компьютеры и телекоммуникационные средства.

Основу новой ИТ составляют: распределенная компьютерная техника, дружественное программное обеспечение, развитие коммуникаций. Пользователю-непрограммисту предоставлена возможность прямого общения с ПК посредством работы в диалоговом режиме. При этом мощные программно-аппаратные средства *(базы данных, экспертных систем, поддержки принятия решения и др.)* создают комфорт в работе.

Qiyosiy-tipologik tahlil affiksial tizimning invariant va variant xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Struktur va semantik invariant umumiy turkiy modelni ifodalasa, fonetik va funksional tafovutlar uning variant realizatsiyasini belgilaydi. Bu yondashuv affiksial tizimni universal va milliy xususiyatlar integratsiyasi sifatida talqin qilish imkonini beradi [2].

Affiksial birliklarning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari ularning nutqiy faoliyatdagi ahamiyatini yanada kengaytiradi. Ular orqali ma’no aniqlashtiriladi, ekspressivlik kuchaytiriladi va subyektiv munosabat ifodalanadi. Shu sababli affiksial tizimni kompleks yondashuv asosida o‘rganish turkiy tillarning ichki qonuniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kelgusida affiksial birliklarni korpus lingvistikasi asosida tadqiq qilish, ularning qo‘llanish chastotasini aniqlash va boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy tahlil qilish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] Sapir, E. (1921). *Language*. New York: Harcourt Brace.

[2] Greenberg, J. H. (1963). *Universals of Language*. Cambridge: MIT Press.

[3] Баскаков, Н. А. (1969). *Введение в изучение тюркских языков*. Москва: Наука.

[4] Кононов, А. Н. (1960). *Грамматика современного узбекского литературного языка*. Москва: Издательство АН СССР.

[5] Щербак, А. М. (1977). *Сравнительная грамматика тюркских языков*. Москва: Наука.

[6] G‘ulomov, A. (1965). *O‘zbek tili grammatikasi*. Toshkent: Fan.

[7] Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: Universitet.

[8] Mahmudov, N. (2013). *Til va nutq*. Toshkent: Ma’naviyat.

[9] Аманжолов, С. (1959). *Қазақ тілі синтаксисінің қысқаша курсы*. Алматы.

[10] Оралбаева, Н. (1991). *Қазіргі қазақ тілі морфологиясы*. Алматы: Ана тілі.

[11] Ысқақов, А. (1991). *Қазіргі қазақ тілі*. Алматы: Ана тілі.

[12] Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. London: Longman.

[13] Langacker, R. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar*. Stanford: Stanford University Press.

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIMDA FAN OLIMPIADASINI O‘TKAZISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Karimov Xurshidbek Maxammadjonovich
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim sohasidagi qonunchilik doirasida takomillashib kelmoqda. Ayniqsa, xalqaro va respublika doirasida nufuzli olimpiadalarni o‘tkazish bo‘yicha bir nechta qarorlarning qabul qilinishi yoshlarni tegishli fan sohalarida yuqori natijalarga ega bo‘lishiga shart-sharoit yaratmoqda va fan olimpiadasi g‘oliblarini rag‘batlantirishga asos bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, 79-moddada “davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi

uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, degan norma mustahkamlab qo‘yilgan[9].

Fan olimpiadalarini o‘tkazishning normativ-huquqiy asoslari bir nechta qarorlarda keltirilgan. Ularning har biriga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori matematika sohasini rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, matematika fani bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish, yoshlarni mazkur fanga qiziqishlarini oshirish masalalari ifodalangan.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo‘yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o‘rinlarni egallashini ta’minlash vazifasi doirasida chora-tadbirlar belgilangan.

Eng avvalo, matematika fanidan o‘tkaziladigan fan olimpiadalarining iqtisodiy asoslarini belgilab qo‘yishga e’tibor qaratilgan. Buning uchun talabalarning xalqaro olimpiadalarda qatnashish xarajatlarini moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish va Jamg‘arma Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlash;

Jamg‘arma mablag‘lari tomonidan ishtirok etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar moliyalashtiriladigan xalqaro olimpiadalar ro‘yxatini tasdiqlash;

tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq xalqaro olimpiadalarda qatnashmoqchi bo‘lganlarning buyurtmalarini qabul qilish;

Jamg‘armaning yillik xarajatlar smetasiga muvofiq moliyalashtirishni amalga oshirish vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan[10].

Qaror bo‘yicha Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiadani o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tayyorlash va tasdiqlash uchun Vazirlar mahkamasiga kiritish; Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiada haqidagi to‘liq ma’lumotlarni aks ettiruvchi veb-sayt yaratish; Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiadani yuqori saviyada o‘tkazish; olimpiada tadbirlarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish vazifalari yuklatilgan.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiadaning maqsadi quyidagilardan iborat:

[9] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori. https://lex.uz/docs/4807552.

buyuk ajdodlarimizning jahon sivilaziyasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish;

iqtidorli talabalarning xorijiy mamlakatlardagi talabalar bilan do‘stona raqobat muhitini yaratish, ularda xalqaro olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashish ko‘nikmasini mustahkamlash;

talaba yoshlarning xalqaro darajada iste’dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon qilish;

talabalarning matematika fanini chuqur o‘rganishga qiziqishlarini oshirish.

Xalqaro olimpiadaning vazifalari quyidagilardan iborat:

ta’lim muassasalarida matematika fanini zamonaviy talablar darajasida o‘qitishga erishish;

matematika yo‘nalishida qobiliyatli va iste’dodli talabalarni aniqlash va ularni rag‘batlantirish tizimini yaratish;

matematika yo‘nalishida qobiliyatli va iste’dodli talabalarning xalqaro maydonda bilimlarini namoyish etishga ko‘maklashish;

matematika fani o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning xalqaro darajadagi tajribani o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratish;

iqtidorli yoshlarning xalqaro olimpiadada erishgan natijalarini jahondagi tengdoshlari orasida targ‘ib etishni yanada kuchaytirish[11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli qarori kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, umumta’lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida bir qator ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Qarorda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasining 2021-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro fan olimpiadalarini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi, xalqaro olimpiadalar g‘oliblarini bir martalik mukofotlash hamda tegishli mutaxassisliklar

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori. https://lex.uz/docs/4807552.

bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari magistraturasiga davlat granti asosida imtihonsiz o‘qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi belgilab qo‘yildi.

Oliy ta’lim muassasalarining kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlari talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika fan olimpiadasi g‘oliblari hamda kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha nufuzli xalqaro olimpiadalar sovrindorlarini magistraturaga tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qishga ajratilgan kvota doirasida davlat grantlari asosida imtihonsiz qabul qilanidagan bo‘ldi.

2021/2022 o‘quv yilidan boshlab kimyo va biologiya yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta’lim muassasalari umumta’lim maktablari bitiruvchi sinflari o‘quvchilari o‘rtasida ko‘p bosqichli (tuman (shahar) – viloyat – oliy ta’lim muassasasi) kimyo va biologiya fani bo‘yicha o‘zining olimpiadasini o‘tkazish va 1–3 o‘rinlarni egallagan o‘quvchilarni oliy ta’lim muassasasining mablag‘lari hisobidan imtihonsiz o‘qishga qabul qilish yo‘lga qo‘yildi.

2021-yildan boshlab kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g‘oliblarini tayyorlagan professor-o‘qituvchilarga bir marotaba oylik maoshining 100 foizi miqdorida, kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha talabalar uchun to‘garaklar olib borayotgan professor-o‘qituvchilarga o‘quv yili davomida oliy ta’lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan oylik maoshlariga 25 foiz miqdorida ustama haq belgilash tartibi joriy etildi[12].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli qarori fan olimpiadalari sohasidagi qonunchilik tizimida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mazkur Qaror axborot texnologiyalari bo‘yicha respublika fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimining huquqiy asosi bo‘lgani va bir qator imtiyozlarni yaratgani bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, oliy ta’lim muassasalarining tegishli ta’lim yo‘nalishlari talabalari o‘rtasida informatika, dasturlash va axborot texnologiyalari sohalarida o‘tkaziladigan respublika fan olimpiadalari g‘oliblari, shuningdek, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan belgilanadigan nufuzli xalqaro olimpiadalar sovrindorlari bo‘lgan talabalarni oliy ta’lim muassasalarining tegishli magistratura yo‘nalishlariga ajratilgan kvota doirasida davlat grantlari asosida imtihonsiz qabul qilish tizimi yaratildi.

2021/2022 o‘quv yilidan boshlab informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta’lim muassasalari tomonidan umumta’lim maktablari bitiruvchi sinflari o‘quvchilari o‘rtasida “Informatika va

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4945470.

axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha ko‘p bosqichli (tuman (shahar) — viloyat — oliy ta’lim muassasasi) o‘z olimpiadasini o‘tkazishi va 1 — 3-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilarni birinchi o‘quv yili uchun to‘lov oliy ta’lim muassasalarining mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan holda imtihonsiz o‘qishga qabul qilish joriy etildi.

2021-yildan boshlab “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha xalqaro olimpiadalar g‘oliblarini tayyorlagan professor-o‘qituvchilarni oliy ta’lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bir oylik maosh miqdorida bir martalik mukofotlash tizimi joriy etiladi. Bunda, oliy ta’lim muassasasi o‘z moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, olimpiadalarning g‘oliblari tomonidan egallangan o‘ringa qarab, ularni tayyorlagan professor-o‘qituvchilarni qo‘shimcha mukofotlash tizimini joriy etish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yildi[13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli qarori fizika fani bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, yuqori malakali pedagog va ilmiy xodimlarni tayyorlash, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ilmiy tashkilotlarning salohiyatini rivojlantirish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida qabul qilindi.

Ushbu qarorda fizika fanidan olimpiadalar o‘tkazishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Xususan, pedagog kadrlar va o‘quvchilarning fizika fanini bilish darajasini baholash, iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi hamda sovrinli o‘rinlar egallashini ta’minlash sohasida vazifalar ko‘rsatib o‘tildi. Qaror asosida 2021-yil noyabr oyida Farg‘ona viloyatida buyuk mutafakkir Ahmad al-Farg‘oniy nomidagi fizika fanidan xalqaro olimpiada yuqori saviyada tashkil etildi[14].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3.07.2023-yildagi PQ-200-son qarorida akademik litsey o‘quvchilarining xalqaro fan olimpiadalaridagi ijobiy natijalarini yanada yaxshilash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bittadan akademik litseyning o‘quv laboratoriya xonalarini xalqaro fan

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli qarori. https://lex.uz/docs/5032128.

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli qarori. https://lex.uz/docs/5338558.

(kimyo, biologiya, fizika) olimpiadalarini o‘tkazishda foydalaniladigan zamonaviy o‘quv laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash vazifasi belgilangan[15].

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda fan olimpiadalarini o‘tkazish bo‘yicha qonun va qonunosti hujjatlari mavjud. Oliy ta’lim sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari fan olimpiadalarni tashkil etish tizimini belgilab beradi. So‘nggi vaqtlarda xususiy universitetlar yoki o‘zini-o‘zi mustaqil moliyalashtiradigan davlat OTMlari tomonidan fan olimpiadalari o‘tkazilayotganligi e’tiborli. Ularda OTMning Kuzatuv kengashi qarori huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3.07.2023-yildagi PQ-200-son qarori. https://lex.uz/docs/6518515

TARBIYAVIY MASHG‘ULOTLARDA SENSOR INTEGRATSIYA ASOSIDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV-AMALIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna
Andijon shahar 12-sonli ixtisoslashtirilgan maktab logopedi
ADPI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada tarbiyaviy mashg‘ulotlarda sensor integratsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘quv-amaliy faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Sensor integratsiyaning nazariy mohiyati, tarbiyaviy mashg‘ulotlarda sensor rivojlantirishning ahamiyati, o‘quv-amaliy faoliyatning psixologo-pedagogik xususiyatlari hamda sensor integratsiyaning o‘quvchilar faolligiga ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilinib, sensor integratsiya asosida tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: sensor integratsiya, tarbiyaviy mashg‘ulot, o‘quv-amaliy faoliyat, maxsus pedagogika, sensor muhit, korreksion ta’lim.

Kirish

Zamonaviy maxsus ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish tarbiyaviy mashg‘ulotlarning mazmuni va tashkil etilish shakllarini takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarda atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, mustaqil harakat qilish, amaliy ko‘nikmalarni egallash va ijtimoiy hayotga moslashish jarayonlarida sensor rivojlanish muhim o‘rin tutadi.

Sensor integratsiya markaziy asab tizimining tashqi va ichki muhitdan kelayotgan sensor axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ularni maqsadga muvofiq harakatlarga aylantirish jarayoni bo‘lib, uning nazariy asoslari A. Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, sensor axborotlarning samarali integratsiya qilinishi bolaning bilish jarayonlari, harakat koordinatsiyasi, diqqati, nutqi va ijtimoiy faolligining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy mashg‘ulotlar esa o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini, mustaqilligini, mehnatsevarligini, muloqot madaniyatini va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ta’limiy faoliyat turidir. Shu bois tarbiyaviy mashg‘ulotlarni sensor integratsiya texnologiyalari bilan boyitish ularning amaliy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi – tarbiyaviy mashg‘ulotlarda sensor integratsiya asosida o‘quvchilarning o‘quv-amaliy faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va asoslash.

Metodologiya

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, sintez va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, maxsus pedagogika, maxsus psixologiya va ergoterapiya sohalarida olib borilgan mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlar mazmun jihatdan o‘rganildi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili

Xorijiy tadqiqotlarda A. J. Ayres, Schaaf, Bundy, Lane va boshqa olimlar sensor integratsiyaning kognitiv va funksional rivojlanishga ijobiy ta’sirini asoslab berganlar. Ularning ishlarida sensor muhitni to‘g‘ri tashkil etish va individual yondashuv sensor integratsiyaning asosiy sharti sifatida qayd etilgan.

O‘zbekistonlik olimlar P.M. Po‘latova, L.Sh. Nurmuxammedova, M.Yu. Ayupova va boshqalar maxsus ta’limda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va alohida ta’lim ehtiyojli bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalalarini yoritganlar. Ular tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar sensor integratsiya texnologiyalarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari sensor integratsiya asosida tarbiyaviy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish muayyan pedagogik shart-sharoitlarga tayanishini ko‘rsatdi. Avvalo, ta’lim jarayonida sensor jihatdan boyitilgan muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muhitda turli analizatorlarni faollashtiruvchi taktil, vizual, audial, vestibulyar va propriotseptiv vositalarning mavjudligi o‘quvchilarning atrof-muhitni to‘liqroq idrok etishiga, bilish faoliyati va amaliy harakatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyaviy mashg‘ulotlarning samaradorligi ularning amaliy yo‘naltirilganligi bilan ham belgilanadi. Shu bois sensor integratsiya jarayonida o‘yin texnologiyalari, amaliy mashqlar, ijodiy topshiriqlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan faoliyat turlaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi hamda egallangan bilim va ko‘nikmalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Sensor integratsiyaga asoslangan tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlik ham muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Tarbiyachi, maxsus pedagog, psixolog, logoped hamda ota-onalarning o‘zaro hamkorligi o‘quvchining sensor rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish, yagona korreksion yondashuvni amalga oshirish va ta’lim hamda tarbiya jarayonining uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlil jarayonida sensor integratsiyaning tarbiyaviy mashg‘ulotlardagi o‘rni, o‘quv-amaliy faoliyat bilan bog‘liqligi, sensor muhitni tashkil etish tamoyillari va pedagogik shart-sharoitlar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Ilmiy manbalarni tizimlashtirish asosida sensor integratsiyaning tarbiyaviy mashg‘ulotlar samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillari aniqlandi.

Natijalar tahlili

Sensor integratsiya bolaning ko‘rish, eshitish, taktil, vestibulyar, propriotseptiv, hid va ta’m analizatorlari orqali qabul qilingan axborotlarni yaxlit tizimga keltirish jarayoni hisoblanadi. Pedagogik nuqtai nazardan sensor integratsiya ta’lim mazmunini bolaning individual rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish imkonini beruvchi texnologiya sifatida baholanadi. Bu yondashuv bolaning faqat bilim olishini emas, balki uning faol harakat qilish, mustaqil qaror qabul qilish va amaliy vazifalarni bajarish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Tarbiyaviy mashg‘ulotlar davomida tashkil etiladigan sensor faoliyatlar o‘quvchilarning atrof-muhitni idrok etishi, buyumlarning xususiyatlarini farqlashi, harakatlarni muvofiqlashtirishi va kundalik hayotda zarur amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishiga xizmat qiladi. Sensor rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda qiziqish, ijodkorlik va mustaqil faoliyatni kuchaytiradi.

O‘quv-amaliy faoliyat nazariy bilimlarni amaliy harakatlar bilan uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Maxsus ta’limda bunday faoliyat ko‘rgazmalilik, harakatchanlik, emotsional qo‘llab-quvvatlash va bosqichma-bosqichlik tamoyillari asosida tashkil etiladi. Sensor integratsiya ushbu jarayonning tabiiy tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning diqqatini jamlash, harakatlarni rejalashtirish, mayda va yirik motorikasini rivojlantirish hamda ijtimoiy munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar sensor integratsiya texnologiyalarini muntazam qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv faolligi, mustaqilligi va amaliy harakatlarining faollashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Sensor muhitda tashkil etilgan tarbiyaviy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini bajarishga qiziqishi ortadi, diqqat barqarorligi yaxshilanadi, harakat koordinatsiyasi takomillashadi hamda muloqot faolligi kuchayadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari sensor integratsiya texnologiyalari tarbiyaviy mashg‘ulotlarning mazmunini boyitish bilan birga o‘quvchilarning o‘quv-amaliy faolligini ham sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Sensor rivojlantirishga asoslangan mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sensor muhitni tashkil etishda milliy ta’lim an’analari va mahalliy sharoitlarni hisobga olish texnologiyaning samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tarbiyaviy mashg‘ulotlarda sensor integratsiya asosida o‘qug‘ulotlarni individual yondashuv asosida tashkil etish maxsus ta’lim amaliyotining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar

1. Po‘latova, P. M. (2005). Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Mo‘minova, L. R., Amirsaidova, Sh. M., Mamarajabova, Z. N., Xamidova, M. U., Yakubjanovavchilarning o‘quv-amaliy faoliyatini tashkil etish maxsus ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sensor integratsiya texnologiyalarini ilmiy asoslangan holda qo‘llash o‘quvchilarning bilish faolligi, harakat koordinatsiyasi, mustaqilligi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun sensor jihatdan boyitilgan tarbiyaviy muhitni yaratish hamda mash

2. , D. B., Djalolova, Z. M., & Abidova, N. Z. (2013). Maxsus psixologiya: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.

3. Ayupova, M. Y. (2011). Logopediya. Toshkent.

4. Mavlonova, R. A., To‘rayeva, O., & Xoliqberdiyev, K. (2001). Pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi.

UY TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-ME’YORIY VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: SUBYEKTLAR HAMKORLIGI VA MEXANIZMLAR TA SNIFI

Olloqulov Ma’rufjon Bahromjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)
Ilmiy rahbar: p.f.b.f.d. (PhD), dotsent **Jo‘raxo‘jayev M.X.**
https://doi.org/10.5281/zenodo.22697603

Annotatsiya. Mazkur maqolada sog‘lig‘i holatiga ko‘ra umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga muntazam qatnay olmaydigan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar uchun uy ta’limini tashkil etishning konvension, konstitutsiyaviy va idoraviy-me’yoriy asoslari tahlil qilingan. Uy ta’limi tizimida subyektlar hamkorligi tushunchasining an'anaviy «pedagog-oila» diadasidan bolaning ta’lim, korreksion va ijtimoiylashuv ehtiyojlarini to‘liq qondirishga qaratilgan boshqariladigan tarmoqli tuzilmagacha bo‘lgan transformatsiyasi ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida hamkorlikning to‘qqizta pedagogik imkoniyati aniqlashtirilib, ularni harakatga keltiruvchi mexanizmlar to‘rt mezon (funksiyasi, ta’sir darajasi, tartibga solish turi va harakat yo‘nalishi) asosida tasniflangan hamda ularning o‘zaro bog‘liq uch qatlamli ierarxiyasi («eng zaif bo‘g‘in qoidasi») tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *uy ta’limi, alohida ta’lim ehtiyoji, subyektlar hamkorligi, tarmoqli yondashuv, konsentrik-qatlamli model, hamkorlik mexanizmlari, ta’lim reglamenti, koordinator.*

1. Kirish va mavzuning dolzarbligi

Jahon ta’lim makonida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning huquqlarini kafolatlash, ularni kamsitishlarsiz to‘laqonli ijtimoiy hayotga jalb etish hamda individual ta’lim traektoriyalarini loyihalash zamonaviy maxsus pedagogikaning fundamental ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi va «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi konvensiyalari, YuNESKOning Salamanka deklaratsiyasi doirasida har bir bolaning ta’limiy inklyuziyasi xalqaro majburiyat darajasiga ko‘tarildi. Biroq og‘ir psixonevrologik va somatik kasalliklar bilan og‘rigan bolalar uchun ta’lim muassasalariga muntazam qatnash imkoni cheklangan bo‘lib, uy ta’limi muqobil va zaruriy institut sifatida saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda mazkur sohada qat’iy huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 50-moddasida inklyuziv ta’limning kafolatlanishi, O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi hamda O‘RQ-641-son (yangi tahrirdagi O‘RQ-955-son)

«Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi qonunlar bilan uyda yakka tartibda ta’lim berish davlat kafolatiga aylantirildi. Prezidentning PQ-4860-son qarorida qayd etilganidek, respublikada minglab bolalar uy ta’limiga jalb etilgan. Ammo mavjud amaliyotning ilmiy-nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, uy ta’limi jarayonida qatnashuvchi subyektlar - umumta’lim maktabi, fan o‘qituvchilari, defektolog va logopedlar, ota-onalar, tibbiyot muassasalari va mahalla o‘rtasida muvofiqlashtirilgan tarmoqli hamkorlikning yetarli emasligi ta’limning integratsiyalashgan samarasini pasaytirmoqda. Mazkur maqola dissertatsiyaning 1-bobi materiallari asosida uy ta’limining huquqiy poydevori, ilmiy-nazariy konseptlari va subyektlar hamkorligi mexanizmlari tasnifini yaxlit ochib berishga bag‘ishlanadi.

2. Uy ta’limini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy bazasi tahlili

Maxsus pedagogika amaliyotida uy ta’limi o‘zboshimchalik bilan tanlanadigan shakl emas, balki qat’iy me’yoriy tartibga solingan institutdir. Jahon tajribasi tahlili (AQShning IDEA qonuni, Yevropa davlatlarining maxsus ta’lim standartlari) shuni ko‘rsatadiki, xorijiy modellarda “eng kam cheklovchi muhit” (least restrictive environment) tamoyiliga tayanilib, uy ta’limi muassasadan butunlay uzilib qolish emas, balki shifokor, pedagog va ota-ona o‘rtasidagi uch tomonlama konsensual shartnoma orqali boshqariladi.

Milliy qonunchiligimizda mazkur ierarxiya uch asosiy bosqichni bosib o‘tdi: kompensatsion (1991-2007), kafolatlovchi (2008-2016) va zamonaviy institutsional (2017-yildan buyon) bosqichlar. Ushbu tizim quyidagi ierarxik darajalarda namoyon bo‘ladi:

Konstitutsiyaviy uchlik: Bosh qomusimizning 50-moddasi har kimning ta’lim olish huquqi va inklyuziv muhit kafolatini; 57-moddasi nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat himoyasida ekanligini; 77-moddasi esa ota-onalarning farzand tarbiyasi va ta’limidagi konstitutsiyaviy mas'uliyatini belgilaydi. Ushbu uchlik davlat va oilaning birgalikdagi paritet mas'uliyatini ta'minlaydi.

Xalqaro-huquqiy hujjatlar: BMTning «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi konvensiyasining 12-moddasi (bolaning o‘z fikrini bildirish va uning eshitilish huquqi) hamda 23-moddasi (nogironligi bo‘lgan bolaning qadr-qimmati va jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash), “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaning 24-moddasi (oqilona moslashtirish - *reasonable accommodation* tamoyili).

Qonun hujjatlari: «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonunning 38-moddasi bevosita uy ta’limiga asos bo‘lib, unga ko‘ra bolalarni ta’lim muassasasida o‘qitish imkoni bo‘lmaganda, shifokorlar tavsiyasi va ota-onalarning

roziligi bilan ta’lim tashkilotlari tomonidan uyda o‘qitish ta'minlanadi va davlat byudjetidan moliyalashtiriladi.

Ijrochi me’yoriy baza: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son qaroriga 4-ilova - “Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta’lim berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. Ushbu Nizom orqali tibbiy-maslahat komissiyasi (TMK), ota-ona arizasi, maktab rahbariyati va tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi buyrug‘idan iborat qat’iy muddatli protsessual zanjir (3 kunlik bosqichlar) belgilangan.

Shu bilan birga, me’yoriy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, amaldagi hujjatlar ta’lim berish tartibini (haftalik o‘quv soatlari: 1-4-sinflarda 8 soat, 5-9-sinflarda 10 soat, 10-11-sinflarda 12 soat; dars davomiyligi: 40-45 daqiqa) batafsil reglamentlashtirsa-da, subyektlarning kundalik aloqa formati, yakuniy javobgarlik markazi va doimiy hamkorlik mexanizmlari bo‘yicha me’yoriy bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda.

3. Subyektlar hamkorligining ilmiy-nazariy asoslari va konseptual modeli

Maxsus pedagogika klassiklari (L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy) hamda zamonaviy tadqiqotchilar (L.Sh.Nurmuxamedova, P.M.Po‘latova, M.X.Jo‘raxo‘jayev, L.R.Arkatova) asarlarida alohida ta’lim ehtiyojini qondirish ko‘p omilli jarayon ekanligi qayd etiladi. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, har qanday jismoniy yoki aqliy nuqsonning birlamchi (biologik) va ikkilamchi (ijtimoiy muhitdan uzilish oqibatida yuzaga keladigan) ko‘rinishlari farqlanadi. Uy ta’limi sun’iy yakkalanish xavfini tug‘dirgani bois, bolada ikkilamchi nuqsonlarning rivojlanishiga qarshi kurashish faqatgina subyektlararo yaxlit pedagogik-ijtimoiy hamkorlik orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda subyektlar hamkorligi tizimli, faoliyatli, subyekt-subyekt, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, kvalimetrik va ekologik (U.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi) yondashuvlar sintezida tahlil qilinadi. Tahlil natijasida **subyektlar hamkorligiga mualliflik ta’rifi** berildi:

Uy ta’limida subyektlar hamkorligi - bu bolaning ta’lim, korreksion va ijtimoiylashuv ehtiyojlarini qondirish maqsadida jarayonga jalb etilgan barcha ishtirokchilarning vakolat, mas'uliyat va resurslarni kelishilgan taqsimlash, uzluksiz axborot almashinuvi hamda natijani birgalikda baholash asosida amalga oshiriladigan, normativ tartibga solingan va boshqariladigan tarmoqli o‘zaro ta’siridir.

Ushbu ta'rif asosida ishlab chiqilgan **konsentrik-qatlamli tuzilma** quyidagi to‘rt doirani o‘z ichiga oladi:

Markaz: Bola - o‘z ta’lim marshrutining teng huquqli subyekti;

1-doira (Birlamchi hamkorlik doirasi): Oila a’zolari, fan o‘qituvchilari, sinf rahbari va ta’lim koordinatori;

2-doira (Professional qo‘llab-quvvatlash doirasi): Maxsus pedagog (defektolog), logoped, amaliyotchi psixolog, maktab ma'muriyati va hududiy tibbiyot xodimlari;

3-doira (Institutsional-boshqaruv doirasi): Tibbiy-maslahat komissiyalari (TMK/PTPK), hududiy maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, resurs markazlari;

4-doira (Ijtimoiy muhit doirasi): Mahalla fuqarolar yig‘ini faollari, nodavlat notijorat tashkilotlari, volontyorlar va sog‘lom tengdoshlar jamoasi.

4. Hamkorlikning pedagogik imkoniyatlari

Ko‘p subyektli tizimning mavjudligi nazariy imkoniyatlarni real pedagogik natijalarga aylantirish vositasidir. O‘tkazilgan tahlillar natijasida uy ta’limida subyektlar hamkorligining **to‘qqizta pedagogik imkoniyati** tizimlashtirildi:

№	**Pedagogik imkoniyat**	**Mazmuni va mohiyati**	**Mas’ul subyektlar va natija ko‘rsatkichi**
1	**Ta’lim jarayonining uzluksizligi**	Haftalik qisqa o‘quv soatlarining (8-12 soat) o‘rnini oiladagi tashkillashtirilgan ta’limiy muhit orqali to‘ldirish.	Fan o‘qituvchisi va oila; akademik faoliyatga jalb bo‘lish vaqtining oshishi.
2	**Yaqin rivojlanish zonasini kengaytirish**	L.S.Vigotskiy qoidasiga ko‘ra, kattalarning dozalangan yordami orqali mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish.	Pedagog, oila va mutaxassis; yordam turining “bajarib berish”dan “rag‘batlantirish”ga o‘tishi.
3	**Bo‘shliqlarni erta aniqlash**	Bolaning o‘zlashtirish va rivojlanishidagi qiyinchiliklarni ko‘p tomonlama monitoring orqali barvaqt diagnostika qilish.	Pedagogik-psixologik konsilium; muammo va javob choralari orasidagi vaqtning qisqarishi.
4	**Ikkilamchi asoratlarning oldini olish**	Tibbiy rejim va pedagogik yuklamani muvofiqlashtirish orqali	Shifokor, pedagog, psixolog va ota-ona;

		emotsional va kognitiv zo‘riqishlarga yo‘l qo‘ymaslik.	toliqish dinamikasi va kun tartibiga rioya qilinishi.
5	**Ijtimoiylashuv makonini kengaytirish**	Bolaning faqat oila bilan chegaralanib qolgan yopiq muloqot doirasini tashqi jamiyat bilan boyitish.	Mahalla, volontyorlar, sinfdoshlar va maktab; ijtimoiy aloqalar tarmog‘ining kengayishi.
6	**Oilaning pedagogik salohiyatini o‘stirish**	Ota-onalarga maxsus korreksion usullarni o‘rgatish orqali ularni malakali hamkor-tarbiyachiga aylantirish.	Defektolog, psixolog va «Ota-onalar maktabi»; ota-onaning pedagogik kompetentlik darajasi.
7	**Pedagogning kasbiy yolg‘izlanishini bartaraf etish**	Uyda yakka ishlovchi o‘qituvchini tor soha mutaxassislari konsultatsiyasi va supervizorlik bilan qurollantirish.	Metodbirlashma, resurs markazi, koordinator; o‘qituvchilarning kasbiy ishonchi va metodik ta'minoti.
8	**Oilaning psixologik resursini himoyalash**	Surunkali kasal farzand parvarishidagi ota-onalarning emotsional so‘nish (burnout) holatining oldini olish.	Amaliyotchi psixolog, oilalararo klub, mahalla; ota-onaning ruhiy barqarorligi va qoniqishi.
9	**Bolaning subyektligini shakllantirish**	Bolaning o‘z qiziqishlari, dars jadvali va o‘quv faoliyati yuzasidan shaxsiy fikrini inobatga olish.	Barcha subyektlar; qaror qabul qilishda bolaning fikri so‘ralgan holatlar ulushi.

5. Subyektlar hamkorligi mexanizmlarining ko‘p mezonli tasnifi

Pedagogik imkoniyatlarni harakatga keltirish uchun vosita, usul va texnologiyalarni yaxlit tarzda bog‘lovchi mexanizmlar tizimi zarur. Tadqiqotda mexanizmlar to‘rtta ilmiy asos bo‘yicha tasniflanadi:

Funksiyasi bo‘yicha: normativ-tartibga soluvchi (huquqiy baza), tashkiliy-koordinatsion (tuzilmaviy boshqaruv), axborot-kommunikativ (axborot oqimi), metodik-konsultativ (kadrlar va ota-onalar kompetensiyasi), motivatsion-rag‘batlantiruvchi (ichki energiya va ishonch), monitoring-baholash (qayta aloqa va natijadorlik).

Ta’sir darajasi bo‘yicha: makrodaraja (vazirlik, boshqarma, TMK), mezodaraja (ta’lim muassasasi) va mikrodaraja (oila, o‘qituvchi va bola).

Tartibga solish turi bo‘yicha: imperativ (bajarilishi majburiy bo‘lgan rasmiy talablar) va dispozitiv (tomonlarning ixtiyoriyligi va manfaatdorligiga asoslangan).

Harakat yo‘nalishi bo‘yicha: vertikal (boshqaruv buyruqlari, me’yorlar) va gorizontal (subyektlarning o‘zaro teng axborot almashinuvi va kelishuvi).

Mazkur mexanizmlarning o‘zaro funksional bog‘liqligi uch qatlamli tizimni hosil qiladi:

Bazaviy qatlam: Normativ va tashkiliy mexanizmlar (reglament, koordinator, kelishuv shartnomasi) - butun tizimning barqaror tayanchini yaratadi.

Instrumental qatlam: Axborot va metodik mexanizmlar (hamkorlik kundaligi, «Uch ovoz» sessiyasi, supervizoriya, konsilium) - tuzilmani tirik ta’limiy harakatga aylantiradi.

Natijaviy qatlam: Motivatsion va monitoring mexanizmlari (muvaffaqiyat holati, «Hamkorlik xaritasi», indeksli tahlil) - jarayonni o‘zini o‘zi nazorat qilish va rivojlantirish bosqichiga olib chiqadi.

Ushbu tuzilmaning eng muhim ilmiy-metodik qoidasi **«eng zaif bo‘g‘in qoidasi»** hisoblanadi: tizimning umumiy samaradorligi uning eng kuchli mexanizmi bilan emas, balki eng oqsayotgan, zaif mexanizmi bilan belgilanadi. Agar me’yoriy baza mukammal bo‘lib, axborot-kommunikativ yoki monitoring mexanizmi ishlamasa, tizim formalizmga uchraydi va kutilgan pedagogik natijani bermaydi.

6. Xulosa va amaliy tavsiyalar

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlillar quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Uy ta’limi alohida olingan pedagog va oilaning yakkalangan munosabati emas, balki ko‘p subyektli, ko‘p qatlamli, davlat kafolatlari va jamoatchilik nazorati bilan mustahkamlangan murakkab ijtimoiy-pedagogik tarmoqdir.

Amaldagi huquqiy-me’yoriy baza ta’lim jarayonining vaqt va dasturiy parametrlarini aniq belgilagan bo‘lsa-da, subyektlararo gorizontal munosabatlar va yakuniy javobgarlik markazini mustahkamlashni taqozo etadi. Bunda muassasa darajasida «uy ta’limi koordinatori» figurasini joriy etish birlamchi zaruratdir.

Aniqlangan to‘qqizta pedagogik imkoniyat va tasniflangan oltita mexanizmning uzviy integratsiyasi bolaning individual rivojlanish traektoriyasini muvaffaqiyatli loyihalash hamda ularning ijtimoiy izolyatsiyasiga barham berishning fundamental omili sanaladi.

Respublika ilmiy-amaliy anjumani doirasida amaliyotchi pedagoglar, ta’lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislarga quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: maktablarda uy ta’limi bo‘yicha lokal hamkorlik reglamentini joriy qilish, individual

ta’lim dasturini loyihalashda ota-onalarning real ishtirokini ta'minlovchi uch tomonlama kelishuvlarni yo‘lga qo‘yish hamda subyektlararo axborot almashinuvini ta'minlovchi qisqa yozma qaydlar (kundaliklar) amaliyotini keng tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. - T., 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-641-son, 2020-yil 15-oktabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan «Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta’lim berish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.
5. Vigotskiy L.S. Osnovi defektologii. - M.: Pedagogika, 1983. - 368 s.
6. Nurmuxamedova L.Sh. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari: Monografiya. - T.: Fan va texnologiya, 2014. - 228 b.
7. Jo‘raxo‘jayev M.X. Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda yakka tartibdagi ta’limi samaradorligini oshirish mexanizmlari: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. - Jizzax, 2023. - 132 b.
8. Arkatova L.R. Pedagogicheskiye usloviya organizatsii nadomnogo obucheniya uchashixsya s ogranichennimi vozmojnostyami zdorovya: diss. kand. ped. nauk. - Yelabuga, 2009. - 214 s.
9. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. - Boulder, CO: Westview Press, 2001.
10. Hoover-Dempsey K.V., Sandler H.M. Why Do Parents Become Involved in Their Children's Education? // Review of Educational Research. - 1997. - Vol. 67, No. 1. - P. 3-42.

ZAMONAVIY TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Perdeshova Nargiza Yesenbayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Umumiy pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22697607

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oliy ta’lim muhitida talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishning amaliy holati nazariy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganilgan. Kasbiy-etik bilim bilan real xulq-atvor, kommunikativ faollik bilan dialogik madaniyat, amaliy tajriba bilan refleksiv tahlil, shuningdek, raqamli ko‘nikma bilan akademik va axloqiy mas’uliyat o‘rtasidagi uzilishlar tizimlashtirilgan. Tadqiqotda ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv natijalarini umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va komponentli tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv hamda raqamli komponentlarni integratsiyalashga asoslangan pedagogik yechimlar taklif etilgan. Keys-stadi, kasbiy-axloqiy dilemma, rolli o‘yin, debat, raqamli loyiha, refleksiv kundalik va mezonli baholashdan kompleks foydalanish talabaning bilimini barqaror kasbiy xulq-atvorga aylantirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar. kasbiy etika, muloqot madaniyati, refleksiya, raqamli madaniyat, akademik halollik, pedagogik integratsiya, oliy ta’lim, sun’iy intellekt.

Аннотatsiya. В стате на основе теоретико-аналитического подхода исследовано современное состоуание развитиуа профессионално-этической и коммуникативной культуры студентов в высшем образовании. Систематизированы разрывы между этическими знаниуами и реалным поведением, коммуникативной активностуu и культурой диалога, практическим опытом и рефлексивным анализом, а также цифровыми навыками и академической ответственностуu. Исползованы сравнителный анализ научных источников, обобщение педагогических наблуудений, моделирование проблемных ситуatsiй и компонентный анализ. Предложены педагогические решениуа, основанные на интегratsiи профессионално-этического, коммуникативного, рефлексивного и цифрового компонентов. Обосновано комплексное применение кейс-стади, профессионално-этических дилемм, ролевых игр, дебатов, цифровых проектов, рефлексивного дневника и критериалного оцениваниуа.

Клуичевые слова. профессионалнаya этика, култура общениуа, рефлексиуа, цифроваya култура, академическаya честност, педагогическаya интегratsiya, высшее образование, искусственный интеллект.

Abstract. The article examines the current state of developing university students' professional-ethical and communication culture through a theoretical and analytical approach. It systematizes the gaps between ethical knowledge and actual behavior, communicative activity and dialogic culture, practical experience and reflective analysis, as well as digital skills and academic responsibility. The study applies comparative analysis of scholarly sources, synthesis of pedagogical observations, modelling of problem situations, and component analysis. Pedagogical solutions based on the integration of professional-ethical, communicative, reflective, and digital components are proposed. The combined use of case studies, professional-ethical dilemmas, role plays, debates, digital projects, reflective journals, and criterion-referenced assessment is substantiated as a means of transforming students' knowledge into sustainable professional conduct.

Keywords. professional ethics, communication culture, reflection, digital culture, academic integrity, pedagogical integration, higher education, artificial intelligence.

Oliy ta'limning natijadorligi faqat mutaxassislik bilimlarini egallash bilan emas, balki talabaning kasbiy vaziyatlarda mas'uliyatli qaror qabul qilishi, turli manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv muloqot o'rnatishi, o'z faoliyatini tahlil qilishi va raqamli vositalardan axloqiy foydalanishi bilan ham belgilanadi. Raqamli transformatsiya sharoitida mazkur sifatlar o'zaro bog'liq tus olmoqda: talabaning bitta elektron topshiriqni bajarishi ham manba ishonchliligini tekshirish, mualliflik huquqiga rioya qilish, hamkorlar fikrini hurmat qilish va yakuniy natija uchun javobgarlikni qabul qilishni talab etadi.

Xalqaro yondashuvlarda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish inson huquqlari, shaffoflik, adolat, maxfiylik va inson nazorati tamoyillari bilan uyg'un bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu talablar oliy ta'limda raqamli savodxonlikni texnik amallar yig'indisi sifatida emas, kasbiy-etik va kommunikativ madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ko'rishni taqozo etadi.

Amaliyotda esa kasbiy etika, muloqot, refleksiya va raqamli mas'uliyat ko'pincha alohida mavzu yoki topshiriqlar doirasida shakllantiriladi. Natijada talaba me'yorni bilsa-da, murakkab vaziyatda uni qo'llashga; fikrini ravon ifodalasa-da, faol tinglash va murosa qilishga; raqamli platformadan foydalansa-da, axborotning ishonchliligini baholashga qiynalishi mumkin. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-etik va muloqot

madaniyatini rivojlantirishdagi asosiy uzilishlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan integrativ pedagogik yechimlarni asoslashdan iborat.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda kasbiy etika, kommunikativ kompetentlik, refleksiv ta’lim, raqamli fuqarolik va sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha ilmiy hamda me’yoriy manbalar tahlil qilindi. Tahlil birligi sifatida talabaning real yoki virtual kasbiy vaziyatdagi qarori, muloqot usuli, axborotdan foydalanishi va o‘z faoliyatiga bergan bahosi qabul qilindi.

Muammolarni aniqlashda komponentli tahlil qo‘llanib, kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv va raqamli yo‘nalishlar ajratildi. Keyin ular o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlar qiyoslandi. Pedagogik yechimlarni belgilashda vaziyatli ta’lim, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, hamkorlikda o‘qitish va rivojlantiruvchi baholash tamoyillariga tayangan holda kasbiy vaziyat modeli ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv empirik samaradorlikni isbotlashdan ko‘ra, mavjud muammolarni konseptual tizimlashtirish va keyingi tajriba-sinov uchun diagnostik asos yaratishga qaratildi.

Tahlil kasbiy-etik va muloqot madaniyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni to‘rtta asosiy uzilish shaklida umumlashtirish imkonini berdi. Birinchisi, axloqiy bilim va real xulq-atvor o‘rtasidagi uzilishdir. Talaba halollik, adolat, kasbiy burch va mas’uliyat mazmunini tushuntira oladi, biroq manfaatlar to‘qnashuvi yoki ziddiyatli vaziyatda qarorini axloqiy mezonlar bilan asoslashda qiynaladi. Bu holat axloqiy bilimning reproduktiv darajada qolganini va shaxsiy pozitsiyaga yetarlicha aylantirilmaganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi uzilish kommunikativ faollik va muloqot madaniyati o‘rtasida kuzatiladi. Auditoriyada faol gapirish yoki taqdimot qilishning o‘zi dialogik kompetentlikni to‘liq ifodalamaydi. Faol tinglash, suhbatdosh nuqtayi nazarini aniqlashtirish, e’tirozni odob doirasida bildirish, pedagogik taktni saqlash va nizoni konstruktiv hal qilish ham baholanishi kerak. Aks holda tashqi nutqiy faollik empatiya va axloqiy o‘zini boshqarish bilan mustahkamlanmaydi.

Uchinchi uzilish amaliy tajriba va refleksiv tahlil o‘rtasida namoyon bo‘ladi. Talaba topshiriqni bajarishi yoki amaliy mashg‘ulot o‘tkazishi mumkin, ammo qarorining sababi, muloqot ohangi, xatolari va ularning boshqalarga ta’sirini izchil tahlil qilmasa, tajriba shaxsiy rivojlanish resursiga aylanmaydi. Refleksiya o‘zini ayblash emas, dalillarga tayangan holda faoliyatni qayta ko‘rib chiqish, muvaffaqiyat omillarini aniqlash va keyingi harakatni rejalashtirish jarayonidir.

To‘rtinchi uzilish raqamli ko‘nikma va raqamli mas’uliyat o‘rtasidadir. Platforma, messenjer, videokonferensiya yoki generativ sun’iy intellekt vositasidan erkin foydalanish axborotning ishonchliligini tekshirish, maxfiylikni saqlash, mualliflik huquqiga rioya qilish va texnologik yordamni oshkor etish ko‘nikmalarini

avtomatik ravishda shakllantirmaydi. UNESCO tavsiyalarida generativ sun’iy intellektni ta’limga joriy etishda inson markazidagi, xavfsiz va pedagogik jihatdan maqsadli yondashuv zarurligi qayd etiladi.

Masalan, raqamli guruh loyihasida vazifalarni adolatli taqsimlash kasbiy-etik pozitsiyani, guruh a’zolarini tinglash kommunikativ madaniyatni, ishonchli manbani tanlash raqamli mas’uliyatni, o‘z hissasini xolis baholash esa refleksiv ko‘nikmani talab qiladi. Shu bois bitta kompleks topshiriq to‘rt komponentning bir vaqtda namoyon bo‘lishini ta’minlashi mumkin.

Kasbiy-etik va muloqot madaniyatini yaxlit rivojlantirish uchun o‘quv vazifasining tuzilishi “vaziyat – axloqiy tanlov – dialog – raqamli dalil – refleksiya” ketma-ketligiga asoslanishi maqsadga muvofiq. Dastlab talaba real kasbiy muammoni aniqlaydi; keyin manfaatdor tomonlar huquqi va ehtiyojlarini hisobga olib muqobil qarorlarni solishtiradi; guruh bilan dialogda pozitsiyasini dalillaydi; foydalanilgan raqamli axborotni tekshiradi; yakunda qaror jarayoni va oqibatlarini baholaydi.

Keys-stadi va kasbiy-axloqiy dilemmalar nazariy me’yorni amaliy tanlovga ko‘chirishga yordam beradi. Rolli o‘yin va debat talabaning nafaqat fikr bildirishini, balki tinglash, savol berish, qarama-qarshi pozitsiyani tushunish va murosali yechim topishini talab qiladi. Jamoaviy raqamli loyiha esa vazifalarni taqsimlash, mualliflik hissasini ko‘rsatish, manbalarni verifikatsiya qilish va raqamli odobga rioya etishni birlashtiradi.

Refleksiv kundalikda uch savol barqaror qo‘llanishi mumkin: “Qanday qaror qabul qildim?”, “Qarorim boshqalarga qanday ta’sir ko‘rsatdi?”, “Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?”. Qayta aloqa umumiy maqtov yoki kamchiliklar ro‘yxati bilan cheklanmasdan, kuzatilgan xatti-harakat, uning natijasi va takomillashtirish yo‘lini aniq ko‘rsatishi lozim.

Baholash bilim, munosabat va xulq-atvor birligini qamrab olishi kerak. Kasbiy-etik komponent uchun qarorning qadriyatlarga muvofiqligi va oqibatlarni hisobga olish; kommunikativ komponent uchun faol tinglash, dalillilik, takt va hamkorlik; refleksiv komponent uchun o‘z xatosini dalil bilan aniqlash va rivojlanish rejasini tuzish; raqamli komponent uchun manbani tekshirish, maxfiylik, mualliflik va AI vositalaridan shaffof foydalanish mezon sifatida olinadi.

Mazkur tizimni auditoriya mashg‘uloti bilangina cheklash mumkin emas. U mustaqil ta’lim, pedagogik amaliyot, ilmiy-tadqiqot faoliyati, auditoriyadan tashqari tadbirlar va raqamli hamkorlikka izchil singdirilishi kerak. Talabalarning kommunikativ tajribasi va raqamli tayyorgarligi turlicha bo‘lgani uchun topshiriqlar murakkabligi tabaqalashtiriladi, guruh rollari navbat bilan almashtiriladi va individual rivojlanish maqsadlari belgilanadi.

Zamonaviy oliy ta’limda talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi markaziy muammo alohida bilim va ko‘nikmalarning real hamda raqamli kasbiy vaziyatda yagona xulq-atvor tizimiga birlashmasligidir. Bu kasbiy-etik bilim bilan qaror, kommunikativ faollik bilan dialogik madaniyat, tajriba bilan refleksiya hamda raqamli ko‘nikma bilan mas’uliyat o‘rtasidagi uzilishlarda ko‘rinadi.

Muammoni bartaraf etish kasbiy-etik, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlarni bir vazifa, faoliyat va baholash tizimida integratsiyalashni talab qiladi. “Vaziyat – axloqiy tanlov – dialog – raqamli dalil – refleksiya” algoritmi mazkur integratsiyaning amaliy asosi bo‘lishi mumkin. Kelgusi empirik tadqiqotlarda ushbu modelning samaradorligini tajriba va nazorat guruhlari, oldingi va keyingi diagnostika hamda statistik tahlil asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta’lim yo‘nalishidagi talabalarni ijtimoiy moslashtirish omillari // *Xalq ta’limi*. – Toshkent, 2015. – № 6. – B. 29–34.
2. Raxmanova M.Q. Ta’lim mazmunining ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvi // *O‘zMU xabarlari*. – Toshkent, 2016. – № 1/6. – B. 144–147.
3. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik qadriyatlarning ahamiyati // *Xalq ta’limi*. – Toshkent, 2016. – № 4. – B. 15–20.
4. Raxmanova M.Q. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchi-yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirishning ayrim dolzarb masalalari // *Uzluksiz ta’lim*. – Toshkent, 2016. – № 5. – B. 36–42.
5. Raxmanova M.Q. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning mohiyati va funksiyalari // *Fan va jamiyat*. – Nukus, 2016. – № 4. – B. 81–83.
6. Raxmanova M.Q. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish // *O‘zMU xabarlari*. – Toshkent, 2016. – № 1/6. – B. 230–233.
7. Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
8. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. Amaliy tavsiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan, 2005. – 205 b.
10. Muslimov N.A. *Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2004. – 240 b.

11. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. – Paris: UNESCO, 2021. – 43 p.

12. Miao F., Holmes W. *Guidance for Generative AI in Education and Research*. – Paris: UNESCO, 2023. – 44 p.

13. Schön D.A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.

OLIY TA’LIM MUASSASSALARIDA TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA OID KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi
Fizika kafedrasi o‘qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22790113

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatiga oid kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritiladi. Kasbiy kompetensiya fizik bilimlar, metodik tayyorgarlik, eksperimental faoliyat, pedagogik muloqot va refleksiyaning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida talqin qilinadi. Kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va integrativ yondashuvlarning o‘qituvchi tayyorlashdagi imkoniyatlari muhokama etiladi. Oliy ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari va ilmiy laboratoriyalar hamkorligini dars loyihalash, pedagogik amaliyot, tajriba tashkil etish va natijalarni birgalikda baholash orqali rivojlantirish taklif qilinadi. Fizik tushunchalarni o‘quvchiga tushunarli shaklda ifodalash, o‘rganishdagi qiyinchiliklarni aniqlash hamda nazariy bilimni amaliy vaziyatlarga ko‘chirishga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola nazariy tahlil xususiyatiga ega bo‘lib, unda taqdim etilgan tavsiyalar empirik samaradorlik natijalari sifatida talqin qilinmaydi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim klasteri, bo‘lajak fizika o‘qituvchisi, kasbiy kompetensiya, pedagogik faoliyat, fizika o‘qitish metodikasi, pedagogik mazmun bilimi, eksperimental kompetensiya, hamkorlik, pedagogik refleksiya, nazariya va amaliyot integratsiyasi.

Kirish

Fizika o‘qituvchisini tayyorlash fizik qonuniyatlarni chuqur o‘zlashtirish, ularni tushuntirish va o‘quvchilarning ilmiy fikrlashini rivojlantirish vazifalarini birlashtiradi. Bo‘lajak pedagog mexanik, issiqlik, elektromagnit va optik hodisalarni izohlash bilan birga, o‘quvchilarning dastlabki tasavvurlarini aniqlashi, tajribalarni tashkil qilishi va bilimlarni baholashi kerak. Shuning uchun uning kasbiy tayyorgarligini fan mazmuni, metodika va amaliy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida tashkil etish muhimdir.

O‘zbekiston pedagogik oliy ta’limi sharoitida mazkur bog‘liqlikni mustahkamlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ta’lim klasteri hisoblanadi. Ushbu maqolada klaster oliy ta’lim muassasasi, hamkor maktablar, ilmiy

laboratoriyalar va pedagoglarning umumiy ta’lim maqsadlari atrofida tashkil etilgan barqaror hamkorligi sifatida tushuniladi. Bunday hamkorlikda maktabdagi metodik ehtiyojlar universitet mashg‘ulotlariga olib kiriladi, nazariy tayyorgarlik esa haqiqiy dars vaziyatlari bilan bog‘lanadi.

Asosiy muammo hamkorlikning mavjudligini bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladigan faoliyatga aylantirishdan iborat. Buning uchun ishtirokchilarning vazifalari, umumiy o‘quv natijalari va baholash mezonlari aniqlashtirilishi zarur. Maqolaning maqsadi ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak fizika o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga asos bo‘ladigan nazariy yondashuvlarni tahlil qilish va ularning metodik imkoniyatlarini ochib berishdir.

Asosiy qism

Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi pedagogik vazifalarni bajarishda bilim, ko‘nikma, qadriyat va tajribani birgalikda qo‘llashga tayyorligi hamda qobiliyatini anglatadi. Masalan, elektr zanjiriga oid formulalarni bilish ushbu mavzuni o‘qitish uchun zarur asosdir. Pedagogik faoliyat esa o‘quvchining tok kuchi va kuchlanish haqidagi tasavvurini aniqlash, mos tajriba tanlash, o‘lchash natijalarini izohlash va tushunishni tekshirishni ham talab qiladi. Demak, kompetensiya bilimning amaliy pedagogik qarorlarda namoyon bo‘lishi orqali baholanishi lozim.

Mazkur masalani tushuntirishda L. Shulmanning pedagogik mazmun bilimi haqidagi qarashlari muhim nazariy tayanchdir. Ushbu tushuncha fan mazmunini o‘quvchiga tushunarli shaklda taqdim etish uchun zarur bo‘lgan maxsus pedagogik bilimni ifodalaydi. Fizika o‘qituvchisi tushuntirish, model, analogiya va tajribani tanlayotganda mavzuning murakkab tomonlarini hisobga olishi kerak. Masalan, elektr tokini suv oqimiga qiyoslash ayrim munosabatlarni tushuntirishga yordam berishi mumkin, biroq analogiyaning amal qilish chegaralari ham ochib berilishi lozim. Bu fan bilimi bilan uni o‘qitish haqidagi bilimning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kompetensiyaviy yondashuv tayyorgarlik maqsadlarini kuzatiladigan pedagogik harakatlar orqali belgilashni nazarda tutadi. Talabaning mavzuni bilishi bilan birga, dars maqsadini qo‘yishi, tajribani rejalashtirishi, savollar tuzishi va o‘quvchi javobini tahlil qilishi ham e’tiborga olinadi. Shu asosda kasbiy tayyorgarlik mazmunini fan bo‘yicha bilim, metodik faoliyat, eksperimental ish, kommunikativ ko‘nikma va refleksiv tahlilning o‘zaro bog‘langan tarkibi sifatida loyihalash taklif etiladi. Mazkur tarkib maqola doirasidagi nazariy umumlashtirish bo‘lib, uni baholash vositalari keyingi tadqiqotlarda tekshirilishi zarur.

Tizimli yondashuv ta’lim klasteridagi ishtirokchilarning vazifalarini umumiy maqsad bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi. Universitet fizikaning nazariy

asoslari va o‘qitish metodikasini o‘rgatadi, hamkor maktab pedagogik vaziyatlarni kuzatish va dars o‘tkazish muhiti bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy laboratoriya esa o‘lchash, modellashtirish va tadqiqot jarayonlari bilan tanishish imkoniyatini yaratishi mumkin. Raximov, Gayupova va Mirzayevaning tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik ta’lim klasteriga bag‘ishlangan monografiyasi ushbu hamkorlikni mavzu doirasida o‘rganish uchun tegishli mahalliy manbadir. Klaster ishini rejalashtirishda laboratoriya imkoniyatlari, pedagoglarning vaqti va maktabning ehtiyojlari oldindan kelishilishi kerak.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda talaba kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida o‘rganadi. Masalan, unga mexanik energiyaning saqlanishini tushuntiruvchi mashg‘ulot ishlab chiqish vazifasi berilishi mumkin. Talaba tajriba sharoitini belgilaydi, o‘lchash vositalarini tanlaydi, ishqalanish ta’sirini muhokama qiladi va natijani o‘quvchi yoshiga mos izohlaydi. Maktab o‘qituvchisi mashg‘ulotning tushunarliligini, universitet metodisti esa mazmun va usulning muvofiqligini tahlil qiladi. Keyin talaba tavsiyalar asosida dars loyihasini qayta ishlab chiqadi. Bunday ketma-ketlik nazariy bilim, faoliyat va qayta aloqani yagona jarayonda birlashtirish uchun taklif etiladi.

Integrativ yondashuv fizikani matematika, informatika, pedagogika va psixologiya bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Fizik kattaliklar orasidagi munosabatni grafikda ifodalash matematik bilimni, tajriba ma’lumotlarini qayta ishlash raqamli ko‘nikmalarni talab qiladi. O‘quvchining grafikni qanday tushunayotganini aniqlash esa pedagogik kuzatuv va savol berish mahoratiga bog‘liq. Djo‘rayevning fizika o‘qitish metodikasiga oid qo‘llanmasida nazariy va metodik tayyorgarlik masalalarining birgalikda yoritilishi ushbu yo‘nalish uchun muhimdir. Integratsiyani tashkil etishda har bir topshiriqning aniq fizik mazmuni va o‘quv maqsadi saqlanishi lozim.

Eksperimental kompetensiyani rivojlantirish alohida metodik e’tiborni talab qiladi. Talaba asbobni ishlatish, o‘lchash chegarasini tanlash, kuzatuvlarni qayd etish va noaniqliklarni izohlashni o‘rganishi kerak. Shu bilan birga, tajribani sinfda ko‘rsatish tartibi, jihozlardan xavfsiz foydalanish va o‘quvchilar faoliyatini boshqarish ham tayyorgarlikka kiritiladi. Virtual tajribalar ayrim jarayonlarni ko‘rgazmali tushuntirish uchun qo‘llanishi mumkin. Ularni tanlashda real qurilmalar bilan ishlash ko‘nikmalariga qo‘shadigan hissasi va modelning cheklovlari hisobga olinishi zarur.

Pedagogik muloqot va refleksiya klasterdagi hamkorlikning mazmunini boyitadi. Xoliqovning pedagogik mahoratga oid darsligi o‘qituvchining kasbiy faoliyatini muhokama qilish uchun umumiy pedagogik asos beradi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchisi o‘quvchining noto‘g‘ri javobini uning fikrlashini tushunishga yordam

beradigan ma’lumot sifatida tahlil qilishi lozim. Darsdan keyingi muhokamada qaysi savol tushunishni ochib bergani, qaysi izoh qiyinchilik tug‘dirgani va qanday o‘zgartirish zarurligi ko‘rib chiqiladi. Refleksiya shu tariqa o‘z faoliyatini dalillar asosida qayta baholash jarayoniga aylanadi.

Kasbiy rivojlanishni baholashda dars ishlanmasi, tajriba bayonnomasi, o‘quvchi ishlarining tahlili va talabaning refleksiv yozuvlaridan foydalanish taklif etiladi. Muslimov va hammualliflarning innovatsion ta’lim texnologiyalariga oid qo‘llanmasi mashg‘ulotlarni tashkil etish vositalarini tanlash uchun metodik manba bo‘lib xizmat qiladi. Baholash mezonlari mazmunning aniqligi, tushuntirishning asoslanganligi, tajribaning maqsadga muvofiqligi va qayta aloqadan foydalanishni qamrab olishi mumkin. Universitet va maktab rahbarlarining ushbu mezonlarni birgalikda qo‘llashi talabaga izchil tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Taklif etilgan mexanizmlarning samaradorligini aniqlash uchun esa pedagogik tajriba va tizimli kuzatuv zarur.

Xulosa

Ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish fan mazmuni, o‘qitish metodikasi, eksperimental faoliyat va pedagogik hamkorlikning birligiga tayanadi. Kompetensiyaviy yondashuv kutiladigan kasbiy harakatlarni belgilashga, tizimli yondashuv hamkorlarning vazifalarini muvofiqlashtirishga, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa bilimlarni amaliy vazifalarda qo‘llashga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv mazkur jarayonni fanlararo aloqalar bilan boyitadi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida klaster hamkorligini umumiy dars loyihalari, tajriba mashg‘ulotlari, maktab amaliyoti va muntazam metodik muhokamalar asosida tashkil etish tavsiya qilinadi. Talabaning rivojlanishini baholashda uning fizik bilimlari bilan birga, o‘quvchi fikrlashini tushunishi, tushuntirish usulini tanlashi va o‘z faoliyatini takomillashtirishi hisobga olinishi kerak. Buning uchun universitet metodisti va maktab o‘qituvchisi umumiy mezonlarga tayanishi muhimdir.

Maqoladagi tavsiyalar nazariy tahlil natijasida shakllantirilgan. Ularning amaliy samaradorligini tekshirishda talabalarning boshlang‘ich tayyorgarligi, hamkor maktablarning resurslari va amaliyot davomiyligi hisobga olinishi lozim. Shunday tadqiqotlar klaster hamkorligining qaysi shakllari bo‘lajak fizika o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishiga ko‘proq hissa qo‘shishini aniqlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov A. K., Gayupova S. X., Mirzayeva N. A. Tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik ta’lim innovatsion klasterining nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. — Chirchiq: Zebo Prints, 2023. — 108 b.

2. Djo‘rayev M. Fizika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2015. — 280 b.

3. Shulman L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. — 1986. — Vol. 15, No. 2. — P. 4–14.

4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011.

5. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To‘rayev A. B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. — Toshkent: Sano-standart, 2015.

MUTAXASSISNING KASBIY O'Z-O'ZINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Mavlanova Saidaxon Umarovna
SDVMCHBU Toshkent filiali “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi
dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Bugungi kunda O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta’lim sohasidagi yangiliklar, ayniqsa, kasbiy, shuningdek, mehnat sub'ektining uning kasbiy faoliyatiga munosabatini o‘zgartirish zarurati o‘z kasbiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan, o‘z-o‘zini tarbiyalash va takomillashtirish orqali o‘z imkoniyatlarini doimiy ravishda kengaytirishga tayyor bo‘lgan shaxsni tayyorlash muammosini ustuvor vazifa qilib qo‘ymoqda

Ushbu maqolada mutaxassislarning o‘z-o‘zini kasbiy takomillashtirishga bo‘lgan yondashuvlarining psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Аннотасия: Сотциально-экономические условия в Узбекистане, инновации в образовании, особенно профессиональная, а также необходимость изменения отношения субъекта труда к его профессиональной деятельности ставят в приоритет проблему подготовки личности, реализующей свой профессиональный и творческий потенциал, готовой к постоянному расширению своих возможностей путем самообразования и самосовершенствования.

В данной статье рассматриваются психолого-педагогические особенности подходов специалистов к самопрофессиональному совершенствованию.

Abstract: Socio-economic conditions in Uzbekistan, innovations in education, especially professional ones, as well as the need to change the attitude of the labor subject to his professional activity prioritize the problem of preparing a person who realizes his professional and creative potential, ready to constantly expand his opportunities through self-education and self-improvement.

This article examines the psychological and pedagogical features of specialists' approaches to self-professional improvement.

Kalit so‘zlar: ideal mutaxassis, kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish, motivatsiya, kasbiy faoliyat, kasbiy va tashkiliy fazilatlar, kasbiy kompetentsiya.

Ключевые слова: идеальный специалист, профессиональное самосовершенствование, мотивация, профессиональная деятельност,

профессионально-организационные качества, профессиональная компетентность.

Keywords: ideal specialist, professional self-improvement, motivation, professional activity, professional and organizational qualities, professional competence.

Mamlakatimizda kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishning psixologik-pedagogik shartlari bugungi kunda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta’lim sohasidagi yangiliklar, ayniqsa, kasbiy, shuningdek, mehnat sub'ektining uning kasbiy faoliyatiga munosabatini o‘zgartirish zarurati bilan belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekistondagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatning o‘ziga xosligi ham jamiyatdagi o‘zgarishlar zarurati inson kamoloti muammosini ustuvor vazifa qilib qo‘ymoqda. Amaliyotlardan ma’lumki, hozirda mavjud maqsadli tashkil etilgan o'qitish shakllari endi zamonaviy talablar asosida mutaxassislar oldida turgan keng ko'lamli vazifalarni qamrab ololmaydi. Kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish bugungi kunda mutaxassislarning kasbiy faoliyatining o'ziga xos turi, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilishi ham bejiz emas.

Professional o‘z-o‘zini takomillashtirish - ongli, kasbiy kompetensiya darajasini oshirish va ijtimoiy talablar, kasbiy faoliyat va uning rivojlanish dasturiga muvofiq katta fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Bugun o‘zgarish davridir va birinchi navbatda, bu o‘zgarishlar ta’lim hayotiga, o‘quv jarayoniga bo‘lgan talablarning oshishiga bog‘liq. Agar ilgari ta’lim uzoq vaqt davomida berilgan bo‘lsa va insonning biron-bir sohada yoki faoliyat sohasidagi uzluksiz kasbiy faoliyatini ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, endi biz doimiy ravishda yangilanishni o‘z ichiga olgan tubdan yangi ta’lim tizimini shakllantirish haqida gaplashmoqdamiz. Bundan tashqari, bunday ta’limning asosiy xususiyati nafaqat bilim va texnologiyalarni uzatish, balki ijodiy kompetensiyalarni ham shakllantirishdir.

Amaliy faoliyat natijalari, shuningdek, turli xil mehnat tizimlarida maqsadli pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish har doim mutaxassisning ma'lum bir ijtimoiy muhit bilan ongli o'zaro ta'siri natijasidir, bunda u kasbiy faoliyatda va umuman hayotda muvaffaqiyat keltiradigan fazilatlarni rivojlanish zarurligini tushunadi. Shuning uchun ham o'z-o'zini takomillashtirish shaxsiy-ijtimoiy hodisadir.

Shu bilan birga, ijtimoiy sharoitlarning (shu jumladan kasbiy faoliyatning o'ziga xos ijtimoiy omillari) shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirishga haqiqiy ta'siri asosan shaxsning ichki fenomeni, shuningdek, shaxsiy talablari tizimi orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, mutaxassislarning kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish - bu tashqi ijtimoiy talablarga, kasbiy faoliyat shartlariga va shaxsiy rivojlanish dasturiga muvofiq ularning kasbiy malakasi darajasini oshirish va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishning ongli, maqsadli jarayonidir. Bu jarayon hozirgi professionallik darajasi ("Men haqiqiy professionalman") va uning qandaydir xayoliy (modellashtirilgan) holati ("Men ideal mutaxassisman") o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklarni doimiy ravishda bartaraf etishning psixologik mexanizmiga asoslanadi.

O'z-o'zini takomillashtirish alohida jarayon sifatida jamiyat va individual mutaxassis uchun kasb talablariga tayanadi. Bundan tashqari, talablar ma'lum bir shaxsning mavjud imkoniyatlaridan biroz yuqoriroq bo'lishi kerak. Faqat shu holatda o'z-o'zini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar mutaxassisning etakchi faoliyati jarayonida ichki qarama-qarshiliklar shaklida yuzaga keladi, buning natijasida o'z shaxsiyatini maqsadli rivojlantirish jarayonini hal qiladi.

O'z-o'zini takomillashtirish jarayonining boshlanishi uchun eng muhim shart - bu mutaxassisning o'zining ushbu talablarga bo'lgan munosabati. Mutaxassisning ularga befarq munosabat bilan o'z shaxsiyatini rivojlantirish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Faqatgina taqdim etilgan talablarni ongli ravishda qabul qilgan holda, mutaxassis o'zini o'zi takomillashtirish zarurligini his qiladi. Talablar "Men ideal mutaxassisman" obrazida o'z mavzusini topadi va o'z ustida ishlash motiviga aylanadi. Shuningdek, agar kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish manbai ijtimoiy muhitda bo'lsa, unda bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchlarini shaxs ichida - shaxsning kasbiy takomillashtirish motivlari shaklida izlash kerak.

Demak, o'z-o'zini takomillashtirish jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish uchun ikki yo'nalishdagi vazifani hal qilish kerak - kundalik kasbiy faoliyat uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish va ularning tegishli ehtiyojlari va motivlarini shakllantirish (tarbiyalash).

Kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirishning maqsadi - yuqori malakali mutaxassis, malakali o'qituvchi va o'z qo'l ostidagilarning tashkilotchisi, madaniyatli shaxsning ongli va ichki imidjiga (ideal) erishishdir. Chunki o'z-o'zini takomillashtirish uzluksiz, dialektik rivojlanayotganligi sababli, uning maqsadi, ideal tushunchasi doimo o'zgarib turadi, unga qo'yiladigan talablar doimiy ravishda o'sib boradi.

Mutaxassislarning kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirishi o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita shaklda amalga oshiriladi^

- o'z-o'zini tarbiyalash;
- o'z ustida ishlash

Ular bir-birini to'ldiradi va insonning o'z ustidagi ishining xarakteriga o'zaro ta'sir qiladi. Shu bilan birga, bu ikkita nisbatan mustaqil jarayon bo'lib, ularni tashkil qilish umumiy va maxsus shartlarni talab qiladi.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsning ijobiy xususiyatlarini muntazam ravishda shakllantirish va rivojlantirish hamda salbiy xususiyatlarni yo'q qilish bo'yicha faol, maqsadli faoliyati sifatida ishlaydi. O'z ustida ishlashning asosiy mazmuni esa-kerakli kasbiy malaka darajasiga erishish uchun mutaxassisning mavjud bilim va ko'nikmalarini yangilash va takomillashtirishdir.

Mutaxassis o'z-o'zini takomillashtirishi davomida namunalarga, stereotiplarga, qat'iy chegaralar va ko'rsatmalarga toqat qilmaydigan chuqur samimiy shaxsiy jarayon ekanligini aniq tushunishi kerak.

O'z-o'zini takomillashtirish jarayonining muhim tomoni shaxsning yoshi va ma'lum bir individual xususiyatlariga, egallab turgan lavozimi va kasbiy faoliyat xususiyatiga, jarayonni boshqarish darajasiga va ishlab chiqarish jamoalarida o'zaro talablariga bog'liq. Shu bilan birga, o'zining xilma-xilligi va sub'ektivligi bilan o'z ustida ishlash jarayonida quyidagi asosiy yo'nalishlar tavsiya etiladi:

- Mafkuraviy ishonchni va axloqni rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish;
- kasbiy va tashkiliy fazilatlarni oshirish;
- estetik va jismoniy sifatlarning umumiy texnik, huquqiy va pedagogik madaniyatini shakllantirish;
- doimiy ravishda bilimlarni yangilash va amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish;
- o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini, doimiy o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati rivojlanish uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish;
- o'z xatti-harakatlarini, ehtiyojlari va his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, hissiy-ixtiyoriy o'zini o'zi boshqarish usullarini o'zlashtirish.

Mutaxassislarning kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish jarayonini boshqarishni rivojlantirishning o'ziga xos mantig'iga va nisbatan mustaqil taraqqiyot bosqichlariga ega bo'lgan murakkab funktsional tizim deb hisoblasak, samaraliroq bo'ladi.

Mutaxassislarning o'zini o'zi takomillashtirish jarayoni tarkibiy jihatdan mantiqiy o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta asosiy bosqichlardan iborat:

- ❖ o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini takomillashtirish uchun qaror qabul qilish;
- ❖ o'z-o'zini takomillashtirish dasturini rejalashtirish va ishlab chiqish;
- ❖ o'z ustida ishlashda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun amaliy faoliyatga yo'naltirish;
- ❖ faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarish

O'z-o'zini takomillashtirishning to'rt bosqichidagi vazifalarning o'zaro bog'liqligi va izchil amalga oshirilishi istalgan natijaga olib keladi: mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini takomillashtiradi va uning kasbiy fazilatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, har bir bosqich muayyan vazifalarni, o‘zini-o‘zi boshqarishdagi muammolarni hal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mutaxassislarning kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirishi ularning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish uchun ongli, maqsadli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu kasbiy faoliyat kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim o'ziga xos tarkibiy qism bo‘lib, integratsiyalashgan mazmunli va dinamik jarayonlarning murakkab funktsional tizimi ko'p jihatdan mutaxassislarning kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish motivatsiyasining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi
№ 242-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil
3. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ..diss. –T.: 2007

MUNDARIJA

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna	KIRISH SO’ZI	3
Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich	RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM SHAROITIDA “RAQAMLI KONTENT YARATISH” AMALIYOTI	4
Мамадалиев Абдикамал Абдираҳимович	Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг қизиқишлари, лаёқатига мос касбга йўналтиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш механизмлари	7
Avezova Rohila Ruzimboyevna	INNOVATSIYON MUHITNI RIVOJLANTIRISHDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA RAQAMILI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI	13
Murtazayeva Umida Isakulovna	AKADEMIK VA RAQAMLI SAVODXONLIKNI INTEGRATSIYALASH ORQALI TALABALARNING O‘QUV-TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	17
Sulaymonov Nazar Normurod o’g’li Irisbekova Mavluda Narinbayevna	ENSURING MODERN INFORMATION SECURITY AND PREVENTING INFORMATION RISKS IN OUTSOURCING SERVICES	21
Юсупова Гульчехра Юлдашовна	КРЕАТИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ	24
Saidova Zaxro Rahmatullayevna	MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI	26
Худайберганов Журабек Давлатбоевич	АНАЛИЗ АУДИОСИГНАЛОВ В РЕАЛЬНОМ ВРЕМЕНИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ MATLAB	29
Xudaykulova Shaxnoza Uktamovna	BOSHLANG’ICH TA’LIM FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY SIMULYATOR DASTURLARINING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI	32
Sadullayev Azizbek Nasillo o‘g‘li Ismoilov Ro‘zibek Rajabovich	TEXNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASHNING CAE TIZIMLARIDA DINAMIK TAHLILLAR O‘TKAZISH	36
Xayrullayev A.F Boboyev N.T	PAST KUCHLANISHLI HAVO ELEKTR UZATISH LINIYALARINING SIMSIZ SENSOR TARMOQLAR ASOSIDA MASOFADAN MONITORINGI	39
Abatbaeva Barno	BADIIY GIMNASTIKANI DARSINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43
Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi, Turabekova Dilorom Baxtiyarovna	SUN’IY INTELLEKT, VR VA AR TEXNOLOGIYALAR	47

Abdullayeva Nazokat Isayevna Adilov Damir Suratovich, Borisov Daler Borisovich	MASOFAVIY TA’LIMDA DISKRET TUZILMALAR FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS MUAMMOLARI	50
Abdullayeva M.S.	DIGITAL CURRENCY AND ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN	52
Ahmadjonova Umida Tojimurodovna	TA’LIMDA RAQAMLASHTIRISH: MAVJUD IMKONIYATLARI VA KAMCHILIKLAR	57
Nasriddinova Shaxzoda Maxmudjonovna	ARTIFICIAL INTELLIGENCE VR AND AR TECHNOLOGIES	60
Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna	OPTIK EMISSION SPEKTROMETRIK (ISP-OES) USULIDAGI TAHLIL AFZALLIKLARI	62
Axmedov Bekjan Askarovich	TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	65
Azimova Sayyora Khusanboyevna	METHODS OF TEACHING ENGLISH USING DIGITAL TECHNOLOGIES	68
Bekturdiev Qadirbay Bekbusinovich	UMUMTA`LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING FAOLIYATIDAGI ZAMONAVIY KOMPETENTSIYALARI	70
Boboqulova Xurshida Erkinovna	O’ZBEKISTON TA’LIM ISLOHOTLARI TARIXIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TRANSFORMATSION DAVRI VA ISTIQBOLLARI	74
Muxitdinov X.T	BULUTLI TEXNOLOGIYALAR: ULARNING XUSUSIYATLARI, IMKONIYATLAR VA KAMCHILIKLAR	77
Qaynarova Iqbol Valiyevna Erkaboyeva Durdona Alijon qizi	Kreativ ko'nikmalar va bo'lajak pedagoglarda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish	79
Umarova Fatima Abdurahimovna	TEXNOLOGIYA FANIDAN KIYIMLARNI LOYIHALASH VA MODELLASH KOMPETENTINI RIVOJLANISHDA DASTURIY TA'MINOTNING DIDAKTIK IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH	82
Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevna	TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA “KIYIM TURLARI ASOSIDA YANGI MODELLAR YARATISH” MAVZUSINI O’QITISH METODIKASI	86
Kakharova Shohsanam Nabijon qizi	INGLIZ VA O’ZBEK O’QITUVCHILARI MULOQOT XULQIDA QO’LLANILADIGAN MUROJAAT SHAKLLARINING TA’LIM JARAYONIDA TUTGAN O’RNI	91
Rashidov X.SH, Xandamov Y.X, Inomxo’jayev A.A.	TIMSOLLLARNI TANIB OLISHDA BELGILARNI TANLASHNING FILTIRLASH USULLARI	95
Alisher Mambetnazarov	FIZIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL KOGNITIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH	99

G’oziyev Quyosh Azamatovich	FANLARNI O’QITISH JARAYONIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	102
G‘aniyeva O S. Mazbutova F Sh	AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA RAQAMLI KONTENT YARATISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	107
Qaynarova Iqbol Valiyevna Murodova Gulnora Ergash qizi	SHARQ MUTAFFAKIRLARINING KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLARI	111
Ismoilov Ro‘Zibek Rajabovich Sadullayev Azizbek Nasillo o‘g‘li	ZAMONAVIY ISHLAB CHIQARISH TARMOQLARIDA CAD/CAM/CAE TIZIMLARINING O‘RNI	113
Abidova Kamola Nigmatulla qizi	BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING TINGLASH VA TAHLIL QILISH KO’NIKMALARINI 4K MODELI ASOSIDA NAZARIY BILIMLARINI AMALIYOTGA YO'NALTIRISH	116
Sobirova Asilabonu Aziz qizi	YANGI KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT ASOSI	119
K.K.Kudratov	RAQAMLI TA’LIMDA KOGNITIV KOMPETENSIYANING ASOSIY TURLARI MEZONLARI	120
M.Inoyatova	ADABIY TA’LIMDA ITDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	123
Насирова Шаира Нармурадовна Тиллаев Маъруф Махмуджонович	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМАХ	127
Tuxtamatov Xusan Rixsibayevich	MA’LUMOTLAR BAZASI VA BLOKCHEYN	130
Xoliqulova Aziza Norqo‘chqor qizi	BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	134
Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna	O‘QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	137
Jabbarova H.K. Irgashova S. B.	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’LIMDA QO’LLANILISHI	141
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDA INNOVATSIYALAR	144
Abdulkhay Kosimov Akhadalievich	TRANSFORMING LINGUISTIC HORIZONS: THE IMPACT OF AI ON LANGUAGE LEARNING149	149
Ilhom Dustnazarovich G‘aniyev	MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	152

Usanov Yoqub Dilmurod O'g'li Artikov Farxod Sayfiddinovich	MATEMATIKA FANINI O'RGANISHDA SUNIY INTELEKTLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	155
Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi	METHODOLOGICAL BASIS OF CREATIVE EDUCATION: THEORY AND PRACTICE	157
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	BO'LAJAK MUHANDIS-DASTURCHILARNI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'QITISHNING INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASI	160
Якубова Ноилахон Собиржоновна	КВАНТ АЛГОРИТМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ДИНАМИК ОБЪЕКТЛАРНИ БОШҚАРИШ	164
Xudayberdiyeva Mushtariy	MILLIY XALQ CHOLG'ULARIDA KO'P OVOZLILIKNING O'RNI VA AHAMIYATI	167
Nasirova Shaira Narmuradovna , Khalikov Muhriddin Mardikulovich, Khalikova Adiba Mardikulovna-	EFFECTIVENESS OF USING THE PROJECTED EDUCATIONAL METHOD IN THE EDUCATIONAL PROCESS	172
Nasirova Shaira Narmuradovna, Azimov Umidjon Ismoilovich, Khalikov Muhriddin Mardikulovich	METHODS OF ACHIEVING INCREASING THE EFFICIENCY OF MODULAR TRAINING	175
Niyozov Muhammad Baxronovich, Abdullayev Abbos Botir o'g'li	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YOSH AVLODGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	178
Niyozova Gulnoza Baxtiyor qizi - Guliston davlat pedagogika instituti	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA YOSH AVLODNI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	180
Norov Elnur Islomovich	REAL-TIME VIDEO DATA ANALYSIS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MACHINE LEARNING	183
Nuriddinova Gulshoda O'lmasqulovna	AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	186
Axmedova Mavludaxon Axrorjon qizi	O'QITUVCHI-O'QUVCHI HAMKORLIGINI VUJUDGA KELTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI	189
Otoboyeva Aziza Shakirovna	SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING NUTQNI TANIB OLISHDAGI AHAMIYATI	193
Primova Go'zal G'ulomjonovna	TALABALARDA KASBIY FAOLIYAT UCHUN BILIMGA YO'NALTIRILGAN O'QITISH PARADIGMASI TAHLILI	196

Qarshiboyev Nizomiddin Abdumalik o‘g‘li	TALABALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TARKIBIY KOMPONENTLARI	198
Qarshiboyev Nizomoddin Abdumalik o‘g‘li	PARAMETRLI ALGEBRAGA ASOSLANGAN NOSIMMETRIK ShIFRLASh ALGORITMI VA UNING DASTURI	202
Mallayev O. U, Qodirov R. R.	RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA KREATIV TA’LIMNING O‘RNI VA ROLI	206
R.Q.Mallayev	TA’LIM JARAYONIDA VR (VIRTUAL HAQIQAT) TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	208
Mallayev Oybek Usmankulovich Qodirov Rahimjon Rasuljon o‘g‘li	RAQAMLI INQILOB: YANGI KASBLAR VA KADR TAYYORLASHDAGI MUAMMOLAR	212
Usarova Shoira Ismoiljon qizi	RAQAMLI TEXNALOGIYALAR VOSITASIDA FANLARNI O'QITISHNING INOVATSION METODIKALARI	215
Saydimova Mushtariy Kurbondurdiyevna	RAQAMLI TA’LIM MUXITIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH	220
Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna - Shamsiddinov Dilshod Yusupovich	TA’LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: SUN’IY INTELLEKT, AR VA VR TEXNOLOGIYALARINING HOLATI VA ISTIQBOLLARI	223
Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich	O'QUV JARAYONIDA MULTIMEDIALI ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI YARATISHDA FOYDALANILADIGAN PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR	228
Sultonova Munojat Yunusovna	USING CORPORA DURING LEARNING AND TEACHING FOR PRE-SERVICE TEACHERS	231
Azimqulov Sayxun Niyozali o`g`li	SUN’IY INTELLEKT VA UNING IMKONIYATLARI	234
Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o‘g‘li Nabiyev Iskandar Farxodjon o‘g‘li Nabiyeva Maysaraxon Shuhratjon qizi	SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI	238
Sobir Jumakulovich Yaxyayev	TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASH	239
Tagayev Qoldibek Koldorbek o‘g‘li	INTERAKTIV O‘QITISH METODLARINI VR VA AR TEXNOLOGIYALARI BILAN INTEGRATSIYASI	243
Nasriddinova Shaxzoda Mahmudjanoovna	Talim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy istiqbollari	246

Nasriddinova Shaxzoda Maxmudjanovna	TA’LIM JARAYONIGA RAQAMLI VOSITALAR VA MATERIALLAR YARATISH TEXNOLOGIYALARI	249
Aripov Abdullo Nugmanovich	GLOBALLASHUV SHAROITIDA O’QUVCHILARNI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TAHDIDLARDAN HIMOYALASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN DASTURLAR	252
Xursanova Charos Nazarovna	INTERFAOL METODLAR ORQALI YUQORI SINF O`QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	254
Madjitova Kamola Azlar qizi	BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING KOMPETENTLI YONDARISHI ASOSIDAGI PEDAGOGIK IJODLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	256
Razzoqov Baxtiyor Xabibullayevich	TA’LIM MUASSASALARDA “STEAM” TIZIMINI JORIY ETISH	258
Tojiyeva Go’zal Saodatovna	BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINING NAZARIY ASOSLARI	262
Nimatova Madina Alisher Qizi	MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA ISHBILARMONLIK MULOQOTGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	265
Raximova Nozima G’ayrat qizi Avezova Rohila Ruzimboyevna	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA FANLARNI O’QITISHNING INNOVATSION METODIKASI	267
Ergashev M.U	TECHNOLOGIES FOR CREATING DIGITAL TOOLS AND MATERIALS FOR THE EDUCATIONAL PROCESS	269
Nabijonov Ravshanbek Muxammadjon o‘g‘li Murtazayeva Shaxrizoda	TEXNIK TIZIMLARDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	274
AYUPOV R. H.- PAYAZOV M.M SOBIRJONOV R. A.	TA’LIMDA SUNÍY INTELLEKT, AR VA VR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USLUBIYATI	276
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	TADBIRKORLIK FAOLIYATI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY USLUBIY JIHATLARI	279
Nu’monjonova Malika Nasimjon qizi	UCHINCHI RENESSANSNI BARPO ETISHDA YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI	283
M.Yu.Doshchnova, D.A.Ayupova, R.R.Aliyev	ASPECTS OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION	286
M.Yu.Doshchnova, D.A.Ayupova, D.D. Isoqov	APPLICATION OF END-TO-END TECHNOLOGIES IN EDUCATION	290
Turdiyeva Munisa Mutalovna	KASB-XUNAR MAKTABLARI O‘QITUVCHILARINING O‘QUV JARAYONIDA RAQAMLI	293

	TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHIDA MUAMMO VA YECHIMLAR	
Turkmenova Rukhiye Tokhirovna	THE FUTURE OF DISTANCE AND HYBRID LEARNING USING AI AND VR	297
Umarov Eldor Do‘syarovich Abdiyeva E’zoza Mansur qizi	OLIY TA’LIMDA TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA KOMPITENSIYALARNI VA BILIM KO‘NIKMALARNI OSHIRISH	301
Umarova Fotima Abduraximovna Sharipova Saboxat Maxmaroziq qizi	Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o’qitishning innoatsion metodikalari.	305
Umarova Fotima Abduraximovna To‘xtasinova Shodiyaxon Javlonbek qizi	TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA INNOVATSION METODIKALARI	309
Uralova Iroda Abduvali qizi	TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING ZAMONAVIY ISTIQBOLLARI	315
N.N.Utayeva	RAQAMLI RESURSLAR VOSITASIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KERATIVLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	319
Kholdorova Hilolakhan	ADVANTAGES OF USING ASSOCIATIVE DICTIONARIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS	322
Saidova Zaxro Rahmatullayevna	Dars jarayonida ITni qo‘llash imkoniyatlari	325
Xolmatov Javlon Yusupovich	MANTIQIY SXEMALAR QURISH MAVZUSIDA AMALIY MASHG`ULOTNI O’TISHDA INTERFAOL O‘QITISh METODLARIDAN FOYDALANISH	327
Xolmatov Javlon Yusupovich	BO‘LAJAK AKT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH	332
Yakubova Noilaxon Sobirjonovna, Sodiqova Feruzaxon Botirxon qizi	DINAMIK OBYEKTLARNI TASHXISLASHDA NEYROTARMOQ BOSHQARISH TIZIM ARXITEKTURASINING TAHLILI	334
Yorqulov Hakimbek Otaqulovich	RAQAMLI TA’LIMNING MILLIY INTELLEKTUAL SALOHIYATNI OSHIRISHDAGI IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI	337
Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich Djurabayeva Nasibaxon	SUN’IY INTELLEKT VR VA AR TEXNOLOGIYALAR	341
Mallayev O.U. Yunusova D.A.	THE CHALLENGES ASSOCIATED WITH DIGITAL PROFESSIONS AND THEIR TRAINING	345

Umarova Zaxro Abduraxim qizi	RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORAZMIY TA’LIM MODELINING O‘RNI	349
Abduraxmanov Abduaziz Abdug’afforovich Zokirova Shaxnoza Olimjon qizi	TA’LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING ZAMONAVIY ISTIQBOLLARI	352
Qo‘ng’irotova Anorxol Inoyatovna	RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH (BIOLOGIYA FANI MISOLIDA)	355
Абдуллаева Назокат Исаевна Абдурахимов Давлатжон Фаррухович	АНАЛИЗ СИСТЕМ ОБУЧЕНИЯ НА БАЗЕ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	360
Baxitjanova Eleonora Maxmud qizi	INGLIZ TILINI O’RGATISHDA TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH	363
Boboqulova Nafosat Qaxorovna	ADABIYOT FANINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYALAB O`QITISH METODIKASI	365
Sh. Absalamov	Raqamli ta'lim sharoitida kreativ ta'limning o'rni	368
Urazova Zulfiya Murtazayevna	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK SHAKLLAR TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH	370
Илхом ХОШИМОВ	УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ТАРБИЯЛАШДА ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ МИЛЛИЙ МЕРОСНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	372
Исмаилов Руслан Зодиевич	ИНТЕГРАЦИЯ РОБОТОТЕХНИКИ И ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ (VR) В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ	377
Назаров Илхомжон Усманалиевич	ИНФОРМАТЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ	383
Мирзарахимов Мирзарахим Аминжон угли	Искусственный интеллект в образовании: революция в обучении с помощью ИИ-инструментов	387
Karimov.T.X	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ	390
Karimov.T.X	USE OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION	395
Qalandarov Habib Kamilovich	TA’LIMDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATI	399
Islomova Muxlisa Zafar qizi, Nasirova Shaira Narmuradovna	OLIY TA’LIM TIZIMIDA O‘QUV JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	402

Насирова Наргиза Шарофдиновна	ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ	409
М.Х.Лутфиллаев, Лутфиллаев у.М, Хасанов Ш.М.	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ФАОЛИЯТИДА СУНИЙ ИНТЕЛЕКТ ЯРАТИШНИНГ МАҚСАД Ва ВАЗИФАЛАРИ	411
Саматов Х.У	РАҚАМЛИ АСРДА УСТОЗ ВА ТАЛАБА ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР	420
Жаббарова Хабиба Кувандиковна	РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ ЗАМОНАВИЙ ИСТИҚБОЛЛАРИ	424
Bakieva Fotima Raxmatullaevna	TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR	429
Нодира Намозовна Садуллаева	ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ОҒЗАКИ НУТҚ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	433
Ирода Валиевна	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МАТЕМАТИКЕ	437
Ганиев Маруфжон Мухаммаджонович	СЛАДКИЕ СЛОВА ДОКТОРА	440
Назарова Нодира Козимжон қизи	ТЕХНОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ	443
Toshtemirov Doniyor Eshbayevich	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QUV JARAYONINI AXBOROTLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	448
Umarov Abdurasul Abduraximovich	Texnika fanlari uchun didaktik materiallarni ishlab chiqishda KOMPAS-3D dasturiy majmuasini qo'llash	451
Usmanova Gulnara Baxadirovna, O‘roqboyeva Dinora Faxriddin qizi	TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	455
Калилаев Даулетияр Бахтиярович	ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ: ПРЕИМУЩЕСТВА И ВЫЗОВЫ	459
Насриддинова Шахзода Махмуджоновна	ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	461
Shermuxamedov Raxmatulla Sadikovich	DEVELOPING PROGRAMMING AND MENTAL COMPETENCE OF FUTURE	464
Muxiyatdinova Aynura Muratdinovna	ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA’LIM JARAYONIGA JORIY ETISHNING ZARURATI	470
Bekchonova Shoira Bazarbayevna Saidova Zahro Rahmatullayevna	TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING ZAMONAVIY ISTIQBOLLARI	473

Bekchonova Shoira Bazarbayevna	TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI VOSITALAR VA MATERIALLAR YARATISH TEXNOLOGIYALARI	476
Sh.B.Bekchonova M.E.Inoyatova	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA 5-6 SINFLARDA ADABIYOT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION METODIKALAR	480
Umarova Zaxro Abduraxim qizi, Rustamova Mavjuda Ismadiyor qizi	SUN'IY INTELLEKT, VR VA AR TEXNOLOGIYALAR	483
Хусан Абдурахимович Умаров	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЫСШЕГО ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ВАЖНОСТЬ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА	487
Ismoilov A.A.	ADAPTIV TA'LIM – OLIY TA'LIMDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHNING INNOVATSION MODELI SIFATIDA	491
Хамидуллаева Гаухар Атаниязовна	НЕТРАДИЦИОННЫЕ УРОКИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО	493
Кононова И.Ю.	ЭЛЕКТРОННЫЕ СЛОВАРИ	498
Наркузиева Гульнора Зиядуллаевна	МЕСТО ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ СРЕДИ ОБУЧАЮЩИХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	501
Nursulton Shayxislamov	O'ZBEK VA QOZOQ TILLARIDA AFFIKSIAL BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	504
Karimov Xurshidbek Maxammadjonovich	O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIMDA FAN OLIMPIADASINI O'TKAZISHNING HUQUQIY ASOSLARI	509
Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna	TARBIYAVIY MASHG'ULOTLARDA SENSOR INTEGRATSIYA ASOSIDA O'QUVCHILARNING O'QUV-AMALIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	514
Olloqulov Ma'rufjon Bahromjon o'g'li	UY TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-ME'YORIY VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: SUBYEKTLAR HAMKORLIGI VA MEXANIZMLAR TA SNIFI	519
Perdeshova Nargiza Yesenbayevna	ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	526
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	OLIY TA'LIM MUASSASSALARIDA TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA OID KASBIY KOMPETENSIYASINI	532

	RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	
Mavlanova Saidaxon Umarovna	MUTAXASSISNING KASBIY O'Z-O'ZINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	537